


MIRAZIZ A'ZAM

□ □ □ □ □

**KUZGI YAPROQLAR**



# MIRAZIZ A'ZAM

## KUZGI YAPROQLAR

DEVON



### Tarjimalar:

- Farididdin Attor
- Nizomiy Ganjaviy
- Jaloliddin Rumiy
- Abdurahmon Jomiy

**G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2010**

**Taqrizchilar:**

*Ibrohim Haqqul – filologiya fanlari doktori,*

*Safo Matchonov – filologiya fanlari doktori*

*So'ngso'z muallifi O'zbekiston Qahramoni **Erkin Vohidov***

A 4702620202-54 – 2010  
M 352(04)-2010

© Miraziz A'zam.  
G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2010-y.

ISBN-978-9943-03-289-7

## **BOSHLAMA**

Dunyodagi barcha jonlilarga yaxshilik qilishni buyurgan, ularni ayashni o'rgatgan, yetuk insonlarni chek-chegarasiz lutf, ehson, hidoyat, baxt, yaxshi yashashga kerakli bo'lgan narsalar bilan siylagan, tartib va adolat egasi – Rahmon hamda Rahim nomi bilan bu ishni boshladim.

Avvalo shukr va maqtovlarim buyuk va qodir Tangrigaki, U biz, bandalarni chiroqli va kamchiliksiz qilib yaratdi, boshqa yaratiqlardan farqli qilib so'zlay oladigan qildi. So'zlay oladiganlar ichida bir qanchasini she'r ayta oladigan qildi. Iboralar javohirlarini nazm iplariga terish qobiliyatini, nazm ichida yetuklik intizomini berdi. She'rni hikmat va sehr nazokati bilan qurollantirishni o'rgatdi.

Shuningdek, Payg'ambarimizning ustiga Buyuk Tangrining salom va sharaflari yog'ilsinki, bizga qanday yashash kerakligini amalda ko'rsatdi, adolat bayrog'ini ko'tarish namunasini meros qilib qoldirdi.

Yana bir yurak quvonchimizning bayoni uldirki, taqdir bizga qullikdan, asoratdan qutulish, ozod yashash, o'z uyimiz, yurtimizni o'z qo'limiz bilan ko'tarish chog'larini ko'rishni ato etdi. Va ko'rmoqdamiz.

Faqat endi ishslash bizdan, bizdan...

Men she'r yozish uchun ilk bor qo'lga qalam olganimda 6-sinfda o'qir edim. Maktabda adabiyot to'garagiga qatnab, murabbiyning maslahati bilan, bahor va may oyi haqida bir nimalar deganday bo'lib devoriy gazetaga bergandim. Ammo keyin o'zga maktabga o'tib, boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lib ketdim. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qirkaman, yana yoza boshladim. Ammo odam yozganlarini

matbuotda chiqarishi kerak, degan tushuncham yo‘q edi. Nazarimda faqat mashhur shoirlargina she’rlarini chiqarardi va matbuot eng oliv, muqaddas bir dargoh edi. Ammo adabiyot va adabiy hayotga qiziqishim katta edi. Yodimda qolgan bir lavha:

1954-yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining III syezdida Abdulla Qahhor ma’ruza qilib, jumladan, aruz vazni haqida ham to‘xtaldi. Uning fikricha, aruz o‘zbek tili va o‘zbek she’riyati uchungina emas, butun turkiy adabiyot uchun yot bir soha ekan. Aruzda sof turk tilida she’r yozishning iloji yo‘q, dedi notiq va g‘azal yozgan shoirlarning satrlaridan til buzilishiga oid bir qancha misollar keltirdi. Atoqli shoir G‘afur G‘ulom esa unga javoban aruzchi shoirlarning misralaridagi til buzilishi hollari ularning uquvsizliklari tufayli yuz bergani, aslida bizning tilimizda ham yaxshi aruz asarlari yaratish mumkinligi, buni buyuk shoirimiz Alisher Navoiy besh yuz yil burun isbotlab qo‘yganini aytdi, Otoy, Lutfiy, Furqat, Zavqiy, Muqimiyning ijod namunalarini tilga oldi va «mening do‘stim Mirzo Tursunzoda yuksak aruz nusxalarini yaratgan bo‘lsa, nega biz yozolmas ekanmiz?» dedi. Oradan o‘n yil o‘tgandan keyin Afg‘onistonga borgan G‘afur G‘ulom aruzda «Alisher Navoiy qabri ustida» nomli o‘ziga xos bir muxammas yozdi. Muxammasning birinchi bandi:

*Dilim ravshanligin hissim yo‘lida oftob aylab,  
Mazoring boshida ta’zim ila turmakdadurman sarhisob aylab,  
Qulog‘ing so‘z eshitmas bo‘lsa ham qalbdan xitob aylab,  
Vatandoshlar salomin necha jildli bir kitob aylab  
Navoiy deb Musalloga kelibman intixob aylab.*

Bandda aruzga to‘la rioya qilinmaganligi ikkinchi misraning bahrdan toshib ketganligida ko‘rinsa, til (lug‘at) buzilishi «mozor» so‘zining «mazor» tarzi ishlatalishida ko‘zga tashlanadi, «intixob aylab» (tanlab) kabi hozirgi tilda eskirib, tushunilmas holga kelgan birikmaning qo‘llanilishi aruz talabi

bilan bog'liqdir. Yoshlar bilan suhbatlaridan birida «sizlar aruzda bemałol shunday yozaveringlar» degan edi atoqli shoirimiz.

Maqsad bu she'rni tadqiq qilish emas, Abdulla Qahhorning fikri borasidadir. Chindan ham aruzda bir qadar o'zgarishlar qilish va shu orqali an'anani davom ettirish kerak deb o'yayman.

Bunday isloh ehtiyojlari hamma xalqlarda ham bo'lgan. Ovrupo xalqlari antik davr she'riyati, jumladan, Homer, Ovidiy, Vergiliy yo'lida ya'ni gekzametr bilan yangi asarlar yozishgan. Gekzametr qaysidir bir jihatlari bilan aruzga o'xshab ketadi. Olti hijoli turoq ichida bir uzun bo'g'in va ikki qisqa bo'g'inli lirik satrlar bilan yoziladi. Ulug' olmon shoiri Gyote o'zining «German va Doroteya» dostonini o'zicha shu yo'lda yozib, atoqli lotinshunos olim Fossga yuborgan va undan noto'g'ri gekzametrlari tagiga chizib berishni so'ragan. Foss unga, «afsuski, hammasining tagiga chizishga majbur bo'ldim», deb javob bergan ekan. Holbuki, atoqli olmon tanqidchisi Fridrix Shlegel Gyotening she'riy asarlari ichida «German va Doroteya»ni eng otashin, sodda va pok asar deb hisoblagan. Tomas Mann o'zining «Farzand haqida qo'shiq» dostonini ham gekzametr bilan yozgani haqida so'ylarkan, bu yerda gap gekzametrga to'la amal qilingan-qilinmaganligida emas, men uchun muhimi gekzametr ruhini saqlash bo'lgan, deb yozadi.

Aruzda ham shu hol kuzatiladi.

Turk olimi Mehmet Chovusho'g'li «Devon she'ri» maqolasida shunday xulosaga kelgan edi: «Devon she'rining ma'lum bir shartlari, chegaralari bor edi, tili va unga bog'liq bo'lgan estetik nizomlari o'zgarmasa, yangi she'r qoidalari qarshisida dosh berib turolmasdi. O'zgarishlarga uchrab vujudga kelgan she'rni esa devon she'ri deb bo'lmas edi». Boshqa bir adabiyotshunos Ismoil Porlatir esa aruzdag'i o'zgarishlar qanday boshlanganini Shinosiy, Ziyo Posho, Nomiq Kamol misolida tadqiq etib yozadi: «Shinosiy, yangi she'r tili bilan, eski she'rning xayol dunyosini sindirish bilan,

hikoyat tarzini yangi jonli tilni oldinga chiqarib o'zgartirish bilan Ziyo Posho va Nomiq Kamolga yo'l ochdi, tilni zamonga moslash ishining boshlovchisi bo'ldi».

Menimcha bizda ham aruzda shunday yo'naliislarga suyanishga ehtiyoj bor.

«Muhokamat-ul-lug'atayn»da turkiy tilning benihoya ulug'ligini, go'zalligini ko'rsatib bergan ulug' shoirimiz Alisher Navoiy o'z amaliy ijodiyotida deyarli qirq foizga borib qoladigan darajada fors va arab so'zlarini ishlatgan. Buning sababini tushunish qiyin emas: buyuk insonparvar shoirimiz fors va arab so'zlarini olib kirish orqali, birinchidan, tilimizni boshqa milliy tillar hisobiga boyitishni, ikkinchidan, uchchala tilni bir-biriga yaqinlashtirish, bir-birini oson tushunadigan holga olib kelish uchun chinakam ixlos bilan harakat qilgan.

Ammo tillarning taraqqiyot qonunlari, hatto genial shoir bo'lsa ham, bitta shaxsning yoki davlatning xohishi bilan hisoblashmas ekan. Har bir til o'z yo'lida, o'z qonuniyatları asosida rivojlanib borarkan. Buyuk Alisher Navoiyning ilohiy istagi amalga oshmay qolgani, aksincha, uning o'z ijodiyoti ham xalqqa to'la-to'kis yetib bormaydigan holdaligi odamga alam qiladi.

Navoiyni endilikda arab va fors tillarini chuqur o'zlash-tirgan va ma'naviy-diniy adabiyotni juda yaxshi biluvchi kishilargina to'la-to'kis anglash baxtiga egadirlar. Bundaylar esa ozchilikni tashkil qiladi. Aruzning shaklini saqlash uchun she'rni millat tushunmaydigan so'zlar doirasida taqdim etish, xalqni ma'no go'zalligidan chetda qoldirish chindan ham juda alamli bir holdir.

Men o'zbek tilimizning o'z boyligi va tabiatini ko'zdan qochirmay, aruzning milliy tilga salbiy ta'sirini kuchdan qoldirish maqsadida uzun-qisqa tovushlar, uzun-qisqa bo'g'inlariga to'la amal qilmadim, arabiylar va forsiy so'zlardan va jumlalaridan imkon qadar qochindim, ularni ishlatishga zo'rlangan paytlarimda ularning muqobilini baytning ichidayoq yoki she'r davomida berishga harakat qildim.

Ma'lumki, tilimizda cho'zib aytiluvchi urg'u faqat so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo fors va arab lug'atidan foydalanilsa, bu talab o'z-o'zidan yo'qoladi. Masala shundayki, yo so'zni o'zga tillardan olasan va seni xalqing tushunmaydi (demak, o'qimay qo'yaqoladi), yoki o'z tiling, o'z so'z boyligingdan foydalanasan, millat seni tushunadi, ammo aruz qandaydir bir darajada yutqaziqqa yuz tutadi.

U holda men nima uchun aruz maydoniga keldim? Buning ikki sababi bor: birinchidan, aruz so'zning, iboraning, jumlaning musiqiyligini oshiradi, she'rning o'qilishi, tinglanishini qulaylashtiradi, osonlashtiradi (albatta, bu xususiyat barmoq vaznida ham, erkin vaznda ham bor), agar sen intizomga to'la rioya qilsang, birdan o'zingni musiqa olamida ko'rasan. Ikkinchidan, aruzda, masalan, g'azalda tanlagan qofiyang kamida yettita bo'lmog'i kerak va sen she'r yozmayotgan paytingda, oddiy kitobxonlik chog'laringda ham qofiyadosh so'zlarga e'tibor berib, aqlingda va qalbingda ularni qayd qilib borasan, yangi qofiyalar yaratishga intilasan, so'zga e'tiboring kuchayadi, istaysanmi-istamaysanmi, so'z boyliging ortadi.

To'g'ri, XIX–XX asrlarda jahon she'riyatida qofiyaga e'tibor pasaydi. Har bir satrning obrazliligi, hayotiyligi, kayfiyatni ifodalashi, istiorali ma'nolari bilan erkin vaznli she'rlar birinchi o'ringa chiqdi.

Bir kuni turk shoiri Nozim Hikmat bilan rus shoiri Nikolay Glazkov she'r qofiyali bo'lishi kerakmi, qofiyasizmi degan masala ustida qattiq bahslashishdi. Rus shoiri qofiyasiz she'r she'r emas desa, turk shoiri, bilasizmi, qofiyali she'r achchiq rediskaday jonimga tegdi, meni qurilishi murakkabroq, odamning qalb urishini aniq ifodalaydigan oq she'rlar qiziqtiradi, dedi. Yarim kechagacha bahslashib oxiri har kim o'z fikrida qolgancha tarqalishdi. Ammo ertasiga ertalab Glazkov yana Nozim Hikmatning oldiga kira solib:

– Qofiyasiz she'rning sochsiz ayoldan farqi yo'q, – deb baqirdi.

Nozim Hikmat esa o‘rnidan sakrab turib:


– Boshdan-oyoq hamma yog‘i sochli ayolni tasavvur qila olasanmi? – deb qichqirdi.

Men jahon she’riyatidagi bunday jarayonlarni yodda tutgan holda, bu devonni tayyorlashda imkon qadar siyqa qofiyalardan qochib, o‘z tilimizda aruzni buzmaslikka harakat qildim, ammo ba’zan til tabiatini, so‘zning imloviy yozilish qoidasini saqlab qolish uchun bundan ko‘z yumishimga to‘g‘ri keldi va aruz buzildi. So‘ngra men ko‘proq xalq qo‘sinqalarimizga xos yo‘lda yetti, to‘qqiz, o‘n bir va o‘n to‘rt bo‘g‘inli bahrarda yozdim. Og‘zaki xalq iboralariga suyandim. Qanchalik yutdim-u qanchalik yutqazdim, buni bilmayman, so‘nggi hukm o‘quvchilarga havola.

**MIRAZIZ A’ZAM**

*2008, noyabr.*

# Devon



# G‘AZALLAR



**«Alif» (o, a) tovshin to‘g‘rilikdan to‘xtatma!**

—

**1 (1)**

Ey, Rahim-Rahmon, sening noming bilan etdim nido,  
Sen unga ma’ni ato et, yangrasin sirli sado.

Yo‘q edim olamda mutloq, sen axir bor aylading,  
Tan berib ham bosh berib, boshga fikr etding ato.

Ham nasib etding baland ruh kirlanib qolmaydigan,  
Unga yot kibru havo ham haqni anglash muddao.

Xoliqim! Sen qo‘llasang, hech menga bo‘lmas mushkulot,  
Har buyurgan buyrug‘ingni jon bila qilgum ado.

Ber so‘zingdan, ber kuyingdan, ta’siru jilvangdanam,  
O‘ngla, Olloh, bandalikda bordi-yu qilsam xato.

Ranju mehnat ortsa ortsin, yo‘q, zaiflik ortmasin,  
Kuch ato etki hamisha, tarqatay yangi navo.

Lekin o‘lmaslikni so‘rma, ishla xolis, Miraziz,  
Mangulikni tama qilma, Hayy erur yolg‘iz Xudo.

## 2 (2)

Yaralgandan buyon inson boshi kulfatda bir dunyo,  
Qutulmas hech balolardan, qolar ofatda bir dunyo.

Kelib ketdi necha podshoh, necha olim, valiyalar ham,  
Payg'ambarlar keldi, ammo g'am qoldi navbatda bir dunyo.

Muhammad keldi olamga, ko'rib ochlik va qullikni  
Kun kechirdi sabr birla ham qanoatda bir dunyo.

Ko'rди zo'rlik va tengsizlik, haqsizlik olamin ko'rди,  
Kamolotga yetdi oxir bo'lib toatda bir dunyo.

Muruvvat, shafqat, saxovat neligin bildi, bildirdi,  
Ma'rifat va ilm-fan deb bo'ldi riyozatda bir dunyo.

Yomonlikdan qaytarib u, yaxshilikka undadi xalqni,  
Shayton-u shumlargacha qarshi bo'ldi siyosatda bir dunyo.

Miraziz A'zam uningdek mutafakkir ko'rmamish hech bir,  
Uzoq ta'lrim olib undan bo'ldi hidoyatda bir dunyo.

## 3 (3)

Marhabo, keldingmi, jonim, marhabo,  
Hurligim, erkin jahonim, marhabo.

Ey, asrlab kutganim ma'yusginam,  
Dildagi dardi nihonim, marhabo.

Yig'lama, bas, jon suving qaytib kelar,  
Ey, Orolim, za'faronim, marhabo.

Endi yotma, o'lмаган jonim elim,  
Silkin ey, umri xazonim, marhabo.

Kul, ochil, endi boqar senga zamon,  
Iste'dodi sernishonim, marhabo.

Endi tortiq o'z bolangga boyliging,  
Jannatim, oltin makonim, marhabo.

Ey, kecha qonga belangan Shoshginam,  
Mardi mardon qahramonim, marhabo.

Ey, Buxoro, Xorazm, Xevam manim,  
Nomus-u orim, imonim, marhabo.

Ey, Samarqandim manim, shonim manim,  
Tuproq uzra kakhashonim, marhabo.

Ganjlaringni endi ketmaslar tashib,  
Tur, Zarafshon, Gazli konim, marhabo.

Tur, muhandis, tikla, me'mor, obidang,  
Sizga ilhaq xonumonim, marhabo.

Qutlug' o'lsun «Neksiya», «Tiko»laring,  
O'z ulovli Andijonim, marhabo.

Marhabo, qutlug' zamonim, marhabo,  
Marhabo, ruhi ravonim, marhabo.

Inshooloh, hur yasharsan, Miraziz,  
Hur bo'lar mangu Turonim, marhabo.

#### 4 (4)

Ko'rdimu bu ko'rganim bo'ldi balo,  
Ko'rganim shu dardga etdi mubtalo.

Ko'rmasam bo'lgay edi, ey voh onam,  
Tanni titratmakda bu dard bedavo.

Bu ne dard, anglat onam, jonim onam  
Bu vujuddan tinchligim bo'ldi jalo.

Sel bo'lib oqmoqda ko'zdan yoshlarim,  
Ollohdan imdod so'ra, aylab duo.

Ishqning savdosi shundoq derdilar,  
Ishqu halokat birmasmi mabodo?

Yoki ishq shodliklari oldindami?  
Hammasi afsonami, xulyomi yo?

Miraziz A'zamga ko'rsatgin uni,  
Men, axir, bandangman-u, qodir Xudo!

### 5 (5)

Qaydanam keldi, eshitdim – ko'nglimi buzdi navo,  
Kelmasa bo'lmasmi erdi – qay hukm bo'ldi ado?

To'rt tarafda rang-barang gullar tarardi atrini,  
Ko'nglim osmonini to'ldirdi bir ezgin havo.

Bu havo birla navoda keldi o'tmish qoshima,  
Esga soldi ko'p xatarli kunlarimni bedavo.

Birgina shu yodga kelgan chog'larim bois bo'lib  
Orziqib tushdi yurak, bu ne balodir, ey Xudo?!

Men o'shanda anglagandim sevgimin cheksizligin,  
Sig'mas erdi qirg'og'i yo'q bu dengiz ko'ksim aro.

Tashna bo'lgandim uning ham ishqiga men ul zamon,  
Bir alahlash singari bu hodisot erdi xato.

Chunki avval rozi bo'ldi, va'dalar berdi, keyin  
Borlig'imni majruh aylab o'zgaga bo'ldi ravo.

Balki men-da, o'z-o'zimdan o'tganin ham payqamay,  
Ozmi-ko'pmi unga ozor yoki bergenman jafo...

Miraziz birda o'zingni, birda ayblaysan uni,  
Eh sening ruhing zaifroq, ming dardga doim mubtalo.

## 6 (6)

Hasratim oshganda, evoh, qadrdon ulfatim anqo,  
Ko'zimni yashnatib yurgan, kelishgan sumbatim anqo.

Kishilar bor qochar haryon huzuriga odam kelsa,  
Va lekin menda aksincha, mening hamsuhbatim anqo.

Xayolimda charx urar goh ajib noyob go'zal o'ylar,  
Qog'ozga bir to'kay deyman, qadimgi shiddatim anqo.

Choparman ba'zi bir chog'lar kerak yo nokerak joyga,  
Charchog'im ortar banogoh, belimda quvvatim anqo.

Ajib bir paytlarim keldi: bular oddiy haqiqatday,  
Aytsam-u aytmasam birday, ichimda hayratim anqo.

Ochildasturxonmisanki, ko'p sochilma, Miraziz A'zam,  
Bo'lmasin bir kun-biriskun tabarruk hasratim anqo.

## 7 (7)

Balanddan boqmagin manga, senam kimsan ayon manga,  
Nazm mulkida man farrosh, senam sulton emas anga.

Ayon kimga qarab yotding, kimi birla namak totding,  
Qachon kimga kimi sotding, qachon urding qo'ling zangga.

Bu daftarni ochib bo'lmas, siring yovga sochib bo'lmas,  
Vale, undan qochib bo'lmas, ayon barin tushunganga.

Mani sanda ishim yo'qdir, xusumatli nishim yo'qdir,  
Xavotir olmayin uxla, xabar topmas mandan yanga.

Man ersa, man...yovim boshqa, elim rizqiga ko'z tikkan,  
Yerimni toptagan kaslar ila kirgum faqat jangga.

San bir shumroq bolamdaysan,

maning og'riq yaramdaysan,

Ketib ko'ngling amallarga, o'ynading turli ohangga.

Bu kun bo'ldim deya sardor, haromdan ham chekilmassan,  
Harom luqma, kibr-havo halokat keltirar sanga.

Bu so'zni Miraziz A'zam deyarkan, sen yuzing burma,  
Yo'qotma el aro qadring, yo'qotgandek kuchin tanga.

### **8 (8)**

Taning oqdir, gumanim yo'q, bu oqtanni yashir ammo,  
Ehtimol, ko'zga quvonch bu, bo'lolmas hech bashir ammo.

Quyonning oqligi tashda, odamning oqligi ichda,  
Agar oq tan ochiq bo'lsa, qazo qalbga tashir ammo.

Mening-ku hech ko'zim yo'q begona oqtanli qizlarda,  
Gahi tortmoq uchun ko'zni ular ko'ksin qashir ammo.

Nechuk inkor etayki man, ochar goh oq tanin qizlar  
Boobro' katta zallarda bo'lar qiy-chuv, hashr ammo.

Miraziz-ku sevar oqni pardali va nihon bo'lsa,  
Uyatli, iffatli qizlardan qiloldi oz nashr ammo.

### **9 (9)**

Xayolimda yurar bir o'y: shifo bormi munofiqqa,  
Asl yo'lni surat etgan sado bormi munofiqqa?

Haqiqatga ishontirgan ota birla ona bormi,  
Hukm yoki ilm ahli – daho bormi munofiqqa?

Nechun bitmas ajib zumra – so'zi boshqa, ishi boshqa,  
Nahot hech bir iloji yo'q, davo yo'qmi munofiqqa?

Bu qandoq bir sinoatkim, munofiq aysh surar doim,  
Jamoatda, jamiyatda baho bormi munofiqqa?

Vatan bormi, ulus bormi, muqaddas bir xayol bormi,  
Ayo taqdir, zaxirangda hayo bormi munofiqqa?

Dema sen, Miraziz A'zam, zulm ko'rdim munofiqdan,  
U dunyo-yu bu dunyoda xudo bormi munofiqqa?

## 10 (10)

Balki bu tadbiri Haqdir, o't yonar chog'dir yana,  
Balki bu ochgay ko'zimni, o'yla sabog'dir yana.

Keng samodan tor tuzoqqa qush kelib urgay o'zin,  
Balki bu ohanrabo ham menga tuzog'dir yana.

Yozmishimga Haq buni yozgan esa, yo'qdir iloj,  
Mayli, ne qilsang, boshimni yergacha og'dir yana.

Mayli, sen qatlimni istab rejalar tuzgil, pari,  
Roziman men, bir boshimga ming balo yog'dir yana.

Men o'zim ham jonidan to'ygan yigitman, besabr,  
Bu muhabbat zil va zambil, jismima tog'dir yana.

Ikki nargising xayoli parmalar jonim ichin,  
Endi bitdi jon degandim, vo ajab, sog'dir yana.

Aytsalarki: Miraziz A'zamni topdi deb fano,  
Bir kulib tegringga boqqil, har taraf bog'dir yana.



**«Be» (b) tovshining belini baqvat qil!**



**11 (1)**

Rahimsan-ku, rahm ayla, gunohkor aylama, yo Rabb!  
Afv et, ko'p xato qildim, makonim tor aylama, yo Rabb!

O'yin-kulguga vaqt berdim, – adashganman, uloqqanman, –  
Lainni bartaraf ayla, mani xor aylama, yo Rabb!

Bilolmasman haqiqatni, riyokor ko'p boshim uzra,  
Na etsang et mani, ammo riyokor aylama, yo Rabb!

Yurak qonli yaro bo'ldi, butun telegram qaro bo'ldi,  
O'zing bergen ko'zim-ku bu, ziyoga zor aylama, yo Rabb!

Hayot otlig' libosimda uyatli dog'larim ko'pdir,  
Bu dunyo-yu u dunyoda oshkor aylama, yo Rabb!

Cherik bosgan, qamal o'lg'an, xarob o'lg'an shahar yanglig'  
Tan-u jonimni to'zg'itma, tor-mor aylama, yo Rabb!

O'zing taqvim yaratgansan mukammal, ustuvor aylab,  
Miraziz A'zamni endi bebahor aylama, yo Rabb!

**12 (2)**

Olloh, o'zing asragin, chayonsiz bo'lzin mehrob,  
Har bir boshliqqa kuch ber, imonli bo'lzin arbob.

O'zing bergan erk yo'lin o'zing asra salomat,  
Lutf ayla so'ngigacha, charaqlab tursin oftob.

O'zing yaxshi bilasan, arang keldik bu kunga,  
Milyonlab berdik qurban, tinimsiz yutdik zardob.

Boshdan to oyoqqacha toptalganmiz zulmdan,  
Har bir qiltomirimiz ingrar chertganday mizrob.

Ne-ne adib, arboblar boshlaridan yedi o'q,  
Biri uchdi bo'ronda, birini yutdi girdob.

Talandi xazinamiz, tashildi aslahamiz,  
Qo'llarda qurol tugul qolmadni oddiy asbob.

Odamlar, asrang endi bu kungi qutlug' erkni,  
Yo Haq, yorug'lik yuzin ortiq to'smasin hijob.

Miraziz A'zamingning ko'nglida umidi ko'p,  
Kechirgil shoiringni, mana, so'z bo'ldi sanjob.

**13 (3)**

Ey gado dil, joni yo'qdan qon tilarsan, vo ajab,  
Kimdaki imkoni yo'q, imkon tilarsan, vo ajab.

O'ylamassan: bu tilanchi, bu gadolik ayt, nadir!  
Har chiroyli, har go'zaldan non tilarsan, vo ajab.

Ul chiroyli nozaninning o'zga rabbi, yori bor,  
Qay asosda ahd ila paymon tilarsan, vo ajab?!

Bu bashar avlodi ichra hamma ham inson debon  
Na sanog‘-u sonda bordan son tilarsan, vo ajab.

Mansab ahlida – xayolingda – adolat barqaror,  
Kimniki vijdoni yo‘q, vijdon tilarsan, vo ajab.

Miraziz A’zam, bugun ko‘rdingmi sen bosqinchini?  
Ori yo‘q bir besharafdan shon tilarsan, vo ajab,

#### 14 (4)

Ko‘chalarda havochalar kezar Havo bo‘laman deb,  
Agar dardli bo‘lsa Odam, o‘zim davo bo‘laman deb.

Men Odamning qoburg‘asi, ya’ni uning bir qismiman,  
Demak, unga faqat o‘zim, o‘zim ravo bo‘laman deb.

Voh, jannatdan quvildim, deb bo‘g‘ilmasin aslo Odam,  
Yerda havo yetishmasa, o‘zim havo bo‘laman deb.

Yana tag‘in: qani manzil, qani chaman, qani bog‘, deb,  
Zarracha qilmasin parvo, o‘zim ma’vo bo‘laman deb.

Hayotini og‘ir-yengil, xushbaxt-badbaxt qilguvchi – man,  
Kerak bo‘lsa bor umrini o‘zim navo qilaman deb.

Havochalar izg‘ishadi shaharlarda intiq bo‘lib,  
Odam bo‘lsa – yetar, o‘zim Momo Havo bo‘laman deb.

Havochalar holin ko‘rib jilmayar Miraziz A’zam:  
Hammasini yaxshi ko‘rar o‘zim tag‘o bo‘laman deb.

#### 15 (5)

Seni ayblab kuladilar biti to‘kilib,  
Sen e’tiroz bildirmaysan yerga tikilib.

Xuddi chindan aybdor kabi sukut saqlaysan,  
Tomog'ingga kelsa hamki so'zlar tiqilib.

Sukunatning nimasi bor, sevimlimi ul,  
Sevgan yoring sevarmi yo tursang egilib?

Gapirsang-chi, nima uchun aytmaysan javob,  
Qora qonga belansa ham bag'ring so'kilib?!

Bir qarshilik urug'idir sukut ham, to'g'ri,  
Dur yoshlaring tuproqlarda qolgay ekilib..

Lek, unutma, bolalaring bo'g'zidan o'tmas  
Sen noningni topsang agar, yetti bukilib.

## 16 (6)

Har baloda bir sabab bor, hech balo yo'q besabab,  
Cho'ng gunohli bo'lsa kim, unga falokat berdi Rabb.

Son suyaging bo'yinchasi sinib, seni etdi holsiz,  
Jazomi bu, taqdirmi deb sen javob qilma talab.

Bir muallim ta'na birla ayta qoldi bir o'git:  
«To'rt farishta to'rt yog'ingda holingga yurgay qarab.

Sen agar shar'iy hayotdan chetga chiqsang hirs ila,  
Soqchilik qilmay qochar old farishtang qaltirab.

Shunda balki sirg'anarsan, yo qularsan chayqalib,  
Bir himoyang bo'lmagach, sinsa oyog'ing ne ajab?»

Sen deding: «Yo'q, g'ayri shar'iy bosmadim , ustoz, qadam,  
Qalbni yondirmang dalilsiz, ayb yukin qo'ymang qalab.

Men asr chog'i bozorchilar qatorida shoshib  
Olddan ermas, orqadan o'tdim yo'limni qisqalab.

Sakradim pastga zinadan. Ul zina qirrasida  
Bor ekan sim, shim pochamdan ildi, yiqildim shappalab.

Shu mening bor-yo'q gunohim. Ayb esa shu, haqlisiz.»  
«Yo sotuvchi qarg'agan, sinsin oyog'ing, deb tilab,

Yoki boshqa bir yoving bor, muttasil qarg'ar seni,  
Ko'rк ilа o'tsang kerak ko'z o'ngidan o'n martalab.»

«Balki...» deb egdim boshimni, chunki taxmin jonlidir.  
Mirazizni bu hasaddan, bu balodan asra, Rabb.

### 17 (7)

O'tdi jayronlar bu tog'lardan uchib,  
Ko'zlarimga akslari qoldi ko'chib.

Qayga ketdi, qaydadir maskunlari?  
Bo'ldi g'oyib lahzada soylar kechib.

Anglamam, qanday qilib shahlolari  
Ketdi qalbimda jarohatlar ochib.

Bul vafosiz qo'l-oyoqqa qasdma-qasd  
Ortidan chopgim kelar jondan kechib.

Miraziz, yoshing ulug', endi senga  
Hech nasib bo'lmas yurish jayron quchib.

### 18 (8)

Sen nechun tentib yuribsan qismat cho'lida, ne sabab?  
O'ynalishga rozi bo'lding taqdir qo'lida ne sabab?

Keldi bu olamga inson bilmayin ketgay yana  
Ne bo'lar old-orkada, o'ng-u so'lida ne sabab?

O'ylagansan necha bora sen Odam Atoni ham  
U ko'zin ochdi Sarandib tog' cho'lida ne sabab?

Suv guli oppoq nilufar ochdi gul, ummon qolib,  
Bosh shahar Milliy Bog'inining bir ko'lida ne sabab?

So'ng safarga ketdi Asqar, Asqaring yo'q, Miraziz,  
Toq borarsan bu jahonning shoh yo'lida ne sabab?

## 19 (9)

Jilg'alar daryo bo'larlar birlashib,  
Turnalar sayyo bo'larlar birlashib.

Muzlig-u issiq-sovuq dengizlar-u  
Qit'alar dunyo bo'larlar birlashib.

Oy ila yulduzlar-u sayyoralar  
Bir falak – fazo bo'larlar birlashib.

Erk desa, hurlik desa bir musht kabi  
Odamlar shaydo bo'larlar birlashib.

Bir ajib hodisa ulkim, shaytanat  
Bir-biriga yov bo'larlar mushtlashib,

Va lokin insonni ko'rgan chog'ida  
Jang uchun paydo bo'larlar birlashib.

Miraziz derki yana: munofiqlar  
Ko'rinxmas mafyo bo'larlar birlashib.

**20 (10)**

Shom kutardim do'stlarimning suhbatini orziqib,  
Qahqaha va kulgilarning navbatini orziqib.

Oshnalar tarqalsa har yon, ulfatim doston edi,  
Ko'p shimardim qissalarning sharbatini orziqib.

U zamон Farhod-u Majnun holidin kulgan edim,  
Ko'rsalar xushdan ketib yor suvratini orziqib.

Bir go'zalga uchratib hushdan ayirdi Haq meni,  
O'ylasam o'ylayman endi yor siyratini orziqib.

Ko'zlarimga cho'mdi-ketdi akslanib, orolanib,  
Sirli titroq-la ko'rарman kisvatini orziqib.

Bir ajib savdo boshimda chaqnadi chaqmoq misol,  
Totdim, evoh, bu asal, deb ishq zahmatini orziqib.

Bir umidsiz chog'larim ham bo'ldi doim o'rtada,  
Kutdim ammo Tangrimizning rag'batini orziqib.

So'ng inoyat tushdi ko'kdan, birgalik bo'ldi ato,  
Birga totdik bu hayotning hayratini orziqib.

Birga bo'ldik, birga yurdik, birga sevdik barini,  
Birga kutdik birga sevgi toatini orziqib.

Ayriliq keldi qayoqdan: Yor u yon-u men bu yon...  
Yuz yil o'tsa... yodga olgum suhbatini orziqib.

Mirazizning u bila yurgan yeri jannat edi,  
Endi do'zax ichra eslar jannatini orziqib.

**21 (11)**

Bu hayotning sirri-asrorin berar kim anglatib,  
Tog' kabi yuksak yurakni qanday yiqarkan qo'zg'atib?

Davr Alpomishin hatto, davrning Qayslarin hatto  
Barchinoy, Laylolaridan ayirgay huzn-la yig'latib.

Manam bir oshiqi davron yorug' ko'ngilli yosh erdim,  
Zil yukin boshimga tashlab kuchini qo'ydi ko'rsatib.

Yana ko'ksimga jo etdi sabot birla qanoat ham,  
Yana qo'ydi muhtasham iroda toshini o'rnatib.

Bir go'zal ishqida so'ngra otdi jahon tandiriga,  
Men yugurdim o'rtaliqqa sevgim otini o'ynatib.

Olishdim o't-olov birla, yurakda ishq-yalov birla,  
Bo'ynimga tushdi bir sirtmoq, yiqitdi yerda sudratib.

Turdim shartta olishmoqni o'zimga farz bilib shunda,  
Yana yiqdi meni tuproq bila qordi bitta etib.

Eh, nechun sur'at bila yellarni quvding, Miraziz,  
Esi yo'q! Taqdir yelin bo'lmaydi-ku hech to'xtatib.



**«Pe» (p) tovshining payini past qilma!**



**22 (1)**

Hayot quvlashmachoq yanglig‘:  
qayon boqma, yugur, chop-chop,  
Agar sen ham quvib o‘tsang, uyal, derlar, etakni yop!

O‘zib ketmasliging lozim birovlardan bilib-bilmay,  
Agar yuz-xotiring yo‘qsa, boshingda o‘ynagay bir sop.

Kitobda yo‘q bu qonundan savol ochma, savol ochma,  
Degaylarkim: yonoshma sen, bu iqlimlar faqat biz bop.

Hazin holingni ko‘rganda kulishgay ahli donishlar:  
Ezilma, o‘rta yo‘ldan yur, hayot mezonin izlab top.

Hayot mezonin izlarsan tinimsiz Miraziz A’zamday,  
Bilmay ham qolarsan bir kun butun umring bo‘lganin sop.

**23 (2)**

Ayo dilbar, eshit, aytay biron gap,  
O‘zi rost gap, o‘ylamaki yomon gap.

Necha yillar ko‘ngil daryom ichinda  
Cho‘ktirilgan, o‘zimdan ham nihon gap.

Uni oshkor etishga jur'atim yo'q,  
Ko'zim dengizi ichra ul ayon gap.

Kibrsizlik ila, diqqat ila boq,  
Bilursan, chunki ul tarjimon gap.

Tiling-la ayt, dema, menga qiyindir,  
Bosar titroq, sabab ulkim, u jon gap.

Voh-e, joning shirinmi shunchalar, deb  
Kinoya qilma, bu – badgumon gap.

Menga bu jon seningsiz hech kerakmas,  
Demaki, bu havoyi, noayon gap.

Inon, bu jon meningmas, ul seningdir,  
O'shal Majnun degan gapi hamon gap.

Ko'zim qoldi bo'y-u basting, labingda,  
So'zingga oshiq o'ldim, bu – begumon gap.

Shamol siypar parishon sochlaringni,  
Qo'lim rashk qilar... bu – parishon gap...

Labingdan uchsa deb kutgum bir umr  
Hayotimga bergulik bir omon gap.

Miraziz A'zam, gapingni qisqa qil,  
Yo'qsa kelgay omon gapmas, fig'on gap.

## 24 (3)

Mening xulqim ko'ngil g'ashlik bilan chap,  
Xusumatli kichik boshliq bilan chap.

Hasratida changi olamni tutgan,  
Bir pul uchun ko'zi yoshlik bilan chap.

Seni mehmon qilib minnat etuvchi  
Yozgan dasturxoni oshlik bilan chap.

Uxlayolmay tunda yolg'iz yotarman  
Bo'lolmasam qo'li toshlik bilan chap.

O'tdi qirq yil, tushunmasman, bu ne hol:  
Qachon bo'ldim qalamqoshlik bilan chap?

Vale, shukur, hech vaqt bo'lmas Miraziz  
Chinakam do'st, qon-qarindosh bilan chap.

### 25 (4)

Ko'kka reaktiv uchoq solmoqda ip,  
Parcha bulut shaklini olmoqda ip.

Bir daqiqa, ikkimi fursat o'tib,  
Avval uchoq, so'ng g'oyib bo'lmoqda ip.

Uchsa uchsin, ketsa ketsin ul uchoq,  
Ammo nechun xayolda qolmoqda ip?

O'ylayman uzoq-yaqin zamonlarni,  
Ko'ngilni biroz notinch qilmoqda ip.

Kim aytar Xirosima boshlamas deb  
Bir kuni mash'um falokat choqda ip?!

### 26(5)

Bo'lar bo'lgan, sinar singan, netay endi, gunohim ko'p,  
Yashirmoqqa ilojim yo'q, gunohimga guvohim ko'p.

Guvohim yot kishi ermas – oyog'imdir, qo'limdir ul,  
Yomon yo'lg'a olib ketgan o'zimning o'z «ilohim» ko'p.

Sanamgohni namozgoh deb sig'inganman sanamlarga,  
Darig'o, yot sanamlarda qolib ketgan nigohim ko'p.

Ko'ngilni do'st bilarkanman, adashtirdi aro yo'lda,  
Necha do'stni ado qilgan ko'ngil aro sipohim ko'p.

Bu So'z otlig' sehrgarning etokindan tutingandim,  
Go'zal qalbda yaro ochgan uchar o'qday silohim ko'p.

Yetim o'sgan bolaydim bir, yetakchi-qiblagohi yo'q,  
Qorong'uga yo'lim burgan topildi xesh-panohim ko'p.

Umr o'tdi adovatda, qabohatdan yedim kaltak,  
Gahi kandim, gahi yorim yiqlgan qora chohim ko'p.

Sharrim yozgich farishtamga Orol yanglig siyoh lozim,  
Orol lekin ozaymoqda... degandimki: «siyohim ko'p».

Gunohkor Miraziz A'zam, kechir Tangrim, g'afur Tangrim,  
Kechirmsang netarman deb, yurokim ichra vohim ko'p?!

## 27 (6)

Nola cheksa el-ulusing yotma, jon, g'ayrat-la qo'p,  
Yoshli ko'zlar dardini ol, bor, tasalli ber va o'p.

Sen hayotni nurli kuy deb, madh etarsan har mahal,  
Bunga-ku hech e'tiroz yo'q, nurli kuyda foyda ko'p:

Ha, yorug'likdan tug'ilgay har yorug'lik, yaxshilik,  
Lek, unutma, g'amlidirlar necha qavming, qancha to'p.

Sen ularning qalbiga ham tut quloq shafqat ila,  
Dardlari ko'p besababmas, maydamasdir misli cho'p.

Ko'zlarining chetga olma, chetda turma, Miraziz,  
Sen ulusni qo'llasang, el-yurt seni qo'llaydi xo'p.

## 28 (7)

Menden hech kim so'ramas shundayin dep:  
– Qiz bolaga qay sepni ko'rasiz ep?

So'rasa der edimki, kerak unga  
Bu dunyoli hamda u dunyoli sep.

Ro'zg'or buyum, ashqol-dashqol, liboslar –  
Bular bari qizga bu dunyoli sep:

Kundalik turmushda bari asqotar,  
Faqat aytolmayman baxtli qilar dep.

Go'zal axloq, kitob unga sep bo'lsin –  
Yo'qdir bundan ortiqroq baholi sep.

Hunar, imon, iffat, uyat, saxovat,  
Bular bari ikkala dunyoli sep..

Qaysi qizda qo'pollik, jizzakilik,  
Tartibsizlik bo'lsa, bu – baloli sep.

Tez bularni daf qilsin, der Miraziz,  
Shunday qizning umriga baxt bo'lar zep.

## 29 (8)

Bemahalda allakim eshikni urdi dup-dup,  
Ochsam hech kim yo'q ekan, yuragim urdi gup-gup.

Kim edi, qayga ketdi, jinmidi, iblismidi? –  
Qotib qoldim qurigan mirzaterakday bir tup.

Ko'kka uchib ketdimi, yerga kirib ketdimi,  
Qayerga yashirindi, eshikni urgach dup-dup?

Kim bo'lsang ham kela qol, ochiqcha chiq maydonga,  
Ayt aytajak gapingni, turma panada kutip!

Aybim bo'lsa tan olay, qiliching qo'lingdadir,  
Qochmayman hech qayoqqa soya singari lip-lip.

Faqat iblislar qochar aniqlik, yorug'likdan  
Yolg'onchi munofiqlar zimdan ish qilar shuytip.

Eshikni yop, Miraziz, yuzin yashirganlarga,  
Kelib ketaversinlar eshikni urib dup-dup.

### 30 (9)

Ey hayot! Qalbim bila o'ynashma ko'p!  
Ey yurak! Boylar ila bo'ylashma ko'p!

Gar shukr qilmoqchi bo'lsang, chetga chiq,  
Toqqa chiq, qishloqqa bor, bo'shashma ko'p!

Birga bo'l dehqonlar-u chollar bilan,  
Katta kentda arbob-la tillashma ko'p.

Tingla xalqning kuylari, armonlarin,  
Elbexabar kuychi bila kuylashma ko'p.

Osh-qatiq bo'l bechora-yu sho'rlik ila,  
Ammo yomon xayollarga ilashma ko'p.

Miraziz, yaxshilik qil imkon qadar,  
El uchun o'tsin umring kurash-la ko'p.

### 31 (10)

Voh, bu tog'lar... voh, bu bog'lar... yam-yashillik muncha ko'p,  
Ufq qadar, undan nari, olam-u ochuncha ko'p.

Qo'l uzatsang bir tarafda na'matak yo moychechak,  
Bir tarafda qirqog'ayni shoxlarida g'uncha ko'p.

Navnihollar, yosh ko'chatlar silkinarlar erkalab,  
Har daraxt-og'ochga boqsang navdada tuguncha ko'p.

Yerga boqsang bir tarafda choyo't-u jambul, sano,  
Bir tarafda zubturum, bo'znoch ko'zing olg'uncha ko'p.

Rango-rang gulxayrilar-u, ermon-u, mavros, qarang,  
Momaqaymoq, voh, chakanda... hammasi namuncha ko'p!

Miraziz, yut ko'zlaringga bu yashillik olamin,  
Yayra, yashna, bari o'tgay, ko'k faqat buguncha ko'p.



:

«Te» (t) tovshining ta'sirin teran qil!

ت

32(1)

Men haqiqat izlaganda har eshikdan bot-bot,  
Bir kumush dunyoda ko'rdim bir kumush tanli hayot.

Bul kumush tanli hayotning naryog'ida bor edi  
Bir yana sirli hayot – cheksiz, hududsiz koinot.

Koinot jonli kitobin sahfasi – rang, shu'ladan,  
Kim qiroat qilsa, unga ko'rsatar ming mo'jizot.

Tunlari umtildim unga Haq sirin bilgim kelib,  
Sirg'alardi bir go'zal andomli dilbar koinot.

Xuddi nargislar kabi maxmur nigohli keng samo  
Qirpitib kipriklarin aylar edi ko'ngilni mot.

Oshig'i o'ldim uning, jonimga tushdi bir kamand,  
Ko'k ila mashg'ul xayol uchdi baland bog'lab qanot.

Sirli qushlar sayrog'i o'rashdi dilga, vo ajab,  
Balki jannat qushlari bu, balki bulbuldir bu zot.

Yollari arslon misol soylar sadosin tingladim,  
Ul sadoda zohir erdi larzakor oliy sifot.

Qayga boqsam sir-sinoat, mo'jizaki haddi yo'q,  
Bir Muallif dasxatiki, tengi yo'q Mangu Bayot!

Kim haqiqat izlasa, o'rnak berar olam o'zi –  
Bu fikrdan Miraziz A'zamda kuchlandi sabot.

### 33 (2)

(O'zbekiston radiosи «Axborot» muharririyyati  
sharhllovchisi Tal'at Soliyevning «Mehnat shuhrati»  
ordeni bilan mukofotlangani munosabati bilan)

Bir kun dedilarkim Soliyev Tal'at:  
– Sharhchilik murakkab, nozik bir san'at.

Oldingda serdalil ikki yo'l turar,  
Tanlamog'ing shartdir birini albat.

Bilishing shart: qaydan chiqar qay biri,  
Balki, u jahannam, balki u jannat.

Yarim asr bo'ldi – sharhchilik qilib  
Nonim halolmi deb o'layman faqat.

Dedimki: – Gapingiz rost, Tal'at aka,  
Shu yo'lda bir umr qildingiz mehnat.

Dedilar: – Kim bildi, kimdir bilmadi,  
Havoga ketganday go'yo bu zahmat.

Dedimki: – Rozidir davlat, Vatan ham,  
Mana, keldi, axir sizga-da «Shuhrat».

### 34 (3)

Sen, ey taqdir, ishing doim gohi himmat, gohi zahmat,  
Saboday bir silarsan-da bo'ronday bir berarsan lat.

Gohi ming yoshli tog'larni etarsan ostin-u ustun,  
Gohi ming yoshli cho'llarni etarsan Erami jannat.

Gohi dardli odamlarni ko'targaysan samolarga,  
Gohi sarxush odamlarni yiqlishda ko'rsatib shiddat.

Ajib dasturlaring bordir aql bovar qilolmas hech,  
Necha donish aqllarga berarsan dam sayin hayrat:

Bu dunyoning butun asrorini bildim deganlarning  
Qaro aylab yuzin bir kun solarsan boshiga g'urbat.

Sen, ey Rabbim, mani bundoq qaro kundan O'zing asra,  
Mening ko'nglumda bor-yo'g'i saning amringgadir rag'bat.

Seni tahlil – yiroq mandan,  
saning ra'ying – maning ra'yim,  
Xunuklardan ochay doim,  
go'zallar-la qurib suhbat.

Zulumotni otib yonga, gunohlarni mahv aylab,  
Niyat – nuringga cho'mmoqdir faqat sendan olib quvvat.

Sening yozmishlaring – taqdir – xoh u g'am,  
xoh quvonch bo'lsun,  
Faqat yaxshiga yo'ygayman,  
umid qilgayman har fursat.

Faqat sen Miraziz A'zamni o'z bandam desang, basdur,  
Toparman solih ishlarni yakunlashga azim qurbat.

### 35 (4)

Ey bulut, yuksakdag'i sarson bulut,  
Sirg'alib bormoqdasan qay yon, bulut?

Keksalik timsoliday osudasan,  
Ichdagi hasratlarining pinhon bulut.

Tez ora kelgay shamollar, to'zg'itar,  
Bu suzishlar senga so'ng imkon, bulut.

Ha, ayon: boqqing kelar bir hovliga,  
Unda bor-da bir go'zal inson, bulut.

Kasb etarsan so'ngra boshqa bir shakl,  
Bag'rige yutgay seni osmon, bulut.

Sen faqat shukronaga ulgur bugun,  
Mehr-la kutsin seni Rahmon, bulut.

Miraziz ham shukr ila topdi najot,  
Shukurlar qo'shdi jonimga jon, bulut.

### 36 (5)

O, yana kelding, yana qurg'ur bulut,  
Ko'pgami kelding va yo bir qur bulut?

Ko'plashib kelding bu gal yovlar kabi,  
Bosdi-bosdi aylading, yovqur bulut.

Maqsadingni bilmadim, anglolmadim,  
Berdimi shumlik senga surur, bulut?

O, kerilma bunchalar sarxushlanib,  
Bu kunlar o'tkinchi-ku, mag'rur bulut!

Mirazizning ko'ngli uymi-joymiki,  
Hech chiqib ketmaysan undan, sur bulut?

**37 (6)**

«Ohkim, ul oshino begona bo'ldi oqibat»,<sup>1</sup>  
Anga ajdarho uyi koshona bo'ldi oqibat.

Sevgimin kurtaklari, dovuchchalar do'llar urib  
Yer bilan bitta bo'lib ming dona bo'ldi oqibat.

Ko'rganim ul sof havolar hamda ul shodliklarim  
O'tdi-ketdi, bir sayoz afsona bo'ldi oqibat.

Boshima tog'lar yiqilgandek bo'lib, hushdan ketib  
Borlig'im ayrildi tandan, bir yona bo'ldi oqibat.

Charx urardi sas chiqarmay ko'kda ofat qushlari,  
Sevgining loshi ularga nishona bo'ldi oqibat.

Miraziz A'zam tushunmas: ne sabab boylik uchun  
Tosh-metin sevgim saroyi vayrona bo'ldi oqibat?

**38 (7)**

Oqsaroy oldida to'xta, azamat,  
To'xta shu maydonda ozgina fursat.

Shu yerda savol ber o'zingga o'zing,  
Shu yerda chulg'asin borlig'ing fikrat...

Yerning qoq o'rtasi – Zafar Arkiday,  
Bor ochun qasriday to'kardi savlat.

Arkonlar makoni bo'lib ko'rinar,  
Qalbga vahm solardi undagi tal'at.

Qara, endi uning qoldiqlariga,  
Qani o'sha shukuh? Qani hashamat?

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiydan.

Siyrak ziyoratgoh endi Oqsaroy,  
O'tkinchi vaqt aro bir go'sha xilqat.

Ammo Beruniy va Sino, Navoiy,  
Boburlar foniymas – abadiy xilqat.

Oh, mening xayolchan, zamondosh do'stim,  
Koshki boqiylik-la bo'lsaydik ulfat.

### 39 (8)

Adolat bor, adovat bor, adovatdan kelar ofat,  
Bu dushmanlik, bu kek doim chiqargay el aro g'orat.

Adolatda malohat bor, adolatda mahobat bor,  
Adovatda zulumat bor, qarohat va buyuk illat.

Bu ma'lum bir haqiqat-ku, nechun tilga olarsan ko'p?  
Latif san'at ila so'z och, ichingda bor esa qurbat.

Sabab ikki yaqin do'stim adovatga cho'mib ketdi,  
Alamli bu haqiqatdan yurakda qolmadi rohat.

Adolatning kichik bir bobida aslo chekinmaslar,  
Adolatga adolat musht urar endi, bu ne g'urbat?

Ularni do'st etish, evoh, jahon ahliga mushkuldur,  
Qalblariga yetib bormas uhuvvat, birlikka da'vat.

Ularni birga ishlashga chaqirgay Miraziz A'zam,  
Bu yo'lida yonsa joni, bu – bo'lardi joniga minnat.



**«Se» (s) tovshin sanoda sobit qil!**



**40 (1)**

Nechun milliyatchi bo'ldim? – Bunga yovlar erur bois,  
Yo'limni cheklagan, to'sgan baland g'ovlar erur bois.

Sening xalqing qoloq xalq, deb, ilm-fandan yiroq xalq, deb  
Beruniylar elin turtgan quruq dovlar erur bois.

U yonga bir burilganda, bu yonga bir burilganda  
Madrasam, masjidim yiqqan qo'pol govlar erur bois.

Chamanda gulni ko'rganday, elimda bir daho ko'rsa  
Ko'kimda Cho'lponim urgan razil ovlar erur bois.

Ko'zi qonga to'lib yotgan, yashil o'rmonin tark etgan,  
Halol o'g'limni buzganlar – mushuk movlar erur bois.

Ajib atvorlari: kavlar biri yerni, biri dilni,  
Faqat yer ostini ermas, ko'ngil ovlar erur bois.

O'tgan ish o'tdi, fikr qil, Miraziz A'zam shukr qil,  
Bu hasratga ichki dardlar, cho'g'-olovlar erur bois.

**41 (2)**

Vatanga kim bo'lur voris? Qayu inson erur voris?  
 Kimi tuproq uchun tursa bo'lub qalqon, erur voris.

Demakim, ey rafiq, menga: birov ishdan, birov so'zdan.  
 Qo'shilmam gar desang menga: quruq gapdon erur voris.

So'zin yozgan va yo aytgan magar bayroqqa ko'z surtib  
 Va tuproqqa to'kib ko'zyosh – o'shal xushxon erur voris.

Yovin selday bosib borgan va manglaydan otilgan o'q –  
 Qaro yerni quchib yotgan o'g'ul arslon erur voris.

Yuho nafsi yomonlarni – shayotinni bosib-yanchib  
 Halollik yo'llarin ochgan halol inson erur voris.

Zamonlardan zamonlarga, zabonlardan zabonlarga  
 Aziz nomi o'tib yurgan bo'lib doston, erur voris.

Vatanni Oqsaroy yanglig' ko'targan qaddini rostlab  
 Elin ma'mur etolgan mard, aqli polvon erur voris.

Ulusning til uchindagi biron so'zni yonib aytsa  
 Vatanga Miraziz A'zam ham, hech begumon erur voris.

**42 (3)**

Bahs etish asli yomonmas, bo'lmasa behuda bahs.  
 Bir faqat jonon bilan etmoq qiyin osuda bahs.

Ko'zlariga termilarsan, so'zlarining yoddan chiqar,  
 Jimgina mag'lub bo'larsan, tin topar qayg'uda bahs.

Ketganingda o'z uyingga, yotganingda tun mahal  
 Gavdalangay tushlaringda qaytadan uyquda bahs.

Tag'i bir tur bahs bo'larki undan or qilg'ay kishi,  
Ilm-u dinga qarshi bo'lsa, asli bu oluda bahs.

Aqli but orif yigit johil bilan bahslashmagay,  
Bahslashib qolsa mabodo, bo'p o'tar kulguda bahs.

Chetda yur ey, Miraziz A'zam, buningdek davradan,  
Boqma aslo, qayda qanday o'tsa o'tsin suvda bahs.

#### 43 (4)

Bormidi olamda mundoq barhavo, sog'lom hadis?  
Ne uchun yuz yil davomida berishdi xom hadis?

Ehtimol men sof hadisdan boxabar bo'lgan esam,  
Xasta nafsimni davolab topmasmi erdim kom hadis?

Toki ellik yoshga kirguncha yuribman kirlanib,  
Cho'ng gunohlarga botibman beedad mudom, hadis!

Bolishim ostida turgin endi, ey komil kalom,  
Qudratingdan kuch olay har tong deya: «Salom, hadis!»

Miraziz A'zam, basirat ahlidan olgil saboq,  
Tangri haqqi, sendanam qolsin biron sog'lom hadis.

#### 44 (5)

Ontini buzgan kishiga eskilar der: tur-ey, honis,  
Bizga yotsan, ket bu yerdan, qatoringda yur-ey, honis!

Lekin u ketmas ichingdan, shayton u, bezbetdir u.  
Munchalar ham besharaf u, munchalar ham sur-ey honis!

Ontlaridan qayta-qayta, shamg'alat qip hammani,  
Hiylagarlik birla deydi «Yangi zamon qur-ey!» honis.

Qancha-qancha va'dalar va qancha-qancha ont ila  
Deydi «Vaqtি keldi, do'stim, davr-u davron sur-ey» honis.

Loaqlal sen ichgan ontingdan qaytma, ey Miraziz A'zam,  
El aro nom olma nomard va bo'lma zinhor honis.

#### 45 (6)

Sevmassa yorim meni, jumla jahon bari abas,  
Yer yuzida topganim foyda-ziyon bari abas.

Ne kerak menga qasr, koshonalar ishq bo'lmasa,  
Sevgilim boqmas esa menga bir on, bari abas.

Sevsalar qavmim ila qondoshlarim qilgan ishim,  
Sevgilim so'z aytmasa yaxshi-yomon, bari abas.

Qancha yozsam, qancha chizsam, unga ma'qul kelmasa,  
Yozganim barcha kitobat ham devon, bari abas.

Menga yolg'iz yor rizosi, o'rtada bir shu kerak,  
Sevsalar yorim, bo'lmagaydir hech qachon bari abas.



## «Jim» (j) tovshining jonini jazbli qil!

ج

### 46(1)

Necha yildir, aylamas tark tanni dard, ko'ngulni ranj,  
Qolsa karvondan, bosar-ku bir qadar o'g'ulni ranj.

Bo'lmasa imkon biror gulga fido qilmoqqa jon,  
Fasli ko'klam hech tatirmi – yig'latar bulbulni ranj.

Bo'lmasa chahchahlagan bedori bulbuldan nishon,  
Bag'rida yosh-jola birla qon qilar-ku gulni ranj.

Bir go'zalning zulfiga bog'lanmasa bargak misol,  
Ba'zi bir chog' rashk bo'lub qiy Naydi-ku sumbulni ranj.

O'z eliga Haq uchun xizmat etish har kimga farz,  
Etmasa, ezgay, axir, har bandani, har qulni ranj.

Miraziz A'zam suyukli yurtining bunyodiga  
G'isht qo'yay der, dardi qo'ymas,  
injitar ko'ngulni ranj.

**47 (2)**

Yo‘q dema dardimga darmon, hamma dardga bor iloj,  
Bu sening dardingga avval lolazor, gulzor iloj.

So‘ngra bu gulzor ichinda «Shashmaqom» va «Dilxiroj»  
«Cho‘li Iroq» – nay, sibizg‘a, ud, sato, chiltor iloj.

Xush tabiat ham navo tuymoq uchun senga yana  
Naq o‘zingdek hissiyotli, inja ta’bli yor iloj.

Dori-darmon-u ilojsiz dardingga shundan keyin  
Ko‘zlari shahlo go‘zaldan mehribon nazzor iloj.

Qonli yoshlar to‘ka-to‘ka ko‘r bo‘lib qoldim, dema,  
Ko‘zlaringga bori-yo‘g‘i loladay ruxsor iloj.

Tur, qo‘lingga ol teshangni, tog‘ni yor Farhod kabi,  
Shirining kelgay qoshingga, dardingga raftor iloj.

Miraziz A’zam hakimki, unda tashxis bittadir:  
Har mahal oshic yigitning dardiga diydor iloj.

**48 (3)**

Turfa ko‘yga solodur insonlarni ehtiyoj,  
Girdoblarga ko‘modur jononlarni ehtiyoj.

Bir yonda o‘yin-kulgu, bir yonda bo‘lsa zahmat –  
Darhol ishga solodur shaytonlarni ehtiyoj.

G‘iybat-hasaddan qochar dunyo ko‘rgan bobolar –  
Chunki ko‘mib tashlaydi irfonlarni ehtiyoj.

Bog‘bonlar agar parvosiz, dehqonlar qolsa loqayd,  
Sahroga aylantirar bo‘stonlarni ehtiyoj.

Ey sen, Miraziz A'zam, uxlama, chora izla –  
Susaytirib qo'ymasin iymonlarni ehtiyoj.

#### 49 (4)

Ketmagay hech hofizamdan sir-sehrli bir ilinj,  
Uyqu bermas tunlari goh jonlanib zohir ilinj.

Bo'ldi derman, ketgin endi, borgin endi, yaxshi bor,  
Ketmas u, taysallanar, solmas qulqoq hech bir ilinj.

U faqat ko'ngilni notinch etsa-ku mayli edi,  
Muttasil aylantirar boshimni ham chir-chir, ilinj.

Qo'rquamanki, bir baloni boshlasa deb tongotar,  
Qo'rquamanki, bir halokatmi etar sodir ilinj.

Kel, go'zal, bir chora ko'rgin, bir balo qilgin uni,  
Aslida ma'lum ilinj u, kiri yo'q – bokir ilinj.

Kel o'zing qoshimga bir dam, ko'rgali holimni bir,  
Mutlaqo taslim bo'lar u, bo'lsa ham botir ilinj.

Miraziz A'zamning fikri ojizi shunday, go'zal:  
Bir o'pich bersang kifoya, tinchlanar oxir ilinj.

#### 50 (5)

Telbalarcha sevgimizga, bilmadim, na bo'ldi vaj,  
Qaysi hollar sevgimizga g'oyibona bo'ldi vaj?

Ehtimolki, ikkimiz birga eshitgan, tinglagan  
Sof muhabbat haqdagi bir sof tarona bo'ldi vaj.

Balki, parcha bir qog'oz qushga yozilgan dastxating,  
Sevgi izhoriga o'xshash so'z-nishona bo'ldi vaj.

«Ey azizim, ey mening jonim...» degan dur so'zlarining  
Ishqqa tashna olamimda «ishqi jon»a bo'ldi vaj.

Bir-birovsiz kun kechirmak ko'p malol bo'lgan mahal  
Ajralishdik, ajralishga, anglamam, na bo'ldi vaj?

Sen biroz yaxshi yasharding, men biroz qashshoq, g'arib,  
Sevgimiz vayronasiga shu bahona bo'ldi vaj.

## 51 (6)

O'rtar meni har doim ko'llar yuzidagi mavj,  
Sevgilimning TVda aytgan so'zidagi mavj.

Shamollar siypalagan quyoshrang va lojuvard  
O'zbekyurtning qo'shqo'lli oltin kuzidagi mavj.

Bog'lar suvin simirib, bilaklarin shimarib,  
Zafarlarga otilgan yoshlar ko'zidagi mavj.

Avazxlonni qamaldan qutqargan Go'ro'g'lini  
Sel bo'lib tasvirlagan baxshi bo'g'zidagi mavj.

Qilni qirq yorgan olim Hamid Ziyo domlaning  
Turkiston tarixini tahlil tarzdagi mavj.

Yurtim yetakchilari jahoning har yerida  
Baralla ayta olgan jasur lafzidagi mavj.

Ozodlikni munchalar sevding, Miraziz A'zam,  
Seni yondirar doim bu so'z mag'zidagi mavj.

## «Chim» (ch) tovshining chaylasin cho‘g‘lantir!



### 52 (1)

Bizning ayvon shipin tanlab, in quradi qaldirg‘och,  
Tanloviga joniof fido, kun ko‘radi qaldirg‘och.

Yoqasi oq, ko‘kragi oq, ko‘ylaklari qop-qora,  
Oh, jonginam, jivir-jivir un beradi qaldirg‘och.

Tomog‘ida mitti-mitti qo‘ng‘irog‘i bormi-yov! –  
Vijir-vijir ovozlarga jon beradi qaldirg‘och.

Bir chiroyli doiralar qurib uchar havoda,  
O‘qday kelib, bolasiga don beradi qaldirg‘och.

Samolarda suzar yayrab, umbaloqlar oshadi,  
Ba’zan suvlar ko‘zgusiga yon uradi qaldirg‘och.

Bog‘larimiz tepasida javlon urar yoz bo‘yi,  
Tongni shunday sevadiki, jon beradi qaldirg‘och.

Bolalarin olib so‘ngra qanotlarin ostiga  
Kechalari yotib hushyor, tin oladi qaldirg‘och.

Uchib ketar kuzning ma’yus shamollari esganda,  
Bir yil umr o‘tdi, debmi bong uradi qaldirg‘och.

Ey, Miraziz, arzimagan shu holga ham qayg'urma,  
Yana bahor ayvoningga in quradi qaldirg'och.

### 53 (2)

Keng shaharda o'z xayol mavjiga g'arq bir qayrag'och,  
Ko'lkasiga qo'nsa kim, so'ylar anga sir qayrag'och.

Bir zamon Sijjak tarafdan keltiriblar ko'chirib,  
To hanuz xulyosida zumrad tepa, qir... qayrag'och.

Ko'nglidan ketmas emish Alvastisoyning suvlari,  
Bo'lgan erkan qaddi tik sarvlarga asir qayrag'och.

Tushlaridan chiqmas ermish undagi erkin hayot,  
Holbuki, o'tdi arodan bir asr, der qayrag'och.

Vo darig'o, sen go'zalsan, ham metinsan, do'stginam,  
Sendagi bundoq matonat kimda bordir, qayrag'och?

Sen nechun kuchli shamollarni sevarding, angladim,  
Sen shamollarga yoyarding dardingni, sobir qayrag'och.

Chayqalarsan izg'iriqda purviqor boshing tutib,  
Miraziz ham senga payvast titramas zinhor, qayrag'och.

### 54 (3)

Boshingdagi ro'moling harirgina rangi och,  
G'ijimlasa bir g'ijim, qulochlasa bir quloch.

O'shal harir ro'moling gul chehrangni to'sodur,  
Sag'algina surib qo'y, oy yuzingni biroz och.

Voh, to'ymadim-to'ymadim, sog'inch to'la ko'zlarim,  
Yuzlaring iforiga ko'nglim hali-hanuz och.

Ko'zlarining mucha qora, kipriklaring ham qora,  
Qoshlaring undan qora – qanot yoygan qaldirg'och.

Ipak kabi sochlaring tunlarni yodga solar  
Tunda tug'ilganmisan, tunzodmisan, qorasoch?

Bu qora ziynatlaring KIMNING ijodi ekan?  
HAMD bo'lsin o'shal ZOTga, qo'lingni duoga och.

Men yuzing hilolini sal ko'rsam kifoyadir  
Aks holda dag'allashib bo'lib ketaman yog'och.

Agar meni u holda yo'lida ko'rsa odamlar:  
«Jinniga o'xshar, derlar, yo'lida turma, nari qoch!»

Ro'molingni tashlama, deb o'tinar Miraziz,  
Ammo rashkdan o'lamon, yursang boshing yalang'och.

#### 55 (4)

Yoshim bitib ko'zlarim qurib qoldi-ku bu kech,  
Hijron tanamdan jonni so'rib oldi-ku bu kech.

Holimni dunyo bildi, eshitgin shamollardan,  
Boshimga zalvorini tog'lar soldi-ku bu kech.

Parvoying kelmaydimi chil-parchin bo'lsam-da men,  
Eshitgan odamlarning qalbi toldi-ku bu kech.

Faqat bir sen o'ylama, yoningda kimlaring bor,  
Uzilgan tor oxirgi kuyin chaldi-ku bu kech.

Ertaga ne bo'lishin bilmas Miraziz A'zam,  
Qiynalib qalbidagi sevgi o'ldi-ku bu kech.

## 56 (5)

Izlamagan choralarim qoldimi hech?

Birov buni inobatga oldimi hech?

Ko'nglim meni kirgazdi ko'p ko'chalarga,  
Yurganlarim dardga davo bo'ldimi hech?

Qora zulfi o'ksitishni bilar faqat,  
Tosh ko'nglida rahm paydo bo'ldimi hech?

Holim bildi qon-qarindosh, yor-u do'stlar  
Yurak-bag'rim qonga to'ldi, bildimi hech?

Yuzin eslab, men sellarda oqqandayman,  
Jayron ko'zlar nazariga ildimi hech?

Muhabbatning nimaligin endi bildim,  
Holim ko'rib, u insofga keldimi hech?

Ey, Miraziz, bobolaring, «uyg'on», derdi  
Bu gap oldin senga ta'sir qildimi hech?

## 57 (6)

Do'st, sog'indim Turkistonni, yubor qimizdan bir sanoch,  
Kel ko'plashib, ichsak tarqar xumor qimizdan bir sanoch.

Asl turkiy lahjamizda so'zlashaylik to'yib-to'yib,  
Rohat ichsak qo'shiq aytib do'st-yor, qimizdan bir sanoch.

Uloq teri shu xaltani tulum yoki sanoch derlar,  
Quy kosaga, ne farqi bor, turkvor qimizdan bir sanoch.

Qarang jonning yayrashini, qarang qonning sayrashini,  
Er sakrashin ko'ring ichgach uch bor qimizdan bir sanoch.

Bu dunyoning tashvishlari unut bo'lar xayolingdan,  
Tarqar g'ubor, bo'l maysan hech bedor qimizdan bir sanoch.

Miraziz der: Ernazarli Turkistonim omon bo'lsin,  
Ko'rmagayman birga ichsak ozor qimizdan bir sanoch.



## «He» (h) tovshi hofizasin haqchi qil!



### 58 (1)

Kimga balki shom go'zaldir, kimga choshgohdir saloh,  
Eng go'zaldan ham go'zaldir men uchun ayni saboh.

Chun «saboh» bir istilohkim, shunchalar jonga yaqin,  
Xuddi «istiqlol» deganday yangragay bu istiloh.

Ey aziz do'st, sen o'zingni bir kuzatgin ertalab,  
Chashmaday billur dilingda bo'lmagay gardcha muboh.

Mavj urar ko'nglingda shunday sof, musaffo tuyg'ular,  
O'z-o'zingni aylagaysan asta-asta sen isloh.

Anglashilmas bir sevinchdan, qush bo'lib uchgay diling,  
Dilbaring-la senga shu dam, tong o'qilganday nikoh.

Na mashina gazlari-yu na tutun, na chang, g'ubor...  
Misli dunyo toza oromgoh kabi bo'lgay saboh.

Miraziz A'zam sabohday hech parivash ko'rmamish,  
Oh, chiroylidir saboh, bergay faqat orom, faroh!

**59 (2)**

*Sendan ruh haqda so'raydilar.  
Ruh – Rabbimning amridagi ish,  
sizlarga oz ilm berilgan, deb ayt.*

*Al-Isro, 85-oyat.*

Ey, malaklar mulkining xizmatchisi, sayyor ruh,  
Men seni angolmadim hech, sirlari bisyor ruh.

Men hali men bo'limganda jismima bo'lding sherik,  
Bir qimirlab jonlanishni boshladning, asror ruh.

Yur yorug' dunyoga endi, tot uning ta'min deding,  
So'ng tanishtirding hayotni, ko'rsatib osor, ruh.

So'zga kirganda tilimni aylading burro qilich,  
Ey muallim, mohir ustod, dilbar-u dildor ruh.

Ham go'zallik, ham kasallik, ham quvonch-u ham azob –  
Jumlasin etding-a ijro Yer kuyin, chiltor ruh.

Sen olib kirding tushimga o'zga olamlar sirin –  
O'ylatib qo'yding abadni to abad hushyor ruh.

Sen haqiqat nola cheksa, uxlamasding men kabi –  
Ikkimizda zohir erdi ikki ming ozor, ruh.

Men seni turlicha ko'rdim, kulganingni ko'rdim oz,  
Doimo mahzun – nigohing, ma'yus-u afgor ruh.

Miraziz-la birga turding, ajralishda rozi bo'l,  
Rozi bo'l ranjitgan ersam, ey vafoli yor ruh.

**60 (3)**

Hasratim ko'p, aybga qo'shma, etsam izhor, ey sayyoh,  
Ko'ngil sendek bekarashma bir do'stga zor, ey sayyoh.

Qay yo'sinda anglatayki, menga ko'rsat bir iloj,  
Sevgimni oshkor etsam, bo'lgum tor-mor, ey sayyoh.

Men ishqimni ichga yutdim sevinsin deb ag'yorlar,  
Tushungay bir kuni kimdir fasli bahor, ey sayyoh.

Muncha joni shirin qulsan deya kulma mendan, aziz:  
Sevgilim holin etgaylar ular afgor, ey sayyoh.

Usullari pismiqqlikdir, tunda qilarlar har ishni,  
Bormi yana biron joyda bunday asror, ey sayyoh?

### 61 (4)

Fattoh bo'lgim keladi, bandlarni ochgan fattoh,  
Butun olam xalqiga quvonchlar sochgan fattoh.

Shundayin bir ulug'vor, tog'lar kabi qo'rqinchki,  
Iblislar ko'rib, bir in izlagan-qochgan, fattoh.

Ibn Sino singari shundayin bir fattohki,  
Talonchi, zolimlarni bir zumda bichgan fattoh.

Dehqon, beva-bechora, yetim-yesir sho'rlikning  
Arzimagan aybidan bir zumda kechgan fattoh.

Shundayin bir fattohki, kunduz ilm o'rganib,  
Tunlari Mirazizday yorini quchgan fattoh.

### 62 (5)

Ey Ilohim, menga so'z ber, faqat sahih,  
Ochiq yuz ber, yorug' yuz ber, faqat sahih.

Bashar uchun qoldirishga arzigelik  
Riyosiz bir aniq iz ber, faqat sahih.

Qabatingdan, karamingdan darig' tutmay,  
Baxti tiniq o'g'il-qiz ber, faqat sahih.

Bolalarim, hamma naslim, avlodimga  
Shaxt-g'ayratdan sanoqsiz ber, faqat sahih.

Bu tilagim qabul etma tama' kabi,  
Senga boshlovchi yulduz ber, faqat sahih.

Bekor ishlar xayolimni chulg'amasin,  
Ilhomlarga to'la kez ber, faqat sahih.

Mirazizni banda qilma nafsi uchun,  
Kuchli amal, ruhli so'z ber, faqat sahih.



**«Xe» (x) tovshin xazon qilma, xalil qil!**



**63 (1)**

Bir g‘aroyib dilraboki, kulgisi sho‘x, tori sho‘x,  
Torini sayratganida gul kabi ruxsori sho‘x.

Zulflarining raqslari-yu ko‘zlarining shu’lasi,  
Lablarining la’llari-yu so‘ylagan ash’ori sho‘x.

So‘ylagan ash’ori ichra har satrda bir imo,  
Ta’bi nozik, ma’ni injा, voh, siri-asrори sho‘x.

Sho‘rlik oshiqni qо‘yar ul ikki o‘t o‘rtosiga,  
Bir qarang: inkori sho‘x-da, bir qarang: iqrори sho‘x.

Naylayin ko‘ngil asiri – men faqir noshud esam,  
Holimni yoygay elimga ul yuzi gulnori sho‘x.

Goh shivirlab bir sir aytsang, fosh etar zo‘r sas bilan,  
Jilmayib kulgay yana, hattoki shu ozori sho‘x.

Oshiq insonni yupatgay Miraziz A’зам mudom:  
Do‘ppisin osmonga otsin kimniki dildori sho‘x.

**64 (2)**

Bog'da unib o'sdi bir qush, izg'ib yurodi shoxma-shox,  
Ra'yni cheksiz, chekshanmagan, u charx urodi shoxma-shox.

Rayhonlar-u, jambullar-u turli-tuman gulni cho'qib,  
Tutlar, giloslarni talab davron surodi shoxma-shox.

Bular ozday ko'ringanda o'zga qushlar inin kavlab,  
Qo'ygan tuxumlarin titib, totib ko'rodi shoxma-shox.

Keyin bulbul, keyin sa'va, qumrilarga qiron solgay,  
Hammasini bitta-bitta bog'dan surodi shoxma-shox.

Vo ajabo, na chumchug'-u jiblajibon, na zarg'aldoq,  
Na chittakka omon bermay, quvib yurodi shoxma-shox.

Ola hakka, derlar uni, o'g'ri zag'izg'on, deydi xalq,  
Ekologlar ko'zlarini chetga burodi shoxma-shox.

Miraziz A'zam xayoli o'g'ri zag'izg'on ishlarin  
Izma-iz tinmay kuzatib, ko'rib borodi shoxma-shox.

**65 (3)**

Ofatijon, ofatijon, ko'zing do'zax, ko'zing do'zax,  
Tarang, oppoq, tiniqqina yuzing do'zax, yuzing do'zax.

Ketar chog'im havolarda jaranglaydi sadolaring,  
Qoldirmaydi jonimda jon, so'zing do'zax, so'zing do'zax.

Ketay derman, ketolmasman, ortga tortar ohanrabo,  
Borsam izingdan izma-iz, izing do'zax, izing do'zax.

Umidimni uzar bo'lsam, umid bergay, qanot bergay,  
Lekin chaqirgan fursating, kezing do'zax, kezing do'zax.

Agar siylab taom tut sang, taomingning balosi bor,  
Berilgan choy, suzilgan osh, tuzing do'zax, tuzing do'zax.

Miraziz der: neki bo'lsa roziman men, yondir mani,  
Yondir mani, o'ldir mani, bizing do'zax, bizing do'zax.

## 66 (4)

Umr bersa agar Tangrim, ichimda ahd-qarorim cho'x,  
Buguncha biz erishgandan qilish lozimli korim cho'x.

Sani kezdirmoq ko'ngilda necha vodiy, necha tog'lar,  
Xayolimga tugib qo'ygan qip-qizil lolazorim cho'x.

Hali ko'klarda uchmoq bor, hali dengizda suzmoq bor,  
Hali san ko'rмаган ellar, jahonda do'st-u yorim cho'x.

Biza Olloh karam qildi, biza kuz berdiki ma'mur,  
Hali sen-la shukr aylab sharaflovchi bahorim cho'x.

Miraziz A'zam seningdek qutli bekachga er bo'ldi,  
Seni kelinday bezashga kezadigan bozorim cho'x.



## «Dol» (d) tovshini daryo qil, doston qil!



### 67 (1)

Hamma narsa, derdilar, o'lgay kelib yetganda had –  
Qolmagay qudrat va kuch, ko'rк-u chirov, qomat va qad.

Yurt uchun, inson uchun iymon bilan ishlash bo'lak –  
Yaxshilik – qolgan azal va yaxshilik – qolgay abad.

Senga yovlik qilsalar sen, derdilar, qil yaxshilik,  
Do'st bo'lib qolgay yoving ham – ko'nglida so'ngay hasad.

Yaxshilik qochsa uyingdan, derdilar, quv ortidan –  
Yaxshilik qaytgay uyingga, ortajak unda adad.

Gar yomonlik bostirib kelsa agar ofat misol,  
Derdilarki, qoch bu yo'ldan, bo'lma aslo unga sad.

Shuncha pandlar va o'gitlar bir asrga yetgulik  
Etmadi kor, men o'zimga bermadim jinday madad.

Oqibat shu inchunin sog'lik tanimni etdi tark –  
Endi jismim g'ayrat-u azmimni ham etmoqda rad.

Ey, qulq os emdi elga, Miraziz, ixlos bilan,  
Qulhu Ollohu ahad, de, so'ngra de: Ollohu somad.

**68 (2)**

So'rarlar mendan hamisha ulusing doimo obod,  
Bamisli Sir kabi o'ychan, Amuday jangari, ozod.

Buning siri nedur debon savol berguvchi inson ko'p,  
Javob bergay kerak bo'lsa bugungi barkamol avlod.

Chunonchi bir savol ulkim:

nechun har kim yashar har xil,  
«Besh qo'l axir barobarmi?» – javob bergay biror dilshod.

Ha, qo'lingni kuzat, ishlat, shu har xil qo'l birikkanda  
Hayotingni go'zal qilmoq uchun senga berur imdod.

To'g'ri, deb barmoqlaringga o'tirsang ko'z tikib mudroq,  
Bilib qo'yki, uyqu sening kunlaringni etgay kasod.

Mirazizning necha o'n yillik kuzatgan ilmi shu,  
Istasang sen ham riyot shu tariyqni aylagin yod.

Jahd ila, g'ayrat ila, zehn-u fikr, tadbir ila  
Har kimsa ham, istaganda, o'z hayotin aylagay shod.

**69 (3)**

Shoshqaloq ko'nglim tuzalmas munchalar ham to abad?!  
Kunlarimning har birin etdi jahannam to abad.

Men quvonchmi, xushxabarmi kutganimda, bir mahal  
Keltirar u ko'zlarimga bemahal nam to abad.

Shu ko'ngil, hovliqma ko'ngil qo'ymagay hech holima,  
U tufayli hech etolmam xotirim jam to abad.

Neki qilsa qildi u, ko'plab zarar keltirdi u,  
Tutdi qo'ldan, eltdi jarga, shu bo'ldi kam-kam to abad.

Goh oshib ketdim amalda, gohi qoldim orqada,  
Naqd savoblar ketdi qo'ldan, qoldirib g'am to abad.

Shoshqaloq ko'ngil-ku aybdor, qarg'adim begonani,  
Shoshgan ot yo'lda qolur, deb yozdi qalam ham to abad

Mirazizga bu ko'ngilning bergani ozorlar  
Kammidi, sen ham yana zor etma, sanam, to abad.

### 70 (4)

Hayot bitta, ushalsin-da aqalli bir bor maqsud,  
Ushalsin-da axir bir shom va yoki bir nahor maqsud.

Sabr yaxshi, biroq tinmay faqat kutmoq aqldanmas,  
Armug'onday yetib kelsin axir bir kun bahor maqsud.

Birov butsa, birov butganni mo'rday tashiblar ketsa,  
Hech zamonda ushalgaymi yiqilmas bir devor maqsud.

So'zi boshqa, ishi boshqa, bu ne ofat, izohlab ber,  
Bo'lmagaymi muqarrar bir baloga giriftor maqsud?

Bir chiroyli orzu bo'lib, jozibali, ishonarli,  
Odamni shaxt-u g'ayratga solsin-da asror maqsud.

Mirazizning murodi shul: ko'rар ko'zga tashlanib tursin  
Ochil-ochil gullar kabi ushalgan baxtiyor maqsud.

### 71 (5)

Qancha og'aynilar ketdi bemavrud,  
Yorug' dunyoni tark etdi bemavrud.

Hatto nasya qilib xayr-xo'shni ham  
Yurak-bag'irni qon etdi bemavrud.

Endi nima foyda, tirikligida  
Kim ularni sevdi, netdi bemavrud?

Najot bormikin deb har yon jovdirab  
Kimlari muruvvat kutdi bemavrud.

Hayot shu ekan-da, deya kimlari  
Qahraton sovuqda qotdi bemavrud.

Biz, Miraziz A'zam, o'sha-o'shamiz,  
Parvosiz yuribmiz o'tda bemavrud.



## «Zol» (z) tovshining zavqini zuhr qil!

ذ

### 72 (1)

Oq qog'oz, oppoq qog'oz, jonimin jononi qog'oz,  
Sen bilan xonam yorug', ko'nglimin nurdoni qog'oz.

Men qachon kelsam qoshingga aylading dildorlig',  
Yozganimning doimo bo'lding o'zing joni, qog'oz.

Nina birla bir nasib izlab quduq qazdim gahe,  
Sen u chog' bo'lding jafoning menga maydoni qog'oz.

Men to'kildim hamma vaqt ustingga injular bo'lib,  
Boshbitik senga ko'zimning qonli marjoni, qog'oz.

Miraziz A'zamni ma'zur tutgin, ey shafqatli yor,  
Men siyoh etdim yuzingni, sen – musaffoni, qog'oz.

### 73 (2)

Ay, go'zal so'zlarni aytding, sevgilim, nondan laziz,  
Shul qadar ma'noga boyki, har biri jondan laziz.

«Garchi Iso nutqidin topgay o'luk jon lazzatin,  
Lek jonparvar so'zing yuz qatladir ondan laziz»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ogahiy bayti.

Toqqa chiqmoq, cho'qqi zabti –  
 eng shirin damdir, vale,  
 Sen bilan bir dam o'turmoq barcha imkondan laziz.

Haq uchun tinmay kurashmoq –  
 qanchalik qutlug' amal,  
 Sen uchun tinmay kurashmoq ul go'zal ondan laziz.

Ko'zlariningda, yuzlariningda ikki chimdim nur tuyish  
 Ikki dunyo ne'mati-yu barcha ehsondan laziz.

Menki bir ko'yingda xasta, senga zor devonaman,  
 Bir mehr ko'rguz, axir, ul barcha darmondan laziz.

Mirazizga so'zlariningda,  
 lablaringda – hamma gap,  
 Unga hech bir narsa yo'q sendagi bo'stondan laziz.

### 74 (3)

Bu jahonda lablaringdek hech vaqo yo'qdir laziz,  
 So'zlariningdek shir-u shakkar mutlaqo yo'qdir laziz.

Ko'p o'qib, minglab o'qib dardga chalinsa ko'zlarim,  
 Izlaringdek unga kuchli to'tiyo yo'qdir laziz.

Tangri menga kuy misoli berdi sen, musiqani,  
 Men uchun senday chalingan bir navo yo'qdir laziz.

Tanni tan etguvchi ruhdir, ruh ila bordir badan,  
 Menga senday ruh bo'luvchi dilrabo yo'qdir laziz.

Mirazizga, qisqasi, sen ham hayotsan, ham mamot,  
 Chiqsa jonim, tirdizuvchi hech humo yo'qdir laziz.

## 75 (4)

Onamdan yodgorligim bu tumor, ajib ta'viz,  
Uncha-muncha narsamas bu tumor, najib ta'viz.

Mehr-la bergen onam menga qaytar chog'ida,  
Seniki bo'lsin degan bu tumor, habib ta'viz.

Yomg'irda, qorda qolsang, yiqlisang bo'ronlarda  
Belingga mador bo'lgay bu tumor, tabib ta'viz.

Agar makkor odamlar bersalar senga firib,  
Seni asrar bu tumor, bermagay firib ta'viz.

Bag'ringda asrab yursang, anglarsan kim kimligin,  
Do'stga do'stdir bu tumor, raqibga raqib ta'viz.

Avayladim, onajon, bu merosni va lekin  
Meni asray olmadi bu tumor, g'arib ta'viz.

Yuragim yaralari ko'paydi, faqatgina  
Menga odob o'rgatdi bu tumor, adib ta'viz.

## 76 (5)

Kimgakim Olloh nazar qilsa anda yuksak nufuz,  
Bo'yłasi hurmatga loyiq begumon, beshak nufuz.

Bul fasohat ahliga qancha qulqoq tutsang-da oz,  
Senda ham ruh olamingda yuksalar andak nufuz.

Lekin, ey do'st, telegramizda ba'zilar borki uchar,  
«Bizga tekkay, – der ular, – bitta nazar tiksak, nufuz».

Ne bo'larki, ey nufuz, yuksak nufuz, sotilmasang,  
El uchun, ravnaq uchun bo'lsang mudom kerak nufuz?

Xalqimizga, sha'nimizga eng munosib ish-ku bu,  
Yurtga doim to'g'rilikning tuxmini eksak, nufuz.

Ey Xudoyim, Mirazizga bir nufuz etding ato,  
Ozmi-ko'pmi kimgadir u bo'lsa bas tirkak nufuz.



## «Re» (r) tovshining rasmini rangli qil!



### 77 (1)

Ko'kka ko'z-ko'z aylabon ko'rgazma ochdi bog'lar,  
Yerga rango-rang gilamlar to'shadi qir, tog'lar.

Borlig' olamni tomosha mavsumi bormoqdadur,  
Ey, qani, do'stlar, yuringlar, keldi shodlik chog'lar.

Har taraf uyg'oq, qarang, zumrad tepa qanday go'zal,  
Bu sehrli yelda qolmas dilda zarra dog'lar.

Jonlilik eltar basharga chashmalar suvlar bilan,  
Qancha tog'-u toshdan oshgan sharqiroq irmog'lar.

Eslatar tushlardagi jannatsifat bog'larni  
Bu dara, bu pasttekislik, bu oltin o'tlog'lar.

Bu fasl shundoq quvonchli, yellari shunday mayin,  
Kuylariga o'z-o'zicha raqs tushar yaprog'lar.

Hidlari xush gullar uzra sayrashar bulbullar,  
Eng sovuq yot o'lkalarga gum bo'lishdi zog'lar.

Miraziz A'zamga kelsak, u suzar mavjilar aro,  
Erk quyoshi shu'lasidin topdi-da farog'lar.

## 78 (2)

Odamzod bo‘rining ulishi g‘aliz,  
La’nati devlarning kulishi g‘aliz.

Umrbod yaloqi, dum o‘ynatuvchi  
Itlarning yoningda bo‘lishi g‘aliz.

Toshbaqani minib suvdan o‘tarkan  
Xoin chayonning nish urishi g‘aliz.

Bir chumchuq pir etsa qo‘rqoq quyonning  
Yuragi shir etib yurishi g‘aliz.

Miraziz A’zamning dushman yo‘q joyda  
Botir so‘z aytishni bilishi g‘aliz.

## 79 (3)

Sen qo‘nib o‘tgan dovonda bir asr qolgim kelar,  
Sen nafas olgan havodan men havo olgim kelar.

Keng samoda sirg‘alishgan turnalarda ko‘zlarining,  
Baxtiyor u turnalarga bir nazar solgim kelar.

Sen cho‘milgan daryolarda men cho‘milsam ne ajab,  
Sen cho‘milgan daryoda jonimni qoldirgim kelar.

Sen sevib bir hidlagan gulni agar ko‘rsam gahi,  
Telbalarcha ul chechakdan bir o‘pich so‘rgim kelar.

Lutf ila fayzingga bir dam ko‘rmasang loyiq meni,  
To qiyomatga dovur men uyquga tolgim kelar.

Miraziz A’zamning orzusi – yo‘lingga jon tikish,  
Tangri rozi bo‘lsa so‘ng, sendan seni olgim kelar.

## 80 (4)

Socharkan yo'llarga yog'du chiroqlar  
Nimalarni ko'rmadi bu chiroqlar:

Necha bor sevishganlar o'tdi yo'ldan,  
Ko'rди ko'zlarida jodu, chiroqlar.

O'tarkan yosh-u qari – hammasida  
Ko'rди shodlik ila qayg'u, chiroqlar.

Ichi to'ldi hayrat-u g'am, xabarga,  
So'zlamoqni qilar orzu chiroqlar.

Vale, ko'rganlarin aytmoqchi bo'lsa,  
Odamlarga bo'lar kulgu chiroqlar.

Chunki nasib emas ularga zabon,  
Faqat yo'lga sochar yog'du chiroqlar.

## 81 (5)

Yo'q, menga keltirmang hozir g'izolar,  
Xayolim chuvatgan cheksiz fazolar.

Har yulduz olamdan o'tgan do'stimday,  
Ezmoqda ko'nglimni og'riq-izolar.

Eng yaxshi do'stlardan ayrilib bo'ldim,  
Kim endi, adashsam, do'stday jazolar?

Qo'shiqda madh etgim kelar har do'stni,  
Kimga ham yetardi ammo nidolar?

Jismimni g'ussalar dog'ga to'latdi,  
Kimgadir kerakmi ammo adolar?

Miraziz A'zamning chiqar qalbidan  
«Chin do'stlik abadiy» degan sadolar.

**82 (6),**

Inson ketar, nom qolar –  
Yaxshi yo badnom qolar.

O'ylama: «Dam g'animat,  
Yutganim harom qolar».

Sen elingni obod qil –  
Chashma ila tom qolar.

Noming ila yonma-yon  
Ehtirom, ikrom qolar.

Ko'zingni och, qilma lof:  
«May ichilgan jom qolar».

Qo'zim, bunday o'ylasang  
Xayollarining xom qolar.

Miraziz-la ochma bahs  
Yoqimsiz kalom qolar.

O'zingdan na xotirot, –  
Na alif-u lom qolar.

**83 (7)**

Ertalab kelgan shamollar yozg'irib esmoqdalar,  
Sarg'arib bitgan daraxtlar barglarin to'kmoqdalar.

Demakim bargi xazon, shoxlarga ingan qushchalar  
Yerda don ko'rgan misoli yoprilib tushmoqdalar.

Balki so'nggi yillarim bu, balki so'nggi oylarim,  
Kunlarim bir-bir bitib, yo'qlik sari uchmoqdalar.

Men daraxtman, barglarimni to'kmasisimga yo'q iloj,  
Chunki Yerda boshqalar bor, rizqlarin kutmoqdalar.

Men umrman, yillarim bu – to'nlarim, ko'ylaklarim,  
Birma-bir yechgum alarni, gallarin kutmoqdalar.

Bir tavallo bor faqat ko'nglim aro orzu degan,  
Bitmagan solih amallar menga ko'z tutmoqdalar.

Assalom, qish, Miraziz A'zam shu yerda, izlama...  
Silkishib qo'l, yosligim-la yozlarim ketmoqdalar.

#### 84 (8)

Bir g'azalda yorimizni ta'rif aylaylik, uzur,  
Aslida bu bir hazildir, bo'lmasisin hech behuzur.

Bu hazildan ko'zlanilgan maqsadim bir bo'sadir,  
Bizni yor andoq yorki, o'ldurur ham tirkuzur.

Igni birla ko'ksimizda ochsa hamki bir yara,  
Bir ravish-la bag'rimizga to'lguzur ming bir huzur.

Ko'zлari bor bir yomonkim, o'ldirurlar o'q otib,  
Lablari bor bir aqiqki, bir nafas-la tirkuzur.

O'ttiz ikki qiz kabidir ikki safda durlari,  
Nurlaridan ko'zlarimda barq urib chaqnaydi nur.

Qo'llari bor oq bilakli, qatlimizga qo'l qo'yay,  
So'ngra bitta amr ila jannatlariga kirguzur.

Miraziz A'zamni holi ne bo'lur, deb so'rmangiz,  
Gohi do'zax, gohi jannat, goh arosatda yurur.

**85 (9)**

Bir saodat asri bo'lgan bir zamonlar, do'stlar,  
Ham shafoat asri bo'lgan u zamonlar, do'stlar.

Kimni kim qo'llarsa maqsud hech guruhbozlik emas,  
Haq uchun maydonga tushgan pahlavonlar, do'stlar.

Tuqqaniga yoqmasa Haq, ul anoni qiynamay  
Haq yo'liga boshlaganlar navjavonlar, do'stlar,

Yarqirab chiqqan quyoshning nurlarin emgach to'yib,  
Birlashib qad rostlaganlar notavonlar, do'stlar.

Yaxshilikka, yangilikka qarshi chiqqan zumrani  
Bartaraf etganlar birga beomonlar, do'stlar.

Hamma bir bo'lgan, birikkan bitta bayroq ostida,  
Qolmagan iymonli elda za'faronlar, do'stlar.

Sen nechun bu so'zni dersan, Miraziz A'zam, kuyib?  
Gullasin dersanmi qayta oshiyonlar, do'stlar?

**86 (10)**

Oh, qandoq olmalar, qandoq olmalar,  
Hayotbaxsh bir san'at, jumboq olmalar.

Qaysi bir Bog'bonning qaysi bog'ida  
Yetilib pishibdi bundoq olmalar.

Ushlashga odamning ko'zi qiymaydi,  
Qo'lingda uyg'otar titroq olmalar.

Ko'zingni kuydirar inja ranglari,  
Munchalar muattar do'mboq olmalar.

Uni tishlamoq ham azim gunohday  
Odam bir hidlashga mushtoq olmalar.

O'pish-ku, silash-ku mumkin, albatta,  
Muborak boshdan to oyoq olmalar.

Miraziz olamda ko'rmamish bunday  
Sehrli, ilohiy oppoq olmalar.

## 87 (11)

Tumso xotin, o'g'lining qoshlarini yoy ko'rар,  
Tumso xotin, o'g'lining sumagida soy ko'rар.

Tumso xotin nuqsonli bola tug'mas hech qachon,  
Tumso xotinning o'g'li ko'r bo'lsa ham oy ko'rар.

Tumso xotinning o'g'li uddaburon, uddakash...  
Tumso xotin, o'g'lini hammadanam boy ko'rар.

Tumso xotinning o'g'li qiyalmaydi hayotda,  
Tumso xotin, o'g'lining pichog'ida moy ko'rар.

Tumso xotinning o'g'li chinniday tutar uyin,  
Tumso xotin, o'z uyin bamisli saroy ko'rар.

Tumso xotinning o'g'li shahzodaday baxtiyor,  
Tumso xotin, o'g'lining boshida Humoy ko'rар.

Tug'adigan xotinning kosasi hech oqarmas,  
Tumso xotin, ularning sho'rvasin ham choy ko'rар.

Tug'adigan xotinlar Yerni ivirsitarlar,  
Tumso xotin ularning uyin iflos joy ko'rар.

Yordam qo'ling uzatma tumsolarga, Miraziz,  
Xudo urgan tumsolar imonda ham loy ko'rар.

## 88 (12)

Meni asir qildi sehrgar ko‘zlar,  
Yillarki, borlig‘im ularni izlar.

Shamoldagi shoxday titrab ketaman,  
Ko‘rinsa unga sal o‘xshagan qizlar.

Loaqal tushimda bir ko‘rgaz, deya  
Ollohga yolvorib yuragim bo‘zlar.

Meni timdalaydi armon, bedorlik,  
Qalbni yupatolmas hech qanday so‘zlar.

Har qanaqa o‘rin toshday ko‘rinar  
Tungi qorong‘ilik kuchaygan kezlar.

Hey odamlar, ayting, ko‘rmadingizmi  
Xayolchan sehrgar ko‘zlarni sizlar?

O‘sandoq sehrli qora ko‘zlar deb  
Dunyoga to‘ymasdan o‘tyapmiz bizlar.

## 89 (13)

Neki kelsa bizga g‘ofildan kelur,  
Ma’rifatsiz, fikri botildan kelur.

Nafs bila ovvora kezma bemalol,  
Jon bolangga zulm johildan kelur.

U yiqlisa, bu buzilsa... har balo  
Har tarafdan tog‘-u sohildan kelur.

Kuyla, nurli o‘yni yuksak sas bilan,  
Erk jaranglab kuylagan tildan kelur.

Qushlar-u soylardan o'rnak ol, axir,  
Miraziz, baxt tinmagan yildan kelur.

### 90 (14)

Seningdek bir vafosizda meningdek bir vafoli bor,  
Seningdek bir xatosizda meningdek bir xatoli bor.

Hayot mezoniga dog'man duchor qilgan meni senga,  
Seningdek qayg'i-g'amsizda meningdek ming baloli bor.

Ajib holki, senda bori menda yo'qdir, netay endi:  
Meningdek bir riyosizda seningdek bir riyoli bor.

Sening anvo' xatti-holing meni dardga mutbalo qildi,  
Mendek dardi davosizda sendek g'aybiy davoli bor.

Senga insof, menga sabr-u qanoat bersin Ollohim,  
Seningdek kaj, gapga ko'nmasda mendek og'zi duoli bor.

Umid – Haq to'g'rilik solgay sening ko'nglingga,  
men derman:  
Seningdek bir xudosizda meningdek bir xudoli bor.

### 91 (15)

Kibrlanmang – bu qandillar o'chgovchidir, o'chgovchidir,  
Bir to'fonda, bir shamolda har yon cho'pday uchgovchidir.

Nimasiga kerilasiz shu o'tkinchi dunyomizning:  
Siz-u bizni – hammamizni qora tuproq quchgovchidir.

Nahot oddiy haqiqatni anglamoqlik qiyin bo'lsa:  
Bu dunyoga kelgan har zot u dunyoga ko'chgovchidir.

Men o'lmayman, deya, qani, qay biringiz aytolasiz?  
Har qandayin vallomat ham o'lim suvin ichgovchidir.

Boylik – dunyo, bola-chaqa, mashinalar, bu saroylar  
Qolib ketar sizdan ayro, bari sizdan kechguvchidir.

Biri sizga yasar tobut, bir yug‘uvchi yuvar sizni,  
Ikki quloch matodan kim sizga kafan bichguvchidir.

Faqat yaxshi ishlaringiz ikki dunyo sizga hamroh,  
Yomon yo‘lga boshlaganlar sizdan shaksiz qochguvchidir.



**«Ze» (z) tovshini zakoli, zokir qil!**



**92 (1)**

Qaro ko'zim, jahon tor o'ldi sensiz.  
Qaro sochim tamom qor o'ldi sensiz.

Zabarjad tonglarim bo'ldi qaro shom,  
Tola nurga ko'ngil zor o'ldi sensiz.

Yovuzlar tamg'asi botdi yurakka,  
Boshimda sa'valar sor o'ldi sensiz.

Go'zallik o'rnini qopladi dahshat,  
Yo'q desam jahannam bor o'ldi sensiz.

Qay yonga boqayin, nimani tutay?  
Ilojsizlik birmas, chor o'ldi sensiz.

Miraziz yo'q endi, yo'qdir olamda,  
Toptaldi va tor-u mor o'ldi sensiz.

**93 (2)**

Men orqamda qoldirdim to'rt o'g'il bila bir qiz,  
El uchun, ulus uchun shaydirlar ishga hargiz.

Agar ular so‘z aytsa, so‘zlari qilich bo‘lgay,  
Yetti o‘ylab kesgaylor, sanamay demay sakkiz.

Bog‘lamaslar jonlarin mol-dunyoga, bilishar:  
Bandasi o‘ttiz qilsa, Tangri qilishin to‘qqiz.

Sevinmaslar, kulmaslar o‘zganing kulfatiga,  
Madad berib o‘tarlar yo‘lda ko‘rinsa ojiz.

Keksalarni tutarlar qoshlarining ustida,  
Gilamlari bo‘lmasa, tagiga to‘shab kigiz.

Ibodatin qilarlar, zakotlarin berarlar,  
Shu zayl ona yerga otarlar chuqur ildiz.

Besh chanoqli ko‘sakday, musht kabi bitta ular,  
Oralarin buzolmas allaqanday betamiz.

Olloh ulardan rozi, vatan ulardan rozi,  
Chunki ulardan rozi otalari Miraziz.

### 94 (3)

Bu olamda mani bir mo‘jiza maftun etar hargiz,  
Bu – yellardir, shamollardir esib turgan gahi g‘iz-g‘iz.

Qara, salqin havolarni qayoqlardan olib kelgay,  
Qara, billur kabi bu soy, tiniq ko‘l mavjlanur tengsiz.

Olib kelgay u shudringli yam-yashil maysalar atrin,  
Qara, qanday bu kengliklar tarovatlar sochar cheksiz.

Aqiq lola ranglaridan gilamlar zap to‘qir o‘tloq,  
Bir yon chuchmoma-yu bir yon gunafsha, bir tomon yalpiz.

Teraklar bo‘ylarin rostlab shovullar bu shamollarda,  
Ularni quchgan mahal shom, eslanar Majnuni ojiz.

Mo'jizalar olib kelguvchi, ey yellar, bildiring menga:  
Kimdir u sizlarni bunday harakatga soluvchingiz?

Bilamanki, achchig'ingiz qistasa – siz falokatsiz,  
Mehringizdan darig' tutmang mudom bizni, der Miraziz.

### 95(4)

*Al-haaqqatu mal-haaqqat  
Va mo adrokā mal-haaqqa?*  
(69, 1-2)

U kun keljakadir shaksiz, shubhasiz  
Buguncha yuribsiz daraksiz, ha, siz!

U kun so'roq kuni, javoblar kuni,  
Boshga tushganida barin ko'rasiz.

Faqat sizda hozir yetishmas idrok,  
Gapni ilg'amaysiz sharh-ilovasiz.

Uday Kun hech qachon bo'lmagay! –deya  
Samud, Od qavmiday inkor qilasiz.

Milyon-milyonlarni bosib kassaga,  
Hech kim bilmaydi, deb davron surasiz.

Har neni ko'rguvchi esingizda yo'q,  
U esga soladi, yodga olasiz.

Bir marta yangraydi guldurak sasi,  
Samudlarday hurkib halok bo'lasiz.

Bir marta esajak bo'ron, izg'iriq,  
Odlarday sovqotib muzlab o'lasiz.

Sizlardan qolmagay hech qanday asar,  
Yo'q bo'lib ketasiz nom-nishonasiz.

Qur'on ta'sirida yozdim bularni,  
Sahvi bo'lsa afv et, Bandang Miraziz.

### 96 (5)

Sen kabi Shirin go'zalni qancha suysam shuncha oz,  
Yo'llaringda o'tda yonsam, qancha kuysam shuncha oz.

Men nechun Farhod bo'lmay, qo'lga olmay teshani?  
Bir imong-la tog'-u toshni qancha tuysam shuncha oz.

Do'st Sulaymon-la ko'rishmay, chumoliday, yor uchun,  
G'or ochay deb tog' asosin qancha o'ysam shuncha oz.

Yo Zarafshon cho'llarida kecha-kunduz yer surib,  
Oltinin olmoqqa do'nqlar qancha uysam shuncha oz.

Sen uchun va sen kabi ko'p yaxshi insonlarni deb,  
O'rtaga tinmay savoblar qancha qo'ysam shuncha oz.

Mirazizning fikri-yodi bir umrga shul erur:  
Yo'llaringda dardi ishqim qancha yoysam shuncha oz.

### 97 (6)

Ey, ko'ngil, qaydan yog'ildi senga to'z?  
Bir huzn yomg'urida titraydi ko'z.

Chora-tadbir, dori-darmon zoyemi,  
Yellara uchgaymi o'git, durri so'z?

Bog' kezarlar tor nimchali laylilar,  
Muncha tor nimcha tikkan qaysi zardo'z?

Och qovoqni, kul biroz oftob kabi,  
Chahchahlar-ku bulbullar, kelsa navro'z.

Ol ro'molchang, g'amga botma, to'zni art,  
Balki, qaytib ham kelar ul dilafro'z.

Ey, hazinlik bog'idan chiq, Miraziz,  
Muncha ham taftish etarsan o'zni o'z?!

## 98 (7)

Keldi qutli, serquyosh Yangi Kun – ayyom Navro'z  
Hasrati ko'klarga yetgan yurt uchun in'om Navro'z.

Yerni sevgan bir ulusning bayramin tortib olib  
Allakimlar dam urardi: «El uchun bekom navro'z».

O'zлari bekom bo'lib daf' bo'ldilar oralardan,  
Uyushqoqlik keltirdi qayta yuksak maqom Navro'z.

Chittigul!– deb («chiqdi gul!» deb) sakrashar bolajonlar,  
Bo'yga yetgan navrastalar quvnashar mudom Navro'z.

Doshqozonga sumalakka tosh tashlab kavlar qizlar,  
Kelin-kevat, juvon, momo – bari xushkalom Navro'z.

Yaqin atrof tevarakda yigitlar gurunglashar,  
Yonida mesh, qo'llarida qimiz to'la jom Navro'z.

Tog'lar, qirlar gulga to'la, gullagan butun olam,  
Har vaqt shunday chiroyli gullar bodom Navro'z.

Mirazizning Yilboshida Yangi Kunga mehri ko'p,  
Uni hayron bo'lmanqiz sarxush etsa tamom Navro'z!

## 99 (8)

Yozning issiqlari ayovsiz biroz,  
Yuraklar entikib holsizlanar yoz.

Bolalar u yoqda tursin, kattalar,  
Soya izlamagan sher ham bo'lar oz.

Issiqdan toshlar ham erib ketadi,  
Hovur yerdan ko'kka qilarkan parvoz.

Chumchuq, chittaklarning kesilar sasi,  
Shox-shoxalar ichra yutarlar ovoz.

Bulbullar tog'larga uchib ketarlar,  
Yovvoyi gullarga bo'larlar hamroz.

Eh, qushlar, har yoqqa qochmangiz, qushlar,  
Axir to'kinlik ham olib kelar yoz.

Kumush soqqalarday oppoq o'riklar  
Ko'kdan yerliklarga to'shaydi niyoz.

Rohatlarga cho'mar ularni ko'rib  
Dunyo go'zallari dilbar, sarvinoz.

Hali shaftoli bor, qovun sayli bor,  
Anjir, anorlar bor bir-biridan soz.

Gullar olovlanar shamlar singari,  
Ariqlar chalishar shildiratib soz.

Men esa bir daraxt tagida yotib,  
Sevgimga, she'rimga izlayman majoz.

## 100 (9)

Xazon yeli esib yetishganda kuz,  
Ko'ngil uvishuvi berib qolar yuz.

O't tushganday go'yo dov-daraxtlarga,  
Shildirab to'kilar yaproqlar yuz-yuz.

So'nadi gullarning yonar chirog'i,  
Bog'ni talar yellar kecha-yu kunduz.

Ariq bo'yalarida so'lar rayhonlar,  
Qurigan barglarin suzdirar hovuz.

Bedor azoblanib yotgan oshiqday  
Barcha daraxtlarda sarg'ayadi yuz.

Sovuq shamollarda vizillab shoxlar  
Ko'klarga qilichday tiklanar yovuz.

Majnuntol sochlari shitirlaganda  
Ko'zimdan to'kilar marjon-marjon muz.

### 101 (10)

Bu olamda kimim bor-u nimam bor sensiz?  
Fasllarim bo'lmasmidi bebahor sensiz!

Kulib turgan har dampingning bahosi yo'qdir,  
Qalb bo'lardi shunday onga intizor sensiz.

Ruhimdag'i oxiri yo'q doimiy bayram  
O'tib ketar, yo'q bo'lardi, bo'lib xor sensiz.

Talonchilar talab ketib tekin mol kabi  
Ro'zigorim bo'lar edi chorbozor sensiz.

Sen bilandir to'la-to'kis baxtli onlarim,  
Butun Toshkent bo'lar edi menga tor sensiz.

Seni menga bog'lab, O'zi qilgan marhamat,  
Shu sababdan qo'rqlay deyman: «Kimim bor sensiz?»

Mirazizdan vaqtibevaraqt borma gumonga,  
Hech qayoqqa bormas hech vaqt korbekor sensiz.

## 102 (11)

Maxsus izlamayman hech vaqt imtiyoz,  
Xushlamam yurishni sollanib tannoz.

El qatori yashash o'zi mukofot,  
Uning yozi yozim, ayozi ayoz.

Eng katta quvonchim ulus quvonchi,  
Vatan parvoz qilsa menda ham parvoz.

Agar ko'z-ko'z uchun bejalgan bo'lsa,  
She'rimda ham bo'lgay o'shandoq pardoz.

Bular atay shunday qilar, demanglar,  
Hech kim bunday ishgga bo'lmas ishqiboz.

O'tkir bo'lsa so'zi xalqimning agar,  
O'tkirdir, keskirdir menda ham ovoz.

Mirazizning fe'li bor-yo'g'i shundoq,  
Maftunlikdan Haqni aylaydi e'zoz.

## 103 (12)

Eh, nechun hech telegramizda yangramas she'riy ovoz?  
Yo'qsa kashf etmoq qiyinmi bitta tashbih yo majoz?

So'zlamoqni besharaflik deb bilarmi ba'zilar?  
Bir go'zal mardona so'z ham elga holbuki niyoz!

Yozni yoz de, qishni qish de, kuzni kuz de bemalol,  
Ne uchun kelsa ayoz, sen hech demassan: bu – ayoz.

Ishq agar kuydirsa kuygin, kuylagin sen hasrating,  
Tinglagaydir qon-qarindosh so'ylasang har qancha roz.

Bizga Olloh ne uchun bergen yurak, ko‘z birla til?  
Sen axir komil yaralding, qo‘lga ol ilhomli soz.

Miraziz A’zam emassan elga bergen umrini,  
Yoppa-yoshsan, rost hayotning kuylarin ayla og‘oz.



**«Sin» (s) tovshining sayrini sirli qil!**

س

**104 (1)**

Sinsa ko'ngul, chora anga dori-yu darmon emas,  
«G'unchakim, ochildi, butkarmak ani imkon emas».¹

Na hakimlar, na tabiblar bo'lmasun ovvoralar,  
Voqeotning boisi hech tandagi nuqson emas.

Sinsa ko'ngul, bois anga o'rtaga yo'q to'g'rilik,  
Laylini Qays, Qaysni Layli aldayur, – bo'hton emas.

Bu hayot g'oyat murakkab, oxiri yo'q bir makon,  
Mitti inshoot emas yo bir kichik ayvon emas.

Na imon-u na mehr bor, hamma boylik qasdida,  
Aldayur insonni inson, o'zga bir hayvon emas.

Miraziz A'zam, qachon sen pand yo'lin qilding mayl,  
Bu jahon pandni sevuvchi poklanar kayvon emas.

---

¹ Navoiy, «G'aroyib us-sig'ar», g'azal 234, 2-misra.

## 105 (2)

To‘g‘rilik orqada qolishdan qo‘rmas,  
Halollik ohista jilishdan qo‘rmas.

Qo‘rkitma qolding deb benom-benishon,  
Har ne bor fonyidan-sho‘rishdan qo‘rmas.

Diqqat bilan qara: shu go‘zal gullar  
Barg to‘kib birma-bir so‘lishdan qo‘rmas.

Haq so‘z aytish qiyin, ammo mard yigit  
Haqiqat boshida bo‘lishdan qo‘rmas.

Jamiyat baxtidir jasur insonlar,  
Tegrasи yov bilan to‘lishdan qo‘rmas.

Ey, Miraziz A’зам, ko‘rsat o‘g‘lingga:  
Tik daraxt tik turib o‘lishdan qo‘rmas.

## 106 (3)

Jihozlar izmida umrim, ulardan hech ketib bo‘lmas,  
Oqib ketmoqda dur vaqtim, quloch otib yetib bo‘lmas.

Qilar ishning adosi yo‘q, iblisning din, xudosi yo‘q,  
Kelishmoqning iloji yo‘q, bitim shartin bitib bo‘lmas.

Jamoat ichra ko‘p illat, yolg‘izlik ayri bir zulmat,  
O‘zingni qayga qo‘ygaysan, arosatda yotib bo‘lmas.

Ko‘z ochsang:

bir go‘zal nayson... ko‘rkin she’rga qamay deysan,  
O‘tib ketgay ajib fursat, ilkidin hech tutib bo‘lmas.

Bahor toshqinlari toshgay, ko‘ngulda boshlanar tug‘yon,  
Samolarga kelar uchgинг, bu dardni sharh etib bo‘lmas.

Oyo, tog'larga ketgim bor, biroq bir sir ayon menga:  
Bermasa Haq izn senga, bir dovondan o'tib bo'lmas.

Lahzalar baridan ushla, Miraziz uyg'ot bolangni,  
Haq yo'lin ko'rsatmasang tez, keyin hech uyg'otib bo'lmas.

### **107 (4)**

Imkonsiz kun bo'lar, gaplashib bo'lmas,  
U chog' hech kim bilan bellashib bo'lmas.

Shu bugun yarashing yovingiz bilan,  
Ertaga u bilan yarashib bo'lmas.

Haqni sevgan inson ulashar borin,  
Uning-chun hech nima talashib bo'lmas.

Agar imkon bo'lsa bugun ulashing,  
Ertaga yaxshilik ulashib bo'lmas.

### **108 (5)**

She'r ishiga uncha-muncha jon chidayolmas,  
San'at-imon birligiga xon chidayolmas.

San'atni-ku bir amallab egallah mumkin,  
Imon yukin olishga polvon chidayolmas.

Shunday ma'nilari borki she'r zimnida  
Chaqmoqqa uni oqil-u nodon chidayolmas.

Shaxs bo'lib dunyo maydonida turishga  
Shoiri davroni ham oson chidayolmas.

Sening she'ring, alamlaring sharhi tuzilsa,  
Eshitgani muallifi devon chidayolmas.

Xalq-u Vatan uchun to'kkan tomchi yoshingga  
Ko'kda quyosh, yerda tuproq, ummon chidayolmas.

Olloh o'zi madad bo'lsin senga, bekajon,  
Fikrlaring zalvoriga inson chidayolmas.

## 109 (6)

Ich-ichimda o'nmi, bilmam, kun ko'rар o'n bir nufus,  
Ich-ichimda har baloni aylagay sodir nufus.

Birlari boshlar gunohga aysh sari, ishrat sari,  
Ko'zlarimni xuddi ko'r qilmoqqa ham qodir nufus.

Birlari undar amalga, martaba, mansab sari,  
Hech balodan qaytmaguvchi, jangovar, botir nufus.

Birlari yaldoqlanib yolg'онни alqar, madh o'qir,  
Borni yo'q deb, yo'qni bor deb aylar yuzxotir nufus.

Har tarafga tortqilaydi ko'zni aylab shamg'alat,  
Etmasaydi e'tiqoddan mosuvo oxir nufus.

Eh, shukurkim, ich-ichimda jang qilib kun ko'rguvchi,  
Har balodan qutqaruvchi bor yana nodir nufus.

## 110 (7)

Muhabbat yo'q joyda shodlik ham bo'lmas,  
Na ishda, na yurtda obodlik bo'lmas.

Muhabbat bulbulni chahchahlatuvchi,  
Usiz umid... ilhom... kushodlik bo'lmas.

Muhabbat bo'lmasa hayot ne kerak?  
Yuz yillik umr ham murodlik bo'lmas.

Muhabbatli inson olar cho'qqini,  
Muhabbatsiz inson irshodlik bo'lmas.

Muhabbatli inson eng kuchli inson,  
Salga dod soluvchi, faryodlik bo'lmas.

Hurlik, ozodlikka umrin baxsh etar,  
Ko'nglida zarracha bedodlik bo'lmas.

Men, Miraziz A'zam, ko'p kuzatganman:  
Muhabbatsiz inson savodlik bo'lmas.



## «Shin» (sh) tovshining shonini sharif qil!

شىن

### 111 (1)

Senga ishqisi tushganidin sarg‘arib ketgan quyosh,  
Men ham oshiq, sarg‘ayurman, tinmagach ko‘zimda yosh.

Sen quyoshga qancha g‘alvir tutganingdan foyda yo‘q,  
Dardlari olamga ketgan, nurlari aylaydi fosh.

«Sen kichik bir zarradursan ul quyosh atrofida,  
Pastga tushgil, katta ketma», deb menga sen otma tosh.

Gar kichik bir zarradurman ul quyosh atrofida,  
Ishqim o‘ti haybati andoq, quyosh bermaydi dosh.

Sen, axir, bilmasmusenki, bitta zarrot portlasa,  
Naq qiyomat qo‘zg‘alur, yerda hayot bo‘lg‘oy odosh.

Mayli, sen jismimni past bil, har jismday xokdur ul,  
Ikkimiz tuproq bo‘lurmiz yo qarib, yo yoppa-yosh.

Ruhim, ammo, sen xayol qilg‘on kabi pastlikdamas,  
Ul – falakda, ko‘rsa, hushdan ayrilib qolguvsi bosh.

Haq mening jonimga solg‘on bul muhabbat mevasi  
Ham murakkab, hamda nozik, unga zargardek yonosh.

Ehtiyyot bo'l, otashin ishqimni yoqma, o'ynama, –  
Gapga uchta nuqta qo'ydi Miraziz – farzandi Shosh.

## 112 (2)

Ich-ichimda ming nadomat, ko'zlarim tubinda yosh,  
O'zga olamlarga holimdan xabar bergil, quyosh.

O'tdi yoshlik, ketdi qudrat, qo'lda imkon on qadar,  
Bor xazinam – sog'lig'imni men qachon etdim odosh?

Bu hayotning ko'ylari ko'p, so'qmog'i ko'p, vodarig',  
Haq qatig'a qay biri eltar deya ko'p qotdi bosh.

Ko'p adashdim, ko'p yiqildim, ko'p talon bo'ldi yurak,  
Bora-bora kichrayib ketdi bo'lib go'yoki mosh.

Men hayotning bunchalar yugrukligin bilmabmidim,  
Ne uchun naqdina vaqtim – oltinim etdim talosh?

Voh, ajal qoshimga kelsa, korima lozim o'lan  
Soz amallar qo'llarimda ozligi bo'lmoqda fosh.

Ayla, ey Naqqosh-u Xoliq, Miraziz A'zamga lutf:  
Umrining so'ngin bezatsin, ishlasin ozroq maosh.

## 113 (3)

Hayot – o'lim, sevinch – g'am , – bari bir butun yo'ldosh,  
Uchrashuv va ayriliq, boy ila yupun yo'ldosh.

Yig'lama, bu ne kulfat, bu ne balo dunyo, deb,  
Yuragim, isyonni qo'y, kunduz bilan tun yo'ldosh.

Musibatga yig'lama, qo'shning baxtiga sevin,  
Bir kuni bo'lgay senga serquyosh ochun yo'ldosh.

Nechun sabr qilmaysan, qanoatni bilmaysan,  
Tushun, axir, dunyoda: xushbaxt – bag'rixun yo'ldosh.

Qaqroq Yerning murodin o'ylab qo'ygan Hakim bor,  
Sahrolarga Jayhun-u, cho'llarga Sayhun yo'ldosh.

Joning halakligiga chidolmay shikva qilma,  
O'n besh qora tuningga o'n besh yorug' kun yo'ldosh.

Ibn Sinodan bilding: o'lim bu yangilanish,  
Miraziz A'zam, senga quvonchbaxsh yakun yo'ldosh.

### 114 (4)

Qolmasa sen alqagan insonda zarra aql-u hush,  
Senda ham qolmas u chog'da ikki karra aql-u hush.

Ko'rganing yor-u birodar, sevganing safdoshlaring  
Haqqamas, mansabga boqsa, senga – darra aql-u hush.

Hech yashashga toqating qolmay, qochib bir go'shaga  
Dardlaringni ichga yutsang, sudrar jarga aql-u hush.

Bitta men deb o'ylama, ko'plar sening holingdadir,  
Voh, uchib ketmoqda ko'kka parra-parra aql-u hush.

Chekka ovloq go'shalarda eh, qaniydi bo'zlamay,  
Bitta qalbday tortsa erdi Yerda na'ra aql-u hush.

Miraziz A'zamda ham xilvatnishinlik yo'q bo'lib,  
Bir yorilsa zo'r bo'lardi do'st-u yora aql-u hush.

### 115 (5)

Tong-saharning har minut, har oni xush,  
Eng birinchi shu'lalar g'ujg'oni xush.

Yangi kundan yayrashib chahchahlagan  
Qushchalarning sakrashi, sayroni xush.

Qirg'ovulning patlariday jilvirab  
Jilg'alarning oqishi, ilhoni xush.

Bolarilar jonsarak viz-vizlashib,  
Turfa gullar nektarin so'rgoni xush.

Tong tamoshosi uchun, ko'ngil uchun  
Har bir uyning manzari, ayvoni xush.

Ayniqsa sevgan kishing shoir esa  
Naq quyoshday xushlanib turgoni xush.

Biz ko'ngil bergen go'zalning har sasi,  
Titrab aytgan nazmining bayoni xush.

### 116 (6)

Yana ko'ngul bu kunlar qo'ynida g'ash,  
Nechun ko'ngul aro yonmoqda otash?

Nechun sevgi o'ti jonimga tushdi,  
Nechun ketmas xayolimdan parivash?

Nahot bilmas, bu o't tobi yomondur,  
Qaro yerga tiqar jonimni yakkash.

Ko'ngul der: – Mayli, badal anga jonim,  
Agar ish bersa andog' ayriboshlash.

Jon shirinmi, ishq shirinmi – fikr qil,  
Ne bo'lsa bo'lar. Kurash, qani kurash!

Yondirsa yondirar, bo'l, maydonga tush,  
Ko'rarsan, qanday go'zal bunday otash!

– Yo'q, ko'ngul, aytganingni qilolmam,  
Haq oldida uyatli bunday o'ylash.

**«Sod» (s) harfining saflarin sodiq qil!**

ص

**117 (1)**

Nima bor bu olamda yozgi ma'voday xolis,  
Go'zalligi hayotday, umri fanoday xolis?

Nima bor bu olamda o'zi fano bo'lsa ham,  
Ko'ngilni ezishlari xuddi navoday xolis?

Nima bor bu olamda o'zi navoday ezgin,  
Miqyos ila kenglikda xuddi samoday xolis?

Nima bor bu olamda o'zi samoday keng-u,  
Ko'ngilni tebratishda tonggi saboday xolis?

Nima bor bu olamda saboday xush tarovat,  
Bulbulni sayratuvchi guli ra'noday xolis?

Miraziz A'zam kular: – Nima desangiz deng-u,  
Bekamning fikrlari xuddi havoday xolis.

**118 (2)**

Har hasadgo'yning ishidan, ey Xudo, etgin xalos,  
G'iybat ahlining tishidan, ey Xudo, etgin xalos.

Sof ilmda ham amalda ish ko'ray, bu zumraning  
Ham o'tidan, ham qishidan, ey Xudo, etgin xalos.

Bu yorug' dunyoda ko'pdir haq ishin xizmatchisi,  
Qalbi ko'r, tambal kishidan, ey Xudo, etgin xalos.

Aybi ko'p bo'lsa elimning mag'firat et Sen o'zing,  
Izg'iriqlarning nishidan, ey Xudo, etgin xalos.

Qancha yeb ham to'ymaguvchi devsifat insonlarin  
Mol kabi qorni meshidan, ey Xudo, etgin xalos.

Yurtimizni ma'mur ayla, xalqimizni baxtli qil,  
Shoiringni ko'z yoshidan, ey Xudo, etgin xalos.

### 119 (3)

Bevaqt o'ldirsa odamni o'ladirar dunyoda hirs,  
Avvalo hech bir zararsiz kuldirar dunyoda hirs.

U go'zaldir, jonga rohat, zavq-u g'ayrat baxsh etar,  
Doimo oldinga tinmay jildirar dunyoda hirs.

Hirs – o'zi shiddatli istak, bir shirin orzu kabi,  
Shoshqaloqdir, besabr ish qildirar dunyoda hirs.

Yuksalarkan hech tabiiy holiga etmay nazar,  
Na tartib, na intizomni bildirar dunyoda hirs.

Shul sababli hirs ketidan ketsa kim, bilsin shuni:  
Bosh murodga yetmay oldin so'ladirar dunyoda hirs.

Miraziz A'zam bu so'zni so'zladi armon bilan,  
Derki: – Ey do'st, yillaringni yutqazar dunyoda hirs!

**120 (4)**

«Qissalar» demoqchi bo'lsa eskilar derkan «qasas».

Ruhga oid qancha ta'lif o'rnatish bergan qasas...

Rabg'uziyday bitdi kim noyob «Qasasi anbiyo»?

Qancha payg'ambar hayotini durday tergan «Qasas».

Barcha xalqda qissa ko'p:

«Ming bir kecha», «Maxabxorat»...

Barcha elda yaxshilikning tuxmini ekkan qasas.

To'g'ri, yerda ko'p odam bor turfa rang-u turfa fe'l,  
Qalbi yopiq kimsalarning joniga tekkan qasas.

U urushqoq kimsalardir yo talonchi zumrasi,  
Ketiga, oyog'iga botgay nuqul tikan qasas.

Goh otarlar ko'chirib u yon-bu yon, gohi yoqib –  
Kulsalar, qayta tirilgay ko'ksini kergan qasas.

Bir mehrki ma'niga boy, bir quvonchki, bir charog',  
Nurli o'qli qalbga urgay, vo ajab, mergan qasas.

**121 (5)**

Bizda non-suv emas, hozir kitob tanqis,  
«Borin o'qi!» deyolguvchi xitob tanqis.

Bozor-o'char, savdo-sotiq rivojlangan,  
Ta'lif ila tarbiyada shitob tanqis.

Chibinlarning qilmishini ochuvchi ko'p,  
Bo'rinishkin so'raydigan hisob tanqis.

Bo'lar-bo'lmas savollarni beraverma,  
E, baribir, savollarga javob tanqis.

Ey, Miraziz, tanqisliklar o'tar bir kun,  
Mana, hozir deyolmaysan: «Oftob tanqis».

«Zod» (z) tovshini ziyoli qil!



122 (1)

Sen o'zingni har doim baxtliman deb etgil farz,  
Shu farz – senga mo'miyo, bitgay qalbingdagi darz.

Ko'ngling to'qmi? Elingning farovonmi turmushi ? –  
Vassalom, zimmangda yo'q hech kimsadan biron qarz.

Sen o'zingcha yashayver, quraver, yarataver,  
Ustuvor bo'lzin doim senga shu hayotiy tarz.

Faqat ishonch, e'tiqod, imon bo'lzin yo'ldoshing,  
Haq yo'linda ish yurit – bu senga ilohiy farz.

Yaxshilik qil, suvgaga ot, daryoda baliq bilar,  
Bo'lmasa Xoliq bilar – shu asosda yashar arz.

Hech kimsaga zorlanma, qilma arz-u iltimos,  
Har tongda Mirazizday yorga ishqing ayla arz.

123 (2)

Dovdiratdi, telba qildi, jinni qildi bu araz,  
Shundog'am ojiz yurakni ikki tildi bu araz.

Bilmadim, qandoq bu kashshof – kashf qilar yo‘q narsani,  
Yo‘q gunohni bo‘ynimizga zumda ildi bu araz.

Uch kecha bir so‘z gapirmay, o‘z-o‘zin qulflab olib,  
Bizga boshi so‘qqalikni to‘g‘ri bildi bu araz.

Otgucha tong mijja qoqmay oh urib yotdim g‘arib,  
Parvo qilmay bir pichoqsiz qalbni shildi bu araz.

Hech qulq solmay gapimga, rashk o‘tida gurkirab,  
Sevgimizni sochlardan tortdi, yuldi bu araz.

Munchalar ham vahma qilding, vo darig‘o, Miraziz,  
Bori-yo‘g‘i uchgina kun ezdi, kuldi bu araz.

### 124 (3)

Chiqma uydan tashqariga, avjida achchiq ayoz,  
Izg‘iriqda, qor bosib, qotgancha uyquda riyoz.

Gung bo‘lib yotsam va lekin tilkalar nomus meni,  
Ko‘nglim ishsiz burkanib yotmoqqa hech qilmas taroz.

Bir g‘azal bitmoqqa ham ko‘nmas yurak, yo‘q kayfiyat,  
Bir satr bitsam ko‘zimga ko‘rinar mutloq sayoz.

Ne bilan mashg‘ul bo‘lay, netsam elim bo‘lgay rizo?  
Do‘sṭlarimning she’rlaridan tuzsammi yo ixcham bayoz?

Shu xayol sal jon ato qildi tanimga turg‘azib,  
Ha, aniqki, bu ishimga qilmag‘aylar e’tiroz.

Do‘sṭlarim dunyosida javlon urib ketdim uchib,  
Zoraki lutf etsa Tangrim, bersa ishimga u fayoz.

**125 (4)**

Istasam o'pich labidin, yor tilar bir she'r evaz,  
Yo'q desam, jilmaydi darhol, yo'qqa yo'qdir der evaz.

Ertasi o'n she'r uzatsam, shart bugun o'zgardi, der,  
Derki: kunga kun evazdir; derki: yerga yer evaz.

Men dedim: o'tmaydi hiyla ham dedim: o'tmas makr,  
U dedi: tulkiga tulki hamda sherga sher evaz.

Mayli, men har qancha shartga roziman, ammo, - dedim,-  
Sen haqimni bir to'lab qo'y, o'nta she'rga ber evaz.

U dedi: bir tun yozilgan o'nta she'rni naylayin,  
Men uchun bir dona she'rga o'n kun to'kilgan ter evaz.

Men dedim: bo'pti, kelishdik, lek, unutma sen shuni:  
Sen kabi qaysar xotinga men kabi zo'r er evaz.

Miraziz A'zam xayolan shul kabi bahslar aro  
Tunlari bedor pichirlab derki: she'rga she'r evaz!

**126 (5)**

Do'stlarim, siz o'ylamangki, menda sal ozdir g'araz,  
Bu xatodir, bilsangiz, menda g'arazbozdir g'araz.

Jumladan, aslo xavotir olmasin, yor oldida  
Ko'k sari yuksak samoga katta parvozdir g'araz.

Jumladan, bir bog' yaratmoq, bog'da bulbul chahchahi,  
Katta katda hofiz-u sozandan sozdir g'araz.

Jumladan, yozganlarimni to'plamoqki jildma jild,  
Ham terib qo'ymoq javonga, ko'p-ko'p mijozdir g'araz.

Eh, qo'yib bersangiz-u, ko'rsangiz ko'ngil ko'chasin,  
Unda yoshlik, navqironlik, ko'klam-u yozdir g'araz.

Eng asosiysi hamisha yorimizda kayfiyat,  
Doimiy oftobjamollik, doimiy nozdir g'araz.

Miraziz A'zam, yetar, bas, jinnilik bu qip-qizil,  
Kamtarinroq, kamsuqumroq bo'lsa gar sozdir g'araz.

## 127 (6)

Fasllar ichida saxiy fasl yoz,  
Yoz dema, eng ko'p fayz beruvchi fayyoz.

Chillaki uzum-u jonoqi olma,  
Bodring-u handalak bir-biridan soz.

Har yonda ma'murlik, baraka, quvonch,  
Ko'ngil ravshanligi kunlarga pardoz.

Yoyar go'zalliklar ko'rgazmasini,  
Faqt saratoni kuydirar biroz.

Issiqdan toshlar ham erib ketadi,  
Hovur yerdan ko'kka qiladi parvoz.

Chumchuq-chittaklarning kesilar sasi,  
Shox-shabbalar aro bermaslar ovoz.

Bulbullar tog'larga uchib ketadi,  
Yovvoyi gullarga bo'lishar hamroz.

Axir, nima bo'pti, yaxshi narsada  
Mundayroq jihat ham bo'ladi biroz?!

Kelaver, saraton, issig'ing bilan,  
Mening saxiy faslim, jazirama yoz!

## «To‘» (t) tovshining tavrini ta’bli qil!



### 128 (1)

Yor «badal – sevging uchun»,

deb qo‘ydi bir savdoni shart:

«Hukm etish mendan, senga qoldirgum bir ijroni shart!»

«Roziman», deb va’da berdim, ayladim shartin qabul,  
Ayladi ul izlarida o’stirish ra’noni shart.

«Izlaringda o’stiray bog‘, ne ekan ra’no» dedim,  
«O‘yla ersa Bog‘i Eram qilmog‘ing sahroni shart».

Men dedimki: «Rozidurman, ayt, yana bormi gaping?»  
Ul dediki: «Zulflarimga osmog‘ing tangoni shart».

Bundayin xush shartidan men yayradim mas’ud bo‘lib,  
Holbuki, men rozi erdim qo‘ysa ham tilloni shart.

Ul dedi: «Oltin qafasda sa’va keltir, tillashay!»  
Ortdi sevgim... keltirardim qilsa ham go‘yoni shart.

Miraziz A’zam kabi men aytar erdim bitta gap:  
«Men kabi Majnunga bermoq sen kabi Layloni shart!..»

**129 (2)**

«Ifrot» demak «haddan oshish», o‘g‘lim, xato ishdir ifrot, Oshirdim deb sevinma hech, o‘z-o‘zingga nishdir ifrot.

Ko‘ngil yumshoqligi yaxshi, oshiq bo‘lsa ammo yomon, Senga shumlik bo‘lib qaytar, ko‘ngil uchun qishdir ifrot.

Ibodatdan ustuni yo‘q, yaxshilikdan afzali yo‘q, Ammo amal qil mezonga, keraksiz yumushdir ifrot.

Bir ish qilsang vaqtida qil, dam olsang ham kerakcha ol, Ortiqchasi xasta qilar, umrni qirishdir ifrot.

Gar bemaza bo‘lsa qovun urug‘i ko‘p bo‘lar, axir, Odam ta’bin xira qilar, mazasi yo‘q ishdir ifrot.

O‘g‘lim, otang Mirazidday oltin vaqting qilma zoye, O‘rtacha yur bilib-bilib, vaqtini sovurishdir ifrot.

**130 (3)**

O‘g‘lim, yana aytib qo‘yay, ifrotning aksi bor: tafrit! Tafrit qilma hech bir ishda, bo‘lmasin senga yor tafrit.

Tafrit bu ya’ni sustkashlik, ortda qolish do‘s-t-u yordan, Atvoringdan o‘rin berma, baxt keltirmas zinhor tafrit.

Ishga borma kechikkancha, joyingda bo‘l keragingda, Senga muhtoj kishilar bor, qilar mushkulni tor tafrit.

Ibodat qil keragicha, o‘z vaqtida, kamaytirmay, Qisqartirma uni aslo, seni etar nochor tafrit.

Tug‘im degan to‘qqiz oydir, bodom gullar o‘z oyida, Bir yil esa to‘rt fasldir, sudraladi bekor tafrit.

Ifrot bilan tafrit, o'g'lim, shaytonlarning hunaridir.  
Ortga tortar yo shoshirar, mo'tadil bo'l, etma yor tafrit.

### 131 (4)

Ey, hur inson, tushundim, to'plading ozroq bisot,  
Ko'nglingning osmonida kuy chalar yangroq bisot.

E'tirozga o'rin yo'q, halolidan mol yig'ding,  
Terlab-pishib ishlading, aslida bu oq bisot.

Mol-mulk, sandiq, tillolar, hashamatli uy-joylar –  
Bari hayot ziynati, bamisli charoq bisot.

Lekin ba'zi xislatlar uning nomiga bog'liq:  
Bolalaring ichida boshlaydi nifoq bisot.

Shaxsan sening o'zingga unchalik vafo qilmas,  
Zavqini suray desang, orqangda biroq bisot.

El aro undan senga yaxshi-yomon ot qolmas,  
Sen bilan ishi yo'qdir, bo'lmagay o'rtoq bisot.

Sendan soz ishlar qolsa, u dunyo – bu dunyoda,  
Nomining uzra turuvchi shu mangu uyg'oq bisot.

### 132 (5)

Men uchun ohanraboli, sevgi haqda bo'lsa xat,  
Bir quyilgan sof havoli, sevgi haqda bo'lsa xat.

Eng talabchan, ko'pni ko'rgan – hammaga ham, men kabi  
Xasta qalbga ko'p shifoli, sevgi haqda bo'lsa xat.

Birda mas'ud hamda baxtli, naq samolarda uchib,  
Birda g'amli, benavoli, sevgi haqda bo'lsa xat.

Ham sadoqat, ham matonat tarixidan so'z ochar,  
Yo jafoli ham riyoli, sevgi haqda bo'lsa xat.

«Sevgi kuchli ham o'limdan, ham o'limning vahmidan», –  
Shu darak, shunday sadoli, sevgi haqda bo'lsa xat.

«Sevgili insongina shu nomga haqli aslida» –  
Bor faqat shunday quroli, sevgi haqda bo'lsa xat.

Sevgi ummoniga cho'mgan Mirazizday hamma ham, –  
Hammaga shu bois oliv, sevgi haqda bo'lsa xat.

### 133 (6)

Odam holin bayon etgay sharoit,  
Uyin ko'rsang, ayon etgay sharoit.

Rang ko'r-u, hol so'r, demaslar bekorga  
Tarzidan bir nishon etgay sharoit.

Agarki ma'mur o'lsa, bilki, uyda  
Ko'nglingni osmon etgay sharoit.

Yaxshilik hukm sursa iqlimingda  
Zamoning xush zamon etgay sharoit.

Baxt yaratmoqqa agar bo'lsa imkon,  
Imoningni omon etgay sharoit.

Odamiylik oyoq ostida qolsa,  
Saodatni gumon etgay sharoit.

Bu holda muqarrar Mirazizning  
Yurak-bag'rini qon etgay sharoit.



**«Zo‘» (z) tovshining zalvorin zilday qil!**



**134 (1)**

Kichiklikdan xayol surdim – hayotim o‘tdi shu alpoz,  
Musibat changida yurdim–hayotim o‘tdi shu alpoz.

Urush otlig‘ ajdaho-ajdar otamni yamlamay yutdi,  
Yetimlik zahrini yutdim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

Yetimlikda onamdan ko‘p mehr ko‘rdim bu dunyoda,  
Murabbiyidan mehr ko‘rdim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

Necha yillar hidoyatda, talay qismi jaholatda –  
Yarim johil, yarim olim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

O‘zimga ko‘p kitob yig‘dim, bolamga boshpana qurdim,  
Uy-joy oldim, uy-joy qurdim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

Gohida yorni unutdim, shu bois chiqди izmimdan,  
Oilamni barbod ko‘rdim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

Sabrim uchun mukofotday mehribonlik qildi Olloh,  
Yangi uyli-joyli bo‘ldim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

Ekkanlarim berdi hosil – o‘g‘illarim bo‘ldi shahvor,  
Qarovsiz qolmadi holim – hayotim o‘tdi shu alpoz.

### 135 (2)

Mahkam bo'lar er yigit, shahsuvorda lafz,  
Vijdoni pok, kechalari bedorda lafz.

Butun bo'lar, pishiq bo'lar, puxta bo'lar  
Esi butun, vijdoni but hushyorda lafz.

U yon – bu yon borib-kelib, ming turlanib,  
O'zgaradi faqatgina bozorda lafz.

Ammo-lekin, bilish kerak, bo'lmaydi u  
Millatiga, Vataniga ag'yorda lafz.

Bajaramiz, ado bo'lar deyaverar  
Yozdami yo, qishdami yo, bahorda lafz.

Bet qalinin jon rohati, deb biladi,  
Bo'larmidi beti qalin devorda lafz?

Hech zamonda bo'larmidi ayyorda lafz?  
O'roqda yo'q, xirmon uza tayyorda lafz?

So'zlarini olib ketar o'zi bilan,  
Uning bilan ko'miladi mozorda lafz.

Ey, Miraziz, bilib qo'yki, holing yomon:  
Bo'larmidi hech ko'zlari xumorda lafz?

### 136 (3)

Ichimdan un berar tashvishli voiz,  
Goh mehrli ota, goh tishli voiz.

Derki u: – Sen kimsan, ko'lankamisan?  
Nega o'ylamaysan? – der nishli voiz.

– Dunyoni tush ko'rgan yo'lovchimisan?  
Haqni izla, – deydi nolishli voiz.

Titraysan olamda jonsiz nuqtaday –  
Asli sen alamlı, sho'rishli voiz.

Issiq ishonch bergan goh yozli voiz,  
O'limdan so'ylovchi goh qishli voiz.

Goh uyquga cho/msam g'aflat suvida,  
Mendan achchiqlangan qarg'ishli voiz.

Ishlasam ko/nglimga solgich hidoyat,  
Shundoq his etishli, sezishli voiz.

Miraziz, yuzingni o/girma undan –  
Har so/ziga qulq berishli voiz.

### 137 (4)

Til tekizmang shoirga, ani Olloh aylagan mahfuz,  
El tili bo'lgin deya, illoh-billoh, aylagan mahfuz.

Agar madihago/y bo'lsa, laganbardor, tilyog/lama,  
O'ylamangki, ularni ham etgan, evoh, aylagan mahfuz.

Va lekin yurt, vatan dardi qayu shoirni band etsa  
O'shal shoirga el-yurt ham berib panoh, aylagan mahfuz.

Haq ishin shoir qachonki vijdon ishi bilgan mahal,  
Tangri uni zirhli qilgan, bihamdilloh, aylagan mahfuz.

Sen ersa, Miraziz A/zam, maddohlar zumrasi oshganda  
O'zingni tut, bil, seni ham, shukurulloh, aylagan mahfuz.

## 138 (5)

Bu dunyoning kishiga ruh berar asrоридир hofiz,  
Mudragan elni uyg'otgich sharor-darkоридир hofiz.

Qaysi elning til uchida kalomlar to'planib qolsa,  
Ularni ko'kka yoyguvchi ko'ngil izhorидир hofiz.

Agar oshiq ila ma'shuq orosi yo'l uzoq bo'lsa,  
Qiynalishga hech asos yo'q, alar diydorидир hofiz.

O'yin-kulgi ham ovozni pullamoq emasdir maqsud,  
Buyuk san'at saroyining buyuk devorидир hofiz.

Agarki xalq tirik bo'lsa, tirik xalqdan chiqar doim,  
Ayni chog'da u timsoldir, millat iqtidorидир hofiz.

Muhtasham zal, sahnalarda kuylar elning orzu-armonin,  
Aziz, qudratli bir xalqning nomus-u oridir hofiz.

Mulla To'ychi, Jo'raxon-u, Ma'murjonlar kabi xushxon  
Hofizlaring ko'p, Miraziz, san'at sardorидир – hofiz.



**«Ayn» (‘) tovshining adlini ayon qil!**

ع

**139 (1)**

Kema sayriga ummonda bo‘lur aksar to‘fon mone’,  
Mening sayrimda ko‘yingda bo‘lmaydi biron mone’.

Tikonli yo dovonli-jarli yo‘llarni pisand etmam,  
Na qaqshatqich sovuq bo‘lgay, na menga qahraton mone’.

Sening mavjudliging yerda hayotimga kafolatdir,  
Razil kuchlar oromizga qo‘yolmas lomakon mone’.

Yuzingning oftobiga to‘yolmay o‘lmagim yo‘qdir,  
Bo‘lolmas senga yetmakka menga ikki jahon mone’.

Dema: Ey Miraziz A’zam, lof etma, ishq zahmati zildir,  
Vahm bermas menga, garchi yo‘limda ming nihon mone’.

Abad takrorim uldirki: xohi oshkor, xohi pinhon,  
Sharaflarman seni mangu, bu yo‘lda yo‘q, kalon mone’.

**140 (2)**

Ne ko‘yga solmadi jonni, ko‘ringlar, nayladi tole’:  
Yoshim beshga yetar-yetmas yetimcha ayladi tole’.

Yetimlikni ko‘rar ko‘plar, qadrsizlik og‘ir ammo,  
Yovuzlarga qaram bo‘lgan zamonga boyladi tole’.

Engil-boshim yamoq-yirtiq, jujuqman – muttasil ochman,  
Za’faron jismimni qashshoq makonga joyladi tole’.

Siniq ruhim, o‘zimning o‘z tilimda so‘zlamoq chekli,  
Meni sillar qatoriga qo‘shishga sayladi tole’.

Rahm-shafqat kalomin ham unutganki «og‘am» bo‘lmish,  
Qamoqlarda «nachaylik»ning tomog‘in moyladi tole’.

Ziyo ahli – buyuk zotlar – qirilgandi, otilgandi,  
O‘qib, kimman? – bilib oldim. Kurashga shayladi tole’.

Qaramlikdan qutuldik so‘ng, kirib ozod bu yillarga,  
Shukur, umrim poyonida menga lutf ayladi tole’.

### 141 (3)

Azizim, tama’ qilma, xo‘rlik keltirar tama’,  
O‘zlikni unutarsan – ko‘rlik keltirar tama’.

Sen sevmagan kishilar seni aylar kalaka –  
Bir boshingga ming ta’na – jo‘rlik keltirar tama’.

Shuhrat, mansab tilaysan, buning nesi tama’ deb,  
Xomxayollik qilasan – g‘o‘rlik keltirar tama’.

Yetishmasa bir nimang, oshkor etma olamga –  
Kuchsizlarni teparlar – zo‘rlik keltirar tama’.

Dunyoning eng boyi san, tik tut qadding, egilma,  
Yo‘qsa, qopqang tagiga go‘rlik keltirar tama’.

Bir vaj bilan Miraziz A’zam aytdi bu so‘zni:  
Unutma, peshonangga sho‘rlik keltirar tama’.

**142 (4)**

Nechun notinch qiyomatlar jahonda har mahal voqe'?  
Oldinam shundaymidi ul zamonda har mahal 'voqe'?

Gohi o'rmonida yong'in, gohi daryosida toshqin  
Farangiston, Majoriston, Olmonda har mahal voqe'.

Gahi shiddatli yellarki, havoga otguchi barin  
Kolumbiya va Chilida va Bostonda har mahal voqe'.

Yer qimirlash yoki yamlash qachon boqmang yaponlarda,  
Endi Pokiston, Istanbul va Eronda har mahal voqe'.

Gahi yong'in, gahi toshqin O'rusiya tarafda ham,  
Maskov viloyati, Oltoy ham Qozonda har mahal voqe'.

Bular bari biron belgi emasmi – o'ylamas inson –  
Qirg'inalar-u urushlar har tomonda har mahal voqe'.

Turli dinlar va millatlar, qavmlararo borar janjal,  
Goh AQSh, goh Iroqda, goh Afg'onda har mahal voqe'.

Muhammad va Yahudo ummati tinmas urushlardan,  
Goh Falastin, goh Sinayda, goh Livonda har mahal voqe'.

Nahot Qobil va Hobilning muammosi tiganmas hech?  
Miraziz der: tuzal inson, yo'qsa ular har mahal voqe'.

**143 (5)**

Rizq-u non ozodligimdir, hech kim nonni etmasin zoye',  
Uning-chun ko'p to'kilgan qon, hech kim qonni etmasin zoye'.

Eng buyuk armug'ondir u, xomxayollik qilib bexos  
Biron kimsa bu ehsonni, bu imkonni etmasin zoye'.

Ulug' Qonun qabul bo'lgan modda-modda necha sonlig',  
Biron kimsa biron modda, biron sonni etmasin zoye'.

Bu shunday bir yashil bog'ki, hali nimjon niholi ko'p,  
Bu orzu bog'ini hech kim, bu bo'stonni etmasin zoye'.

Saodat gulshanin barpo etishga bel bog'lagan yoshlar,  
Biron kimsa yosh-yalangdan bir insonni etmasin zoye'.

Mustaqillikni amalda sotishga shay bo'lmasin hech kim,  
Mustaqillik – el uchun jon, bu jonni etmasin zoye'.

Ozodlikni, istiqlolni sharaf, shon deb bilar mardlar,  
Chiqib yo'ldan ahmoq kimsa, sharaf, shonni etmasin zoye'.



**«G‘ayn» (g‘) tovushli g‘azallarni g‘aybli qil!**



**144 (1)**

Yonimda sen bo‘lsang tunlar ham yorug‘,  
Bo‘lmasang jannat ham bamisli tomug‘.

Sen ketsang keng olam bo‘lib ketar tor,  
Kelsang kichik kulbam olamday ulug‘.

Sensiz to‘kin bog‘im bo‘lgaydir xazon,  
Sen-la bog‘larimning hosili bo‘lug‘.

Bu olam muattar nafasing bilan,  
Bu hayot samoviy ma’noga to‘lug‘.

Yuragim charchamas maydon ichinda,  
Sening borliging – bu, ko‘nglumdag‘i tug‘.

**145 (2)**

Deydilarki, Hazrati Iso qocharmish tog‘ma-tog‘.  
– Ne uchun qochmoqdasan? – deb berdilar anga so‘rog‘.

U dedikim: – Qoshima kelmoqda bir ahmoq odam,  
Qochmasam ahmoq odamdan, ul solar ko‘nglumga dog‘.

– Ey Masih, sen Tangrimizning ruhisan-ku, elchisi –  
Bandalarni tirdizuvchi, jon oluvchi beyarog‘!

Qo‘rqasanmi bitta ahmoq, befarosat bandadan?  
U dedi: – Bu – Tangri qahri, Tangri qo‘ygan bir tuzog‘.

Bas kelolmas anga banda, anga Tangri bas kelar,  
Anga tik borganni Tangri chun o‘zi qo‘ymaydi sog‘.

– Ey Masih, ahmoq odamga yo‘qmi chora Yerda hech,  
Ul yurarmi boshimizga Yerda qo‘ygancha oyog‘?!

– Yo‘q, – dedi Iso javoban, – ul jazo topqusidir:  
Har kishi ahmoq odamdan o‘zlugun tortgay uzog‘.

Yakka moxovday ul ahmoq kun ko‘rar bir kulbada,  
Chiqmay indan misli sichqon, ko‘rmay mehr misli zog‘.

Hech ko‘paytmas Tangrimiz ahmoq odamning tuxmini  
Bolasiz yolg‘iz yashar ul yoki bir juft – befarog‘,

Oxiratda kul bo‘lur do‘zax o‘tida qo‘llari,  
Yerdagi shumliklari unda bo‘lolmas hech yarog‘.

Ortidan yutgay jahannam jodugar alvastisin...  
Balki bizga bergay Olloh boshqa hikmat – bir charog‘.

Hissa shulkim, hech olishmang, ko‘rsangiz, ahmoq bilan  
Miraziz A’zam, Isoning holdin olgil sabog‘.

### 146 (3)

Men uyingga borgum bir kun quyun yanglig‘,  
Bir tabassum, hazil-huzul, o‘yun yanglig‘.

Qo‘rqma sira, bir muammo orttirmasman  
Va boshingni og‘ritmasman tugun yanglig‘.

Yig'latmasman, ko'zlariningni achitmasman  
Va buzmasman iqlimingni tutun yanglig'.

Osmoningdan xotiralar yulduzini  
Yog'dirarman balki biron oq tun yanglig'.

Gaplasharmiz biron soat, ikki soat,  
Kulisharmiz, ha, baxtimiz butun yanglig'.

So'ng qaytadan ajrasharmiz ikki yoqqa,  
Xo'shlasharmiz hiqillagan bir un yanglig'.

So'ng qaytadan unutarsan Azizingni  
Bir lahzalik xayol yanglig', afsun yanglig'.

### 147 (4)

Pardaga cho'mgan quyoshdek mehribonimni bu chog'  
Ko'rmayin, g'am seli bosdi xush jahonimni bu chog'.

Eh, qachon chiqqay quyoshim deb, bo'larman intizor,  
Bir bo'lakcha intizorlik qirdi jonimni bu chog'.

Ul kecha ketgan safarga gullagan vodiy tomon,  
Men kutarman shiddati qattiq yomonimni bu chog'.

Mijja qoqmay ming xavotir birla kutsam ertani,  
Bir qizillik ichra ko'rdim lola tongimni bu chog'.

Ey quyoshim, mehribonim, porla tez va ber xabar,  
Ich-ichimdan tarqatar kim badgumonimni bu chog'?

### 148 (5)

Bu hayot nedir, desangiz, men degayman: Tangritog'!  
Tangritog'ni zabit etganning ko'ngli gullar misli bog'.

Tangritog‘ni zabit etish, lek, unchalik oson emas,  
Zo‘r matonat, kuch kerak, chun har qadamda bor tuzog‘.

Tanritog‘ning to‘rt yog‘ida bor qora o‘rmonlari,  
Sal bo‘sashsang bir yovuz hayvon seni qo‘ymaydi sog‘.

Bir tarafda ukki, boyqush ko‘z tikar senga sovuq,  
Bir tarafda gap tashirlar zag‘izg‘on, qorayalog‘.

Tangritog‘ni zabit etishda yetti o‘ylab bitta yur,  
El bilan birga qadam bos, yo‘qsa topmassan farog‘.

Haq uchun, hurlik uchun aql-u zakovat, ong bilan  
Ish yurit, yolg‘iz ilm, tadbir senga bo‘lsin yarog‘.

Maqsading, qalbing agar pok bo‘lsa mutloq yengasan,  
Miraziz ko‘rdi buni va egdi bo‘ynin unga tog‘.

## 149 (6)

Yedi qancha umrimni g‘aflat ila nodonlig‘,  
Yedi qolgan-qutganin anduh-u pushaymonlig‘.

Soxta ilm fitnasi qanday zulm ekanki,  
Kech kelib yetdi menga pokiza musulmonlig‘.

Nechun barvaqt yig‘madim umrimning mevalarin?  
Ko‘p zoye’ ketdi, deyman, – naf’ keltirmas hayronlig‘.

Peshonamga bitgani o‘shal zamonmi edi?  
Yillarimni yeb o‘tdi qancha zamon yolg‘onlig‘.

Noshukurlik xayrsiz, shukur, sog‘man... ilhomli...  
Bilmam, qay narxga loyiq ammo bunday omonlig‘?

Tangrim, o'zing qodirсан, meni ham qodir ayla,  
Kamimni to'ldirishda ato etgil osonlig'.

Miraziz A'zam, endi hech fursatni boy berma,  
Bo'lgin endi har doim pishiq-puxta paymonlig'.



## «Fe» (f) tovshining fikratin fasih qil!

ف

### 150 (1)

Yo'lda tinchlik-barqarorlik ham havolar bo'lsa sof  
Xush o'tur sayr-u sayohat, oshinolar bo'lsa sof.

Kim sevinmas ko'klaringda sirg'alib uchsa qo'shiq,  
Soxtalikdan xoli bo'lsa, kuy-navolar bo'lsa sof.

Kim yugurmas ikkala oyoqni ham qo'lga olib,  
Xalq uchun undovlaringda sas-sadolar bo'lsa sof.

Eh, mening emin-u erkin, imoni mustahkam elim  
Ishni boshga durra deb bilgay, sabolar bo'lsa sof.

Ham ishonch-la zikr etar Ollohini, chunki bilar,  
Chunki Ollohi madadkor, madh-sanolar bo'lsa sof.

Har so'rالgan narsasi haqlik bilan, ixlos bilan  
Mutlaqo ijob bo'lar xolis duolar bo'lsa sof.

Mustaqillik – yangi yo'ldir, bir safarki, so'ngi yo'q,  
Bu safarda yuksalar xalq, muddaolar bo'lsa sof.

**151 (2)**

Er yigitning, toza qizning boshida tojdir sharaf,  
Er yigitda, toza qizda oddiy mizojdir sharaf.

Bu mizojsli qiz-yigitga har mahal yo'ldoshdir or,  
Ko'klara yuksaltiruvchi tungi me'rojdir sharaf.

Bu ularga shunchaki bir ichlari bo'sh so'z emas,  
Bir chiroyli, pok yashashga tengi yo'q iloj sharaf.

Aslida bu pok tushuncha ko'pchilikka xos emas,  
Er yigitga, toza qizga doimo muhtoj sharaf.

Nafs bila ovvora bo'lgan nafsiga qullar uchun  
Mulkiga ziyon beruvchi alla ne bojdir sharaf.

Miraziz boshin baland tutgancha derki faxr ila:  
Men zaifmizoj emasman, menga ham tojdir sharaf.

**152 (3)**

Bo'yiga yetgan go'zalning doimo boshida xavf,  
Ayniqsa, kundan kun ortar o'n sakkiz yoshida xavf.

Ham go'zaldir, ham yetukdir yozda pishgan olmaday,  
Ichida ortgay o'zidan, boshqadan toshida xavf.

O'zi-ku o'z holidin olmay xabar sakrar mudom,  
Suvda suzsa suvida bor, yo'lda qum-toshida xavf.

Yo'ldagi har bir yigitni do'st bilar, cholni – ota,  
Bilmaksi, bordir uning-chun yo'lda yo'ldoshida xavf.

Qo'llaganday ba'zi kaslar oshirarlar oyligin,  
Ko'rmas u ma'suma sho'rlik fitna maoshida xavf.

O'zlogin bilsin go'zal qiz sabr ila, odob ila,  
Qo'rmasin, sevsin hayotni, yo'qdir bardoshida xavf.

Har go'zalga hamma suq-la ko'z tikar, lekin aniq:  
Yo'q hayot farroshida hamda naqqoshida xavf.

### 153 (4)

Iloho, har o'g'il-qizga ber insof,  
Katta-kichik jumlamizga ber insof.

Qaro tun aro yo'lda adashtirma,  
Chirog'i bor qaro ko'zga ber insof.

Oqillar suhbatiga qo'shma johil,  
Qo'shilsa, ul betamizga ber insof.

So'z bahosi— qadrini saqla omon,  
Sayroqi ojiz og'izga ber insof.

Faqir insonni ko'rgan qalbga nur ber,  
Haqni bilmas rahmsizga ber insof.

Yegan-ichgan paytida o'zgani ham  
O'ylasin bir, Mirazizga ber insof.

### 154 (5)

Biz taraf shunday tarafki, unda bayroqdir sharaf,  
Or-u nomussiz sharafni hech sevolmas biz taraf.

O'zga millat noniga ko'z bog'lamas bizning elat,  
Unga bunday yo'l-yo'riqni qoldirib ketgan salaf.

Boshqalar bu gaplarimdan kulmasinlar, iltimos,  
Biz ham oddiy bitta durmiz, yer esa bitta sadaf.

Yo‘q, bironta el deyolmas, biz faqat dur, biz faqat,  
Hamma millat qatlarida shubhasiz bordir alaf.

Hamma xalqning o‘zga-o‘zga san’ati bor, rangi bor,  
Doirani kimlari der childirma yo chirmando, daf.

Farqni o‘ylash, farqni izlash uncha katta ayb emas,  
O, qaniydi bo‘lsa erdi hamma xalqlar bitta saf.

Miraziz A’zamni fikri-yodida bir o‘y faqat:  
U taraf ham, bu taraf ham bo‘lmasin hech vaqt talaf.



**«Qof» (q) tovshining qalbiga qanot ber!**

ق

**155 (1)**

Bo‘yi roppa-rasodir menga loyiq,  
Bo‘yi bo‘yimga, eni enga loyiq.

Tanbeh berarki: «Teng tengi birla!  
U paridir, odami senga loyiq!»

«Bilaman, – derman raqibga jilmayib, –  
Men temirga, u-chi oltinga loyiq!»

«Nechuk unda etarsan iddaolar,  
Topgan gaping: menga loyiq, menga loyiq!»

Ha, Miraziz tuproq, ammo ko‘ngli sulton,  
Shu sabab sultoni husnga loyiq.

**156 (2)**

Ayladi davron meni sendan yiroq, ko‘zdan yiroq,  
Yaxshiki, bechora ko‘nglim sen bilan ketdi biroq.

Shu usul birla yashashga bir iloj topdim, sanam,  
Mendagi yulduz xayoling umrima bo‘ldi chiroq.

Ammo men qanday yashirgum, Haq ko'rib turgan esa,  
Sendan ayrilgan yurak qon, etmasin hech kim maroq.

Ko'rsa bu holimni bir bor dodlab yuborgaydi hakim,  
Elda bu afsona bo'lган holni eshitgach har qulqoq.

Miraziz, afg'onni bas qil, fikratingni ishga sol,  
Yo raqiblar yo'llaringga to'ldirarlar ming tuzoq.

### 157 (3)

Do'st-u yordan qoldi ko'nglim, menga dushman yaxshiroq,  
G'iybati yov, do'sti nodon qilgan ishdan yaxshiroq.

Dushmaning etsa malomat, o'nglagaysan sen o'zing,  
Bol-asal so'zli rafiqdan ayri tushgan yaxshiroq.

Mayli, bulbul bo'lmasa ham, mayli to'rg'ay bo'lsa ham,  
Har so'zingni qaytaruvchi to'tiqushdan yaxshiroq.

Yozg'irib esgan shamol-u do'l-dovul o'tkinchidir,  
O'z kishing boshingga solgan qora qishdan yaxshiroq.

Do'st degan sen xohlaganda kelsa qoshingga uchib...  
Chor-nochor ko'rsatilgan har ravishdan yaxshiroq.

Yaxshiyamki, koinotda eng ulug' do'st yodi bor,  
Atrofingda aylanuvchi barcha xeshdan yaxshiroq.

Miraziz A'zam, o'zing, sen do'stmisan sof, beg'araz?  
O'zni taftish, o'zgani taftish qilishdan yaxshiroq.

### 158 (4)

Ne bo'ldi, o'rtamizda ehtirom qoyasi yo'q?  
Qalblarni bir-biriga sarflamoq g'oyasi yo'q.

Mening xayolim boshqa, sening hayoting boshqa,  
Ko'zlariningda akslangan sevgining soyasi yo'q.

Sen meni sog'inmassan, men seni sog'inmasman,  
Bu yot, uzun kunlarning cheki, nihoyasi yo'q.

Sen menga jilmayarsan, men senga cho'zarman qo'l,  
Ammo bu yaqinlikning o'zagi, poyasi yo'q.

Balki, xayol shundaydir: og'iroyoq va yukli,  
Miraziz, ehtimolki, visolning doyasi yo'q.

### 159 (5)

Quyosh yuziga boqqali zarracha holim yo'q  
To'kishga qolmadi yoshim, «oh»ga majolim yo'q.

Halok bo'lib ketarman yolg'izlik yerida,  
Kim bilan suhbatlashay, darddi ololim yo'q.

Xasta ko'nglim-la qoldi faryodlarim faqat,  
Na qilay, ortiq yonda do'sti halolim yo'q.

Ey, go'zal sevgili yor, menga va'da berib,  
Ortiq ketding qayon bir haqli savolim yo'q.

Miraziz, sen dunyodan dongsiz ketding, ammo  
Tanirlar ma'rifat ahli, umid: zavolim yo'q.

### 160 (6)

Ko'z ochib yumguncha ketdi yilt etib yoshlik yiroq,  
Yilt etib o'tgan u chog'dan ko'rmadim chog' yaxshiroq.

Men ushalgan o'ylarimning ko'lkasida kun ko'rib  
Terdim-u orzu-umid mahsullarin yayrab, biroq –

Bilmadim, foni yekan yoshlik uchar yulduz kabi,  
Keksalik sassiz kelarkan, sassiz qadam, sassiz oyoq.

Asli yoshlik yonginamda eng vafoli do'st kabi  
Sirlashib yurgandi qancha, qanchalar apoq-chapoq.

Ketdi so'ngra kutmaganda, ketdi qayga, bilmadim,  
Nasya qildi xayr-u xo'shni, qoldirib yolg'iz va toq.

Yoshligimda qop-qorong'i tunlarim ham oq edi,  
Yoshligim ketgach qaro boshim kumushday bo'ldi oq.

Miraziz etmas shikoyat, bu pandim yoshlargadir:  
Bu hayot tunida koshki, do'stlarga bo'lsa bir chiroq.

## 161 (7)

Kimligim bilmoq tilarsang ko'zlarim tubiga boq,  
Undagi mahzun xayolga, rangi mag'lubiga boq.

Uyga kel-da, bir kuzatgin, ne ila banddir qo'lim,  
Tunlarimning hamma satri, hamma maktubiga boq.

Yuksalolmay to'qquz osmon poyasiga termulib,  
Supta qo'ldan yuzlarimning xiyla mahjubiga boq.

Anglamoq-chun janglarimni o'zligimni yenggani,  
Sen fano ahlini o'rgan, uslub-uslubiga boq.

Kim bilan suhbat qurarman, kim bilan chaqchaqlashib,  
Do'stlarim, qondoshlarimning ahli qulubiga boq.

Tunlari qo'sh qumriday kukulashgan soatlarim,  
Bu siniq ko'nglim quvonchi, ko'nglim mahbubiga boq.

Mirazizman oq yurakli, ap-aniqman, sen uning  
Xohla, sharq-u g'arbiga boq, xohla, janubiga boq.

## 162 (8)

Bir eman daraxt edim, ko'rkli, qattiq...  
Maqtanishmas, buni do'st-yor etar tasdiq.

Tashlab ketdi, uyaldim, ya'ni sindim,  
Sochilib ketdi jonim misli tariq.

Na ishonch qoldi menda, na-da g'ayrat,  
Uzoqlashib ketdi mendan uyat, tavfiq.

Hech yoqdan kelmay qoldi bir hidoyat,  
Jahannamga quladim ko'rday aniq.

Bilmadim, qanday tirildim, qay zamon,  
Ollohim qanday meni etdi tahqiq.

Angladim, Undan o'zga yor yo'q ekan,  
Uni sevgach dunyoyim bo'lди tiniq.

Ollohim, kechir osiy Mirazizni,  
To'g'ri yo'lдан adashtirma uni ortiq.

## 163 (9)

Bu yil qishda tushdi yerga yomon sovuq,  
Keksalarни etdi ancha giryon sovuq.

Chillasi-yu qahratoni o'tdi, ammo  
Izg'irig'in qo'ymaydi hech hamon sovuq.

Ne gunohi bor ekanki, ketmaydi hech,  
Qandayin bir nav ekan bu yaxdon sovuq?

Bu isyonmas, aybimizni bilgim kelar,  
Nimadan bu – Tangrim etgin ayon, sovuq?

She'rim agar sovuq bo'lsa ajablanmang,  
Ta'bimga ham yuqtirgandir nuqson sovuq.

## 164 (10)

(*Ibn Xafojadan*)

Voy, qushning qo'shig'i ham go'zal bo'larmi mundoq!  
U qo'nib olgan novda soyda uchar arg'imchoq.

Bu bog'lar bizga hadya, dam ol soyalarida,  
Har yonda jildir-jildir jilg'alar oqar yangroq.

Ariq bo'ylarin aylan, joningga bo'lar malham,  
Musaffo suvlarin ich, ud sasiga ber qulqoq.

Qara, qanday mevalar osug'liq daraxtlarda,  
Bog'lar shirinlik to'la patnisga o'xshar bu choq.

Bedor yotib ezilgan oshiq yigitlar kabi  
Za'farondir mandarin, manov gul yashil biroq.

Sharqdan kelgan yel uni ho'llagan shabnam bilan,  
Manov daraxt mag'rurdir ishga berilib qaynoq:

Goh atrofga taratar muattar hidlarini,  
Goh o'ynaydi bag'rida minglarcha zumrad yaproq.

Birda jilmayar tinmay, birda bag'oyat jiddiy,  
Pishgan mevalariga ko'z tashlar g'azabliroq.



## «Kof» (k) tovshining ko'nglini ko'kday qil!

ſ , ſ

### 165 (1)

Va'dalar ko'p, va'dalar ko'p – va'dalarki – ming etak,  
Ming etak va'da ichinda bir etak ham bedarak.

Mingta va'da bergeningda bir hayiqqin Tangridan,  
Garchi tosh deb o'ylasang ham sendagi qosir yurak!

Derki, endi va'dabozlik qilmagayman hamda bu,  
Katta va'da bundayin hech bermagan bo'lsam kerak.

Men dedimki: – Yo'q, kerakmas na kichik, na kattasi,  
Ham kerakmas menga va'da bir etak yo ming etak.

Sen samodan turna va'da qilma menga, e go'zal,  
Yerda tutqaz qo'llarimga loaqla bir sinchalak.

Sinchalakni siypalarkan Miraziz A'zam desin:  
Muncha silliq, muncha yumshoq bu momiqmi yo ipak?

### 166 (2)

Muhabbatsiz kerak kimga tiriklik?  
Sevgisiz yuk yuragimga tiriklik.

Sevmasa meni kimsa, yoqtirmasa,  
To'g'ri kelmaydi jinimga tiriklik.

Tuzatmasin, kerak emas menga hech  
Aytib qo'yinglar hakimga, tiriklik.

Miraziz voz kechar sensiz hayotdan,  
Sig'mas sensiz bu ko'nghlimga tiriklik.

### 167 (3)

Ko'z ochib yumguncha o'tdi-ya yoshlik!  
Voh, kimga aylandi ul qalamqoshlik!

Ne bo'ldi ohuday qaro ko'zlarga?  
Qayga ketdi kunlar oylik, quyoshlik?

Yoshlik ipi qachon uzildi, qayda?  
Qachon oqbosh bo'ldi tim qoraboshlik?

Ichimda yurakka botadi nadir,  
Yo'q-yo'q pichoq emas, nimadir toshlik.

Bir narsa ko'rindi olis ufqda:  
Ha, yoshlik ketmoqda ko'zlari yoshlik.

Miraziz, qo'l berma badbinlikka, qo'y,  
Nega kerak senga bu ko'ngilg'ashlik?

### 168 (4)

Sen o'zing qandoq balosan, jon yurak,  
Sen bilan qaynar ichimda qon, yurak?!

Jimjiloq og'rinsa, bunga bor sabab,  
Qiynalarsan sen nechuk, nodon yurak?

Tunlari o'lmoq qadar cheksang azob,  
Og'rimas-ku sen uchun bir jon, yurak?!

Hammadan kuchli yonarsan o't bo'lib,  
Koshki so'nsang hammadan oson, yurak.

Bunchalar ta'sirlanib yurmoq qiyin,  
Arzimas bir ish uchun, vayron yurak.

Sen aqlga tobe' ish qil ozgina,  
Oqil ahlida misli mezon yurak,

Miraziz A'zam chiqishmas sen bilan,  
Senga topolmay iloj, hayron, yurak.

### 169 (5)

Aylanar tinmay falak, sohir falak,  
Qo'ynini etmish makon minglab malak.

Hammasi ham bir sening boshingdadir,  
Bir nigohing dardida joni halak.

Oy esa rashk o'tidin kuymish tamom –  
Yuzlariga ul qaro tutmish elak.

Zumda ko'kning yuzlarin to'sdi bulut –  
To'rt tarafni zirqiratdi guldurak.

Qancha yulduz so'ndi sendan noumid,  
Koinotda to'xtadi ming bir yurak.

Sen esa bu hodisotdan bexabar,  
Jim borarsan, yerda parvoyi palak.

Ikki go'shingda sekin o'ynab borar,  
Olcha yanglig' qirmizi ikki zirak.

Miraziz A'zamni-ku bir yonga sur –  
Ul zavolli bu mahal kimga kerak?

**170 (6)**

Balki menga zavol kelar, senga mangulik,  
Menga zahar, senga sharob, yurak qongulik.

Borligimga parvo qilma, ko'kdan darak bor:  
Senga chaman, menga sahro, kuyib yongulik.

Bir ish qilib ketgim kelar faqat dunyoda:  
Hech bo'lmasa dardlarimni eslash – ongulik.

Ammo bundan senga zarar yetmas zarracha:  
Hech nima yo'q unda senga xatar solgulik.

Agar Olloh lutfan nasib etsa, ehtimol,  
Mirazizdan bir kuy qolar nayda chalgulik.

**171 (7)**

Men kabi oshiq yurakka sen kabi gulyor kerak,  
Men kabi sahroyi jonga sendagi alyor kerak.

Men kabi bir xomxayolga sen kabi jonon bilan  
Birga-birga o'ynamoqqa bir chaman gulzor kerak.

Ko'rghanimni chin yurakdan bemalol aytmoq uchun,  
Chin yurakdan tinglamoqqa sof yurak dildor kerak.

Ha, yana, aytgancha, menga baytsevar insonlar-u  
Yerni sevgan, elni sevgan hamda... tinch ro'zgor kerak.

Bu agar hech bir ilojsiz, xomxayol orzu esa,  
Men ketarman tog'-u toshga, bo'lgani bir g'or kerak.

Chunki men oshiq yurak, sahroyi jonman, qalbi hur,  
Kuylasam tinchib qolarman, yo'qsa menga dor kerak.

## 172 (8)

(*Nihoniyga nazira*)

Umrим bog'i ko'klamay so'lsa kerak,  
Chindanam oxir zamon bo'lsa kerak.

G'unchalar yuz ochgani unmay burun  
Nobud bo'lib yellara yelsa kerak.

Mol-u ganj-u xazinaga to'ymading,  
Ko'zlarинг tuproq ila to'lsa kerak.

Tanim komil, yuzim gul deb kerilding,  
Bir to'fon parcha-parcha qilsa kerak.

Oqilman deb so'nggi kunni unutding,  
So'roqda xalq kimliging bilsa kerak.

Yotma bu kun, Miraziz, haq yo'lда yur,  
Yo'qsa bir kun tiling tutilsa kerak.

## 173 (9)

Muhtoj bo'lmas maqtovga, nishonga qahramonlik,  
Qahramonlar qadimda bo'lgan emas nishonlik.

To'maris-u, Shiroqlar yurtni saqlashgan ko'zday,  
Aksinchasi ularga bergen faqat hayronlik.

Alpomish, Go'ro'g'lining nishonlari bormidi?  
Jaloliddin, Temurlar nishonlimas, imonlik.

Yurtini, vatanini, xalqini sevgan ular,  
Ko'z-ko'zga qilishmagan ular mardi maydonlik.

El erki ular uchun nonday, havoday bo‘lgan:  
Noni bo‘lsa hur bo‘lgan, hur bo‘lsa doim nonlik

Mustaqillik, ozodlik, egamanlik, erkinlik –  
Yashashda faqat shular bera olgan omonlik.

Bu gaplar o‘z-o‘zidan kelib qoldi tilimga,  
Negaligin bilmayman, dilimda yo‘q yomonlik.



## «G» tovshining gullarin gulzor et!



### 174 (1)

So‘zni menga berding, o‘zni o‘zgaga poy aylading,  
Bizni bir qashshoq qarovsuz, o‘zgani boy aylading.

Bag‘rimi shunday xaroba, shundayin vayron qilib  
Hatto boyqush ham qiyo boqmaydigan joy aylading.

Yig‘latib, tog‘ qa’ridan chiqqan buloqday jildirab,  
Avvalo bir jilg‘acha, so‘ng katta bir soy aylading.

O‘zni shunday bir balandga, ko‘klara zeb aylading,  
Qo‘l uzatsam hech qachon yetmaydigan oy aylading.

Senga daryo ochmadim tog‘ bag‘ridan Farhod kabi,  
Bitta jilvangni tilovchi daydi gadoy aylading.

Neki qilsang to‘g‘ri qilding, Miraziz loyiq shunga.  
Yig‘lamoqni oz emas, yil o‘n ikki oy aylading.

**175 (2)**

Bormikin olamda hech bir men kabi ahvoli tang:  
Anglamayman qolmayotir ne uchun rangimda rang?

Kelmayotir non va suv totgim, nechun, bilmam o'zim,  
Tegra-atrof qop-qorong'i, ko'zlarimga tushdi chang.

Bemahal kelgan o'limmi, sevgimi bu, ne o'zi?  
O, yurak, sho'rlik yurak, kimlar senga solmoqda chang?

Ne uchun tushdi qalam qo'ldan bugun, anglat axir,  
Chun, bugun sevging bilan iblismi qilgay endi jang?

Miraziz A'zamni turg'az, yo Xudo, turg'az o'zing,  
Ishq uchun oldinga yursin, bosmasin ko'ksini zang.

**176 (3)**

Dil quvongan chog'i erdi, eng quvongan chog'i, eng...  
Bu quvonchning vazni-toshi erdi Tangritoqqa teng.

Bir kichik qiz kelgan erdi chunki shu chog' ko'nglima,  
Gavdalangan erdi oppoq yelkasida mitti meng.

Bu xayol hurning xayoli, bu xayol kelgan mahal  
Bir katakday supta kulbam ko'k misoli bo'ldi keng.

Men uchib ketdim samoga ul pari-paykar bilan  
Hilpirardi ul harir ko'ylak, etaklar, ikki yeng.

Bir mahal keldim hushimga sevgilimning tovshidan.  
Der edi: «Tonggi taom qildim ajoyib, bitta yeng...»

Bir tarafda xom xayollar, bir tarafda rost hayot,  
Ishqni istab bir umr, deng, ha, yashaymiz, balli, deng.

**177 (4)**

Oh, malomat bo'ldi muncha yuzdag'i zardim mening,  
YuvGANI bir zot topilmas ichdag'i gardim mening.

«Telbalardek so'zlashurman o'z-o'zim birla mudom,  
Chun o'zimdan o'zga yo'q olamda hamdardim mening».¹

Bir o'zim hatto o'tirsam o'z-o'zim-la dardlashib,  
Yoqmas elga bu xunuk ohim – sovuq sardim mening.

Do'stmi istab to'rt tarafga ko'z yugurtsam yosh to'kib,  
Na yer-u na ko'kda bordir doimiy mardim mening.

Suhbatimga eng shirin bir xotirimni chorlasam,  
Hifzima kelmaydi hatto yodi nomardim mening.

Bu ketishda qay tarafga yuz burarsan oqibat,  
Ey jamoat, qalbi loqayd, muncha bedardim mening?

Toq-u yolg'izlik faqat Ollohga xos, Ollohga xos,  
Miraziz der: «Ne balo bu, bir balo dardim mening.»

**178 (5)**

Sas-sado chiqarmay soching tarasang,  
Ko'zgudan ajralmay ming tur o'rasang,

Og'riniq qolarman xayolga cho'mib,  
Menga bir shunchaki, farqsiz qarasang.

Yupanmam gohida sochimni silab,  
Ammo ko'zlarimga tik qaramasang.

Jismimning ko'ziga qarama, bekam,  
Ruhimning ko'ziga qara – qarasang.

---

¹ Navoiydan.

Kechalar uxlolmay yotsam o'ylanib,  
Ko'p yengil tortarman – bahsga yarasang.

### 179 (6)

Tortadi derlar temirni ohanrabo ohularing,  
Yo'q, temirmas, dilni tortar ko'ngilrabo ohularing.

Tortsalar-da tinsalar mayliydi-ya dilni ular,  
Anglashilmas zavq berarlar ko'ngiloro ohularing.

Zavqlanib, mas'ud bo'lib qolganingni fahm etsalar,  
Bezovtalik tashlaydilar ko'ngil aro ohularing.

To'r qafasga qush bo'lib tushgan yurak yongan mahal  
Tark etarlar ul yurakni ichi qaro ohularing.

Oh, ana endi ko'rarsan ne bo'lar sho'rlik yurak,  
Aylagay uni muqarrar cho'nqir yaro, ohularing.

Tavfiq-u insof so'rayman men ularga Tangridan,  
Etmasinlar yillarimni motamsaro, ohularing.

O'lса ham Miraziz A'зам qilma sen parvo sira  
Unga qayta jon berishga qodir Iso ohularing.

### 180 (7)

Do'stim, bu dunyoga bir ishga kelding,  
Kelding, ammo tezda ko'chishga kelding.

Ko'plar bu dunyodan olishmaydi dars,  
Yaxshi ne, yomon ne – yechishga kelding.

Xolis bo'l – siqilish, zahmat, kulfat bor –  
Haqqa borar yo'lni ochishga kelding.

G‘avg‘o, savdolarni ko‘rib ketishga –  
Bu hayot suvini ichishga kelding.

Quvonch-u g‘amlari muborak bo‘lsin, –  
Sen sinov yo‘llarin kechishga kelding.



**«Lom» (l) tovshini laparday latif qil!**

Л

**181 (1)**

Xom boshimga tushsa zil ish, kim menga bo'lgay kafil?  
Kim g'arib holimni anglab, bo'lmag'il, derkin, zalil?

Kim hayotim daftarin bir-bir o'qir vaqt ajratib, –  
Bilmayin bossam tikanni – kim bunga aytgay dalil?

Kimniki sotqin desam, sotqinligin ko'rgan umum,  
Kim, bu to'g'ri aytdi, derkin, qoch, bunga bo'lma daxil?

Barcha sotqinlarni mangu yo yashirgaymu alar,  
Mulki-yu dunyosini bizdan yashirgandek baxil?!

Men bilib-bilmay yurarsam cho'ng gunohlarga botib,  
Kim yorug' yo'lga yetaklab, etma, der, joning sabil?

Bir shafoatchim bo'larmi zil kunim Haq ollida?  
Och va to'ymas ko'zlarimga tortilarmi yoki mil?

Miraziz A'zam, bilib ol, sen o'zing kimsan bu kun,  
Kim bu kun senga xalil-u, kimga sen bu kun xalil?

**182 (2)**

Kel, nigorim, keldi ko'klam, sayli davron bo'ldi, kel,  
Borlig' olam gulga to'ldi, yurt guliston bo'ldi, kel!

Keldi fasli gulbahor-u keldi sayri tog' mahal,  
Dov-daraxtlar kuldi, atrof bog'-u bo'ston bo'ldi, kel!

Qaysi rang yo'q yer yuzida, qaysi rangning nuqsi bor,  
Turfa ranglar bahsidan kun lol-u hayron bo'ldi, kel!

Sevgimizdan sen uyalma, qo'y, yashirma sen uni,  
Ul muhabbat tushdi ko'kdan, elga doston bo'ldi, kel!

Beimonlar javridan jon jola bo'lgan vaqtini qo'y,  
Yangi davron dardimizga dori-darmon bo'ldi, kel!

Hur diyorning tog'larinda, yur, dovonlar oshgali –  
Endi hamma odil-u shod, ozod inson bo'ldi, kel!

Miraziz A'zam shu onda so'zlasam der sevgidan,  
Eh, xayoling birla ko'nglim shonli sulton bo'ldi, kel!

**183 (3)**

Amni erkinlikni, ko'ngil, buncha ko'p etma xayol,  
Amni erkinlik uchun lozim bo'lar erlik xiyol.

Lekin erlik ham jasurlik noyob-u tanqis bu kun,  
Qayga boqma qaltirab turguvchi ko'p chumchuq misol.

Bir umr qo'rqib yashashda hech fazilat yo'q, axir,  
Ey do'st, qo'rkoqlik elga keltirar asriy zavol.

Ne bo'lar arslon kabi sen na'ravor saslar ila  
Barcha sulloham tekinxo'r zumraga bersang savol?

Ta'sir ko'rsatmasmi bu hol yoshlara hech bo'lmasa,  
Va jasur ruh chashmasidan unmagaymi ko'p nihol?

Ey yigit, sen amn-u erkinlik yo'lini tut mudom,  
Sizni qo'lllar Miraziz A'zam degan oshufta chol.

### 184 (4)

Yoshing bir joyga borgach, o'ylar ekansan nuqul,  
Sevgi o'yi ko'nglingdan chiqmay qolarkan butkul.

Qanday yashadim, deysan, ishqimni xarob qilib?  
Bilsam, menga dunyoda yo'q ekan seningdek gul.

O'qibman Tohir-Zuhro, Layli ila Majnunni,  
Sevib seningdek gulni bo'la olmabman bulbul.

Nechun butun olamga jar solib yashash uchun,  
Jang qilib, mehnat qilib fido bo'lma bdi ko'ngul?

Quyosh Haq nurin olib olamni yoritsa-yu,  
Men undan o'rnak olib, qo'llay olmabman usul!

Nechun men ishq yo'lida bir tuproq bo'lomabman,  
Desam bo'lar edi-ku: «Miraziz, o'zdan qutul!»

Sevgimni avaylamay yuribman noplak yo'ldan,  
So'ngra bunday sevgini Ollo etmagan qabul...

### 185 (5)

Ikkimiz birga yurarmiz har mahal,  
U menga yo'lida hech vaqt bermas xalal.

Ikkimiz birga bo'larmiz el aro,  
Har gapimga gap qo'shar o'tmay hayal.

Bu yo'ldosh – mening orzu-xayolimdir,  
Qo'shgani-qo'shgan menga ko'rk-sayqal.

Bu hayotda goh meni bossa vahm,  
Qo'rhma deb mushkulni u aylaydi hal.

Ikkimiz goho qolarmiz bahslashib,  
To'xtamas u tushda ham aylab jadal.

Endi tindim deb gahi, yotsam agar,  
Tinchligimga shu zamon bergay xalal.

Shunda men bedorlanib, belni bog'lab  
Uning boshiga kelib bitgum g'azal.

### 186 (6)

(*Al-Mut̄midden*)

Qalb ko'zi hijron vaqtি seni ko'radi yaqqol,  
Doim baxtli bo'l, mening sog'inch yoshlарim misol.

Menga qadrli sening quvonchbaxsh ishq tuzog'ing,  
Meni sevgi to'riga tushirolmas yot ayol.

E qalb yori, biz birga bo'lsak shodman, baxtiyor,  
Ayro bo'lsak azobdan borlig'im topgay zavol.

Yarim tunda bitdim xat – qalbim iztirobini  
Elga qilmay deb oshkor... demasinki, bu ne hol?

Satrimning har so'zida muhabbat otashi bor,  
Sen yashaysan sehrli jannataro bernalol.

Men uchib-ku borardim, lekin sardor qo'shinni  
Tashlab ketmas va erlik g'ururin etmas poymol.

Agar qoshingga borsam sen-la qovushar edim  
Tongda gul barglariga tushgan shudringlar misol.

**«Mim» (m) tovshi mavjlarini masal qil!**



**187 (1)**

Meni ko'rganiningda yoningdamidim,  
Bir lahza o'ylagan oningdamidim?

Sen meni azizim, jonim deganding,  
Chindan azizmidim, joningdamidim?

Yoki bir o'qlashga mo'ljallangan ov,  
Ko'zlarинг o'qida, yoyingdamidim?

Boqqanmiding menga ehtiros bilan  
Seni behush qilib qoningdamidim?

Kutmagan odaming ekanmanmi yo  
Afsusli, armonli ohingdamidim?

Hatto qushlarday ham in quolmagan,  
Rizqingga sherikmi, noningdamidim?

Sen sevib yor uchun nima ish qipsan?  
Miraziz, sen inson sonidamiding?

## 188 (2)

Kunlarimni men o‘zim qaroqchiday taladim,  
Yoshligimni muhabbat otashiga qaladim.

Nima bo‘lsa bo‘ldi deb, hech qolmadim ortingdan,  
Jonimni ostonangga poy-poyandoz ayladim.

Kutardim tunlar bo‘yi, kutardim tonglarga gacha,  
Seni bir ko‘rish uchun ostonangni poyladim.

Senga-ku hech gap emas, o‘zimga qiyin bo‘ldi:  
Yillarcha ko‘zlarimning sho‘r suvlarin yaladim.

Umrimni xazon qilding yolg‘on va’dalar bilan,  
Yurakning qurumlarin daryolarga eladim.

Torlik qildi men uchun ikki milyon insonni  
Bag‘riga sig‘dirolgan Toshkent – ona baladim.

## 189 (3)

Xayr endi, sevgilim! Sen ketasan batamom,  
Ammo keyin ham sen-la suhbatim etar davom.

Onasin emib to‘ygan qo‘zichoqday uxlarsan,  
Yodingga kelmagay hech endi Aziz degan nom.

Hammasi qulab tushdi. Ko‘p yillar birga eding,  
Bir manzilga kelganda kechding bildirmay tamom.

Boshqa ayol sen kabi bunday ish qilolmasdi,  
Alvido, ustomonim! Tilga kelmaydi kalom.

Boshimni devorlarga uraman hushdan ketib,  
Netay, endi yashashni ettirigm kelmas davom.

Lablarimda sen uchun aytilmagan so'z qoldi,  
So'ngsiz muhabbat qoldi farog'atsiz va bekom.

### 190 (4)

Xayr endi! Men tog'larga ketar bo'ldim,  
Dardlarimni shamollarga eltar bo'ldim.

Sen yuraver bexavotir, men sevgimni  
Qon aralash yuragimga yutar bo'ldim.

Foydasi yo'q, men hech kimman, odammasman,  
Toshlarnimi, neni quchib yotar bo'ldim.

Olloh seni boshqalarga ato qildi,  
Men ayriliq kuylarini aytar bo'ldim.

Bu dunyoga nima uchun kelganimni  
Bilolmasdan o'z jonimga xatar bo'ldim.

Ey yoronlar! Menga sabr-to'zim tilang,  
Imonsizlik, telbalikka yetar bo'ldim.

Azizingman, Olloh, o'zing asramasang,  
Men o'zimni jahannamga otar bo'ldim.

### 191 (5)

Men bugun bir xushtabiat, bir go'zal qiz topmadim,  
Topganimni tez yo'qotdim, so'ngra bir iz topmadim.

Tushlarimga kirdi so'ngra, tushda ham ayro tushib,  
Ohlarimni yoshib, qochmoqqa dahliz topmadim.

Bo'yni-yu barmoq, bilakda ham qulqoqda tilla zeb,  
Chit libosli bir nafar silliqni zarsiz topmadim.

O, madad bergin Xudoyim, yo'lga sol ko'nglim o'zing,  
Xushtarovat bo'y yoyuvchi sodda nargiz topmadim.

Har Havoning ko'zlaridan izladim ma'no, biroq  
Na samoda man uni, na yerda hargiz topmadim.

San o'zing Majnunmisanki, Miraziz A'zam, yetar,  
Jumla olam derki: sendan taqvoni hargiz topmadim.

### 192 (6)

Qay bir olis yurtga ketding, yoshligim?  
Ketmoqni ixtiyor etding, yoshligim...

Uxlab yotibmidim qorong'i tunda?  
Bekinding qaylarga? Netding, yoshligim?

Atrofga boqaman xomush, parishon,  
Shomlar quyoshiday botding, yoshligim.

Tonglar tarovati, qushlar sayrog'i,  
Goho yodga tushar oltin yoshligim.

Yurakda o't bilan, ko'zda nam bilan  
Yo'llaringni eslab yotdim, yoshligim.

Qora sochlarimni quchdi oq nurlar,  
Meni nurlargami otting, yoshligim?

### 193 (7)

Yo'q, sevgi imonim, sevgi borlig'im,  
Sevgi – Egam bergen oliy yorlig'im.

Sevgi – haq yo'lining yetakchisidir,  
Haq so'zni aytmoqqa doim zorlig'im.

Bir kun anglag‘aydir ma’shuqam mani –  
Mening hayolig‘im, mening orlig‘im.

Olamda gap bo‘lar sof muhabbatim,  
So‘z mavzui bo‘lar beg‘uborlig‘im.

Kelar u oldimga, albatta kelar,  
Hali oldindadir baxtiyorlig‘im.

Kulmasin ba’zi bir haftafahmlar,  
Yolg‘ondir aytsalar mening xorlig‘im.

«Miraziz» edim men – «amir» va «aziz»,  
Manguga yaraydi elga korlig‘im.

### 194 (8)

Sevmasam, sen bilan ko‘risharmidim?  
Sen uchun yoving-la urusharmidim?

Nomingga qora dog‘ surtsa birovlar,  
Men seni oqlashga tirisharmidim?

Yomonlar yo‘liga kirsang, yuzturban  
Yiqilib, tuproqqa qorisharmidim?

O‘sha on ko‘zlarining yodimga tushsa,  
Qaytadan quyoshdek yorisharmidim?

Sevmasam, yashashdan ma’no bormidi?  
Umrinmi sen bilan bo‘lisharmidim?

Aj rashuv onlari erday turmasam,  
Uchrashuv baxtiga erisharmidim?

Miraziz A’zamman, sen imonimsan,  
Imonni oltinga alisharmidim?

**195 (9)**

Ey azizam, yuzlaringni tongga nisbat qilmisham,  
Ko'zlarining tun kabi hijronga nisbat qilmisham.

Qo'y, rafiqmi-norafiqmi, o'ylama, qoshi kamon,  
Bir og'iz shirin so'zingni jonga nisbat qilmisham.

Kuylashing bulbul misol va haqligi haqquv misol,  
Sel qilishda qudratin dostonga nisbat qilmisham.

Senga sevgim imtihondir, birgalik dengiz bo'lar,  
Yetmasam gar, va'dasi yolg'onga nisbat qilmisham.

Biz tug'ildik pok yashash va yerda sayron qilgali,  
Ikkimizni rostga maftun, hayronga nisbat qilmisham.

Miraziz A'zam tug'ildim, sen bilan surdim davr,  
Sen bilan baxtli yashashni imonga nisbat qilmisham.

**196 (10)**

So'ngagimni qay matodan aylading zohir, Egam?  
Qay yo'sinda bir-biriga boyladning, mohir Egam?

Birlari yoy, birlari to'p, birlari hushtak misol,  
Har biriga sirli bir ish yukladning, sohir Egam.

Vo ajab, bu na umurtqa, ustma-ust narvon misol,  
Bir-biriga yelka tutgan – ish desa, hozir, Egam.

Bu mukammal koinotda bir o'zing Qodir Egam,  
Shu uchunmi aylading bandangni ham qodir, Egam?

Bir qularman, bir turarman, bir choparman qaytadan,  
Novdaday bu buklanish qanday bo'lar sodir, Egam?

Ming sano bo'lsin senga, yuzming sano, milyon sano,  
Shul zaif jismim jahonda aylading soyir, Egam.

Sen mening G'affor Egamsan, men sening g'ofil quling,  
Shul sabab goho unutdim man sani, Qodir Egam.

Ko'nglima bayram to'latding, zavqlarim ummon misol,  
Menga bergen qarzlarining qilmadim xotir, Egam.

Qay zamon chiqdim hududdan kibr ila so'qmoq kezib,  
Oxiri sen so'ngagimni aylading qosir, Egam?!

Bir g'aniyning o'g'lidurman a'zamiy zot Miraziz,  
Bosh chanog'im tugma qilding bolisha oxir, Egam.

### **197 (11)**

Sening qattiqligingdan ko'p qo'rqaman, jon qizim,  
Yolg'onnei ko'rgan mahal, o'tday qiziqqon qizim.

Befarq bo'lgin demayman, haqiqat uchun kurash,  
Senday qizlar ko'p kerak, bu bizga ayon, qizim.

Faqat bo'ronday bo'lma, og'ir bo'l, o'ylab gapir,  
Bo'ron, gul o'sishiga bermaydi imkon, qizim.

Qiz bolaga yarashmas cho'rtkesarlik, qattiqlik,  
Qiz bolaga mayinlik eng katta qalqon, qizim.

Qizlarning saodati ko'pincha o'z qo'lida,  
Tiklik bilan yoshliving etmagin xazon, qizim.

To'g'ri bo'lsam bo'ldi deb, ochiq-sochiq yurmagin,  
Sen haqda to'g'ri fikr bo'lmas u zamon, qizim.

Haqning yo'rig'in o'rghan, ularga rioya qil,  
Tangri o'zi asragay o'shanda omon, qizim.

### 198 (12)

Odamzod bu aziz yerda nozik nihol ekan, bildim,  
Bu hayotga umid bergan ko'rk-u jamol ekan, bildim.

Basharti u havolardan, tabiatdan mehr ko'rsa,  
Kechirgan kunlari aksar ko'lday zilol ekan, bildim.

Agar qolsa bo'ronlarda, sel-u do'llarga duch kelsa,  
Hayoti ham ketib zoye, xasday uvol ekan, bildim.

Basharti u yashab qolsa, sinovlarning shaksizligi  
Goh bermalol ekan, bildim, goho malol ekan, bildim.

Muhabbatning hayoti ham ayru hayot ekan shundoq:  
Agar boring ayon bo'lsa, shirin maqol ekan, bildim.

Agar boring tayinsizroq, yo'g'ing zohir bo'lib tursa,  
Muhabbat ham oyoqosti, ha, poymol ekan, bildim.

Yengidan ushlab qolishda bo'lmas ekan hech bir umid  
Bu zo'r amal ekan, bildim, yo xomxayol ekan, bildim.



**«Nun» (n) tovshini nurlantir, nodir qil!**

ن

**199 (1)**

Olamda muz yo‘qdir erimaydigan,  
Olamda zulm yo‘q qurimaydigan.

Sovuq fasllar ham o‘tar baribir,  
Izg‘iriq kunlar yo‘q ilimaydigan.

Biz qaymoqmiz, dema, o‘zingni maqtab,  
Qaymoq yo‘q kunida irimaydigan.

Ildizlar tutashar tuproq ostida,  
Tutash ildiz ham yo‘q chirimaydigan.

Qilgulikni qilib kerilma mudom,  
Jinoyat yo‘q bir kun yorimaydigan.

**200 (2)**

Ishq ila limmo to‘la ko‘nglim hamon,  
Birgina shu ishq ila jonim omon.

Ketsa ishq bir dam agar tashlab meni,  
Ko‘nglimning osmonini bosgay tumon.

O'ylama: bu shunchaki joduli so'z –  
Ketsa ishqim, borligim bo'lgay gumon.

Sevgisiz aslo yashashni istamam,  
Ming tarafdan menga o'q otsin kamon.

Menga hech bir qarshilikdan foyda yo'q  
Men bilandir jonginam – yangi zamon!

Kim meni ayro etarsa sevgidan,  
Shubhasiz bo'lgay aning holi yomon.

«Miraziz A'zam! Sevikling kim?» degin...  
Bu – Haqiqat, ko'zlar ohusimon.

### 201 (3)

Haq debon holimni men aylay bayon:  
Haq desam har vaqt bo'lur ko'nglim ravon.

Hech sig'inmam inson otlig' kimsaga,  
Yer va Ko'kda bitta Haq bor begumon.

Shu sabab Haqdin faqat so'rdim madad,  
Bandasiga kuch berar u ming jahon.

Borlig'imni o'rtasa ming bir savol,  
Bilki, bari Haq taologa ayon.

Menga yo'l ko'rsatdi u zulmatda ham –  
Rahbarimdir, olg'a boshlar har qachon.

Va'dasi hech o'zgarib qolmas uning,  
Haq – muqimdir, ham amin-u ham amon.

Bandalarning va'dasida yo'q vafo,  
Voqe' bo'lmos'i, azizlar, dargumon.

Shul sabab bor-yo'q umidim Haqdadir,  
O'lgunimcha u – menga mo'ljal, nishon.

Haq taolo, senda mo'ldir yaxshilik,  
Ko'rmadim senda qusur yo ayb biron.

Sen hakimsan, yanglishish ham senda yo'q,  
Har ishing hikmatga boy, dor-ul-amon.

Men esa bir bandaman, holimga voy,  
Itga o't berdim, qulunga – ustuxon.

Nafs bila ovvora bo'ldim, o'ynadim,  
Ne deyarman ul javob so'rgan zamon?

Mag'firat et Miraziz A'zamni, Haq,  
Yo'qsa chehram to qiyomat za'faron.

## 202 (4)

Chekingdagi o'rtoq men bo'lajakman,  
Etingdagi tirnoq men bo'lajakman.

Azaldan to abad yuz yil, ming yillar  
Yuzlaringga mushtoq men bo'lajakman.

Agarda uxlamoq istarsang uxla,  
Boshingdagi uyg'oq men bo'lajakman.

Yovlaring ko'paysa, seni bundan-da  
Kuchlantirgich bayroq men bo'lajakman.

Adashsang boshi berk ko'chalar ichra  
Yo'lko'rsatkich barmoq men bo'lajakman.

Ayro ketar bo'lsang mensiz yo'llarga  
Ruhingdagi charchoq men bo'lajakman.

Amiring, azizing, a'zaming menman,  
Umringda so'ng chaqmoq men bo'lajakman.

## 203 (5)

O'zing dilbar, o'zing jannat, o'zing gulsan, o'zing bog'san,  
Imonlisan, tag'in qutli, tarangsan ham tani sog'san.

Soching misli to'qaylardek, qaro qoshing erur qunduz,  
G'ururingning misoli yo'q, qarab tursam Tangritog'san.

Bu olamdan ko'zing monandini topmay tilim loldir,  
«Sim-sim»lari qora ko'ngilni ochquvchi nur-charog'san.

Qadam olmoqlaring shundoq, sekin siljishlaring shundoq,  
Xayolni aylagay ravshan xuddi oy yashnagan chog'san.

Boshimga tushdi bulbulning ajib savdolari, ey gul,  
Raqibang rashk qilib derki: «Bugun bulbul emas, zog'san».

Axir jonim yonar san deb va qonim to'lg'onar san deb,  
Iloh senga sharaf bersin, o'timga quymagil yog', san.

Bu dunyoda Miraziz A'zam saningdek jon ko'rmamish, bilsang,  
Hech darig' tutma bog'ingdan, ichimni aylama dog', san.

## 204 (6)

*Dehqonobodlik xasta juvon Bozorgulga*

Sen kabi men xastadurman, men kabi sen xastasan,  
Men kabi sen ham tuzalgaysan, Iloho, asta san.

Bir kelib ketgay hayotda xastalik mehmon misol,  
Ertaga taxtda bo'lursan, gar buguncha pastdasan.

Xastaning bir xastaga mehri tushar goho, go'zal,  
Chunki ko'ngul shoh erur, garchi o'zing qafasdasan.

O'ttiz-u oltmis orosin farqlamas ko'ngul, biroq –  
Ki, mening boshimda oq soch, sen bugungi rastasan.

Men deyarman: «Aytganingga hech ko'nolmam,  
ey ko'ngul!»

Ko'ngul ersa derki manga: «Asli san nokastasan!»

Sen Bozor Gul, men qalamkash, Miraziz A'zam otim,  
Sen qo'shiq bo'l, bayti mendan, baytima sen bastasan.

Dashtma-dasht Dehqonobodda sakrasang jayron misol,  
Bilki, Toshkentda odam bor, esga olgin asta san.

## 205 (7)

(Qabrdan tovush)

Ikki metr tim qorong'u go'rda toq yotmoqdaman,  
O'z tanimni yer bila bitta qilib qotmoqdaman.

Eng Buyuk Ummonga cho'kkani bir zaif inson kabi  
Kattakon Tuproq tagiga xok bo'lib botmoqdaman.

Yer yuzida yurganimda neki ish qilgan esam,  
Qilmishimning arzigulik totini totmoqdaman.

Goh ilon-u, goh chayon-u, goh qumursqa tortqilar,  
Har muchamning zarrasin ham ketma-ket «sotmoqdaman».

Koshki mahsharda odammas, bir ko'kat bo'lsam, deya  
O'z-o'zimni bir u yon-u, bir bu yon otmoqdaman.

Do'st yuziga solgali ko'z bir majol ham topmayin,  
Miraziz A'zam misoli qayg'uga botmoqdaman.

## 206 (8)

Bu shaharda daydidim lol-u hayron,  
Bir o'zim yurdim faqat ko'ngli vayron.

Ham o'zimni bir alahsitmoq uchun  
Hayvonlar bog'in etdim sayr-u sayron.

Qafasda o'ltirardi bir g'azabnok  
Ko'ringanga irillab sher-u arslon.

Yig'lardi yebto'ymas timsoh munofiq,  
Kavakdan tuproq otardi bitta yumron.

Bir maymun pista chaqardi chaqchayib,  
O'limtik axtarardi yolli sirtlon.

Kimdir menga boqqanday bo'ldi shu payt,  
Men tomon yurib keldi go'zal hayvon.

Qarasam bir ajoyib, ma'yusgina,  
Katta-katta ko'zлari o'yli jayron.

Iskadim, o'pdim quchoqlab bo'ynidan,  
So'ngra ketdim, tonggacha yig'ladim qon.

## 207 (9)

Yuragim jarohatli, ko'zlarim qonli nechun?  
Sen axir omonsan-ku, ruhim tikonli nechun?

Sen dunyoda birimsan, ikkov asli bir xilmiz,  
Bir maqsadda yashaymiz, kunlar hijronli nechun?

Senda mayllar sokin, menda ishtiyoyq o'tli.  
Nima bo'pti? Sevgimiz qora osmonli nechun?

Men sira o'zgarmadim, sening sevging o'zgardi,  
Qayerda xato qildim, hayot armonli nechun?

Sen o'zing sevmaganni sevganday baxtli qilding,  
Qolib ketdi Miraziz yoshi ummonli nechun?

## 208 (10)

Qadimdan – shu: yolg'onchidan nafratlanar buyuk inson,  
Hech odam deb bilmas uni har yuragi kuyuk inson.

Yurak-bag'ri kuyuk inson ahmoqqina, tentakkina,  
Bilmaydiki, aqli ila Yerga tashvishli yuk inson.

Kimga kerak aql o'zi, ortiqcha-ku jahonda ul,  
Pul topishni ham aldashni o'rgangani tuzuk, inson.

Alam qilar, el-yurtini ko'tarishga kuchi yetmas,  
Ko'z yoshiga yetar kuchi qalbi bo'luk-bo'luk inson.

Ul mas'ul deb bilar o'zni vatan uchun, ulus uchun,  
Xayolida o'ylagani har vaqt davlat-muluk, inson.

## 209 (11)

Bitdi tun ham, otdi tong ham, – keldi qayta Yangi Kun, –  
Yangi Kun, o, yangi turmush, muncha ranging ko'p bugun?

Tungi shudring izlari bor yuzlaringda – nuqlalar –  
Sal mug'ombir, sal quyoshli, sal kularsan ne uchun?

Yo'q, xayoling, maqsadingni to'g'ri ayt, bilsin Vatan,  
So'z va ishda farq ko'paysa qalbni aylaydi zabun:

So'zlaringda turfa gullar hamda qushlar sayrog'i,  
G'am chekishga bermas imkon, zabit etib jonni butun.

Yangi bino, yangi ko'prik, yangi yo'llar behisob –  
Faxr ila shod tin olishni qalbda aylaydi fuzun.

Lekin ayrim ishlaringda yaxshilik osori yo'q –  
To'g'ri so'zlik, haq fikrlar beqadr, kasod nechun?

Yo'q, azizim Yangi Kun, bu borada rostlik kerak,  
Miraziz A'zam deyarki: ber shularni, Yangi Kun!

## 210 (12)

Sen haqiqiy samoviy qizsan,  
Sevimlisan, jozib, tengsizsan.

Yuksaklikda yulduzlar qadar,  
Teranlikda teran dengizsan.

Qaro tunda cho'ksa bir ko'ngil,  
Tongni boshlab kelar kunduzsan.

Yiqilishga moyil vujudni  
Yerga mahkam bog'lar ildizsan.

Faqat meni qiynar bir jumboq:  
Bu dunyoda nechun yolg'izsan?

Men yerosti suv yo'lidurman,  
Sen esa bir noyob korizsan.

Asli sensan hayot ma'nosi,  
Uni totli etguvchi tuzsan.

Ma'naviyat olami uchun  
Men emas sen mirsan, azizsan.

**211 (13)**

Shu oyqiz biron uyg'a hur mehmon bo'larmikin?  
Bir mardga tumor kabi, sohir jon bo'larmikin?

Soyabon tutib o'tdi boqmay devonalarga,  
Biron sohibqironga u sulton bo'larmikin?

O'tib ketdi – ortida qoldi xushbo'y atirlar,  
U baxtli bir yigitga gul, rayhon bo'larmikin?

Butun uy, butun yurtni to'ldirib yaxshilikka,  
Umidvor jahon ichra bir jahon bo'larmikin?

Oldingi Mirazizday yo aldanib qolarmi,  
Oyqizning bu oyligi zo'r yolg'on bo'larmikin?

**212 (14)**

Hayratim ortar hamon qaqnus muhabbat toridan,  
Keksalik kelganda ham qalbning ishqli zoridan.

Jonlanib kelsa netay men ul qaro ko'zlar mudom,  
Qandayin so'z ochgum endi ko'ngulning ozoridan.

Men yotarman bir qorong'i kulbada, u yo'q o'zi,  
O'z-o'zidan so'zlayurman ul go'zalning boridan.

Bor ekan-da bu sinuq ko'nglimda qancha qon-u dog',  
Lolalarday ko'rsaturlar o'zni uy devoridan.

Kimgadir bir kun yalinsam ko'rsating deb oy yuzin,  
So'rsam balki ayb bo'lar bir suhbatin xumoridan.

Qilma orzu suhbatin, ey, Miraziz A'zam, buyon,  
Tushda ham ko'rsang sevingil qomat-u raftoridan.

# «Ha» (h) tovshin humoyun qil, hushlug‘ qil!



## 213 (1)

O‘z elida hamma sulton, o‘z elida hamma shoh,  
O‘zga elda har g‘aribning ko‘ngli kemtik, dilda oh.

O‘z elingda ham musofirdek yurish bosh og‘ritar,  
Unda kunlar beadog‘-u, unda tunlar bepanoh.

Bo‘yla bir tog‘dek azobni ko‘rmasin hech bir nasl,  
Bizni etdi, boshqalarning etmasin qalbin siyoh!

Yot odamlar tuprog‘ingda kezmasin hokim bo‘lib,  
Hech bir elni it kuniga solma bundoq, yo Iloh!

Bir yuz-u o‘ttiz sanakim, toptadi yotlar elim,  
Qancha qonlar oqdi daryo, qancha boshlar ketdi, voh!

Shul sababdan ba’zilarning holidan ozurdaman,  
Hibsga o‘rgangan mahbusdek ul zamonni qo‘msar, oh.

Nafs quli shundoq balodir – non uchun jondan kechar,  
Asra bunday ko‘r balodan, asragil, Qodir Iloh!

Men esa, men Miraziz A’zam erurman o‘lkada,  
O‘z yurtimning fuqarosi, shoh emas, navkar, sipoh.

## 214 (2)

Hojining oppoq riyosidan xudo bersin panoh,  
Ul xatib bergen ziyosidan xudo bersin panoh.

Naq zamon valiysi yanglig‘ va’zlari bor jum’ada,  
Chalamulla rahnamosidan xudo bersin panoh.

Qanchaki rost gapni aytsang, yetmagay so‘z qalbiga,  
Nafsi nohaq muddaosidan xudo bersin panoh.

Bir duo olmoq uchun sarson bo‘larsan oyma-oy,  
Qo‘y, uning hargiz duosidan xudo bersin panoh.

Tilda Qur’on, boshda salsa, lek parokanda amal,  
Borma unga, xonaqosidan xudo bersin panoh.

Miraziz A’zam niyozi birgina Ollohgadir,  
Bul kabi shayxning duosidan xudo bersin panoh.

## 215 (3)

Oyqizlar berkinmish qaysi uylarga,  
Qahramon bo‘lmishlar qaysi kuylarga?

Aqiq dudoqchalar, marmar yelkalar  
Kelinchak bo‘lmishlar qaysi ko‘ylarga?

Kerakmidi o‘ylash... Shuni ham o‘ylash:  
Sevgiling ketganin qaysi to‘ylarga?

Holing yomon bo‘lar, hushyor bo‘l, ukam,  
Qalbdan o‘rin berma bunday o‘ylarga...

Nima bo‘ldi, qara, Miraziz A’zam  
Bir vaqt ko‘ngil berib sarvday bo‘ylarga.

**216 (4)**

Olovlardaga yoqding meni, sevikli jon, unutma,  
Yonganimda birga yondi butun jahon, unutma.

Ayriliqning azoblari yig'latdi qon, yig'latdi,  
Biz tarafda qonga botib ketdi har yon, unutma.

Sen-u menday necha jonlar kelib ketgan hayotga,  
Qanchalari eng oxiri bo'lgan pushmon, unutma.

Meni qo'yib sen tanlagan raqib vafo qildimi,  
Qancha boshqa qizlar bilan surdi davron, unutma.

Mirazizing seni o'ylab umr bo'yi yonarkan,  
Sen ham uning qalbi ichra yonding har on, unutma.

**217 (5)**

Sen, ey, dilbar havolanma bu besh kunlik hayot ichra,  
Kishi chun zarracha turmas bu cheksiz koinot ichra.

Havosiz gar yurar bo'lsang, mani xasday ko'rарlar deb,  
Adashma, tut viqoringni balandda odamizod ichra.

Agar Rabbing aziz qilsa, raqibing hech etolmas xor,  
Samolarda urarsan charx, raqib qolgay uyot ichra.

Elimni hur qilarman deb, o'zing birla o'zing chirpin,  
Butun olamni tebratgay siyoh sokin dovot ichra.

Manam bir ahli baytam-ku, deya cho'mma xayollarga,  
Sening o'rning balandlarda butun ahli bayot ichra.

Faqat Haq deb, Haqiqat deb, faqat Vatan uchun ishla,  
Go'zal ajr-u mukofotlar tayin Mangu Bisot ichra.

Bilib aytar bu so'zlarni ishonch-la Miraziz A'zam,  
Agar nedir nasib bo'lsa, nasib bo'lgay sabot ichra.

### 218 (6)

Ne darmon bo'larkin charchoqlaringga,  
Ikki ko'z – yosh to'la bordoqlaringga?

Seni sevintirmas tilla buyumlar,  
Qaramay qo'ygansan baldoqlaringga.

Ne-ne vaqtlar o'tdi nikohimizdan,  
Uzuk ham taqmaysan barmoqlaringga.

Yozasan-chizasan kecha-yu kunduz,  
Uyqu ham inmaydi qoboqlaringga.

Faqat o'ylaganing ulusing, xalqing,  
Yuraging achiydi aymoqlaringga.

Miraziz A'zamda qolmasdi armon,  
Bir javob berolsa so'roqlaringga.

### 219 (7)

Yozganiningning joni bo'lmas samimiy bo'lmaguncha,  
Rost gapingni aytma ammo, qafasing to'lmaguncha.

Sevganiningni yoyma elga, bilsa bilsin bir Xudo,  
Ishqing ishqmas yor uchun har nafas o'lmaguncha.

Qo'shiq ham tug'ilmaydi, bulbul ham sayramaydi,  
Seni deb gul ochilib, sevginingi bilmaguncha.

Eh, bu dunyo, bu dunyo, biri kam ikki dunyo,  
Seni odam bilmaydi, ko'p sinab kulmaguncha.

Miraziz yashab o'tdi ne-ne tunlari bedor,  
To uni ikki dunyo nazarga ilmaguncha.

## 220 (8)

Kel, biroz suhbat quraylik bu o'tar dunyosida,  
Bir o'limdan boshqa bizni ne kutar dunyosida?

Bas, yetar yeldek yugurmoq bir-birovdan bexabar,  
Kun chiqar bor, senga ma'lum, kun botar dunyosida.

Ikkimizga har daqiqa, dam g'animat, anglagil,  
Bemahal ketmoq ayon-ku, bu xatar dunyosida.

Bir tabassum, bir mayin so'z, bir teginmoq yuzga yuz,  
Benazir boylik emasmi gap sotar dunyosida?

Miraziz A'zamga kelsak, sevgining har lahzasi  
Xoh tafakkur, xohi ishda asqotar dunyosida.

## 221 (9)

Senda aldam yo'q, bekam hech, sen aniqsan, bohira,  
Borlig'ing shundoq namoyon ko'zlariningda, zohira.

So'zlariningda bir sehr bor, ko'zlariningda bir sehr,  
Borlig'imni sen sehr-la bog'lagansan, sohira.

Sen quyoshsan ayni chog'da, ham mehrli, ham olov,  
Sen bilan ko'nglim hamisha o't va otash, mohira.

To'g'ri, qahring beadaddir, to'g'ri, jahling beomon,  
Har mahal yengguvchidirsan, g'olibamsan, qohira.

Miraziz A'zamda lekin tinch halovat bardavom,  
Chunki xolis pok odamsan, pokizamsan, tohira.

**222 (10)**

Armon hukmronlik qilar har insonning hayotiga,  
Qirchillama yoshida ham – mingan mahal jahd otiga.

So'ng qartaygan chog'ida ham, qariligin pisand qilmay,  
Po'lat nashtar uraverar, uraverar sabotiga.

Qancha qochsin tog'lar osha u hukmini qo'ymaydi hech,  
Chaqiradi «ha!» deguncha imdodiga, najotiga.

Dunyoning qoq o'rtaSIDA ko'z ochib seskanar inson,  
Har bir onning qadrin sezib, minar murod qanotiga.

Ish qilishga urinar u, hovliqar u, yugurar u,  
Naq egalik qilmoqchiday vaqtning har bir zarrotiga.

Tumanli va baland-baland armon qirg'oqlari bo'ylab  
Vaqt esa jim o'taverar suzib keng koinotiga.

Kun ishlarin talqin qilib, tahlil qilib Mirazizday  
Inson bari harakatda, shoshib borar zulmotiga.

**223 (11)**

Baxt tilab, yetay deb najotga,  
Minganman JAHd degan G'irotga.

So'ng yoydan otilgan o'q kabi  
Otilib kirganman hayotga.

Yolg'izlik his qilib ul zamон,  
Ehtiyoj sezganman qanotga.

Qanotim singanda holsirab,  
Sig'indim sabrga, sabotga.

Oxiri ne bo'ldi, bilmadim,  
Yetdimmi, yetmadim najotga?

Men buni bilmayman, xalq bilar,  
Hammasi ayondir Bir Zotga.

Shunisi ma'lumki va lekin:  
Umrimni to'ladim zakotga.

### 224 (12)

Men o'lardim qirq yil avval, gar xayoling bo'lmasa  
Va xayolda har mahal vasl-u visoling bo'lmasa.

O'ylamaki, menga yolg'iz uchrashuv boli kerak,  
Borlig' olam hech qiziqmas bol azobing bo'lmasa.

Menga yolg'iz jon ato etgay sening mavjudliging,  
Jon kerakmas, hol so'rab bergen savoling bo'lmasa.

Aqrabo yo do'stlaringdan yo'llasam gohi salom,  
Ma'ni qolmasdi aliklik bir javobing bo'lmasa.

Shukrillilloh, senda ham xohish bo'lar suhbat uchun,  
Tangriga yoqqaymi erdi menga tobing bo'lmasa.

Mirazizga Tangridan so'rding Ayyubning sabrini,  
Boshi tik yurgaymidi shunday savobing bo'lmasa.

### 225 (13)

Ich-ichimda beayov jang yuz berar goh-gohida,  
Men bilan men to'qnashurlar bu yurak janggohida.

U taraf ham bu tarafga qon to'kish ham cho't emas,  
Bir-birin ko'rmoqni istar naq jahannam chohida.

Ey, mening tinmas-chechinmas dov yurakli o'zligim,  
Loaqlal bahs qilma yilning uch muqaddas mohida.

Din uchun, imon uchun, Olloh uchun, haqlik uchun  
Mayli, yursang yurgen-u hurlik saodatgohida,

Lek, o'zingni o'nglaguncha din raqibin o'nglagin  
Ki, sening-chun yaxshiroqdir bu Xudo dargohida.

Besababdan besabab bu qandayin bahsdir demang,  
Bir haqiqat yo'q emas bu Mirazizning ohida.

## 226 (14)

Oyo, qandoq duchor o'lbum yomonlarning yomoniga?  
Chunon ko'ksim nishon o'ldi yomonlarning kamoniga.

Yomon holim bayon aylay desam kimga, tilim loldir,  
Bosar qo'rquv qolarman, deb yomonlarning tovoniga.

Ichimda g'am, ko'zimda yosh, tavallolar qilib Haqqa,  
Axir bir kun borib yetdim bu sirlarning ayoniga:

Yomonlar kelsa ustingga o'tib turgin ekan chetga,  
Yo'qsa o'zi pusib, seni urdirarkan janoniga.

Yomonlarning ayolidan zarba olding, Miraziz A'zam,  
Yaqinlashma endi zinhor yomonlarning oshyoniga.

## 227 (15)

Ey, baland tog'lar aro yilt-yilt oquvchi jilg'acha,  
Yig'lasa ham har mahal olg'a boquvchi jilg'acha!

Senga bunday ma'rifatni tutdi qay bir avliyo,  
Har huzunli qalb aro ilhom yoquvchi jilg'acha?!

Ko‘zлari yoshlу go‘zallar bo‘yniga taqqan misol  
Bosganing yo‘l bo‘yiga gullar taquvchi jilg‘acha!

G‘am bila, hasrat bila kelsa yoqangga allakim,  
Bir fusunli shildirab oyat o‘quvchi jilg‘acha.

Sen o‘zi inja oqimsan, qudrating ammo buyuk,  
Yo‘l to‘suvchi toshni chetga itqituvchi jilg‘acha!

Ey, imonni butlaguvchi ham gumonlar olamin  
Tag-tagidan bemalol asta yiquvchi jilg‘acha.

Miraziz A’zamga berding ming ravishli bir saboq,  
Baxtiyorlik ilmidan doston to‘quvchi jilg‘acha.



«Vov» (v, u) tovshini vafoli, valiy qil!

9

228 (1)

Ilohiy to'rtta unsur bor: Shamol, Tuproq, O't ila Suv.  
Bizni yaratdi ustuvor: Shamol, Tuproq, O't ila Suv.

Shamol, Tuproq, O't ila Suv yo'q bo'lsa, biz tirikmasmiz,  
Ular bizni etar poydor: Shamol, Tuproq, O't ila Suv.

Ular birla hazillashmoq albat eltgay halokatga,  
Hazilga hushi yo'q zinhor: Shamol, Tuproq, O't ila Suv.

Shamol birla hazillashsang sovurgay xonumoningni,  
To'kar yerga, quvar ko'kka, aylantirar do'lga duv-duv.

Agar tuproqni notinch aylasang ham, tinchliging qolmas,  
Qimirlab itqitar seni, Yuho bo'lib yutgaydir u.

O't bilan ham o'ynashma ko'p, yoqar borliq hayotingni,  
Na o'rmoning omon qolgay, na parranda, hayvon, suruv.

Suvni aytmasak ham ma'lum: necha toshqin, sel-u to'fon  
Hayotni qayta boshlatgan, Nuh kemasin asragan suv.

O, seviklim, yorug' dunyo aro topgan xushbo'y bekam,  
Senda ham shu to'rt unsur bor: Shamol, Tuproq, O't ila Suv.

Tangrim senga izn bergen – holim ko'rib hukm sendan:  
Meni shoh etar yo murdor shamol, tuproq, o't ila suv.

### 229 (2)

Agar boshimga tushsa bir falokatmi va yo qayg'u,  
Siqilmam, ortidan kelgay biron shodlik ila kulgu.

Kunduz ila kecha yanglig' va oq ila qora yanglig',  
Juda oddiy haqiqatki, Yaratgandan nizomdir bu.

Sani toblar, mani toblar, shuningdek hammani toblar  
Muningdek bir muqobililik – muningdek bir ajib o'tru.

Shu bois shart falokatga, qayg'u-dardga sabr qilmoq,  
Quvonchlarga shukur qilmoq imondorlikka bir belgu.

Hayot boshingga solgan har sinoatda nihon ma'no,  
Sabr chog'i, shukur chog'i seni hech bosmasin uyqu.

### 230 (3)

Hayotimning kuzida sen ko'zing ochding, qizim Orzu,  
Quvonch bo'lding, ziyo bo'lding ko'zimda, yulduzim Orzu.

Sening mavjudliging zilday hayotimga kafil bo'ldi,  
Muallaq kunlarim bitdi, zaminda ildizim Orzu.

Seningsiz bu hazin olam qaro zindon bo'lib menga,  
Zahar-zaqqum qilib erdi eng yetilgan kezim, Orzu.

Sening birla kelib yetdi quyoshli bu yorug' kunlar,  
Ayonlashdi butun ma'vo, ravonlashdi izim, Orzu.

Mening boshimdagi quzg'un sening boshingga yo'q endi,  
Halossal sen talonchi changalidan, tengsizim Orzu.

Yoningda uch og'ang bordur, izingda bir ining bordur,  
Qo'lingda dasturing bordur, hursan, kular yuzim, Orzu.

Sening baxti kamolingni ko'rishga ishtiyoyqim zo'r,  
Samoda bulbulim Orzu, zaminda dengizim Orzu.

Xudo der, Miraziz A'zam, mening naslim omon bo'lzin,  
Ko'zi dur to'kmasun ortiq ushalgan orzuim Orzu.

### 231 (4)

Izg'iriqda qolmadim-ku, qachon yog'di boshga qirov?  
Yog'dimi yo toshday bilib yog'gan kabi toshga qirov?

Ko'zguga bir nazar solsam, vo ajabo, qarang-qarang,  
Qo'nibdi-ku bildirmasdan hatto qora qoshga qirov.

Yaxshiyamki, tabiatda bunday rusum odat emas,  
Yo'qsa asta yog'armidi sezdirmasdan loshga qirov...

Ha, tushunish mumkin birov desa: kecha tog'dan keldim,  
Rosa yog'di Burchmulla, Chimyon-u Oqtoshga qirov.

Allakimlar daraklashar: bu – qarilik alomati,  
Odam zoti ko'riganagan hech yog'ganini yoshga qirov.

Avvaliga zarda qilib: bor-e, dedim, bor, ahmoqqa,  
Yog'aversin istagancha sotqin-u bevoshta qirov!

O'zingni tut, dedim so'ngra, Miraziz, bu – qutli belgi,  
Qara, yog'di ikki mingdan oshgan go'zal Shoshga qirov!

### 232 (5)

Xayol uchib keldi-yu,  
Ko'zimdan qochdi uyqu.

Qalbimdagi eng eski  
Bir yaramni ochdi u.

Yarim asr burungi  
Muhabbat tarixi bu.

Nega keldi bu xayol,  
Mening uchun qorong'u.

Ajib manzaralarni  
Ko'rsatdi sirli ko'zgu.

So'ng bari oqib ketdi  
Bamisoli mavjli suv.

Qalbimda qoldi faqat  
Qandaydir tanish kulgu.

Oh, bu kulgu qadrdon  
Yodimda ekan mangu.

### 233 (6)

Nima istar mendan bu aks, bu ko'zgu,  
Xotira atalmish bu jodu ko'zgu?

Qandaydir dardlarni zohir qilar-da,  
Ko'zimga bermaydi uyqu bu ko'zgu.

Uxlasam tushimda jilvalanadi,  
Ushlasam ushlanmas qorong'u ko'zgu.

Bu yetmish yoshimda bu ne sinoat,  
Ko'nglim notinch etar bu qayg'u-ko'zgu.

Menga eslatmayoq qo'ya qol endi,  
Allaqachon bo'lgan yo'limiz ayru:

Men boshqa Miraziz, boshqa uyda er,  
U ham boshqa uyda boshqacha bonu.

## «Yo» (y, i) tovshi yozlarini yorlaqa!



### 234 (1)

Qarashlari obod qilar vayronalarni,  
Chamanzorga aylantirar qatronalarni.

Odimlari zirqiratar arning qalbini,  
Jinni qilar men singari devonalarni.

Lahjalari turkiy lahja – xorazmchadir,  
Esga solar malikalar, koshonalarni.

Kulishlari oy singari mayin va latif,  
Yorug'likka aylantirar timqoralarni.

Yig'lashlari – boshi egik – durlarin to'kib,  
Otlantirar kurashlarga mardonalarni.

Miraziz-ku shu nozanin mushtday qizni deb  
Unutvordi dunyodagi jononalarni.

### 235 (2)

Turkiston bu... o'zbekning o'z uyi, o'z ayvoni,  
Ajdoddan avlodlarga muqaddas armug'oni.

Tangri nazari tushgan abadiy gulli, bog‘li,  
Tonggacha chahchahlagan bulbullar oshiyoni..

Chambil otlig‘ odil yurt, saxovatli tuprog‘i –  
Marmardan tog‘lari bor, oltindan Zarafshoni.

Shiroqlar, To‘marislar, Alpomish, Avaz yurti,  
Tarixda bordir uning Ulug‘bekday sultonii.

Ertasi-ku ulug‘vor, bugunlari umidvor,  
O‘lmasligi muhaqqaq, zavol topmagay shoni.

Qulqoq tuting yangragay butun jahonlar aro  
Yana Buyuk mamlakat degan ko‘hna unvoni.

### 236 (3)

Ko‘nglim sevdi bir shahloni,  
Ko‘rgan derlar jayron oni.

Jonima jon qo‘saverar,  
Dudoqlari jonning joni.

Zulfi qaroligi bir yon  
Va bir yon atri-rayhoni.

Unutgayman uni ko‘rsam  
Jahonda hamma Layloni.

Miraziz zikr etar mangu  
Oni yaratgan Olloni.

### 237 (4)

Ajabo, sevgining qudrati, shoni!  
Naqadar hayratli sohir jahoni!

Boshi berk ko'chalar yo'q uning uchun,  
Mushkul ish uning-chun ishning osoni.

Boshida boshpana bo'lmasa ne g'am,  
Butun yer yuzi ham sevgi maydoni.

Yaproqlar to'shakdir. Tuproqlar yumshoq,  
Tog'-toshloq joylar ham parq-u sayxoni.

Labga lab qo'yilsa – ko'zyosh selini,  
Azobni tindirar – dardning darmoni.

Uchar gilami bor sevgi tagida,  
Ko'zlarida bordir oyna jahoni.

Sevgining qo'llari tog'lardan osha  
Qovushar – pisandmas raqib dovoni.

«Qatl etsang maqsudim ushalar» degan  
Farhodning Xusravga bordir suxoni.

Sevgi – bu mo'jiza, Olloh karami,  
Miraziz A'zamning hayot mezoni.

## 238 (5)

Bir odam bor suv topolmas ichgani,  
Bir odam kechik topolmas kechgani.

Bir odamning ko'rgisi bor arshni ham,  
Qo'shghanot ammo topolmas uchgani.

Bir odam bor ko'p uyatli qildi ish,  
Kimsasiz burchak topolmas qochgani.

Bir odam berk qopqani taq-taq urar,  
Bir umr kalit topolmas ochgani.

Bir odamga tor kelar engil-boshi,  
Bir qarich gazmol topolmas bichgani.

Bir odamda yo‘q erur ichki kiyim,  
Ustkisin imkon topolmas yechgani.

Bir odam yolg‘iz yashaydi so‘qqabosh,  
Mehribon dilbar topolmas quchgani.

### 239 (6)

O‘sanda ishq o‘ti meni ko‘r qildi,  
Zehnimni pardalab, sezmas, g‘o‘r qildi.

Olamni serquyosh, porloq ko‘rsatdi,  
Sovuq yuragimni issiq qo‘r qildi.

Ko‘klargacha bo‘yim yuksaldi tezda,  
Barcha do‘stlar aro meni zo‘r qildi.

Baxtli oshiqlarning qo‘shiqlariga  
Mening qo‘shig‘imni uyg‘un, jo‘r qildi.

So‘ng qora quzg‘unday keldi qora tun  
Meni tutish uchun matrap-to‘r qildi.

Erga tegib ketdi imi-jimida,  
Bevafo, bevafo, meni xo‘r qildi.

Boshimda o‘ynadi quturgan shamol,  
Baxtli dunyoyimni qora go‘r qildi.

Miraziz bir qizni sevdi qora ko‘z,  
Manglayini u qiz ammo sho‘r qildi.

**240 (7)**

Bir ajoyib dunyodir tuyg‘ular xotirasi,  
Bir qarasang daryodir tuyg‘ular xotirasi.

Bu dunyoda bu daryo meni oqizar doim –  
Nelardir etar sodir tuyg‘ular xotirasi.

Seni ko‘raman tinmay, tim qora ko‘zlariningi,  
Shunday ishlarga qodir tuyg‘ular xotirasi.

Ko‘zlariningi so‘zlatar va o‘zi ham so‘zlaydi,  
Bir antiqa go‘yodir tuyg‘ular xotirasi.

Nimani eslar ko‘ngil, nimani istar ko‘ngil,  
Bu ne hodisa nodir tuyg‘ular xotirasi?

Neni eslab yig‘laydi, qaysi qirg‘inni eslab?  
Bu qandayin balodir tuyg‘ular xotirasi?

Har kimning tuyg‘usida go‘zal xotira bo‘lsin  
Xalqning baxtiga doir tuyg‘ular xotirasi.

**241 (8)**

Men uzoqdan tanirdim mayin yurishlarini,  
Qo‘llari hayajondan titrab turishlarini.

Ovozsiz so‘ylar edi qora-qora ko‘zlarini,  
Sevardim kulishini, xandon urishlarini.

Cheki yo‘q dalalarda paxta terim chog‘lari  
Sevardim shirin-shirin xayol surishlarini.

Bu yil kuzda to‘y qilsak, falon-falon qilamiz,  
So‘ng birga kezamiz deb reja qurishlarini.

Xafa bo'lgan chog'lari bir og'iz ham gapirmay  
Faqtagina yuzlarin chetga burishlarini.

Va lekin oxirida nasibam shu bo'ldiki,  
Bir kun ko'rdim manglayda achchiq tirishlarini.

## 242 (9)

Bo'ldi ne, aylay bayon men seni ko'rgach, seni:  
Gulladi birdan jahon men seni ko'rgach, seni.

Hayrat qushi qalbimda, maftunlik ko'zlarimda,  
Ichimga sig'masdi jon men seni ko'rgach, seni.

Aql-u hush uchib boshdan, yeldek bo'lib sarsari,  
Qalbda turardi to'fon men seni ko'rgach, seni.

Kimligim bilmas edim, oddiy bir inson edim,  
Yurak bo'lardi arslon men seni ko'rgach, seni.

Shu arslon yurak bilan boqolmasdim yuzingga,  
Olam bo'lardi shodon men seni ko'rgach, seni.

Uyingni izlab kelib ko'rolmas edim seni,  
Bo'lardim telbasimon men seni ko'rgach, seni.

Sen chiqmasang eshicing turmin buzgim kelardi,  
Zavqdan solardim suron men seni ko'rgach, seni.

Seni olishim kerak, agarda ololmasam  
O'lmagim bo'ldi ayon men seni ko'rgach, seni.

Oradan yillar o'tib, o'zga yorning yonida  
Yuragim bo'ldi vayron men seni ko'rgach, seni.

**243 (10)**

Meni o'ylaydi u, g'amnok o'ylaydi,  
Yuragim o'ynaydi, koptok o'ynaydi.

Tinimsiz uradi meni kamsitib,  
Shumidi bor-yo'g'ing, deya qiy Naydi.

Shumi oshiqliging, zo'r muhabbatting,  
U keldi va ketdi, deya so'ylaydi.

Qanday aqli noqis, qurbsiz odamsan,  
Ketgan yorni qalbing hamon kuylaydi?

Bir vaqt demabmiding: «Uni dunyoga,  
Hatto o'zimga ham ko'zim qiymaydi».

O yurak, bu ta'na qanchalar og'ir,  
Borlig'im uzluksiz shuni o'ylaydi!

Ammo umrim o'tdi, bitsa-da umrim,  
Sevgi o'z holimga hanuz qo'ymaydi.

**244 (11)**

Ko'rardim tushlarimda yop-yorug' kechalarni,  
Birma-bir yoritardi qorong'i ko'chalarni.

Lablarday yiltillagan giloslarni ko'rardim,  
O'riklar oltinini, isirg'a olchalarni.

Yorug'lik shalolasi, ipakday shamollarda  
Erkalab o'sayotgan adl niholchalarni.

Aylanib borayotir tushlarim endi o'ngga,  
Ko'ryapman zarrin tongda sayroqi qushchalarni.

Shundoq yonim, mahallam, uzoq-yaqin joylarda  
Ko'ryapman yangi maktab, yangicha bog'chalarni.

Ko'zi yoshlilar emas, ko'ryapman atrofimda  
O't qadam o'g'il-qizlar, bijildoq qizchalarni.

Soatday ishlayotgan shu yoshlari ochib bergay  
Baxtli kelajak sari qutlig' debochalarni.



**MURABBA'LAR***(Qorachao'g'lon yo'llarida)***1**

Xayolimdan ketmas, meni tark etmas,  
Tushlarimga kirar xayolli ko'zlar.  
Ruhim dengizini bezovta qilar  
Ko'zlarimda qolgan savolli ko'zlar.

Bu ko'zlar qa'rining mavjlari bordir,  
Mavjlarning tabassum, avjlari bordir,  
Ruhimning qaysarlik, kajlari bordir:  
«Meniki bo'lajak g'izolli ko'zlar!»

Oh, ko'zlar, bu ko'zlar hayoli, yoniq,  
Har bir chaqnashining ma'nosi aniq,  
Ko'z degan shunchalar bo'larmi tiniq,  
Dunyoda yo'q bunday zilolli ko'zlar.

Boqdim-u, ko'nglimga o't tushdi yomon,  
Bu shunday bir o'tki shirin, beomon,  
Jonimda qolmadi bironta ham jon,  
Mayli, boqsin menga zavolli ko'zlar.

**2**

Sevgim tushgan qizning o'ychan ko'zini  
Nargisga o'xshatdim gullar ichinda,  
Qizlar davrasida ko'rib o'zini  
Sarviga o'xshatdim tollar ichinda.

Holidan hammasi bo'ldi oshikor,  
Uning olamida allakimi bor,  
Kimningki ko'ngliga sevgi bo'lsa yor,  
Ma'yus, mahzun kezar ellar ichinda.

Tushundim, bizga hech tashlamagay ko'z,  
Havolarda qolar faqir aytgan so'z.  
Ul kelin bo'lajak, biz bek bo'larmiz,  
Kimgadir shu yaqin yillar ichinda.

### 3

Tun yarmida yotay deyman, yotolmayman,  
Do'stlarimga dardlarimni aytolmayman,  
Yuragimdan hasrat yukin otolmayman,  
Ketmas, axir, o'ychan ko'zlar xayolimdan.

Na salom bor, na javob bor xatimizga,  
Bir xabar yo'q yorimizdan otimizga,  
It tegdi-yov ahdimizga, ontimizga,  
Lekin ketmas o'ychan ko'zlar xayolimdan.

G'amgin-g'amgin so'ylar aziz so'zlarini,  
Yerga tikib nami bitgan ko'zlarini,  
Yodga olar baxtiyorlik kuzlarini,  
Aslo ketmas o'ychan ko'zlar xayolimdan.

### 4

Gohi oldingda turardim gung-u lol,  
Sen buni olmas eding aslo malol,  
Ko'nglimiz bir jo'sh urardi bemalol,  
Qayda bo'lsak bir-birovga zor edik.

Men seni sevgan edim dunyo qadar,  
Sen meni sevgan eding dunyo qadar,

Uydagilar holimizdan bexabar,  
Qayda bo'lsak bir-birovga zor edik.

Kunlaring, bilmas edim, qanday o'tar,  
Shomlarim, bilmas eding, qanday botar,  
Bilmayin bizlarni ne kunlar kutar,  
Qayda bo'lsak bir-birovga zor edik.

Senga kimman, bilmayin bo'ldim asir,  
Balki, sen ham bilmagandirsan, axir!  
O'ynayajak, bilmasdik, bizni taqdir,  
Qayda bo'lsak bir-birovga zor edik.

## 5

O'ychan ko'zlariningda qoldi nigohim,  
Ich-ichimga cho'kdi mangulik ohim,  
Bunga mangu guvoh ko'kda Ilohim,  
Hech kimsa sevdimi seni menchalik?

Marhamatli eding mening korimga,  
Ko'p shukur qillardim senday borimga,  
Ayt qarab endi bir aft-angorimga:  
Hech kimsa sevdimi seni menchalik?

Mana yillar o'tdi, o'tdi fasllar,  
Yuzlarga iz soldi bu o'tgan yillar,  
Seni mendan boshqa kim baxtli qilar:  
Hech kimsa sevdimi seni menchalik?

## 6

Qora ko'zli sevar yorim, hol so'rama,  
Qo'y, bu qozon yopiqligin qola qolsin.  
Dudog'imning uchlaridan bol so'rama,  
Qo'y, bu qozon yopiqligin qola qolsin.

G'ayrimashru' muhabbatdan o'lar bo'ldim,  
Bir yashnagan chinor edim, so'lar bo'ldim,

Shayx San'onday ayb jariga qular bo'ldim,  
Qo'y, bu qozon yopiqligin qola qolsin.

Hasratimning hasratidan chang chiqadi,  
Tangrim bilan o'rtamizda jang chiqadi,  
Bu holimdan ellararo mang chiqadi,  
Qo'y, bu qozon yopiqligin qola qolsin.

Bir yig'lasam soylar kabi yig'lagayman,  
Yupatganning o'z bag'rini tig'lagayman.  
Mayli, armon bilan yashay... o'lmagayman...  
Qo'y, bu qozon yopiqligin qola qolsin.

7

(Ikkinchchi sevgi)

Yuragim yuragingga o'xshasaydi,  
Dardlashib yuragim bir bo'shasaydi,  
Hamma ham to'g'ri yo'lda ishllassaydi,  
Netardi menda armon yoki tug'yon?

Netardi tug'ilganda Yusuf bo'lsam,  
Go'zal vasflar egasi – vosif bo'lsam,  
Bir quduqqa tashlanib holsiz bo'lsam,  
Olib ketarmidi bir kun meni karvon?

Sen mening Zulayhoyim bo'larmiding,  
Izimni topolmasang yig'larmiding,  
Yulduzzdan daragimni tilarmiding,  
Daragim aytsa kimdir, berib ehson?

Qarama ko'zlardagi yoshlarimga,  
Ichimga cho'kib yotgan toshlarimga,  
Diqqat qil, mumkin bo'lsa, doshlarimga,  
Tilagin, to'zim ber, deb Qodir Rahmon.

Kel, mening o'ychan bekam, qutli bekam,  
So'zlagan har bir so'zi o'tli bekam,  
O'rtamizga tushmasin yotlar, bekam,  
Bilki, bu so'z rashk emas, balki imon.

Yuraklar yuraklarga o'xshasaydi,  
Dardlashib hammasi bir bo'shasaydi,  
Odamman degan to'g'ri ishlasaydi,  
Netardi menda armon yoki tug'yon?

## 8

(*Hayot*)

*O'zingdan chiqqan baloga  
Qayga borasan davoga?*

*O'zbek xalq maqoli*

Hammasi chiqdi o'z oramizdan,  
Oqimiz, sarig'imiz, qoramizdan,  
Yaxshi deb bilganimiz saramizdan,  
Hech narsa qolmadi choramizdan.

Chalasavod olim ham o'zimizdan,  
Qaltiragan halim ham o'zimizdan,  
Shaytonga muallim ham o'zimizdan,  
Kelayotgan botir yo'q izimizdan.

Kimga ham bosh urasan da'vo uchun?  
Qay hakim dori berar davo uchun?  
Bir duo qilay desang xudo uchun,  
Gunohing ko'p, ochilmas qo'l duo uchun.

## 9

Bu foni, o'tkinchi yorug' dunyodan  
Oddiy bir bandaday yashab o'tarman:  
Imkonim boricha, qo'ldan kelgancha  
She'riy guldasta-yu devon tutarman.

Kelsa zaiflarning hazin unlari,  
Qatim nur tilasa agar kunlari,  
Shifobaxsh o't, malham bo'lib tunlari  
Xalos qilish uchun borib yetarman.

Yaxshilikka sira yetmasa kuchim,  
To'lib-toshib ketsa og'riqqa ichim,  
Chala ado etsam, a'moli burchim,  
Bema'ni hayotni tashlab ketarman.

## 10

Onajon! Men sizni ko'p xafa qildim,  
Xafa qilganimni kechikib bildim.  
Bilmam, qilarmikin mag'firat Tangrim,  
Tavbalar tavbasi bordir ichimda.

Ko'zim yot ayoldan bo'salar oldi,  
Tungi tush qalbimga bir qo'rquv soldi:  
Qo'llarim ko'mirga aylanib qoldi,  
Tavbalar tavbasi bordir ichimda.

Bir kun Mashrab To'qson keldi uyimga,  
Uni kiritmadim uyim-joyimga.  
Keldi so'ng na azam, na-da to'yimga...  
Tavbalar tavbasi bordir ichimda.

## 11

Qutuldim ofatdan, alhamdulilloh,  
Sog'-u salomatman, alhamdulilloh,  
Sodiq o'g'lonlarim bo'ldi yonimda,  
Siqmading ulfatdan, alhamdulilloh.

Og'ir oylar o'tdi, qaytdi ortiga,  
Og'riq qaytib ketdi mavhum yurtiga,  
Yana oftob tegdi jismim sirtiga,  
Ulashding shafqatdan, alhamdulilloh.

Kunlarim o'tmoqda porlab, yarqirab,  
Tunlari barakot yog'ar sharqirab,  
Toshlardan suv chiqar sizib, tirqirab,  
Qondim tabiatdan, alhamdulilloh.

Bir narsalar kelar, qayerdan kelar?  
Bir narsalar bo'lar, nimadan bo'lar?  
Qo'limga qayerdan kirmoqda ular?  
Kuchaydim hayratdan, alhamdulilloh.

Daf'atan supramga to'kilar ne'mat,  
Ko'zimni yashnatar xilma-xil ziynat,  
Nelarning badali bu qadr-u qimmat?  
Roziman xilqatdan, alhamdulilloh.

Umrimning qishini oqlab, bezatding,  
Toraygan dunyomni to'qlab, yasatding,  
Miraziz A'zamni alqab, yig'latding  
Boyidim hikmatdan, alhamdulilloh.

## 12

*Kim bilurkim bul bahora kim o'lup,  
  kim qola sog'.*  
**Masihiy (1470–1512)**

Ey, qara bir, jonlanib qoldi vatanning tog'lari,  
Tong yelida sollanarlar yonbag'ir o'tlog'lari,  
Gul-chechaklarga ko'mildi butun Turonning bog'lari,  
Foydalan, o'tkinchidir bu qutli ko'klam chog'lari.

Tingla bulbul qissasin, gullar kuniga sol nazar,  
Boq, kumushlanmish bodom – o'zni kelindaymi sezar?  
Jiydalarning hidlari olamaro hur-hur kezar,  
Foydalan, o'tkinchidir bu qutli ko'klam chog'lari.

Turfa-turfa gul-chechakka burkanarkan bog‘-u rog‘  
Kim bilar bu chog‘da kimlar o'ldi-yu, kim qoldi sog‘.

Chorla, kelsin o'rtaliqqa do'stlaring yovuq-yiroq,  
Foydalan, o'tkinchidir bu qutli ko'klam chog'lari.

Aldanib boqiy dema kulmoqlari oymomaning,  
Bosh egib turmoqlari feruzarang chuchmomaning,  
Oy sayin chiqmog'i ham mangu emas oynomaning,  
Foydalan, o'tkinchidir bu qutli ko'klam chog'lari.

Dam g'animat, chog' omonat, yurma bo'lgancha lavang,  
Har faslda bir sado bor, ber quloq, bo'lma garang,  
Miraziz A'zamni ham esla, gurungin istasang,  
Foydalan, o'tkinchidir bu qutli ko'klam chog'lari.

## 13

Ko'p bo'larkan bu dunyoning yaxshi-yomoni,  
Tez o'tarkan, har narsaday, sevinch zamoni.  
Bir yomonlik ko'rganingda chiqarma hukm,  
Bordir har bir yomonlikning yaxshi tomoni.

Umidsizlik bu shaytonning vasfi-sifati,  
Baxtsizlig-u takabburlik uning ulfati,  
Shu boisdan mahshargacha bitmas kulfati.  
Umidvorlik odamzodning o'q va kamoni.

Ammo yolg'iz umid bilan yashamoq abas,  
«Olma pish va og'zimga tush» – bu umid emas.  
Baxt berguvchi – amal va ish, faollik, xullas,  
Pishiq bo'lsin har kimsaning ixlos, imoni.



# MUXAMMASLAR



## LUTFIY (1366–1465) G'AZALIGA MUXAMMAS

### 1 (1)

Yorni Ollo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,  
 Dardni dunyo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,  
 Ko'zni a'mo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,  
 Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,  
 Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

Qirqimizda o'ylamay o'n olti yoshlig'lar uchun,  
 Bag'ri durkun, rangi ranggin serquyoshlig'lar uchun,  
 Ko'rki olamni bezatg'on huriy boshlig'lar uchun,  
 O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun  
 Muttasil yo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

Bu – o'zung'a yo'l ochishmas, sizga bu saddim emas,  
 Ishq o'tig'a jonni solg'on qomatim, qaddim emas,  
 Asrasin Olloh o'zi, bu – tasdig'im, raddim emas,  
 Meni yozg'urma «sevar» debki, mening haddim emas,  
 Ul tamanno qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

Kecha-kunduz bo'lmasa gar xotirim jam, netayin,  
 Tunda yolg'uz, uyqu kelmay, kiprigim nam, netayin,  
 Men muhabbat mubtalosi, naslim – odam, netayin,  
 Borma, derlar, eshiki sori damo-dam, netayin,  
 Ko'p taqazo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

Doimo qaynash voqe' dunyo atalg'an xumchada,  
 Bulbulun hargiz ishi bor bir ochilg'an g'unchada,  
 Men bir oshiqmenki yurgum yore yurgan ko'chada,  
 Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada  
 Jonni savdo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

Ko'rmagan olam meningtek nuqsli oqilni mudom,  
 Ishq yo'lida darbadar o'lmoqqa moyilni mudom,  
 Ikki dunyo o'rtasinda umri zoyilni mudom,  
 Dushman-u do'st orasinda meni g'ofilni mudom  
 Besarupo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

Miraziz ko'ngulga bergach boshini, ey Lutfiy,  
 Yiqdi taqdir barq-la oning yoshini, ey Lutfiy,  
 Ne ajabkim, ichdi ul talx oshini, ey Lutfiy,  
 O'zgadin ko'rmaki, ko'zung yoshini, ey Lutfiy  
 Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.

## NASIMIY (1369–1417) G'AZALIGA MUXAMMASLAR

### 2 (1)

Har kishining kimligi bir suhbatidan belguli,  
 Gaplarining ma'nisi-yu ziynatidan belguli,  
 So'zlarining qadridan ham qiymatidan belguli,  
 Har kishining so'rmang aslin, izzatidan belguli,  
 Suhbati urfon ko'ranlar xizmatidan belguli.

Ko'p qadimdan shaxsni farqlash shu taomilda edi,  
 Endi bu odat-rusumlar eskigandek pand yedi,  
 Siz axir o'ylang-da doim: «balki donishmandmidi...»  
 Haq taolo ilm ichinda chunki «siymohum»<sup>1</sup> dedi,  
 Har kishining yuzina boq, suvratidan belguli.

---

<sup>1</sup> «Siymohum» – «siymolar», «go'zal yuzlilar» ma'nosini bildiradi. Bu so'z bu yerda «olimlar» ma'nosida kelgan. Olloh, ular yuzidan bilinib turadi, degan, deyilmoxchi.

Har muridning holini bilmak so'rab toat emas,  
 Balki lozim e'tibordir, mutlaqo minnat emas,  
 Darvish ahliga qiyoslash ham go'zal nisbat emas,  
 Darvishin pirini so'rmak, dedilar, odat emas,  
 Orifona bir nazar qil, kisvatidan<sup>1</sup> belguli.

Endi yoshlar, qiz-yigitlar sayr etarlar yonma-yon,  
 Kim, vale, Farhod-u Majnun, kim Shirin-Layli, ayon,  
 Haq yo'lining huriliqosi hamon sarviravon,  
 Har zarin qalbi mahakdin bilinar belli bayon,  
 Nisha kim, bemori ishqin illatidan belguli.

Miraziz A'zam, tafakkur qasrida ko'p yurmakim,  
 So'zni so'z uqqanga ayt, yellarga ko'p sovurmakim,  
 Har ko'ringan dirlaboning bo'yniga dur termakim,  
 Ey, Nasimi, naqdini nodon qo'liga bermakim,  
 Javhari donni bilur ham qiymatidan belguli.

### 3 (2)

Ey quyoshim, san uchun ham guluzorim xushmudur?  
 Ey hilolim, sanga ham shu g'amgusorim xushmudur?  
 Sirli yulduzlar, siza ham oy nigorim xushmudur?  
 Ey nasimi subhdam, billoh, shu yorim xushmudur?  
 Shul habibim, dilbarim, olamda borim xushmudur?

Ey sanubar, yo'lga boq, jonlandimi biroz shahar?  
 Ey kabutar, xushxabarchim, bir xabar keltir sahar:  
 Turdimi, daryo bo'yiga keldimi aylab guzar?  
 Shul mutarro' mushki zulfidan, sabo, bergil xabar:  
 Shul yuzi gul, qomati sarv-u chinorim xushmudur?

Ishq diyorin shohidir ul, ban shu elda bir g'arib,  
 O'ylakim dardman erurman- ul faqat bo'lg'ay tabib.  
 Lek, muruvvat ahli ichra ul karamdan benasib,

<sup>1</sup> *Kisvat* – kiyim, ust-bosh.

Shul labi la'li, ko'zi ohuyi shahlo dilmirib,  
Shul sochi zulmat, bani mushki totorim xushmudur?

Bog'-u bo'ston-u chamanga boy-u zangin bu Vatan,  
Bilmadim, bunday muattar gulni butmish qay chaman?  
Shunchalar inja tabiat, shunchalar nozuk badan,  
Ganch ichinda g'uncha o'lub durj qilur durri Adan,  
Shul chaman sahninda ochilmish bahorim xushmudur?

Oshiq ahlining hayoti tama'lardan pok o'lur,  
Qismati ammo qorong'u, bag'ri doim chok o'lur,  
Gohida javri zamondan bemahal halok bo'lur,  
El alimda, suv ko'zimda, o't ichimda xok o'lur,  
Doim unda hashr o'lujak sabzazorim xushmudur?

Miraziz A'zam ko'yingda tentirar devonadek,  
San o'zingni unga buncha tutmagil begonadek,  
Tonggacha yig'lab chiqar, ko'ngli o'lub vayronadek,  
Chun Nasimiy soldi o'zun ishqingga parvonadek,  
Ey, yuzi gulshan, sana bu oh-u zorim xushmudur?

## NAVOIY (1441–1501) G'AZALLARIGA MUXAMMASLAR

### NAVOIYNING SHE'RIY OLAMI

Meni ozmi-ko'pmi tanigan kitobxonlar «Iye, bu Miraziz A'zam degani umr bo'yi barmog'-u sarbast vaznida yozib yurib-yurib, nega birdan aruzga qo'l uribdi? Tag'in Navoiyga muxammas bog'labdi?» degan xayolga borishlari mumkin.

Egam bilganini bandadan yashirib nima qildim? Men, davrimdagi qarashlar ta'siridami yoki boshqa ma'naviy ehtiyojlar tufaylimi, negadir aruzga hurmatim pastroq edi. Maktabda ham, universitetda ham hayat meni aruz jonbozlari va fidoyilari bilan yuzma-yuz keltirmadi, shekilli.

Hazrat Alisher Navoiyni esa o'qiganim bilan tushuna olmasdim. G'azaliyotida arab va fors so'zlarining ko'pligi ma'noni o'zlashtirishimga monelik qilardi. Har satrda 2-3 bora lug'atga qarab ham mag'zini chaqolmay qiynalardim.

To'g'ri, turkiy dunyoda ijod qilgan «devon» she'ri vakil-larining hammasi bir ovozdan Navoiyni turkiy olamning eng buyuk shoiri, Navoiydan keyingi shoirlar faqat uning ijod dalasidagi tushib qolgan boshoqlarni terdilar, degan fikrini o'qigandim. Rahmatli Shayx akaning (Maqsud Shayxzodaning) Navoiyni «Nazm mulkining sultonı», deb ta'riflashlari to'g'riligini sezardim. O'zim bilan tengdosh aruzchi shoirimiz Erkin Vohidning:

*Menga Bayron bir jahon-u  
menga Pushkin bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor,  
qaddi osmon o'zbegim, –*

baytini g'urur bilan takrorlardim. Ammo o'zim Navoiy olamiga kirolmasdim. Taqdir taqozosi bilan mustaqilligimiz arafalarida Qur'oni karimni bir yil davomida mutolaa qildim, 1991-yil mart oyidan boshlab «Sharq yulduzi»da Qur'onning o'zbek-cha tarjimasi chiqa boshlagani, uni arabchasi bilan chog'ishtirib o'qish va anglash imkonini berdi. Shundan keyin Navoiyni o'qish va anglash ham birdan yengillashdi. Keyinchalik bilsam, ulug' shoirimiz ham bu mo'tabar kitobni ezib ichib o'rgangan. Undagi ilohiy she'riy san'atni idrok etish uchun ko'p g'ayrat sarflagan va alal oqibatda arab tili boyliklari, istilohlari ul hazratning ruhiga singib ketgan ekan.

Buni payqash uchun «Mezon ul-avzon» («Vaznlar taro-zisi»)ni varaqlashning o'zi kifoya.

«Ammo bilginkim, aruz fannikim, vazn avzonining mezonidir, sharif fandir. Ne uchunkim, nazm ilmining rutbasi bag'oyat buyuk rutbadir. Andoqli, Haq subhonohu va taoloning Kalom-i Majidida ko'p yerda nazm voqe bo'libdurki, aruz qavoidi bila rostdur. Ul jumladin biri bu oyatdurkim: «Lan tanolluvvaal birrahatto tunfiquna»dir («Suygan narsa-

laringizni infoq-ehson qilib bermaguningizcha hargiz yax-shilikka yetmagaysiz» (Qur'on. «Oli Imron» surasi, 92-oyat), «ramali musaddasi mahzuf» voqe' bo'libdur. Va yana budur-kim: «Val-mursaloti urfan, fal-osifati asfan»kim («Paydar-pay yuboriladigan shamollar va quturadigan bo'ronlarga qasamkim» (Qur'on, «Var-mursalat» surasi, 1-, 2-oyatlar), vazni: «maf'ulu fo'ilotun maf'ulu fo'ilotun»dur, «muzorei mu-sammani axrab» voqe' bo'lubdur...» va hokazo va hokazo.

Men hazrat Navoiyni anglay boshlaganimda Erkin Vohid-ning e'tirofi balandparvoz bayonot emas, chinakam, samimiyy va ilmiy asosga ega ekanligini yuz foiz tan oldim. Men bu kungacha sevib o'qigan shoirlarim – Shekspir, Bayron, Gyote, Hayne, Pushkin, Lope de Vega, Ronsar, Bodler, Mayakovskiy va boshqalarning juda ko'p shoirona kashfiyotlari Navoiy ijodida mavjudligi zehnimni hayratdan olib hayratga solardi.

Shu tariqa Navoiyning she'riy olamida o'zimni baxtli his qila boshladim. Keyin qanday bo'ldi, nima bo'ldi – bilmayman, aruzda g'azallar, muxammaslar, qasidalar, ruboiylar bita boshladim va keyingi besh-o'n yillik tanaffusdan so'ng «Kuzgi yaproqlar» nomli bir devon hozirladim.

Mehnat mendan, sharaf Ollohdan.

#### 4 (1)

Hech qachon baxt o'z-o'zidan tappa-tayyor o'limg'ay,  
Kelmasa mavrudi fasli hech nima bor o'limg'ay,  
Vo ajab, ko'nglumga bu pand-u o'gut kor o'limg'ay,  
Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'limg'ay,  
Balki ul xilvatning atrofida dayyor o'limg'ay.

Istaramkim, naki dayyor, ko'zli hayvon qolmag'ay,  
Istaramkim, naki hayvon, bir tirik jon qolmag'ay,  
Gar tirik jon qolsa, jonimda biron jon qolmag'ay,  
Ko'zga ko'nglum dardidin yig'larga imkon qolmag'ay,  
Tilga dardim sharhini aylarga guftor o'limg'ay.

Ey karomatli Ilohim, ko'rsatib himmatnikim,  
 Men, qulingga, bir ato et bir g'arib qismatnikim,  
 Bir malaksiymo bo'loyin ko'rinxmas kisvatlikim,  
 Eldin andoq yoshurur istarmen ul xilvatnikim,  
 Ko'nglum andin voqif-u jonim xabardor o'limg'ay.

Qatlima yor ahd qilarسا kulg'amenkim, o'rtada  
 Ming rizolik qaydi birla qolg'amenkim, o'rtada  
 Voqeotga jonli shohid o'limg'aykim o'rtada  
 Yor budi ichra nobud o'lg'amenkim, o'rtada,  
 O'zgalikdan demakim, o'zlukdan osor o'limg'ay.

Eldin andoq yoshurun men xilvat istarmen, biroq,  
 Xilvatingning so'ngida bo'lg'ay devor, bo'lg'ay turoq...  
 Yo'q kafolat ul turoqqa kelmasiga bir qo'noq,  
 Buki, derlar bordurur devor keynida quloq,  
 Ul fazo davrida ko'z yetguncha devor o'limg'ay.

Qancha ahd-u qancha asror, bariga ming jon fido,  
 Shod yurakning zarblarin har tarafda ming sado,  
 Qo'rqamenkim, sirni ifsho aylag'ay deb bu sado,  
 Maxfiy asrоримга bo'lg'ay yor lafzидин ado,  
 Yordin ayru va lekin sohib asror o'limg'ay.

Miraziz A'zam, yoningda do'stlaring ko'p keksa-yosh,  
 Lek, unutma, gapga moyil, so'zga moyil ahli Shosh,  
 O'z labingdan gullama, har qancha bo'lsin orqadosh,  
 Ey Navoiy, qilma har yor oldida sirringni fosh,  
 Bormudur imkonikim, ul yorg'a yor o'limg'ay?!

## 5 (2)

Yigit yoshim kirib birdan manam bo'ldim balogardon,  
 Ko'zumni etdi hayronlar qaro ko'zli shirin bir jon,  
 Unutdim bor-u yo'g'imni, yomon bo'ldim dili vayron.  
 Balo dashti aro Majnun meningdek ko'rmamish davron,  
 Quyundek har zamon bir ko'rmagan vodiyya sargardon.

Onam notinch, opam hayron, ukamning holida hayrat,  
 Taniy olmas mani do'stlar, qocharman uzlatma-uzlat.  
 G'ururimga ziyon yetgan – hamiyat bog'iga ofat,  
 Ne anduh-u malolimga baliyat dashtidek g'oyat,  
 Ne savdo-yu jununimg'a malomat bahridek poyon.

Na bo'lg'an jism-u jonimg'a – etolmasman buni idrok,  
 Na osmonning quyoshi bor, na yerda bir guzarki, pok.  
 Butun olam musibatga duchor bo'lgan kabi dardnok:  
 Tunum dayjur, o'zum ranjur, ichim g'amnok-u bag'rim chok,  
 Tilim lol-u tanim behol, ishim afg'on, sirishkim qon.

Bir insonam, majoli yo'q qo'l urmoqqa biror isha,  
 Nasihatlar, o'git-pandlar asab buzgay, tegib tisha,  
 Hayot go'yo ko'mulgandek tugammas bir ajab qisha,  
 Zaifi dardi g'am pesha, nahifi mehnat andisha,  
 Zalili besar-u somon, qotili xanjari hijron.

Manga derlar: «Bu olamda kishi yo'q bir xalos g'amdin,  
 Hama bir-bir totar mahrumiyat zahrin ko'p-u kamdin»,  
 Urarman oh, bo'lub tutmoq bu taqdirning sitam sangin,  
 Fig'onimdan falak g'amgin, sirishkimdan jahon rangin,  
 Na dardim o'tig'a taskin, na hajrim dardiga darmon.

Biron barq yo'q, butun atrof ko'zumga tiyra, qop-qora,  
 Ilinjim yo'q, kulishga bir bahona yo'q jahon ora,  
 Unutgandek hama baxtni, meningdek hamma bechora,  
 Boshim g'am toshidin yora, tanim hajr o'qidin pora,  
 Ko'ngul bu yorag'a chora toparg'a topmayin imkon.

Ne bois rahna topmoqda, tugab bormoqda odamliq,  
 Nazar solsang, biron kas yo'q yoningda xotiri jamliq...  
 Na ro'shnoliq, na oshnoliq, na dilkashlik, na hotamliq,  
 Ko'zum namliq, boshim xamliq, ichim anduh-u motamliq,  
 Na hamdamliq, na marhamliq topib bu mehnati pinhon.

Bu olamga ko'zum yumsam, birovlarga bo'lur bayram,  
 Raqiblar mayli shodlansin, ko'r bo'lay shunga ham kuysam!  
 Manga hech farqi yo'q endi, ko'nikdim bariga kam-kam:  
 Manga ne yor-u ne hamdam, manga ne do'st, ne mahram,  
 Manga ne chora, ne marham, manga ne sabr-u ne somon.

Zamon yutgan, ayurgandir mani pushti panohimdan,  
 Bilolmasman, jazo topdimmi yo ulkan gunohimdan?  
 Tavajjuh aylaram tunda najot istab Ilohimdan,  
 Ham ahvoli tabohimdan, ham ohi umr kohimdan,  
 Ham o'tluq dudi ohimdan qorarib kulbai ahzon.

Hayot maydonida manga butun borliq edi gulshan,  
 Yer-u osmon nurafshon-u ko'zumning olami ravshan,  
 Na yog'di boshima ko'kdin, zulumot bo'ldi bu maskan,  
 Falak rahzan, zamon dushman, badan ravzan uza ravzan,  
 Qolib jon xisravidin tan, chiqib tan kishvaridin jon.

Kalom birla hadislarda hikoyat ko'p, rivoyat ko'p,  
 Bahr-u barda zarra ko'pdek, alarda haqq-u hikmat ko'p.  
 Bolari bo'l, Miraziz A'zam, terib ol, senga ibrat ko'p,  
 Navoiy, bo'lsa mehnat ko'p, ichako'r jomi ishrat ko'p,  
 Necha bo'lsa suubat ko'p, qilur vahdat mayi oson.

### 6 (3)

Ey Ilohim, qay yo'sun dey hamd-sano, nisor uchun,  
 Sen yurak sahnimda ochg'an bayramiy gulzor uchun?  
 Shuncha lutfmu men kabi bir jonidin bezor uchun?!

Yorni derlarki chekmish yuz jafo men zor uchun,  
 Bo'lsa ming jonim fido aylay jafokash yor uchun?

Yozg'urub erdim jahonda yo'q deya hech kimda or,  
 Dilrabolar yo sarob, yo shu'laday deb beqaror,  
 Bir fidokor yo vafodor topmag'andim barqaror,

Yorkim yori uchun cheksa jafo bil ani yor,  
O'lsa ozdir kimsa andoq yori mehr osor uchun.

Yo'q, ko'zumni ochdi Tangri, ko'rguzub lutkorliq,  
Shundayin ko'rgudiki, jannatga do'ndi borliq,  
Kim edimki, manglayimg'a bitdi mundog' yorliq,  
Yorliq ko'rguzdi men jon birla minnatdorliq,  
Jonini Haq asrasun bu zori minnatdor uchun.

Haq yo'linda men uchun yor misli qo'lg'a taqdi g'ul,  
Ha, qurib bitgan bog'imga tikdi umrin, misli gul.  
Dag'i tug'di men uchun ul bir farishta, bir o'g'ul,  
Men ne qilg'aymen anga loyiq magar ming sarvi gul,  
Olib ozod etkamen ul sarvi gulruxsor uchun.

Kashfiyoti oqil ishkim, anda bordir, kimda bor?  
Har nafas bir parvarishkim, anda bordir, kimda bor?  
Ming riyoza yoz-u qishkim, anda bordir, kimda bor?  
Rostliq birla ravishkim, anda bordir, kimda bor,  
Xo'b ekandur o'lmakim ul qomat-u raftor uchun.

O'limg'ilkim sarsari, sobitqadam chun yurguzur,  
Yotmag'aysen uyqusiz, xush yotqizur, xush turguzur,  
Mingta yulduz jilvasi, kunning jilosin ko'rguzur,  
O'lmakim bemorliqdan sahldir, chun turguzur  
Ani, yo Rabkim, salomat asra bu bemor uchun.

Miraziz A'zam, hayotda ko'rganim bo'lgan jafo,  
Chun bu dunyoda hamisha topganim bo'lgan xato.  
Haq Taoloni unutgan surdilar aysh-u safo,  
Ey Navoiy, yo'q edi olamda oyini vafo,  
Haq nasib etdi sanga senda bu ma'no bor uchun.

## 7 (4)

Keldi nayson, sof havolar, kel bahore ko'zlali,  
 Kel, ochildi bog'da gullar, tong-nahore ko'zlali,  
 Charx urib chahchahlagan bulbuli zore ko'zlali,  
 Ey ko'ngul, kelkim, ikkov bo'lib nigore ko'zlali,  
 Sarv qadde istabon siymin uzore ko'zlali.

Ey, zada bo'lgan ko'ngul, sen, titrama «yo'q» deb bekor,  
 «Bormu ma'no yor yurmas ko'chada er yursa zor?»  
 Men seni anglayman, ko'nglum, bo'lg'ung yo'q hech yerda xor.  
 Yorlig' ko'z tutqonimiz ko'zladi-chun o'zga yor,  
 Bizda ham ko'z bor, borib bir yerda yore ko'zlali.

Bormi naf, kim, yeb o'tirsa ich-etini o'z-o'zin,  
 Yo'qmi za'n, kim, qop-qaro aylab o'tirsa oq yuzin,  
 Yaxshiroq-ku ko'kdin izlash yarqiroq baxt yulduzin,  
 Chun g'ubor markabidin ravshan aylar el ko'zin,  
 Termulib turguncha borib, shahsuvore ko'zlali.

Bu kutishlar zoye ketsa, o'tsa tun va o'tsa kun,  
 Hech asos yo'q bo'lg'ali u chog'da ham xor-u zabun,  
 Ishqimiz dostonig'a qotib devonalig' mazmun,  
 Sayri bog'-u dasht etarbiz ham yana bir yor uchun,  
 Bog' sari ko'z solali, dasht sore ko'zlali.

Bog' aro-yu dasht aro gar bir shafoat topmasaq,  
 Rashk o'tig'a bo'lg'udek su bir qanoat topmasaq,  
 Bu alamlarg'a chidashga yoki toqat topmasaq,  
 Gar aningdek sho'xi shahroshubi ofat topmasaq,  
 Bir faqire mehribone g'amgusore ko'zlali.

Ko'zlali, hech bir guliston hamda bo'ston qolmasun,  
 Ko'zlali har olti yoqni, yer-u osmon qolmasun,  
 Ko'zlali, bu yoqdin o'tgan bitta karvon qolmasun,  
 Garchi nopaydo erur maqsud, armon qolmasun,  
 Xos-u om ichra qila olg'uncha bore ko'zlali.

Pok muhabbat bir olovdir, qalbni yoqmoq unga xos,  
 Miraziz A'zam bu yolqing'a ko'zung yoshuni bos,  
 O'chmasun qalbingda ixlos, bu sifat chin ishqqa mos,  
 Ey Navoiy, bo'limg'ung andin bular birla xalos,  
 Kelki, ham vaslin tilab sabr-u qarore ko'zlali.

### 8 (5)

Er kishi gar yig'lar ersa besababmas yig'lamoq,  
 Toptatib qo'ysa imonin kasb etar kas yig'lamoq,  
 O'ylamang siz men uchun balki muqaddas yig'lamoq,  
 Demangiz ahbobkim, qilmasmusen bas yig'lamoq  
 Kim, manga Tangri nasib etmish tunganmas yig'lamoq.

Ne uchun farq etmas ahbob sog' ila nosog'ni?  
 Bu yurakda ozmidiki orttirarlar dog'ni?  
 Tin olishga yo'q majol, toshlar bo'g'ar tomog'ni,  
 Asray olmon o'zni, ashkim tutti dasht-u tog'ni,  
 Nechakim Farhod-u Majnun dedilar, bas yig'lamoq.

Ul go'zal nomehribon deb g'am to'la yoz-u qishim,  
 Ikki olam mulkini ham ayladi kul nolishim,  
 Keldi Azroil, endi rozi-rizolikdir ishim,  
 Mast-u oshiqmen dag'i, ko'nglimda ayrilg'an kishim,  
 Ey musulmonlar, ne tong men zor-u bekas yig'lamoq.

Shunchalar ko'p yig'ladimki, tutti yer va ko'kdi ashk,  
 Qonlarim oqli ko'zimdin, qonlarimga bo'kdi ashk,  
 Qonli yoshlar o'ydi jismim, oq terimni so'kdi ashk,  
 Tong emas jismim oqizg'uncha ko'zum gar to'kdi ashk,  
 Ne ajab abri bahoriy oqqucha xas yig'lamoq.

Gohi yulduzlar rafiq, devonavashman tongg'acha,  
 Goh bulut to'sgay alarni, zor-u g'ashman tongg'acha,  
 O'ylakim jon quzg'unig'a xomtalashman tongg'acha,  
 Tiyra hajring shomida gar jontalashman tongg'acha,  
 Boshima sham'-u surohiy ne durur bas yig'lamog.

Ovchimi tutdi, nechun menga kabutar yetmadi?  
 Bir asr kutdim, nechun bir chora, bir shay netmadi?  
 Kim vafo istar esa, yorini tashlab ketmadi,  
 Dahr bog‘idin vafosizlik agar fahm etmadi,  
 Nega shabnam ashkidin fan qildi narkas yig‘lamoq?

Miraziz A’zam deyarki: «Ey, Xudo, anglat, uqay  
 Ne sabab men go‘rdaman, endi qay mahshardan chiqay?  
 Ko‘z yoshim daryosida men qaysi Kavsarga oqay?»  
 Ey, Navoiy, toqini man dag‘i ashkimdan yiqay,  
 Chun manga qism etti bu charxi muqavvas yig‘lamoq.

## 9 (6)

Ba’zi bir kunlar xayolda yilt etar nigohlar,  
 Zil ketarman, naq quyoshda jizg‘anak giyohlar.  
 O‘tdi ne gullar, azizlar, bo‘lmadim ogohlar,  
 Telbarab itkan ko‘ngil yodimga kirsa gohlar,  
 Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarman ohlar.

O‘tdi Xayriddin Saloh, Asqar degan bir yelkadosh,  
 Qahqah urdi, o‘tdi-ketdi ul Tilakdek orqadosh,  
 O‘tdi Chori, o‘tdi Ravshan, o‘tdi Shavkat yoppa-yosh,  
 O‘tdi xo‘blar oy kabi, yo‘qdur aroda ul quyosh,  
 Vahki, ul badmehrni ko‘rman o‘tadur mohlar.

Sen esa vaqt o‘g‘risin xoniga bording, ey ko‘ngul,  
 Doimo kulgularin koniga bording, ey ko‘ngul,  
 Qanchalar tulkularin yoniga bording, ey ko‘ngul,  
 Xo‘blar zulf-u zanaxdoniga bording, ey ko‘ngul,  
 Hozir o‘l, tundur qorong‘u, yo‘lda bordur chohlar.

Goh Yusuf yo‘qmu deya ko‘rdim quduqning tiyranin,  
 Gohi Majnun yo‘qmu deb yovvoyi sherlar maskanin,  
 Gohi izlab Laylini kezdim parilar gulshanin,  
 Goh musavvir chizsa devor uzra ul gul xirmanin,  
 Kav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar.

Sevgilar afsonasin ovoza qilgan dun qani?!

Oqibat deb, e'tiqod deb jonna bergan kun qani?!

Dor taginda ul «minalhaq» – hayqirilgan un qani?!

Ey ko'ngul, Farhod ila Vomiq dog'i Majnun qani?!

Bo'limg'il g'ofilki, bir-bir bordilar hamrohlar.

Men qaro tunda adashgum, ul qaro kiysa gahi,  
 Rangorang kiysa, tutar olamni bulbul chahchahi,  
 Kiysa zarrin, mingta yulduz bo'lgusidir hamrahi,  
 To'kti qon, gulgun libosin kiygach ul xo'blar shahi,  
 Qon to'kar ermish, qizil to'n kiysa beshak shohlar.

Qo'y, eshitma, bu zamonning hech qachon gumrohini,  
 Oshiq ahli hech unutgaymi axir Ollohini?!

Miraziz A'zam to'kar ko'ngildagi voh-vohini,  
 Ey bahori xusn, eshitsang Navoiy ohini  
 Kerak, albatta, xazon yelin sog'insang gohlar.

## 10 (7)

Hur edim, sarkash edim, yuksakdi maqomim mening.  
 Boltalanmoqda sarvdek bor-u tamomim mening,  
 Ne sabab zulmatlanib bormoqda tez shomim mening?  
 Har ko'ngul oromi-chun bo'lmish diloromim mening,  
 Ul sababdin yo'q turur ko'nglumda oromim mening.

Hur yurakni ich-ichidin ildizin yondirdi rashk,  
 Islom ahliga rusumdir rashkka iyomon deb qarash,  
 Bor xayol-u o'ylarim, tuyg'ularim ham bo'ldi g'ash,  
 Dudi ohim sarvdek chiqti-yu gulgun bo'ldi ashk,  
 Qilg'ali tarki vafo sarvi gulandomim mening.

Qaysi zot majburladikim, ayladi ahd-u qaror?  
 Debmidakim rahm-u saxovatni manga ayla shior?  
 Ne uchun tinglatdi menga qalbidin bir inja tor?  
 Nega ko'rguzdi shafaqdin shu'la, kavkabdin sharor,  
 Gar yemas g'am do'zaxi bu subhi yo'q shomim mening?

Dilrabolar bir qarashda aylagaylar dilni shod,  
 Bu hayotda er kishiga baxsh etarlar e'tiqod.  
 Lek, alarning ko'plaridin yer yuzida qoldi dod,  
 Dilrabolar ahdiga hech etmasunlar e'timod,  
 Ey sabo, ishq ahliga yetkur bu payg'omim mening.

To'g'ri, oshiqlarga yorning nomi ham bergay kamol,  
 Yor jamolin tavsif aylar boshida kezgan hilol,  
 Va alarni haq yo'lig'a boshlag'ay qudsiy xayol.  
 Oshiq otig'a kiriptur ko'nglum-u topmas visol,  
 Fosiqi mahrumtek bo'l mish bu badnomim mening.

Manga ikki pulcha turmas bu yorug' dunyo ishi,  
 Man kabi devonavor sevganmidi hech bir kishi?  
 Boshidin uchganmidi hech tavbasiz aql-u hushi?  
 Donai tasbih mayli aylamas ko'nglum qushi  
 Rishtai zunnorи zulfung bo'lg'ali domim mening.

«Shundayin gulki muqaddas» deb fikr bildirmakim,  
 Miraziz A'zamga o'xshab hammani kuldirmakim,  
 Shayx San'on singari tarsoga dil oldirmakim,  
 Ey Navoiy, mendek ul but ko'yi sari kirmakim,  
 Kufr ila bo'ldi badal bu yo'lda islomim mening.

## 11 (8)

Mendagi jon sendagidek bebahо jonmu emas,  
 Sencha, men a'zam g'aniyga erka o'g'lonmu emas,  
 Yo sening ruhingdagi ham toza vijdonmu emas,  
 Dam-badam la'ling xayolidin ichim qonmu emas,  
 Qatra-qatra ko'z yo'lidin yuzga g'altonmu emas?!

Ey birodarlar, mani qilmang jahon ovozasi,  
 Bir pichоq yeng, so'ng bilarsiz ne ekan ishq nayzasi,  
 Ham shirin, ham ming azobli, vaslining har lahzasi,  
 Goh o'lub, gohe tirilsam, tong emas, vah, g'amzasi  
 Qotil ermasturmu yo no'shi labi jonmu emas?!

Ming o'lub, ming bor tirilsam va'dabozlar ilkidin,  
Shum raqiblar o'zlarin hech to'xtatolmas kulkidin,  
Ko'z ochibman, aldayurlar, hech qutulmam tulkidin,  
Ne ajab, ishq ofatidin chiqsa jon tan mulkidin,  
Shah na zolimmu emas, yo mulk vayronmu emas?!

Ko'zlarining tunda adashtirmasmu bir tashlab qiyo,  
Muncha ko'p tegrangda yolg'on, muncha ko'p nayrang, riyo?!  
Kipriging chaqmoqlari otmasmu qalb tinguncha to,  
Novaki zulm urmog'ingdin tonmag'il, ey qoshi yo,  
Tanda zaxm ermasmu, yo ko'nglumda paykonmu emas?!

Dema bu ishqbexabar bilmas nadir zahmu yaro,  
Sen malomat qilma, jonim, har kunim motamsaro,  
Hech kimin orzusi mendek bo'lmasin hech tim qaro,  
Telba ko'nglumni dema ko'p vola ermas ishq aro,  
Shuhrai ofoq, yo rasvoyi davronmu emas?!

Bu zamon bo'stonida gul termadim, ayb etmangiz,  
Ko'krakimni bir to'yib, eh, kermadim, ayb etmangiz,  
Men bu kunga sog' vujud-la kelmadim, ayb etmangiz,  
Dahr sho'xig'a ko'ngul gar bermadim, ayb etmangiz,  
Ishvasi chinmu emas, yo ahdi yolg'onmu emas?!

Miraziz A'zamni tinch qo'y, baxtini zabun dema,  
Dema mas'ud ko'rmadim, ul doimo mahzun dema,  
Zavq ila ishlashni bilmas hur Vatan uchun dema,  
Dasht aro ko'rsang Navoiyni emas Majnun dema,  
Toshmu urmas ko'ksiga, yo jismi uryonmu emas?!

## **BOBUR (1483–1530) G'AZALIGA MUXAMMASLAR**

### **12 (1)**

Men hayotim kamandini har nechaki tarang tortsam,  
Goh u yonga qulaydir, goh bu yonga, ochig'in aytsam.

Xotiramning qa'rida uxbab yotar baxtli kecham,  
Ne xush bo'lg'ayki bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam,  
Kechalar tori mo'yidek beliga chirmashib yotsam.

Qaniydi bir topib imkon o'zum o'zlukni yod etsam,  
Na bo'ldi menga bundoq deb basir ko'zlukni yod etsam,  
Gahi so'ksam o'zumni, yoshligim – bo'zlukni yod etsam,  
Gahi guldek yuzini ul shakar so'zlukni yod etsam,  
Gahi shakkar kabi ul yuzi gulning la'lidan totsam.

Qani ulviy u hikmatlar, ko'ngul biroz o'rgansa,  
Ichimning bor-u yo'g'in anglaturlik soz o'rgansa,  
U o'rgansa, bu o'rgansa, hamadan boz o'rgansa,  
Qani Shirin bila Layliki, sendan noz o'rgansa,  
Qani Farhod-u Majnunkim, alarga ishq o'rgatsam.

Base, olamda sen bor-ku, nechun bundoq ko'zi namliq,  
Shukur Ollohg'a xushdur, keltirar xotiri jamliq,  
Shukur qil, Miraziz A'zam, sezarsan dilda bardamliq.  
Ko'zum ravshanlig'ida bo'lg'ay,  
ey Bobur, base kamliq,  
Agar qoshi bilan yuzin hilol-u kunga o'xshatsam.

13 (2)

Boshda yorni sabr ila kutmoq kerak,  
Lozim ersa, qonlaram yutmoq kerak...  
Gar unutsa, kelmasa netmoq kerak?

O'zni, ko'ngul, aysh ila tutmoq kerak,  
Bizni unutqanni unutmoq kerak.

Bu hayot fanosig'a urg'u berib,  
Har kuningg'a mangulik orzu berib,  
So'ogra unga qo'sh qanot, parqu berib,  
Aysh-u torob gulbunig'a suv berib,  
G'ussa niholini qurutmoq kerak.

Yor agar ayyor ilaki xo'b turur,  
Borligingda rashk o'tini qo'ptirur,  
Sol Xudoga – o'tni suvga cho'ktirur,  
Har nimaga g'am yema, g'am ko'p turur,  
Aysh ilakim o'zni ovutmoq kerak.

Bir vafosiz yor alamidin, ko'ngul,  
Yuz o'girma dil hamdamidin, ko'ngul,  
Izlama nur zuhd qadamidin, ko'ngul,  
Tiyra durur zuhdi damidin ko'ngul,  
Ishq o'ti birla yorutmoq kerak.

Miraziz A'zam, uzoq bo'lma malul,  
Bu gulistonda serobmish turfa gul,  
Qiynamasin xotiringni tahayyul,  
Kuyma mashaqqat aro, Bobur, ko'ngul,  
O'zni farog'at bila tutmoq kerak.

## **FUZULIY (1498–1556) G'AZALIGA MUXAMMASLAR**

### **14 (1)**

Kishi go'ngli o'sar ko'kka odamdin ro'shno ko'rgach,  
Shukur aylar, biron kasni tariqiga fido ko'rgach.  
Biroq yerga kirar noxos qarindoshdin jafo ko'rgach,  
O'lur qaddim duto ishqing yo'linda bir balo ko'rgach,  
Tariq ahliga odatdir tavozu', oshino ko'rgach.

So'rарман navmid ishqimni nihon tut, deb ilohimdan,  
Qizarsa ham sirim saqlar – umidim vor sabohimdan,  
Va go'nglim to'q,

fosh etmas deb quyoshimdan va mohimdan,  
Nihoniy ishqи ma'lum etsa olam dudi ohimdan,  
Ajab yo'qkim gumoni ganj edar xalq ajdaho ko'rgach.

Sani injitmadim hech vaqt, nechun banga sitam har on?  
Gunohimni bilib bo'lmas, damim o'tgay mudom hayron:  
Nechun buncha azm etding hayotim etgali vayron?  
O'qing har lahzakim jonim dilar, go'nglim qilur afg'on,  
Biaynih o'ylakim faryod edar itlar, gado ko'rgach.

Ko'r o'ldim go'zima dushgan g'uborlardan va to'zlardan,  
Kishi go'nglin bosib o'tgan rahmsiz qalbi muzlardan,  
Unut bo'lmoq og'ir g'oyat o'zing sevgan azizlardan,  
Fuzun o'lдиqcha ishqim garm o'lur ashkim bu go'zlardan,  
Agarchi suv burudat kasbini aylar, havo ko'rgach.

Muhr – Haqdan, ilohimdan, qomandir no'la qadr etsun?  
Agarchi yozmishim qora, bosh sadr no'la qadr etsun?  
Qadrsiz – ulfatim bori, beqadr no'la qadr etsun?  
Rivoji naqd naqshi shikvadandir, no'la qadr etsun,  
Bana el jismi uryonimda naqshi bo'ryo ko'rgach?!

Bani dehqon chiqar yerga, o'lub navro'z, savr gelduqcha,  
Yaratgay noz-u ne'matlar, bani eldan mehr go'rduqcha,  
Dushar ketmon alindan, amirindan javr go'rduqcha,  
Bana darvesha el ham javr edar, san javr qilduqcha,  
Kim, aylar zulm man'in, podshohim, san ravo ko'rgach.

Qachon sen, Miraziz A'zam, ne topding ishq safosidan?  
Umid qilding (xato qilding!) vafosizning vafosidan,  
Va yutding qancha zardoblar hayotingning xatosidan.  
Fuzuliyni oshur, e za'f, mahvashlar balosidan,  
Ki, mahvashlar qilur yuz bing jafo, bir mubtalo ko'rgach.

**15 (2)**

Asl zarning bahosin bir umr zargor o'landan so'r,  
 Umidsiz dil malolin bir umr afgor o'landan so'r,  
 Safoyi fasl qadrin, qish, bahora zor o'landan so'r,  
 Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,  
 Zuloli zavq shavqin tashnai diydor o'landan so'r.

Go'zing sehrin gelub dildora bandan o'zgadan so'rma,  
 Tiling shahdin gelub bozora bandan o'zgadan so'rma,  
 Soching mushkin gelub gulzora bandan o'zgadan so'rma,  
 Labing sirrin gelub guftora bandan o'zgadan so'rma,  
 Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r.

O'tar gunlar, gechar yillar, hayotimni etar zoyil,  
 Ko'ngil bo'lmas yuzingdan o'zga yuz ko'rgali moyil,  
 Dilim g'ashlu, go'zim yoshlu, saningsiz dam zil-u zambil,  
 Go'z-u yoshlularing holin na bilsun mardumi g'ofil,  
 Kavokib sayrini shab to sahar bedor o'landan so'r.

Xabarsizdir hukmfarmo zalil qalbda tikanlardan,  
 Amir ahli xabar qo'ymas anga go'ngli shikanlardan,  
 Va lekin sen xabardor o'l alam tuxmin ekanlardan,  
 Xabarsiz o'lma fatton go'zlarining javrin chekanlardan,  
 Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o'landan so'r.

Uzun sabrim tugab bitgan, bani tark etdi iqbolim,  
 Tun-u gun ag'laram timmay, og'ir gundan guna holim,  
 Bana hayfdir alamlar ham, bu o'lgach borki a'molim,  
 G'ammingdan sham'tek yondim, sabodan so'rma ahvolim,  
 Bu ahvoli shabi hijron banim-la yor o'landan so'r.

Samoga uchmoq istarman vale sinmish qanot-bolim,  
 Junun sahosida yolg'iz kezar jonim – so'nggi molim,  
 Nechun muncha xarob o'lding, deya so'r loaqal, zolim,  
 Xarobi jomi ishqam, nargisi masting bilur holim,  
 Xarobot ahlining ahvolini xummor o'landan so'r.

Sen-ey, sen, Miraziz A'zam, bu otashga o'lub doxil,  
Bilursan: ishq inoyatdir, buni tasdiq etar oqil,  
Bu so'zdan, lek, o'girgay yuz biron zohid va yo johil,  
Muhabbat lazzatidan bexabardir zohidi g'ofil,  
Fuzuliy, ishq zavqin, zavqi ishqni vor o'landan so'r.

**MASHRAB (1657–1711)**  
**G'AZALIGA MUXAMMASLAR**

**16 (1)**

Olloh buyursa agar, Majnunday sevay derman,  
Har ne minnating bo'lsa, qoshimga qo'yay derman,  
Jabr-u jafolaringni in'omday bilay derman,  
Ishqing o'tig'a o'rtab har dam chu kuyay derman,  
Ul sham'i jamolingga parvona bo'lay derman.

Faqat rozi bo'lmasman ishqimdin cho'kar bo'lsang,  
Ming bora rozidirman bag'rimni so'kar bo'lsang,  
Bir bora oh urmasman qaddimni bukar bo'lsang,  
Mujgoning o'qin otib qonimni to'kar bo'lsang,  
Qonim bila, ey jono, olamni bo'yay derman.

Ko'yingdan chiqib agar, yet elga guzar qilsam,  
To o'lguncha nomingga tirnoqcha zarar qilsam,  
Javringdan o'zga javr ko'nglimga tilar bo'lsam,  
Yuzing bila qoshingdan o'zgaga nazar solsam,  
Xanjar olibon qo'lga ko'zimni o'yay derman.

Menga ayon: ishq o'ti yomon toblar tobini,  
Kimdir ko'tarmas yorning hajri-yu itobini,  
Men o'lguncha yozarman muhabbat kitobini,  
Rahm aylasa gar dilbar ham ochsa niqobini,  
Men xastasiman, do'stlar, to'yguncha ko'ray derman.

Dunyoda yolg'izlikka oshna bo'lubon yurdum,  
 Yuragi ming xil yara, toshma bo'lubon yurdum,  
 Ko'zyoshlari tinmagan chashma bo'lubon yurdum,  
 Men dashti muhabbatda tashna bo'lubon yurdum,  
 Sun vasl sharobidan, ey soqiy, to'yay derman.

Oollohim, darig' tutma meni lutfu karamdin,  
 Bir inoyat ato et o'shal qoshi qalamdin,  
 Kechdi Miraziz A'zam son-sanoqsiz sanamdin,  
 Mashrab seni deb, dilbar, kechdi ikki olamdin,  
 Rahm aylagin, ey jono, vaslingga yetay derman.

## 17 (2)

Bir satr she'r yozilmas to vahiy kelmag'uncha,  
 Fikrat ila tuyg'ular ko'ngulga to'lmag'uncha,  
 Ichingda talotumlar to xuruj qilmag'uncha,  
 Sahro yuzi ko'karmas to yoz bo'lmag'uncha,  
 Bulbul tarannum etmas to g'uncha kulmag'uncha.

Bu dunyo chaman bo'lsun, odamning ko'ngli tinsun,  
 Kishan-bo'g'ov qolmasun, hammasi chil-chil sinsun,  
 Quyosh bo'lki olamg'a, nurlaringdan isinsun,  
 Ko'z abridan suv to'kkil, imoning ham bilinsun,  
 Bog'-u chaman ko'karmas, yomg'ur quyulmag'uncha.

Hayotning g'animlari boshimiz uzra mushtum,  
 Men kuchim yetkanicha haqiqat deb olishdum,  
 Birda yengdim, gohida mag'lublik zahrin ichdum,  
 Makri raqibi birla hasrat uyig'a tushtum,  
 G'am rishtasi uzilmas to yor kelmag'uncha.

Bandag'a zulm qilma, sen ham mazlum bo'lursan,  
 Dunyoga ruju' qilma, zaxirasiz qolursan,  
 Mangu yashayman dema, ko'p xijolat bo'lursan,  
 Yuz yil tirik yurusang, oxir bir kun o'lursan,  
 Afsus ila ketursan to vosil o'lmag'uncha.

Ey, sen, Miraziz A'zam, baxt uchun jangda bo'lg'il,  
El-ulus qayda bo'lsa sen ham u yonda bo'lg'il,  
Yaxshilarning labida bir umr xanda bo'lg'il,  
Ey, Mashrabi qalandar, yaxshiga banda bo'lg'il,  
Xalvoyitar tuzalmas shakkar qo'shulmag'uncha.

**MUQIMIY (1850–1903)**  
**G'AZALIGA MUXAMMAS**

**18 (1)**

Ne sabab dunyoni bizga tor qilmoq shunchalar,  
Bir tabassum – bir quyoshga zor qilmoq shunchalar,  
Bir otilgan so'z uchun aybdor qilmoq shunchalar,  
Zulm ila qahr-u g'azab izhor qilmoq shunchalar,  
Oshiqi bechoraga ozor qilmoq shunchalar.

Bu yurak xolisligini qilcha ham bilmay turib,  
O'ylamay, bir oq ko'ngulga toshko'mirday dog' surib,  
Pok niyatli bir odamning so'zlarin tersga burib,  
Gul debon sevgan kishining ko'kragiga nish urib,  
Xasta-yu ma'yus etib afgor qilmoq shunchalar.

O'lтирарсиз товланиб бир со'зламаслик язмida,  
Биз томонга бир қиyo ham ташламаслик аzmida,  
Аjratarmi yo odamni siz tomonning rasmida?  
To'tiyi shirin suxan ag'yorlarning bazmida,  
Bizga kelganda gapirmay zor qilmoq shunchalar.

Lekin oshiq ahli shunday: cho't emas ming bir azob,  
Ishq yo'lida qiyinalish vallohu a'lam bissavob,  
Sizga kim aydi: alarni shu yo'sin et deb xarob,  
Sizga kim aydi: muhabbat ahlini qil ihtisob,  
Qo'rqtib o'z aybiga iqror qilmoq shunchalar?!

Kelsa oldingizga kelsin, mayli, bekmi yo malik,  
Kelsa kelsin o'g'ri ham – hamyonи oltin tangalik,  
Rozi bo'lgaysiz alardan, qancha qilsa ezmalik,  
Kelsa oldingizga boy suvrat yaqosi tugmalik,  
Izzat ila shod-u minnatdor qilmoq shunchalar.

Garchi kelsa sizga o'ng bir avliyo, ammo haqir,  
Barglarin to'kkan, yalang'och, kuzgi tolday bir taqir,  
Kelsa darvish yo qalandar, qo'lida xurjun yo paqir,  
Garchi kelsa eski to'n bizdek duogo'yi faqir  
Kambag'alning xirqasidan or qilmoq shunchalar.

Miraziz A'zam shukur der, garchi zilday yozuqim,  
Berdi menga xayr-u hikmat har kuni och-u to'qim,  
Roziman yog'dirsalar ming bir jafoni ma'shuqim,  
Har balo-yu jabr kelsa yonmagay hargiz Muqim,  
Oshiq ahlini urubon xor qilmoq shunchalar.

## **ALMAIY (1852–1891) G'AZALIGA MUXAMMAS**

### **19 (1)**

Sen qachon yor bo'lg'on erding, ey «hayot» otlig' hayot?!  
Jim o'tarsan goh yayov, goh dup-dupur otlig' hayot.  
Men seni qay payt unutdim, ayladim yotlig', hayot?  
Ey, hayoli jonim ichra tanda jon yanglig' hayot,  
Kelki, sensiz talx bo'ldi jonima totlig' hayot.

Ko'zlarimda bir malaksiymo kumushtan suvrating,  
O'ylarimda xulq-u atvoring, chiroyli siyrating,  
Lablarimda so'zlariningdir, durri ma'ni ziynating,  
Raglarimda qonim o'rniqa ravondir fikrating,  
Paykarimda otashi ishqing erur issig' hayot.

Furqatida yitsa ham qadrim, tirikdurman hanuz,  
Otdi g‘iybat o‘qlarin har kim, tirikdurman hanuz,  
El aro afsonadur zardim, tirikdurman hanuz,  
Hajrida tunlarni o‘tkardim, tirikdurman hanuz,  
Ey, ajabkim, muncha ham bo‘lmish manga qottig‘ hayot!

Iltifoting, lutf-u ehsoning sening chekli emas,  
Kengligingdan laychani ham aylagansan shernafas,  
Har faqir kelmoqda sendin sog‘lik istab basma-bas,  
Ashklik tufrog‘im uzra ruhdek urg‘il nafas,  
Bo‘limg‘ay nuqson dampingdin topsa bir balchig‘ hayot.

Yoshlarimdin ko‘zlarim ko‘r, yovlarim lekin basir,  
Xascha nuqsimdan yasarlar tog‘ kabi ulkan qasr,  
Badnom aylab do‘s-t-yorg‘a o‘tkazib turfa ta’sir,  
Ayblo‘ dushmanlarim komig‘a qilg‘uncha asir,  
Manga, ey taqdir, maqsuding budurkim, yig‘ hayot.

Kimki Haq der, balki qashshoq, xotiri jamdur vale,  
Kimki Mol der, balki zangin, oxiri g‘amdur vale,  
Kimki Mulkdor, elga sochsa, umri xurramdur vale,  
Umr agar xush o‘tsa, umri Nuh ham kamdur vale,  
Ko‘p uzundur ko‘z yumib ochquncha kulfatlig‘ hayot.

Baxtni kutma, Miraziz A’zam, umrbod kuttirur,  
Ranj-u mehnatsiz kuning kulfatni har dam orttirur,  
Haq agar lutf qilmasa, ming g‘am qo‘lingg‘a tuttirur,  
Almaiya baski, baxti dam-badam qon yuttirur,  
Margdur shirin qotida zahrdan achchig‘ hayot.



# QIT'ALAR



## 1

O'limga tong qolar odam ming karra:  
 Dengizda cho'kmagan tomchida cho'kar.  
 Zarrabinda arang ko'ringan zarra  
 Insonning o'pkasin, suyagin so'kar.

Qurolsiz va o'qsiz vahmli bir sas  
 Yiqitar alpqomat azamatni ham.  
 Yo'q, inson u qadar qudratli emas,  
 Ko'pincha ilojsiz hazrati odam.

Kerilmoq, kekkaymoq va kibrlanmoq  
 Odamni yemirar, bo'lingiz amin.  
 Nahotki, shunchalar qiyin anglamoq –  
 Bir nafasda yutar bir yurtni zamin.

Bir toshqin, bir ko'chki, atom portlashi  
 Yo'q qilishi mumkin butun millatni.  
 Faqat ruhoniyat kitobi yaxshi,  
 Unda topiladi ezgulik matni.

Hasad ezgulikka kushanda har dam,  
 Hasaddan o'tinday yonadi bakr.  
 Toshqindan, yong'indan, zilziladan ham  
 Ko'p ofat keltirar dunyoga makr.

Sen bugun o'zingni o'ngla, birodar,  
Sen bugun o'zingni yig'ishtirib ol.  
Bir payt Jazo Kuni kelsa muqaddar  
«Qayga qochay?» deya izlama savol.

2

Sen shahringga ketganda, men shahrimda qolganda,  
O'ylab ko'rghanmisan hech: hayotim hayot bo'lmas.

Balki, ayol ketidan, balki, xayol ketidan  
Ketsam ketarman, ammo labimda bayot bo'lmas.

Ko'kka chiqqanda hilol, tarqalar dardim xiyol,  
Tarqalar malol, ammo ruhimda qanot bo'lmas.

O'zimni o'zim yerman, xonam qabrmi derman,  
Ko'nglimni aldayurman, baribir sabot bo'lmas.

Umrим ma'nisi orzu, madad bo'lmas orzu ham,  
Tanglikdan chiqay derman, ilkimda najot bo'lmas.

O'lim bilan do'stlashib o'ynab-kulib yoturman,  
Jonimda zarra qo'rquv, hadik, ehtiyyot bo'lmas.

Kelsang kel, kelmasang qo'y, o'lgay Miraziz A'zam,  
Uni saqlab qolarlik, hattoki, sirot bo'lmas.

3

Menda-ku sabr bor, menda to'zim bor,  
O'rtada o'lim bor, lekin o'lim bor.  
Sening boshing og'rir, mening yuragim,  
Ollohdan uzunroq umr tilagin.

## 4

Oh, qizlar, ko'ngilni yara etarlar,  
 Bir kun kelaman, deb, kelmay ketarlar.  
 Qo'l silkib qolarsan, uvishar yurak,  
 Bu ne bir tabassum – bir qisim chechak?!

Qachon ko'rasan-u! Ko'rasanmikin?  
 Qadaming odimlar parishon, sekin.  
 Yo Xudo! Sabr ber, bergin qanoat!  
 Kela qol, qanoat, oltin qanoat!

## 5

Baxilning turi ko'p, shamoyili ko'p:  
 Raqibdan qizg'anar, do'stdan qizg'anar.  
 Lekin bir turi bor g'oyat g'aroyib:  
 Yaxshilik qilishni o'zdan qizg'anar.

Topadi, tutadi, yig'adi faqat,  
 Tuzukroq yemaydi, kiyinmaydi ham.  
 Hatto yirtiq tuqli kiyib yuradi,  
 Jirkanib ketadi qaragan odam.

## 6

O'zgalar haqida gap ketsa agar,  
 «Ichida ko'mir ko'p» deb qo'yar sekin.  
 Milyonlab tonnasi asli o'zida,  
 Ko'mir konlarini yopish ham mumkin.

## 7

Hayajon – bu hayot, qo'shiq – bu hayot,  
 Faqat ichqoralik kulfat yurakka.  
 Orom istagi bu – eng yaqin mamot,  
 Mangulik yor – dardga ulfat yurakka.

Tungi shabnam g‘oyib bo‘lar erta bilan  
Yer yuzining kelgan-ketgan odamiday.  
O‘y ham kelib ketar xuddi tushingdag'i  
Do'stlaringning eshitilmas qadamiday.

Yaxshi odam haq yo'lda shodlik sochib kezadi,  
Razil odam do'q urib haqgo'ylarni ezadi.



# RUBOIYLAR

(TO'RTLIK LAR)



## MUNOJOT

Haq Taolo, haqni menga yor qil,  
Haqsiz ikki olamni ham tor qil.  
Har so'zingni yuragimga kor qil,  
So'zdan qaytsam tola nurga zor qil.

### 1

Uni-buni bildim, bilmadim faqat:  
Qayerda kutar baxt, qayerda ofat.  
Ne-ne kasallikdan ketdim qutulib,  
Ammo changalidan qo'yamadi qismat.

### 2

Ko'p balandda yotma, do'stim, chirpirak aylaydi yel,  
Ko'p tubanlik jarda yotma, oqizmay qo'ymaydi sel.  
Ham xamirdek bo'lma yumshoq, har odam ezgay seni,  
Berahm va qattiq bo'lma, sindirib tashlaydi el.

### 3

Bahor o'tdi vale hijron qishi o'tmas,  
Bu ne hol, deb so'roqlovchi kishi o'tmas.  
Men asrlik ayriliqqa mubtaloman,  
Hech kimsaning endi menga nishi o'tmas.

**4**

Men bilgan bir narsa bor – odamlar bilmaydilar:  
 Aqli ko‘proq odamlar ahmoqqa o‘xshaydilar.  
 Hech kimsa bilmaydigan fikrni so‘zlaganda,  
 Kimlardir o‘zlaricha ahmoq deb o‘ylaydilar.

**5**

Ha, g‘uncha ochilguncha kapalak yashab o‘tar,  
 Inson umri ham shundoq, ortiq nimani kutar?  
 Ikki eshik orasi – umr o‘tadi zumday,  
 Inson anglasa buni – manzilda anglab yetar.

**6**

Yig‘lasang ham, kulsang ham hayoting bitta, ukam,  
 Bema’ni yashab o‘tsang xatoying katta, ukam.  
 Yelmisan yo selmisan, suvmisan, havomisan?  
 Avval sen o‘zligingni bilgin albatta, ukam!

**7**

Dard yugurib kelar, ketar imillab,  
 Oqsoqollar joni og‘rir simillab.  
 Bemor – daraxt, dard – yel, yupan, sanchiqdan  
 Gunohing to‘kilar bargdek shovullab.

**8**

Bir jumboq qo‘yibdi o‘rtaga Asad:  
 Qaydan tug‘iladi, bilmadim, hasad?  
 Nimasin bilmaysan, qalbingga qara,  
 Sen hasad qilmasang, tug‘ilmas hasad.

**9**

Qoplonning ko‘zi uloqdadir,  
 Uloqning ko‘zi yaproqdadir.

Dog'man shu dunyoning ishlariga:  
Har tirik jon dardi tomoqdadir.

**10**

Sen boshqacha chiroylisan, yovvoyi gul,  
Shamollarda sollanasan, savdoyi gul.  
Bu ketishda erta-indin, tez orada  
Bo'p ketasan allakimga xudoyi gul.

**11**

Sarv to'g'ri bo'lganidan soyasi ham to'g'ridir,  
Saksovul sahroda qolmish, kuyganidan egidir.  
Tangrini bilmas kishida to'g'rilikdan yo'q nishon,  
Ul o'zi ham, do'stlari ham, soyasi ham bugridir.

**12**

Sen tilingga sohib o'lgin, chun tiling arslon erur,  
G'ulda tutsang, ul o'zingga har qachon qalqon erur,  
Ehtiyot aylab ani o'z holiga qo'ysang magar  
O'ldirar yovni, o'zingni— har taraf vayron erur.

**13**

Munofiqlar go'yo ilonday bo'lar,  
Gohi do'st, gohida chayonday bo'lar.  
Insonga duch kelsa insunday bo'lar,  
Shaytonga duch kelsa shaytonday bo'lar.

**14**

Yaxshi qizga uylansang rahmat yog'ilar senga,  
Yomon qizga uylansang la'nat yog'ilar senga.  
Yaxshi qizdan yorug'lik, ne'mat yog'ilar senga,  
Yomon qizdan zulumot, kulfat yog'ilar senga.

**15**

Kechganman ichkilikdan – jomi Jamdan,  
 Kechganman olamdag'i oy sanamdan,  
 Ollohning menga bergan yorlig'idir,  
 Kechmayman oppoq gulday oq bekamdan.

**16**

Ming xayollar, ming azoblar mandadir,  
 Qo'llarim sevgi degan kamanddadir.  
 Xohi o'ldir, xohi qoldir – senda gap –  
 Sarvinozim, hukm-u farmon sandadir.

**17**

Qop-qaro tunlarda nurdur so'zlarin,

Yel kabi ozod va hurdur so'zlarin.

Gohi yoqut, gohi gavhar, gohi la'l,

Marvariddur, toza durdur so'zlarin.

**18**

Lablaringning la'li bor, yoquti bor,  
 Lola yaproq kichkina barquti bor.  
 Qand-u novvot yo asalmi, bilmadim,  
 Bir hayotbaxsh allanesi, quti bor.

**19**

Sevgilimning bog'larida bulbul sayraydi,  
 Sevgilimning qiyognog'idan jonim yayraydi.  
 Sevgilimning bog'larida men bo'lib oqib,  
 Jildir-jildir kuylagancha suv jildiraydi.

**20**

*(Ayriliq kechasi)*

Ohimning tutunidan ko'klar qorong'ulashdi,  
 Tun qushlari nolamga qo'shilib kukulashdi.

Yer yuzida najotkor bir zot yo'qligin ko'rib,  
Goh bir chimdim-bir chimdim yulduzlar nur ulashdi.

**21**

Gulni sevgan tikonin ham sevadur,  
Qizni sevgan hijronin ham sevadur.  
Elni sevgan haqni sevar, shart qo'ymay,  
Og'ir-yengil har onin ham sevadur.

**22**

Oqsoqollar oldidan o'tmoq qiyin,  
Yor-u do'stdan chetlashib ketmoq qiyin.  
O'rtada gar bo'lmasa orzu-umid  
Sevgilingni to abad kutmoq qiyin.

**23**

Muhabbat yo'q joyda quvonch ham bo'lmas,  
Muhabbat – bulbulni chahchahlatuvchi.  
Sevgi sobit joyda umr tez so'lmas,  
Sobitlikdir gulni yaraqlatuvchi.

**24**

Sevgimning tabassumi bo'ysunmas menga:  
Mendan izn so'ramay oqadi senga.  
O'ziga juda baland baho beradi,  
O'zicha o'ylaydiki, yoqadi senga.

**25**

Xotin tanlar bo'lsang  
Qulqoqqa ishon, ko'zga ishonma.  
Oltin tanlar bo'lsang  
Qaroqqa ishon, so'zga ishonma.

**26**

Tog‘ boshiga uyma xirmon,  
 Yo‘qsa yelda sovrilar don.  
 Har hosilning o‘z o‘rni bor...  
 O‘rning bilgin sen ham, inson.

**27**

Sen qarzing bo‘lmasa, qashshoqman dema,  
 Boylik – bu mol emas, aslo g‘am yema.  
 Hech kim mol-dunyoni o‘zga dunyoga  
 Ortmoqlab ketolmas yollab bir kema.

**28**

Katta orzuli odam armondan qo‘rqar,  
 Katta daraxt bemahal to‘fondan qo‘rqar.  
 Zap ajoyib qurilgan mo‘jiza dunyo,  
 Katta tuya kichkina sichqondan qo‘rqar.

**29**

Yuzga kirgan ketmonchi to‘lib yotibdi,  
 Yuzga kirgan bosqonchi to‘lib yotibdi.  
 Yuzga kirgan amaldor topilmas ammo,  
 Mansab talashib bevaqt o‘lib yotibdi.

**30**

Dastavval bulutlar yig‘ilar bir-bir,  
 Undan so‘ng shovullab yog‘ilar yomg‘ir.  
 Hech qachon o‘zicha yig‘lamaydi ko‘z,  
 Yurakni bir alam bosmasa og‘ir.

**31**

Oh, bulutli kechalarda uyqusizlik ko‘p yomon,  
 Qon bosimli kimsalarga bir azobki beomon...

Tarqalib ketsa bulutlar koinot ayvonidan  
Oy suzarkan uyqusizlik har qalay kechgay oson.

### 32

«Ko‘rdim, hammasi haql!» demagin, o‘rtoq,  
Ko‘rganining aslida haqdan ko‘p yiroq.  
To‘q yong‘oq, puch yong‘oq degan gaplar bor,  
Ko‘rgandan mag‘zini chaqqan yaxshiroq.

### 33

Tog‘da ko‘klam havosiga qongan yigit –  
Dardlarining davosiga yongan yigit.  
Ammo joniga ming balo sotib olgay  
Ko‘cha-ko‘yning barnosiga qongan yigit.

### 34

Bolari ko‘p kelar yaxshi gullarga,  
Sovchilar ko‘p kelar yaxshi qizlarga.  
Yaxshi bo‘ling axir... Yaxshi bo‘lmoqlik  
Nahot shuncha qiyin bo‘lsa sizlarga?

### 35

Mixni ushlamaydi chirigan taxta,  
Yong‘oqni chaqolmas cholning tishi ham.  
Har kim oltmisht yoshdan sakragan vaqtda  
Yoshga loyiq bo‘lsin qilgan ishi ham.

### 36

Muhammad ummati, Muso ummati  
Tinmay urusharlar, so‘nmay nafrati.  
Nahotki, nafratga dori topilmas,  
Baland-ku insonning qadr-qimmati?!

37

«Sevgi – ko'rlik» demoq yeppa-yengildir,  
Sevgi bilan ko'rlik opa-singildir.  
Haq yo'lida sevgan insonlarga bu –  
Bir bosh uzumdag'i ikki shingildir.

38

Vujud xohishlarin ado etavermoq,  
Qanday anglatayin? – gunohdir, gunohdir.  
Chun vujud xohishlari ruh kishisining  
Olamidan juda yiroqdir, yiroqdir.



# TUYUQLAR



## **(BOLALARGA)**

**1**

Qo'lingda miltig'ing bor, tagingda ot,  
 Otadigan bo'lsang, ana, nishonga, ot!  
 Otishdan qo'rqlama, seni Botir derlar  
 Hujjatingda yozug'liq turar bu ot.

**2**

Gapga chechan og'aynim Mirza Davlat  
 Bormi, devdi, sog'liqdan ulug' davlat,  
 Mudrab o'tirgan Ali sakrab turib  
 Dediki: – Bizning davlat – ulug' davlat.

**3**

Bu to'p juda ajib to'p:  
 Sakraydi doim to'p-to'p;  
 Ketidan chopib yurar  
 Odamlar bo'lib to'p-to'p.

**(KATTALARGA)****4**

Hamma ham bir marta yongay, sezgay muhabbat norini,  
 Oqdi misli ko'zlarimdan Qoradaryoning Norini.  
 Qiyma-qiyima bo'ldi jismim, qiyama-qiyama bo'ldi qalb,  
 Bo'ldim jafokorim uchun nikoh bazmining norini.

**5**

Mening holimga har inson to'kib ko'zyosh bo'lar ko'rkim,  
 Chu men bu tun halok bo'ldim, bu ne foje', kelib ko'rkim,  
 Butun atrof mening parcham – ko'zim bir yon, qo'lim bir yon,  
 Ado bo'ldi yonib bir-bir butun borliq – butun ko'rkim.

**6**

O'pgali bir gal qo'lun, bir gal butun  
 Tonggacha kezdim shaharni men butun.  
 Topmadim, chiqmadi ul oshyonidan,  
 Menda mendan qolmadi aslo bu tun.

**7**

Oh, seni ko'rmoqqa bo'ldi ruhim och  
 Ul harir ko'ylakda pushti, rang och.  
 Dardlarim ko'p tun bo'yи bitmaydigan,  
 Borganimda sen eshikni tezda och.

**8**

Deb edim: muslima ul, imoni but,  
 Qalbida tarso ekan, ko'ksida but.  
 Vo darig', mahsharda holim ne bo'lur  
 Men Egam oldida bo'ldim besubut.

**9**

Qochgim kelar yozmishimdan minib ot,  
 Yoqmayotir menga «Aziz» degan ot.

Qani azizligim? To'zman oyoqda,  
Qani, kel, ey raqib, meni o'zing ot.

**10**

Do'stimizning ichi xiyla oladur:  
«Kelgin!» deya bizdan va'da oladur.  
So'ng o'zлari g'oyib bo'lar olamdan,  
Bilmam, qaysi go'rga kirib oladur?





2007-yil 21–25-noyabr kunlari Makedoniyaning Ckople shahridagi Kontinental mehmonxonasida Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning VII-xalqaro she'riyat festivali bo'lib o'tdi.  
Unda Miraziz A'zam ham qatnashdi.  
*Suratda:* Ibrohim Ulvi Yovuz, Miraziz A'zam,  
M. O'nal Mengushog'li, Rustam Behrudiy, Hijobi Qirlang'ich.



**Festivalda Miraziz A'zamning ijodiy faoliyati xalqaro  
Mavlono Jaloliddin Rumiy mukofotiga loyiq ko'rildi.  
Suratda: Turkiya Yozuvechilar uyushmasining rahbari:  
Hijobi Qirlang'ich mazkur mukofotni Miraziz A'zamga topshirmoqda.**



Üsküp'te düzenlenen  
Türkçenin 7. Uluslararası  
Şiir Şöleninde  
Mevlâna Celâleddin Rûmî  
büyük ödü'lune lâyik görülen  
**Mir Aziz Azam'a**

Türkiye Yazarlar Birliği'nce sunulan  
ödül herati'dır.

21-25 Kasım 2007

**Mukofot hujjati.**



**Mukofot shakli.**

# Fo'rt buynuk qoya etagiida

FARIDIDDIN ATTOR

— — — — —

NIZOMIY GANJAVIY


— — — — —

JALOLIDDIN RUMIY

— — — — —

ABDURAHMON JOMIY

*tarjimaiar*





# Farididdin Attor

(taxm. 1119–1229)

Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy 9–10 yoshlarida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini qanday qattiq yaxshi ko'rib qolgani ul zotning «Lison ut-tayr» kitobidan ma'lum. Hazrat Navoiy xotirlaydilarki, maktabda ustozlar shogirdlarga she'rdan savod berish uchun eng avval Sa'diyning nazm va nasr aralash «Guliston» va «Bo'ston» kitoblarini o'qitishgan, yosh Alisherning yuragi esa Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» kitobida bo'lgan. Bu haqda shoirimiz bunday deydi:

«Bu kitob eng qadrdon sirdoshim bo'lib qoldi. Unga bo'lgan muhabbatim meni bir devona holga solib, odamlardan o'zimni olib qochadigan bo'lib qoldim... Ota-onam mening bu holatimdan vahimaga tushdilar... Ular bu kitobni qo'limdan tortib olib, uni bir joyga yashirdilar... Lekin bu asar menga yod bo'lib qolgan edi...»

Navoiy hazratlari «Lison ut-tayr»da Attorni shunday deb ta'riflaydi:

*Har ne gardun bahr ila konida bor,  
Oncha yuz Attor do'konida bor.  
Bahrida anjumdan o'l mish zeb-u far,  
Har kecha dur yanglig' o'l mish jilvagar.*

Ya'ni: Olamdag'i barcha dengiz va konlarda neki bor bo'lsa, yuzlab o'shancha narsa Attor do'konida bor. Uning ma'nodor

dengizidagi durlar xuddi kechasi jilva qilayotgan yulduzlarga o'xshaydi.

«Mahbub ul-qulub»da esa Attorni payg'ambarona valiylik va vahiylik ne'matidan bahramand sharif zotlardan deb tilga oladi.

Farididdin Attor uzun va murakkab umr ko'rdi va undan g'oyat boy, benazir va betakror asarlar meros bo'lib qoldi.

Attorning to'liq ismi-sharifi Farididdin Muhammad ibn Ibrohim Attordir. Nishopur yaqinidagi Shodyax shahrida 1119-yilda tug'ilgan deb taxmin qilinadi. Otasi – Ibrohim ismli do'kondor kishi bo'lib, xudoni tildan qo'ymaydigan, yuragi toza inson edi. Uning do'konida dorivorlar, mushki anbar, zanjabil-u sunbul, sandal-u kofur, xullas, yoqimli hid taratuvchi shifobaxsh o'tlar sotilardi. O'zi «attor» degani «atir hidli xushbo'y narsalar sotuvchi» deganidir.

Ibrohim vafotidan keyin attorlik o'g'li Muhammadga meros bo'lib qoladi. Ayni chog'da Muhammad Nishopur madrasalarida o'qiydi va shu kezlarda g'azallar, ruboiylar yozib yuradi, birmuncha el og'ziga tushib qoladi. Odamlar uni kasbi tufayli Attor deb atardilar. O'zi ham shu laqabini adabiy taxallus qilib oladi va g'azal-u ruboiylar yozib yuraveradi.

Bir kuni do'kon yonida juldur kiyimli bir tilanchi to'xtaydi. Xudo yo'liga sadaqa so'raydi. Do'kon tokchalaridagi o'simliklardan atir hidi taralar, to'rda o'tirgan Muhammad xizmatkorlar ishini kuzatar, tilanchiga parvo ham qilmas edi. Tilanchi achchiqlanadi.

– Hoy do'kondor, sen qanday o'lishingni bilasanmi? – deydi u.

– Sen qanday o'lsang, men ham shunday o'laman, – deb javob beradi Muhammad.

– Yo'q, sen menday o'lomaysan, – deydi tilanchi.

– Nima uchun? – deb so'raydi Muhammad.

– Chunki katta imorating, mol to'la do'koning, xizmat-chilaring va cho'ntaging to'la puling bor. Ularni ko'zing qiyaydi. O'lim manziliga shuncha yuk bilan borish oson-mi? Mening esa yukim yengil, quruq tanam va uni zo'rg'a

bekitadigan juldur kiyimim bor, xolos. Mening yo'qotadigan hech nimam yo'q. O'lismi oppa-oson. Mana, ko'r, – deydi-yu, belidagi kachkulini, ya'ni qovoq idishini boshining ostiga qo'yib jon beradi.

Muhammad qotib qoladi. Tilanchining o'limi uni qattiq larzaga soladi. Loqaydlik ko'rsatib, sadaqa bermagani uchun uyaladi. Tilanchi oddiygina gado emas, katta bilimlarga ega darvesh ekanini, bo'ladigan ishlarni oldindan aytib bera oladigan, avliyosifat insonligini anglaydi. O'zini undan past deb biladi. Darveshni izzat-ehtirom bilan ko'madi. So'ngra xizmatchilari va qarindoshlarini yig'ib, ularga bor mol-mulkini bo'lib beradi va ona shahridan chiqib ketadi. Odamlarning qalblarini yaxshilash, katta ilm egalaridan saboq olish uchun yo'lga chiqadi. Ilohiy ilmlarni o'zlashtirish uchun o'zini o'zi safarbar qiladi. Faqat ilm olish bilan cheklanmay, bilgan-o'rganganlarini bir qator zo'r dostonlarida kuylaydi. Shu tariqa Farididdinga (Dinning yagonasiga) aylanadi.

Buyuk Abdurahmon Jomiy va tarixchi olim Davlatshoh Samarqandiyning yozishlaricha, Attor 114 yil umr ko'rgan. Balki, bundan ham ko'proq yashashi mumkin edi, ammo Nishopurni mo'g'ullar bosib olganda, Attor asirlikka tushadi. Rivoyat qilishlaricha, bir mo'g'ul askari uni bog'lab, sudrab borarkan, bir odam mo'g'ulga, qulingni menga sot, ming dinor beraman, deydi. Mo'g'ul sotmoqchi bo'lib turganda, Attor, sotma, men qimmatroqman, deydi. Mo'g'ul Attorni yana sudrab ketadi. Yo'lida boshqa bir odam uchraganda mo'g'ul unga qulimni sotib ol, deb taklif qiladi. U odam: mayli, roziman, faqat men buning badaliga bir qop somon beraman, xohlasang shu, bo'lmasa yo'lingdan qolma, deydi. Attor mo'g'ulga qarab, rozi bo'l, men bundan ortig'iga arzimayman, deydi. Ach-chiqlangan mo'g'ul uni qilich bilan chopib tashlaydi. Bu voqeя 1229-yilda sodir bo'ladi.

Farididdin Attordan katta adabiy meros qolgan. Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuarо» kitobida aytishicha, uning she'riy asarlari 250000 baytga yaqin bo'lgan ekan. Yuqorida aytilgan «Mantiq ut-tayr»dan tashqari,

«Ilohiynoma», «Asrornoma», «Musibatnama», «Gul va Xusrav», «Bulbulnom», «Pandnom» kabi o‘nlab asarlari bor. «Tazkiran ul-avliyo» degan nasriy risolasi, qasida, g‘azal va ruboiylardan iborat katta devoni ham bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Ulug‘ Navoiyning ham nazira, ham tarjima, ham mustaqil asar hisoblanuvchi «Lison ut-tayr» dostonidan keyin Attorning biron ta she’riy asari o‘zbekchaga tarjima qilinmaganligi ajablanarli holdir. Ammo bu yetishmovchilik asta-sekin to‘latib borilishiga ishonchim komil.

Mustaqillik yillarimizda birinchi bo‘lib, 1994-yilda hurmatli olimimiz Najmiddin Komilov Attorning «Ilohiynoma» dostonining bir qismini va «Mantiq ut-tayr»ning ayrim boblarini nasriy bayon qilib berdi va nashr ettirdi. Shoirimiz Mirzo Kenjabek «Tazkiran ul-avliyo»ni tarjima qilib, nashrdan chiqardi. Bular va turkchada nashr etilgan ba’zi nasriy bayonlar menda katta bir hayajon uyg‘otdi. Ulardan ayrim hikoyatlarni qurbim yetgancha ona tilimizga o‘girdim.

## QAFASDAGI TO‘TI

(«Asrornoma»dan)

Hind elida bor edi ulli yoshda,  
Bir hakimki tinmagan jahongashta.

Yo‘lga chiqdi Chin eliga bir zamон,  
Turkiston podshohiga bo‘ldi mehmon.

Ko‘shkda ko‘rdi to‘tili oltin qafas,  
To‘ti termildi hakimga bir nafas.

Xo‘rsinardi, ko‘zлari g‘amgin edi,  
– Ey hakim, Olloh haqi, tingla, – dedi. –

Hind eliga qaytasan-ku sen mudom,  
To‘tilarga unda ayt mendan salom.

Bunda men maxbusligim etgin bayon,  
Tor qafasda yotganim anglat ayon.

Sog'inib sizlarni bag'ri qon, degil,  
Ko'zлari yosh, jismi naq bejon, degil.

«Siz tomon kelmoq uchun men ne qilay?  
Ko'rsating tadbir-u chora, men bilay» –

Deya qoldi ko'zda daryo yosh ila,  
Deb ularga holim ayt tamomila.

Hind eliga ul hakim qaytgan zamon,  
To'tilarga bilganin etdi bayon.

Hammasi titroqqa tushdi, yig'ladi,  
Yig'ladi, hakim yuragin tig'ladi.

Shoxlardan qulab tushdi bari yerga,  
O'liklar yoyilgancha qoldi yerda.

Va'dasiga ul hakim qildi amal –  
Yana bir Turkistonga kelgan mahal

Voqeotni to'tiga aytdi bir-bir,  
Ham tiladi unga sabot-u sabr.

Lek to'ti hurpaydi, titrab-qaltirab,  
Zumda qafas ichiga tushdi qulab.

O'ldi, deb unga achinib ketdilar,  
Qafasdan olib chetga irg'itdilar.

To'ti darhol parpirab yozdi qanot,  
Ko'shk tomiga qo'nib berdi bayonot:

– Buni menga o'rgatdi qondoshlarim,  
O'l va qutul, deyishgan jondoshlarim.

Shunday deb, ko'p turmay, qochib ketdi,  
Hindiston, qaydasan, deb uchib ketdi.

## **PODSHONING LOCHINI KAMPIRNING UYIGA TUSHGANI HAQIDA HIKOYAT**

(«Asrornoma»dan)

Podshoning lochini oshib tog‘, qirdan,  
G‘arib bir kulbaga pastladi birdan.

Kampir oshxonada elar edi un,  
Bolalarga tutmoch pishirmoq uchun.

Ko‘zi tushdi birdan go‘zal lochinga,  
Zumda tutib oldi tashlanib unga.

Kanop bilan bog‘lab oyoqchalarin,  
Kesib qo‘ydi bir-bir tirnoqchalarin.

«Ye!» deb somon to‘kdi unga birmuncha,  
Qanotin qaychilab, qisqartdi ancha.

– Oilang, – der, – senga qaramabdi-da,  
Tirnog‘-u patlaring o‘sinq-ku juda!

Befarqlar bolani kasal qiladi,  
Onalar tarashlab, go‘zal qiladi.

Shoh ovda lochinsiz yurdi uzzu kun,  
Suv so‘rab shu uyga kirdi kechqurun.

Birdan qushin ko‘rdi tutun-to‘z aro,  
Yig‘ladi: «Lochinim, voh, baxti qaro!»

Kampirga qichqirdi, siltalab uni:

– Eltsang bo'lmasmidi yonimga buni?

Sizlarda yo'q o'zi aslida vafo!

Shoshmay tur, sen mendan olgaysan jazo!

Podshoning qo'liga suykab qanotin:

– Ayb menda, – deb birdan gapirdi lochin. –

U sening oldingga bora olmasdi,

Borsa, huzuringga kira olmasdi.

Sen qabul qilasan amaldorlarni,

Yaxshilar, boylarni, qalbga yorlarni.

Bunday bechoralar, axir, naylasin?

Kimga yig'lab, kimga faryod aylasin?

Lutf ayla podshohim, ko'zing yoshlama,

Bularni jinoyat sari boshlama.

Burchingdir: xunukni go'zallashtirish,

Yaxshilik ishlarin jadallashtirish.

Podshohlik nomingga yaxshi ish ravo,

Zolimlik bayrog'in yuksaltma aslo.

Men esa umrbod xizmatga shayman,

Olloh umr bersa yuz yil yashayman.

Tirnoqlarim o'sar vaqt o'tib biroz,

Qanotlarim o'sar, etarman parvoz.

Yovlarni sen bilan etarmiz parchin, –

Deb podshoh kiftida qiyqirdi lochin.

**SULAYMON BILAN CHIVIN**

(«Asrornoma»dan)

Chivin uchib o'tdi chamandan, bog'dan,  
Qancha daraxtzor-u qancha o'tloqdan.

Nihoyat Sulaymon ko'shkiga yetdi,  
Unga yel-shamoldan shikoyat etdi:

– Sen odil podshohsan, hazrat Sulaymon,  
Amringga bo'ysunar inson-u shayton.

Adlingdan bahramand qush ham, baliq ham,  
Kimga ne yetmasa, berasan yordam.

Lutf ayla, tarqoqdir bizning xalqimiz,  
Qolmadi gulzorda, bog'da rizqimiz.

Hech ucha olmaymiz bir yerda erkin,  
Yel-shamol cheklaydi chivinlar erkin.

Qara, o'zing qara, qanday oriqmiz,  
Rangimiz za'faron, qanday sariqmiz.

Shamolni tartibga unatib qo'ygin,  
Bizga ham adlingni ko'rsatib qo'ygin.

Sulaymon ko'shkiga chorlab shamolni,  
Oldiga ko'ndalang qo'ydi savolni:

– Nechun chivinlarga qilasan zulm?  
Aybdor bo'lsang, seni kutajak o'lim!

Shamol dedi: – Qani chivinning o'zi? –  
Alanglab chivinni ko'rmadi ko'zi.

Chivin derazadan qochmoqda edi,  
Sulaymon ortidan qichqirib dedi:

– Qayoqqa, hoy chivin, to'xta, qo'rwmakim,  
Men hozir chiqargum odil bir hukm.

– Shohim, – der chivin, – bu – taqdir zo'rliji:  
Mening yo'qligim-u uning borligi...

Qochaman yel kelgan joydan hamisha,  
Zotimni qiruvchi o'sha-ku, o'sha!

### **MAHMUD G'AZNAVIY VA HIND BOLA**

(«*Musibatnoma*»dan)

Zafar quchganida Mahmud lashkari,  
Bir hindli bolani uning askari –

Asir qilib oldi va qarab qoldi,  
Hindlining chiroyi aqlini oldi.

Shunday ko'rkmam edi, go'zal, xushqomat,  
Ko'rgan har bir zotni bosardi hayrat.

Uni keltirdilar shoh huzuriga,  
Shoh ham hayratlandi go'zal tavriga.

O'tkir savollarga yetti bor o'ylab,  
Bir bora kesardi, xush ta'b-la so'ylab.

Javoblari shohni yana etdi tong,  
Taxtiga o'tqazdi hurmatlab shu on.

Oldiga bir shoda to'kdi mujavhar,  
– Kam, – dedi, – biz senga bersak qancha zar.

Sen xizmat qilasan bizning saroyda,  
So'ng mudir qilaman besh-olti oyda.

Vazirim bo'larsan keyin, ehtimol,  
Ol bu boyliklarni, istagancha ol.

Bu izzat, bu ikrom hindli bolani,  
Yig'latdi, lol qilib bor jamoani.

Yomg'irli ilk bahor buluti kabi  
Tinmay ko'zyosh to'kar, titrardi labi.

- Nega yig'layapsan? - so'radi podshoh.
- Yodimga bir gaplar tushdi-da, evoh!

Qo'rqtardi otam va onam hadeb:  
«Ana, Mahmud keldi!», «Mana Mahmud!» deb.

«Sening adabingni u bersin», derdi,  
Shuni eslab ko'zyosh to'kyapman endi.

Mahmud kimligini bilmasdum u choq,  
Kimligingni bilmay yashadim uzoq.

Qani, onam, taxtda ko'rsin o'g'lini,  
Ko'rganmi Mahmudday shohni, to'g'rini?

Mahmudday podshohni ko'rganmi zamon,  
Qanday yashadiykin Mahmudsiz, inson?

Bilsam, Mahmud yo'qdan bor bo'lish ekan,  
Bor bo'lib, yo'qlikka yor bo'lish ekan.

## «MEN» ISMLI DO'ST

(«Musibatnoma»dan)

Bir odam do'st eshigin qoqqan edi,  
Ichkaridan birisi: «Kim bu?» dedi.

«Men» deya darhol javob berdi odam,  
Bir g'aroyib voqea bo'ldi shu dam:

Ichkaridagi dedikim: – «Men» misan?  
Unday ersa, yaxshi bilib qo'yki san –

Aldolmaysan meni, ko'ngling bo'lsin to'q,  
«Men» ismli mening hech bir do'stim yo'q.

Ey, yo'lovchi, yo'lchiga yo'l yaxshidir,  
Qolma yo'lidan, sen uchun shul yaxshidir.

O'ylanib qoldi odam, ketdi daydib,  
Yuragi kuydi, yana keldi qaytib.

Do'st eshigin qaytadan qoqqan edi,  
Ichkaridan u yana: «Kim bu?» dedi.

– Kim bo'lardi, Sen, – dedi, – bu Sen axir!  
– Unday bo'lsa, – dedi u ham, – uyga kir!

Uyim tor-u, ammo senga o'rin bor,  
Ikki odam bir bo'lsa, uy bo'lmas tor.

## SHAYXNING MUSHUGI

(«Ilohiynoma»dan)

Shayx Guroniyo xo'b ajib dindor edi,  
Ichi-tashi go'zallikka yor edi.

Qo'shdi ko'p gavhar ilm daryosiga,  
Bo'ldi o'rnak ul vafo dunyosiga.

Xonaqosida yashardi bir mushuk,  
Ko'zda tutmak shayx uchun bo'lmasdi yuk.

Qo'l-oyog'i hech qachon bo'lmasdi kir,  
Yiltirardi mo'ylabi yaltir-yultir.

Kelsa yo'ldan o'z-o'zin poklar edi,  
Shundan keyin pok uyga sakrar edi.

Gohida uxlardi shayxning yonida,  
Shayx silardi vaqtি bo'lgan onida.

Ul miyovlardi aniq vaqtда faqat,  
Derdilarki: «Eh, falon bo'ldi soat!»

Xizmat ahli: «Bu mushuk, – derdi, – halol».  
U yurardi oshxonada bermalol.

Tegmas erdi hech ochiq go'shtlarga ham,  
Aksi: kim olsa, miyovlardi shu dam.

Bir kuni etni olib, qochdi ildam,  
Bu ishin takrorladi ertasi ham.

Bir safar poylab, tutib oldi oshpaz,  
Urdi uni: «Bu, – deya, – etga evaz!»

Shu-shu bo'ldi, mushuk ketdi bedarak,  
Topdi hovli burjida bir joy kovak.

Shumshayib bu oltirishni ko'rdi shayx,  
Boisini xodimidan so'rdi shayx.

Xodim aytdi o'g'rilik qilmishlarin,  
Shayx so'radi mushukdan bu ishlarin.

Ko'ziga boqib dedi: «Bu ish xunuk...»  
Bir miyovlay ketdi bu gapdan mushuk.

Voh, mushuk tuqqan ekan-ku uch bola,  
Tishlabon keltirdi barin bir yo'la.

Qo'ydi shayxning oldiga, qochdi o'zi,  
O'lтирарди tolda, mo'lтillab ko'zi.

Oshxona oshpazidin qochgan erdi,  
Qo'rqardi undan doim, kaltak yerdi.

Shayx urishdi oshpazin, ko'p ranjidi,  
Ham yig'ib muridlariga pand dedi:

– Bul mushuk uch bola deb go'shtga muhtoj,  
Odat ermas bu o'g'irlilik... ehtiyoj...

Yuz beribdir ko'p zarurlikdin bu hol,  
Goh muboh ish, ham bo'lar happy-halol.

Bo'lsa sodir qaydaki bunday «savob»,  
O'g'rilikka saltanat bersin javob.

## **KO'KARMASDAN BURUN MEVA BERGAN DARAXT**

(«Ilohiynoma»dan)

Kunlardan bir kun Odil No'shiravon  
Aylanib yurt, yonida bir to'p boyon,

Oshdi tog'-u, kezdi bog'-u hamda ko'l,  
Oxiri sahro tarafga soldi yo'l.

Bir mahal sahroda ko'rdi keksa chol,  
Shoh uni birpas kuzatgach, bo'ldi lol:

Belga uch belbog' o'rab olgandi u,  
Bir quduqdan keltirib paqirda suv,

Qo'rqlayin sahroda yolg'iz bemalol,  
O'tqazardi ketma-ket bir xil nihol.

Ham shijoat, zavq bilan ishlar edi,  
Shoh tushib otdan, havas birla dedi:

– Assalom, hormang ota, o'lmanq ota,  
Hech qachon g'am, iztirob ko'rmang, ota!

Keksaribsiz, soch oqarmish qor bo'lib,  
Balki yetmish, balki sakson yor bo'lib...

Yotsangiz bo'lmasmi uyda dam olib?  
Bul issiqlarda qulab qolmang, tolib!

Yo'lingizdan go'ringiz-ku yaqinroq...  
Bu ne g'am, bu ne tashvish sizga mundoq?

Siz ekkan nihol qay vaqt hosil berar?  
Bormisiz yo yo'qmi, siz unga qadar?

Chol dedikim: – Ey, aziz shohim, bo'tam,  
Ko'p odam ekmish ko'chat bizgacha ham.

Biz yedik mevalarini birma-bir,  
Endi, o'g'lim, bizgamasmi gal, axir?

Men o'zimga ekmadim hosil uchun,  
Hosili, ha, kelgusi nasl uchun!

Biz emas, mevalarin totgay ular,  
Shubhasiz, bizga duo aytgay ular.

Bu javob No'shiravonga keldi xush,  
Pul tutib dedi: – Bu pul – bizdan ulush.

Sizga kuch, sahroga kuch, obod qiling!  
Gullating ham ko'nglimizni shod qiling!

Chol dedi: – Shohim! Gapim bejiz emas!  
Ishlarim behud emas, beiz emas!

Eh, ko'ringiz bu hayotning shevasin:  
Hoziroq berdi ko'chatlar mevasin.

No'shiravon bu lutfdan kului oldin,  
So'ng cholga hadya etdi bir to'p oltin.

## **SULAYMON VA CHUMOLI**

(«*Ilohiynoma*»dan)

Ey rahmli, mehribon Rabbim Ulug‘,  
Tengi yo‘q isming bilan qalbim yorug‘!

San'ating va qudrating ummon qadar,  
Biz olarmiz hikmating imkon qadar.

Qancha payg‘ambar jo‘natding biz uchun,  
Nurga to‘ldirdi ular inson ichin.

Bir safar hazrat Sulaymon keldilar –  
Ham nabiylik, hamda shohlik qildilar.

Sen unga berganding oliy bir sifat,  
Ins-u jins bo‘ysundi unga oqibat.

U bilardi qurt-qumursqa, qush tilin,  
So'ylashardi do'st bo'lib, do'stki qalin...

Bir zamon Hazrat Sulaymon nogahon  
Yo'lga chiqdi, girdida yuzlab boyon.

O'tdi hayvon, qurt-u qush maholidan<sup>1</sup>,  
So'zlashib, ogoh bo'lib ahvolidan.

Ul nabiyning yo'liga peshvoz bo'lib,  
Ming chumoli chiqdi so'qmoqlar to'lib.

Kelmadi qoshiga lekin bittasi –  
Eng chiroyli, bo'yi-basti kattasi.

Bordi hazrat ko'rgani do'stin shu on –  
Inchasi bir do'ng ilaydi yonma-yon.

Ko'rsa, do'sti do'ng yerin o'z holicha,  
Tortar erdi zarralab kuch boricha.

In kavagidan ochardi to'g'ri yo'l,  
Ter bosib, tuproq tashib bo'lgandi ho'l.

Shoh Sulaymon oldiga chorlab uni  
Tanbeh aylab jilmayib aydi shuni:

– Munchalar betoqat-u tashvishlisan?  
Ne sababdan boshladning bu ishni san?

Sen Ayyubdek bosabr bo'lsang-da gar,  
Yoki Nuhday ko'p umr ko'rsang-da gar,

Bitkazolmassan bu do'ngni – ulkan ul –  
Sen kichiksan – kuchginang yetmas butkul.

---

<sup>1</sup> *mahol* – eski o'zbek tilida «mahalla» deganidir.

– Ey nabiy, shohim! – deya berdi javob, –  
Ishlasa himmat bilan – ishslash savob.

Boqma sen aslo murodim holiga,  
Yaxshilab boq bu murod kamoliga.

Boshladi bu yo'l sari sevgim mani,  
Mayli, kuldirsin bu holim hammani.

Biz, chumoli ahlini, derlar kichik,  
Qalbimizda katta ishq bor har nechuk.

Shul tepa naryog‘ida sevdim birin,  
Qop-qora uch nuqta-yu, ammo shirin.

Ul dedi: «Shul tepani et bartaraf,  
Ul zamon borgayman albat sen taraf».

Yiqmasam bo‘lmas bu hajr do‘ngini,  
Belni bog‘lab ko‘zladim ish o‘ngini.

Boshqa narsa yo‘q menga bundan buyon,  
Xok tashib yo‘l ochgani tikdim bu jon.

Do‘ngni yiqmoq, yo‘lni ochmoq – shu murod!  
Shu bilan bo‘lgay visol, mushkul – kushod.

Yo‘q, tepa yiqlsa mani, aylab karaxt,  
Ishq yo‘linda o‘lganim ham menga baxt.

... Hey, aziz do‘st, bu senga timsol erur,  
Istasang, senga hidoyatlar berur.

Sen chumoli qissasin bilma sarob,  
Ishq uning qalbida etmish inqilob.

Bu yo'lda nelar bo'lar – bizga mubham  
Goh chumoli dars berar arslonga ham.

## **QIZ SEVGISI**

(«*Ilohiynoma*»dan)

Podishohning yetkin o'g'li bor edi,  
Bir kelishgan, bir so'lim, ko'rkdor edi.

Oy yuziga boqolmas hech ojiza,  
Oy yuzi dunyoda erdi mo'jiza.

Ko'zлari tun, qoshlari erdi kamon,  
Kiprigi o'q, qalbni aylardi nishon.

Bir boqish – ohanrabo, jodu kabi,  
Bir kulish – qalb bog'iga yog'du kabi.

La'li lablar namligi – ko'ngilga xush,  
Tishlari ham dur kabi olgaydi hush.

Qomatiga mos jasur-u mardligi,  
Xo'p yarashgan kamtarin, jo'mardligi.

Bir go'zal qiz ko'p sevib qoldi ani,  
Sevgidan o'tlar chiqib yondi tani.

Ko'zlaridan qonli yoshlар oqdi sel,  
Ul yigit ortida yeldi misli yel.

Yodidan chiqdi qarindosh-aqrabo,  
Na qarindosh-aqrabo, balki dunyo.

Podishoh o'g'li yo'lida intizor,  
Tentirardi oh urib devonavor.

Sal yiroqlab otidan, jilsa yigit,  
Ot oyog'in o'pardi jinni taxlit.

To'tiyo deb ko'zga surtardi izin,  
Yig'lar erdi kecha-kunduz u hazin.

To'ymas erdi hech yigit diydoriga...  
Chidamoq mushkul erdi qiz holiga.

Bog'da yursa bog' aro erdi paydo,  
Toqqa chiqsa tog'da daydirdi shaydo.

Tunlari eslab uni bedor edi,  
Ko'yida tuproq misoli xor edi.

El esa qiz holidan hayron-u lol,  
Tarqatib so'z shahr aro doston misol.

Shunchalik afsona qilgach el-ulus,  
Podishoh o'g'li bu ishqdin qildi nomus.

So'ng ota qoshiga kirdi gang bo'lib,  
Tingladi ota ani hang-mang bo'lib.

Amr etdi – qizni tutib keltirdilar,  
Podishoh poyiga tiz cho'ktirdilar.

Podishohda lahzada qaynab asab,  
Hukm etib atrofiga sochdi g'azab:

– Sochlarin bog'lang bedov oyog'iga,  
Otni haydang choptirib Qof tog'iga.

Parchalang poymol qilib andomini,  
Kimsa tilga olmasin hech nomini...

Ertasi bo'ldi hamma maydonga jam,  
Kim kulib, kimlarning boshi bo'ldi xam.

Hamma narsa taxt edi – tizginli ot,  
Ham sazo boshqarguvchi barzangi zot,

To'rt tarafda to'rt yigit xizmatga shay,  
Podishoh ornashdi taxtiga qulay.

O'rtaliqqa qizni sudrab keldilar,  
Qo'llariga sim bo'g'ovlar ildilar.

Podishohga ta'zim aylab qiz shu on,  
Bir tilak aytmoq uchun so'rdi imkon.

Shoh dediki: – Istanang jon – bo'lmagay,  
Olmasam joningni ko'nglim to'lmagay.

Demakim, sochim tugib qilmang sazo,  
Bul uzun chilvir sochingga shul jazo.

Yoki otga bog'lamang, deb so'rmagil,  
Ot tuyog'in o'pganingga hadya bil.

Yoki bir muhlat omonlik istama,  
Bir nafas bermamki, bo'lma xomtama.

Bir ko'ray deb o'ylama o'g'lim yuzin –  
Ko'rmagaysan na ko'lanka, na o'zin.

Qiz dedi: – Jon istamam, yo'q, istamam,  
Menga endi jon kerakmas zarra ham.

Xohlamas lahza omonlik ham bag'ir,  
Ayriliq o'zi o'limdan ham og'ir.

Sochlarimdan mayli sudrat, ayla xor,  
Neki qilsang senda, shohim, ixtiyor.

Lekin, ey yuksak maqomli yurtboshim,  
O'zga bir xohish uchun seldir yoshim.

Shoh dedi: – Ayt, o'zgacha bo'lsa rajo,  
Men rajongni zumda aylarman bajo.

Qiz dediki: – Ey saxovatli padar,  
Buyrug'ingdan nolimam tirnoq qadar.

Istagim shul: sochim, ijro chog'ida,  
Bog'lat o'g'ling otining oyog'iga.

Bu sazoni ul o'zi etsin ado,  
Sudralib o'lsin tanim rohat aro.

Oh, qani qurboni bo'lsam man ani –  
Hech qachon o'lmas umrni ko'rgani.

Sevgilim tomonidan topsam qatl,  
Arshi a'loda bo'lardim men adl.

Shundayin ojizamanki, bag'ri qon,  
Bormi jonim, yo'qmi jonim – noayon.

Shoh diliqa Haq taolo soldi rahm.  
Amrini yo'qqa chiqardi zumda sharm.

Chin muhabbat, sof niyat xolis, ulug',  
Podishoh ko'nglini etdi yop-yorug'.

Qizni oldirdi saroyga, yosh bilib,  
O'g'liga qo'shdi umr yo'ldosh qilib.

PIRILA SHOH

(«*Mantiq ut-tayr*»dan)

Bir zamon bir podishoh o'tgan edi,  
Mol-u mulki ko'klara yetgan edi.

Topganin u to'plar-u jamlar edi,  
Yetmish yoshda u hamon g'amalar edi.

Bir pir ham yashar edi shu o'lkada,  
Yashardi faqirona bir ko'lkada.

Ammo nomi olamni tutgan edi,  
Ilmidan elga naflar yetgan edi.

Bir kuni keldi podshoh pir yoniga,  
Bir gap qo'ydi o'rtaga, vijdoniga:

- Aytg'-chi, - dedi, - sen yaxshimi,  
men yaxshi?  
Ayt-chi, sening nimang bor mendan yaxshi?

Pir dedi: – Nafsing eshak qilgan seni,  
Bo‘yningga bog‘lab qo‘ygan no‘xtani.

Istagan tomoniga boshlaydi ul,  
Sen nafsingning qulisan, doimiy qul.

Men esa nafsimni qilganman eshak,  
Boshlagan yog'imga yurgay, qilma shak.

Men bu nafsning shohiman, nafsim – qulim,  
Men sendan yaxshiroqman, oydin yo'lim.

**BIR OSHIQ YIGITNING  
SEVGILISI BILAN  
VA'DALASHIB KELGAN YERIDA  
UXLAB QOLGANI**

(«*Mantiq ut-tayr*»dan)

Bir yigit bir qizni sevmish bir zamon,  
Ishq o'tida qovrulib yonmish yomon.

Qiz tarafga ketmish oxir bosh olib,  
Bosh egib va ko'zlariga yosh olib.

Tong-la tolmish uyquga yo'l boshida,  
Qiz kelib, turmish yigitning qoshida.

Oshig'in yonida turgach u biroz,  
Qistirib yengiga qoldirmish qog'oz.

Tong otib, oftob chiqib, turmish yigit,  
O'z-o'zin ohlar chekib, urmish yigit.

Ma'shuqi yozmishdiki: «Kimsan o'zing?!

Tujjor o'lsang – topgani pul, och ko'zing.

Dindor o'lsang – uxlama ko'p, qil jihod –  
Bandalik burchingni bir zum ayla yod.

Oshiq ersang – e uyatsiz, ko'ngli to'q,  
Bilki, oshiqlar ko'zida uyqu yo'q.

Hayqirarlar kunduzi soy singari,  
Yarqirarlar kechalar oy singari.

Porlamasang – na ulsan sen, na bulsan,  
Sevgidan dam urma, yolg'onchi qulsan.

Oshiq ahlining ko'zida g'am-alam,  
Ko'zлari ochiq bo'lar, o'lganda ham.

Uyqu ahli, shubhasiz, oshiq bo'lar,  
Farqi shulki, o'z-o'zin sevgay ular.

Sen esa modomiki g'o'rlik bilan,  
Ishq o'yiniga kiribsan daf'atan,

Haq Taolo qo'llasin, tinchi andak,  
Uyqular bo'lsin muborak, e so'tak.





# Nizomiy Ganjaviy

(1141–1209)

Buyuk shoir va mutafakkir Nizomiy Ganjaviyning o‘z ismi Ilyos Yusuf o‘g‘li bo‘lib, Ozarbayjonning qadimiylari va go‘zal shahri Ganjada tug‘ilgan va shu yerda vafot etgan. Uning oilasi shaharning o‘rta hol tabaqasidan, hunarmand mehnatkashlardan edi. Ganjada ilmi-nujum (astronomiya), tibbiyat, jo‘g‘rofiya, tarix, falsafa, adabiyotshunoslik bilimlari yuksak darajada edi. Shunga ko‘ra Ilyos bu yerda mu-kammal ta’lim va tahsil oldi.

Juda yoshligidan she‘r yoza boshladи.

Taxminan 30–35 yoshlarigacha 20.000 baytdan iborat devon yaratganligi haqida xabarlar bor. Ammo butun devon bizgacha yetib kelgan emas. Uning 6 qasidasi, 116 g‘azali, 2 qit‘a va 30 ruboysigina topilgan, xolos.

Nizomiyning asosiy asari «Xamsa» («Panj ganj» – «Besh xazina») dir.

1173–1203-yillarda, ya’ni 30 yil davomida yaratilgan bu besh qoya kabi mangulikka daxldor asar faqat Ozarbayjon xalqining emas, butun Sharq xalqlarining durdona merosi va balki, butun insoniyatning betakror fikr manbaidir.

Bizning mutafakkir buyuk shoirimiz hazrat Alisher Navoiy ham o‘z ona tilimizda «Xamsa» yozganlarida har bir dostonning muqaddimasida Nizomiy Ganjaviy dahosi haqida to‘xtalib o‘tishni o‘zlariga sharaf deb bildilar. Misol uchun, «Layli va Majnun» dostonida aytadilar:

*Xoma bila ulki seni sizdi,  
Gavharni qaro ipakka tizdi.*

*Til zikring ila chu topdi tarjih,  
Tishlar anga bo'ldi inju tasbih.*

*Bu til bila kimsa topmadi kom,  
Juz ganj fishoni Ganja orom.*

*Mazmuni:*

Qamish qalam bilan u (Nizomiy) so'zni shunday chizdiki, Gavharni qora ipakka tizganday bo'ldi.

Sen (Nizomiy) zikr qilishing bilan til ustunlikka erishdi, Tishlar unga inju, tasbih bo'ldi.

Bu til bilan hech kim maqsadiga yetolmagandi, Ganjada maskan tutgan zar sochuvchi erishdi.

Ya'ni Navoiy hazratlari Nizomiy she'riyatda hech kim erisholmagan cho'qqini egalladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Va yana «Xamsa» muqaddimasida:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq, – deganlari ham bejiz emas.

Nizomiyning «Xamsa»si quyidagi dostonlardan tarkib topgan:

1. «Maxzan ul-asror» («Sirlar xazinasi») – 1180.
2. «Xusrav va Shirin» – 1181.
3. «Layli va Majnun» – 1183.
4. «Haft paykar» («Yetti go'zal») – 1197.
5. «Iskandarnoma» – 1203.

Ta'kidlash lozimki, Nizomiy o'zi ozarbayjon bo'lsa ham, davr talabiga ko'ra, asarlarini fors tilida yozgan. Bu haqda u «Layli va Majnun» dostonining «Dar sababi nazmi kitob» deb nomlangan muqaddimasida Shirvonshoh unga Layli va Majnunning muhabbati haqida doston yozib berishni bu-yurgani va u albatta, forschada yozilishi shartligini aytganini shunday ifodalaydi:

«Turki sifatu vafoi – man nest,  
 Turkona sifat sazoi – man nest!»  
*Chun xalqai – shox yoft gusham,*  
*Az dil badimog’ raft xusham.*

Buni M. Shayxzoda shunday sharhlaydi («Guldasta». Toshkent-1947, 9-bet):

«Turkiy qoidalar menga odat emas,  
 Turkona so’zlashuv menga loyiq emas.»  
*Shohlik halqasi qulog’imga ilinib meni banda qildi,*  
*Qon miyamga urib hushimni yo’qotdim.*

Bu kungi ozarbayjonlar Nizomiy asarlarini o‘z ona tillariga o‘girib oldilar. «Xamsa»ni Sulaymon Rustam, Rasul Rizo, Samad Vurg‘un, Mammad Rahim, Abdulla Shoiq va Mammad Rizaqulizodalar tarjima qilishdi.

Nizomiy zamonidayoq va undan keyingi asrlarda «Xamsa» shu qadar katta shuhrat qozondiki, Yaqin va O‘rta Sharqda, chunonchi, Eron va Turkiyada, shuningdek, Movarrounnaharda, Xuroson va Uyg‘uristonda ko‘pdan-ko‘p buyuk shoirlar xamsachilik an’anasini boshlab yubordilar. Forsiy va turkiy xamsalar 40 dan oshdi. Bularning ichida eng buyuklari Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning dostonlaridir.

O‘zbek xalqi Nizomiy asarlarini sevadi, bizning atoqli shoirlarimiz uning asarlarini necha asrlardan buyon tarjima qilib keladi. Muallifi aniqlanmagan «Miftoh ul-adl»dagi ba’zi hikoyatlar Nizomiydan olingan.

XIV asrda Qutb Xorazmiy «Xusrav va Shirin»ni, XV asrda Haydar Xorazmiy «Maxzan ul-asror»ni, XIX asrda Ogahiy «Maxzan ul-asror»ni nasriy yo‘lda o‘zbekchaga tarjima qildilar. Bizning davrimizda Nasrullo Oxundiy, Xislat va Muhammadjonovlar «Layli va Majnun»ning talay parchalarini, Shoislom Shomuhamedov «Maxzan ul-asror», «Haft paykar»dan parchalar bilan bir qatorda qasidalar, g‘azallar,

qit'alar, ruboiylar va hikmatlarini ona tilimizga baholi qudrat o'girdilar va she'riyatimiz xazinasini yanada boyitdilar. Kamina esa Nizomiy asarlaridan ayrim she'r va parchalarni, hikoyatlarni ozarbayjonchadan tarjima qildim.

## **O'G'RI VA TULKICHA HAQIDA**

(«*Maxzan ul-asror»*dan, 8-so'z)

Meva sotar edi Yamanda bog'bon,  
Mollarin tulkicha qo'rirdi har on.

Sergak yotar edi yo'ldan ko'z uzmay,  
Xavf sezsa, qo'ymasdi tinchlikni buzmay.

Peshtaxtaga o'g'ri kelsami biron,  
Tulkicha ko'zidan qolmasdi omon.

U yotardi mudroq ko'rsatib o'zin,  
Ammo uyqu bosdi bir kuni ko'zin.

Bo'ri uxlab yotsa undan yo'q xatar,  
Bu esa bir tulki, tush ko'rib yotar.

Shunday deb bir o'g'ri keldi bemalol,  
Do'konni shipirdi, qoldirmadi mol.

Sen ham yotaversang shirin tush ko'rib,  
Boshingni qalpoqsiz ko'rasan, turib.

Ko'zni och, Nizomiy! Tushni nari sur!  
Mevasiz qolmaki, qisqadir umr!

## **YARALANGAN BOLA HAQIDA**

(«Maxzan ul-asror»dan, 16-so‘z)

Bolalar o‘ynardi toshloq maydonda,  
Bir bola yiqilib, belandi qonga.

Umurtqasi sindi, nobop yugurib,  
Qo‘rqib ketdi do‘srlar, behushni ko‘rib.

Hammasi qaltirar, nafas ham olmay,  
Dahshatdan toshqotib turarlar jilmay.

Biri der: «Bolalar, ishimiz chatoq,  
Uni bir chuqurga kerak yashirmoq.

Ne bo‘lganin zumda anglar har inson,  
Otasi so‘ng bizdan qilmaydi gumon».

Orada urushqoq biri bor edi,  
Biroq esli edi. Do‘srlarga dedi:

«Yo‘q, birga o‘ynadik, hammaga ayon,  
Kattalar biziarni ayblar begumon.

Men ko‘proq urushib yurganim uchun  
Hamma meni ayblar!» To‘plab bor kuchin,

Uyiga yetkazdi xabar bir damda,  
Ota, o‘g‘li tomon yetdi yordamga.

\* \* \*

Oqillar har ishda bo‘ladi mohir,  
Mushkulni yengishga bo‘ladi qodir.

Ko'kka boq! Yulduzga yaqinroqdir kim?  
Yaqin, kim u tomon tashlasa odim.

O'lchab bo'lmas yulduz uchar qayonga,  
Va lekin Nizomiy uchar osmonga.

## BULBUL VA LOCHIN HAQIDA

(«Maxzan ul-asror»dan, 20-so'z)

Bahor gullaridan qizardi buta,  
Birdan bulbul dedi lochinga: «To'xta!

Doim sukutdasan, qushmisan tilisiz?  
O'yinda g'olibsan! Zo'rsan mislsiz!

Tin olish paytlari yopiqdir og'zing,  
Hech kim eshitmagan yaxshi bir so'zing.

Sulton-la yashaysan, baxtsizlik ko'rmay,  
Kaklik to'shin yeysan, ishtahang karnay.

Mening-chi, ko'ksimda boyligim ko'pdur –  
Istasam, chiqadi bir zumda yuz dur.

Nechun rizqim qurt-u qumursqa ekan?  
Nechun yotar joyim xas-cho'p va tikan?»

Lochin javob berdi: «Sen qulog bo'lgin,  
Men sukut saqlayman. Sen ham jim yurgin.

Men yashash sirlarin bilib bosh bo'ldim,  
Yuz ish qilsam demam falon ish qildim.

Dunyoni biling, bor, ish qilgin biror,  
Sen esa ish qilmay, sayraysan ming bor.

Men ov deb yashayman, shoh ilkidaman,  
Ochiqsam, siylashar kakliklar bilan.

Sen esa sayraysan, tinim bilmay xo‘p,  
Shundan yemishing – qurt, yotog‘ing – xas-cho‘p!»

Agar Faridunga o‘qishsa xutba,  
Sen hamma dovulni tinglar deb kutma!

Tun-u tong xo‘roz ham qichqirar uch bor,  
Lekin hamma kular, bermas e’tibor.

Osmonga qichqirmoq, axir bu nesi?  
Har kimning boshida qismat halqasi!

Demaki, zo‘r baytlar yozdim qiynalib,  
O‘tir Nizomiyday uyda qamalib!

## **XUSRAV VA SHIRIN DOSTONINING BOSHLANISHI**

(«Xusrav va Shirin» dostonidan parcha)

Eski dostonlarning keksa baxshisi  
Derki, bu dostonlar ichra yaxshisi:

Zavol kelgan zamon Kisro<sup>1</sup> baxtiga,  
Xo‘rmuz sohib bo‘ldi shohlik taxtiga.

Odil ish yuritib mashhur bo‘ldi tez,  
Uni maqtashardi har yerda har kez.

O‘z ota yo‘lini tutardi metin,  
Qalbi saxovatli va suyanchi – din.

---

<sup>1</sup> *Kisro* – Sosoniy shohlaridan yigirmanchisi bo‘lib, arablar Kisro, rumliklar Xusrav deb nomlagan Anushirvonning bitta oti.

Naslim yo'q bo'lmasin deya dunyodan,  
Bir farzand so'radi Ulug' Xudodan.

Nazir, qurbanliklar qildi xilma-xil,  
Lutf etdi nihoyat Olloh bir o'g'il.

Shunday bir avlodki – dengiz injusi,  
Nurli chiroqlarning porloq yog'dusi.

Xushbaxt tug'ilgandi, go'zaldi baxti,  
Yarashardi unga toji va taxti.

Otasi ko'rganda fe'l-odatini,  
Xusrav Parviz qo'ydi uning otini.

Osilardi kimni ko'rsa bo'yniga,  
Parviz laqab oldi oti yoniga.<sup>1</sup>

Tongday go'zal edi uning kulishi,  
Kundai tovlanardi har ko'rinishi.

Doyasi o'rardi oppoq yo'rgakka,  
Chigitday yotardi choyshabda yakka.

Biroz chanqaganin sezsalar agar,  
Ichirar edilar sut ila shakar.

Keltirganda shohning yoniga har kun,  
Qo'lga olib gulday iskardi har kim.

Beshikni tark etib, u yurgan zamon  
Unga o'z jonidan joy berdi jahon.

Beshga yetar-yetmas chopib-pildirab,  
Ibrat olar edi har kimga qarab.

<sup>1</sup> Parviz – shokila deganidir.

Baxt-la ko'paytirib har yil yoshini,  
Bilim-la to'ldirdi u yosh boshini.

Yettinchi yoshiga qo'yganda qadam,  
Gullarga mushk sochar edi dam-badam.

Xusravning misrlik Yusuf misoli  
Elga mashhur bo'ldi husni-jamoli.

Ilm-u ma'rifatga bo'lsin deb ega,  
Shoh topshirdi uni bir murabbiyga.

O, bu go'zal darslar, dunyoqarashlar! –  
Xusravning qalbiga to'latdi naqshlar!

Mukammal darslarni egallab chunon,  
Xusrav har hunarda bo'ldi qahramon.

So'zlari ovoza bo'ldi jahonga,  
Dengiz kabi sochdi durlar har yonga.

Suv kabi so'z aytgan oqillar, kulib  
Sukut saqlashardi ehtiyot bo'lib.

Qilni qirq yorardi Xusravning ko'zi,  
Qilday nozik edi aytgan har so'zi.

To'qqizda tark etdi o'yin yo'lini,  
Sher uzra sinadi kuchli qo'lini.

O'n yoshga kirganda bu nodir o'g'lon  
O'ttiz yoshlilarni qo'yardi hayron.

Sherlar qarshisiga tikka borardi,  
Qilich-la ustunni ikki yorardi.

Tukni ham yorardi bir o‘q uzib tik,  
Nayzasi zirhda ham ochardi teshik.

O‘qlari nishonni borib o‘yardi,  
Zuhro sayyorasin silkib qo‘yardi.

Ustma-ust o‘n kamon tortgan har inson  
Yengilardi, Xusrav tortsa bir kamon.

O‘qlari naq to‘qqiz qarishli erdi,  
Bir o‘qi to‘qqiz yov boshini yerdi.

Oq dev bo‘lsa hamki quvib yetardi,  
O‘qidan xazonday uchib ketardi.

Nayzasin chaqmoqday ursa toshlara,  
Toshning yuragida ochardi yara.

Shunday qilib yoshi o‘n uchdan oshdi,  
Bilimining qushi qo‘l-qanot ochdi.

Ko‘nglida har ishga qiziqish bo‘ldi,  
Dunyoda yaxshini-yomonni bildi.

## **BUZURGUMID HAQIDA**

(«Xusrav va Shirin» dostonidan)

Buzurgumid degan aqli ming buloq  
Bir olim bor edi, zehnikun porloq.

Yerni qarish-qarish aylangandi u,  
Fikri-la ko‘klarga yuksalgandi u.

Ochiq edi unga ko‘k bilimlari,  
Ko‘ksi bo‘ldi «Sirlar Uyi» singari.

Xusrav bir kun uning yoniga bordi,  
Hindi qilich kabi ko'nglini yordi.

Bilim daryosidan istadi gavhar,  
Oldi quchoq-quchoq har tun, har sahar.

Uning ta'limidan ko'ngli nurlandi,  
Ko'p hikmat o'r ganib istagi qondi.

Zuhal pargoridan to yer mag'ziga –  
Dovur, ne sir bo'lsa, u bo'lди ega.

Tezda daryo-daryo bilim qozondi,  
Har bir fan yo'lida olovday yondi.

G'ofil qalbin nurga ayladi yo'ldosh,  
Shohlik rutbasiga bo'loldi yondosh.

Aylangan pargorning barcha sirlari  
Ayon bo'lganidan besh qo'l singari,

Podshoh otasiga xizmatda edi,  
Otasi o'g'lidan hayratda edi.

Shoh sevardi uni jahondan ortiq,  
Jahon ne, o'z shirin jonidan ortiq.

Ko'p umr ko'rsin deb aziz farzandi,  
Zolimlarning qo'li tutib bog'landi.

Dedi: «Jarchi! Jar sol: Eshitsin olam,  
Kimki zulm qilsa, ko'rajak sitam.

Agar dehqon yerin toptasa bir ot,  
Kimki o'g'irlasa meva, sabzavot,

Begona ayloga boqar bo'lsa kim,  
Qizli uyga yotlar tashlasa odim, –

Eng og'ir jazoga tortilar mal'un!»  
Shoh ont ichib dedi: «Bu – metin qonun!»

Adolatda uning nuqsi yo'q edi,  
Endi ko'zlar g'amsiz, ko'ngil to'q edi.

Bo'ldi adolat-la yer yuzi obod,  
Insonlar bo'ldilar zulmdan ozod.

**BUZURGUMIDNING  
«KALILA VA DIMNA«DAN  
QIRQ MAZMUNNI AYTIB BERISHI**

(«Xusrav va Shirin» dostonidan)

Buzurgumid birdan ochildi guldek,  
Naqllardan topdi ma'nolar qildek:

**1**

Ehtiyotli bo'lgan yutqazmas, so'zsiz,  
Tadbir ila sherdan qutuldi ho'kiz.

**2**

Quruq orzudan ish chiqishi mahol,  
Maymunning duradgor bo'lishi – xayol.

**3**

Nog'ora – hayvon, deb yorganda tulki,  
Etmas, havo chiqqach, bo'lgandi kulki.

**4**

Zohidday munofiq, riyokor bo'lma,  
Riyokorday doim azobga qolma.

5

Mayl etma sheringing tinchin buzmoqqa,  
Ko'r, ilonni qarg'a eltdi tuzoqqqa.

6

Ayyor qarqarani qisqichbaqa bir  
Siqqanday, makkor ham siqilgay axir.

7

Salom yegan bo'lma, yodda tut har on:  
Salom yegan sherni yengdi-ku quyon!

8

To'rdan xalos bo'lgan chol baliqsimon,  
Jon tik sang, bo'ridan qolarsan omon.

9

Shoqol, bo'ri, qarg'a birlgalik bilan  
Xalos bo'loldilar kinli tuyadan.

10

Yovga tadbir ishlat o'ylanib birdak,  
Ko'plarni to'fondan qutqardi o'rdak.

11

O'ldirar dushman yo'q bizda tildaqa,  
Bunga ibrat bo'lar o'rdak, toshbaqa.

12

Razildan nari yur ho'kizday har kun,  
Ko'rdingmi, tovuqni nayladi maymun?

13

Hiyla-la xalq haqi yeyilmas sira,  
Ochko'z tijoratchi ne bo'ldi, qara!

14

Oqilga nisbatan bo'lsang hiylakor,  
Qurbaqaday boshing yanchilishi bor.

15

Ayyorni tinglama, ayyor bo'lma, bas,  
Qirg'iy bola yemas, sichqon mis yemas.

16

Chodirin yondirgan naqqoshday toblan,  
Hiylakorlik qilma, qo'l tort hiyladan.

17

Aqli odam-la yasha salomat,  
Nodonning dorisi tarqatar illat.

18

Govkaptar qutuldi, makr etsa xotin,  
Aql-la marazdan qutulish mumkin.

19

Zamona to'rclarin tadbir ila uz,  
Qushlar shunday qilar – o'ylab tashla ko'z.

20

Sodiq bo'l! Boq: sichqon uzoldi to'rni,  
Qarg'a yordam berdi – yengdilar zo'rni!

**21**

Zulm ila bir arpa olma, ey inson!  
Arpa uchun oltin to'ladi sichqon.

**22**

Yoy tutgan bo'ridek bo'lma ko'p halak,  
O'qqa tutar seni g'aflatan falak.

**23**

Oqillarga o'xshab nafsni kichik qil,  
Qarg'a bilan boyqush do'st bo'lishmas, bil.

**24**

Chashmadan fillarni haydadi dovshan,  
Kichik ko'rinasin ko'zingga dushman.

**25**

Nafsi tinchitdi, hiyladan ketdi,  
Ro'za tutgan mushuk maqsadga yetdi.

**26**

Kim hiyla ishlatsa bir bor mushukdek,  
Ko'ziga ko'rinar har ne kuchukdek.

**27**

Boq: o'g'ridan qo'rqib ne qildi xotin?  
Fitna qilma, vafo bamisli oltin!

**28**

Dushmanlar urushsa, sen yurding omon,  
Qutqardi o'g'ri va devni bir inson.

**29**

Yor makriga oshpaz ko‘z yumdi, hayhot!  
 Sen ko‘zingni yumma, shunday pok hayot!

**30**

Sichqondan ibrat ol, o‘z tozangni top,  
 Sen poksan, iflosning yo‘llarini yop.

**31**

Yuz o‘gir dunyodan, oltin-chaqadan,  
 Shunday qochdi maymun qisqichbaqadan.

**32**

Eshak kabi bo‘lma hayotda g‘ofil,  
 G‘aflatda mahv etdi uni tulki, bil.

**33**

Beozor hayvonni o‘ldirgan zohid  
 Yomon zulm ayladi, undan hazar et.

**34**

Qup-quruq nasyani o‘ylama tinmay,  
 Naqd holvadan quruq qolma gadoday.

**35**

Fikr yo‘li bilan g‘ordan chiq har on,  
 Necha bor mushukdan qutulgan inson.

**36**

Tog‘dan ko‘kka uchdi Qubarro qushi<sup>1</sup>,  
 Qismatingdan qochgin ko‘kka tirishib.

<sup>1</sup> *Qubarro qushi* – «Qubarro, shoh va shahzoda» ertagida Qubarro qushi bolasini o‘ldirgan shahzodaning ko‘zlarini cho‘qib tashlaydi, keyin shohning g‘azabidan qo‘rqib qubbaga, baland cho‘qqiga uchib ketadi, uni qaytarib o‘g‘lining qasosini olishga urinayotgan shohning va‘dasiga uchmaydi.

37

Haqni zohir ayla, ko'tarma qilich,  
Sher orli hayvonga tekkan emas hech.

38

Qo'lga zulm uchun kim qilich olar,  
Qon to'kkан sher kabi panjasiz qolar.

39

Sen dushmandan qo'rqma, yaxshilik o'yla,  
Ovchi qutilgandi ilondan bo'yla.

40

Tojir o'g'liga ham, shahzodaga ham  
Loyig'icha bergen qismatni olam.

\* \* \*

So'zlarkan u kerak so'zlarni izlab,  
Xusravning qalbini naqshladi so'zlar.

O'tkazgan zulmidan pushaymon bo'ldi,  
Adolat qasriga asos qo'yildi.

## **O'G'LIM MUHAMMADGA NASIHAT**

(«*Xusrav va Shirin*»dostonidan)

Yetti yoshli bolam, ko'zimning nuri!  
Tilimning yodgori, qalbim sururi!

Hayot berdi senga Ulug' Xudoyim,  
Ustingda men emas, Olloh bor doim.

Hozir yangi chiqqan oy davring, yayra,  
O'yna, kul, chug'urla, bulbulday sayra.

Bu yoshda yarashmas odamzodga g‘am,  
O‘ynab yayraganman bu yoshda men ham.

To‘lin bo‘lgan bir kun yangi chiqqan oy,  
Olamga nur sochar, sen esa chiroy.

Kasb olki, qo‘lingga kirajak dunyo,  
Samolarni o‘qi, toparsan ma’no.

Ma’nosiz va quruq so‘zdan qil hazar,  
Ilohiy ilmlar umringni bezar.

Nomusli yashaki, havas qilsinlar:  
«Balli, ey Nizomiy o‘g‘li!» desinlar.

### **KITOBNING YOZILISH SABABI**

(«*Layli va Majnun*» dostonidan)

Bir kun xushbaxt edim, olam shod kabi,  
Damlar qo‘ynidaydim kayqubod kabi<sup>1</sup>.

Qoshlarim ochiqdi go‘yo bir kamon,  
Qarshimda turardi yozganim devon.

Yuzimga tutgandi ko‘zgusini baxt,  
Saodat sochimni tarardi, u vaqt,

Dasta bog‘lagandi gullardan sahar,  
Saharni bezovdi yoqut shafaqlar.

Ko‘ngil parvonasi qo‘lida chiroq,  
Men bulbul bo‘lgandim, mast bo‘lgandi bog‘.

---

<sup>1</sup> *Kayqubod* – «kay», qadimiy Eronda «shoh» ma’nosini bildirgan, «kayqubod» deganda eski afsonaviy kayoniylar shajarasining podshohlari nazarda tutiladi.

Bayroq qadar edim so‘z cho‘qqisiga,  
San‘at lavhalarin tizib ustiga.

Qalam – teshkich bo‘lib teshardi la’li,  
Turochga aylanib ta’bimning tili.<sup>1</sup>

Qalbim der ediki, so‘z hunarimdir,  
Saodat qo‘limda, o‘z hunarimdir.

Dunyoda bekorga nafas olaymi?  
Bo‘shtur olamdan chetda qolaymi?

Davron shodlik bazmi qurgandan beri  
Quvdi yig‘inidan bekorchilarni.

Qorni och, ishi yo‘q it bormi biron,  
Bekor yursa hamki topa olgan non?

Sasiga sas qo‘shsang, jahon seningdir,  
Davron-la kelishsang, davron seningdir.

Gar tutmoq istasang boshingni yuksak,  
Homiyga havodek bog‘lanmoq kerak.

Ko‘zguni har yerga qo‘yilsa agar,  
O‘zida yo‘g‘ini ko‘rsataverar.

So‘z aytsang san‘atsiz, quruq, bepardoz,  
Yanglish parda kabi berar sas nosoz.

Shu on, shohim, sendan oldim xushxabar,  
Iltimos qilibsan mendan bir hunar.

O‘zim ham yotgandim go‘zal ish istab,  
Yulduzim porlardi yozishga qistab.

---

<sup>1</sup> *Turoch* – tustovuqlar oilasiga kiruvchi, erkagining oyoqlari tirnoqli, oveti bilan oziqlanuvchi go‘zal qush.

Mukofoti bo'lar kim cheksa zahmat,  
Baxti yor bo'lganlar topar saodat.

Elchi kirib keldi birdan uyimga,  
Shohning maktubini uzatdi menga.

Go'zal xat yozgandi podshohning o'zi,  
Bor-yo'g'i o'n-o'n besh satrdi so'zi.

Har harfi gulasta gullari kabi,  
Tungi chiroqlarning nurlari kabi.

«Ey, so'z dunyosining shohi, Nizomiy,  
Do'stlik quli! Sendan do'stning dil komi<sup>1</sup>:

Tong uyqu pardasin yirt, har yon tarat,  
Yana so'z o'ynatib bir sehr yarat.

Aqlni lol etgan so'z maydonida,  
Ming shirinlik ko'rsat ishq dostonida.

Varaqlab Majnunning ishq yo'lin qadim,  
So'zdan bir xazina ochsang, degandim.

Bokira Layliga qalblarni qarat,  
She'rda ikki-uch bokir so'z yarat.

Deyayki, bu – shakar, achchiq emas – bu,  
Deyayki, boshimning tojidir mangu!

Ming ishq kitobidan yuksak va toza,  
Sen o'z qalaming-la bir doston beza!

<sup>1</sup> «Do'stlik quli! Sendan do'stning dil komi...» – Shirvonshohlardan bo'lgan shoh Axsaton ayyorlik bilan, Nizomiyni ulug'lagan holda uni o'z quli deb bilishini ma'lum qilayotgan edi, bu – shoirning izzat-nafsiga og'ir tekkan, shu boisdan doston oxirida bu gapga sovuqqina javob ham berib o'tgan edi.

Bu mavzu shohidir butun so‘zlarning,  
Loyiqdir bu so‘zga sening hunaring.

Bu yangi kelin deb chekkanda zahmat,  
Fors, arab tili-la unga ur ziynat.

So‘zning sarrofiman, bilasan-ku sen,  
Yangi-la eskini tez farqlayman men.

Kuchlisan, o‘nga-o‘n bo‘lsin ishing ham,  
O‘nga-besh qilishni o‘ylama bir dam.

Sen kamol javhari xazinasidan,  
Bilib qo‘y, kim uchun inju tizarsan.

Turk tili yoqmaydi shoh naslimizga,  
Ko‘p nuqson yetkazar turk tili bizga.

Yuksak bo‘lsin deymiz forsiy tilimiz,  
Yuksak yaralgandir bizning naslimiz».

Tushdi qulog‘imga qullik halqasi,  
Miyamni qon qildi bu shoh tamg‘asi.

Uydan qochay desam, chidamas yuzim,  
Xazina ochishga yo‘q edi ko‘zim.

Qancha umrim qoldi – xayolga toldim,  
Bu amr o‘ngida javobsiz qoldim.

Sirrimni aytishga bir mahram qani?  
Unga aytar edim bu mojaroni.

Qalbimda jon kabi aziz, qadrdon  
Muhammad Nizomiy o‘g‘lim shu zamon

O'tirdi yonimga biron soyadek,  
Unga bu ko'rindi go'zal qoyadek.

O'pdi u qo'limni ehtirom bilan,  
Dedi: «Nelar yozding ihtishom bilan.

«Xusrav va Shirin»ni yozib-yaratding,  
Eshitgan ko'ngilda bir zavq uyg'otding.

Layli-Majnundan ham yarat bir asar,  
Juft-juftlab tizaver beba ho gavhar<sup>1</sup>.

Yoqimli-ku juft-juft kezsa tovuslar,  
Zo'r san'at yo'qmi bu mavzuda magar?

Hamda bu Shirvonshoh oliv hukmdor –  
Shirvonga, Eronga bo'lgan shahriyor.

U rutba beradi, ne'mat beradi,  
She'rga, san'atga qiymat beradi.

U sendan bir asar qipti iltimos,  
Sen ham hunar ko'rsat, u asarni yoz»:

Dedim: «Ey oynayuz, qat'iy so'zligim,  
Gaplaring o'rini, haqlisan, beginim.

Lekin ikki holga bog'liqdir bu ish –  
Ham ko'ngilni sharhlash, ham fikr qilish.

Afsona dahlizi tor bo'lsa agar,  
San'at so'zi yo'lda ko'p yaralanar.

Shart shuki, so'z sahni keng bo'lsin mudom,  
Taqali otini kezdirsin ilhom.

---

<sup>1</sup> «Juft-juftlab tizaver beba ho gavhar...» – «Xusrav va Shirin» hamda «Layli va Majnun» nazarda tutilmoqda.

Bu qissa bo'lsa-da olamga ma'lum,  
Qalbga keltirmaydi shodlik, tarannum.

Shodlikdir, hayratdir har so'zning toji,  
Shular-la sozlanar so'z ehtiyoji.

Zanjir va g'am ila bog'lansa doston,  
So'zlar jonni siqar, kir bo'lar, inon.

Uni haddan ortiq bezasang agar,  
Dostonning yuziga yana dog' tushar.

Bu yo'ldan chiqishni etmasam ado,  
Bir so'z demasligim kerak mutlaqo.

Bu naqlda na bog', na yuksaklik bor,  
Na chalg'i, na sharob, na xushbaxtlik bor.

Qumloq, toshloqlardan ilhom kelarmi,  
Kelsa-da tuproqqa ta'sir qilarmi?

Har she'r shodlik-la kelsa nafasga,  
Voqeali baytlar tusharlar raqsga.

Shundayki, qadimdan yerda har zamon,  
Qayg'udan, g'ussadan qochgandir inson.

Yuksak ucholmagan dard yozgan shoir,  
Layli-Majnun esa og'ir bir taqdir.

Shoh meni bog'lamoq istar shu ish-la  
Va derki: «Dostonni menga bag'ishla!»

Maydon-ku tor, mayli, bu kundan boshlab,  
Dostonni nazokat ila tarashlab,

Bezay, ziynat uray o'ng-u so'liga,  
Gavharlar sochilsin shohning yo'liga.

O'quvchi bo'lsa-da bundan parishon,  
Sevgiga jon bergay, unda bo'lsa jon».

O'g'lim sukut saqlab tingladi meni,  
Yana ta'rifladi ul xazinani.

Umrimning ilk guli, ko'zimning nuri,  
Belimning quvvati, qalbim g'ururi

Dedi: «Ey so'zлari egizim ota,  
Tengsiz qiblagohim, azizim ota,

Yarat bu dostonni rangin sadoli,  
Aslo sustlashmasin nazming xayoli.

Qaydaki muhabbat sufra ochgan dam  
Bu go'zal hikoya unga qo'shar ta'm.

Aytganlaring bari parchalar qator,  
Sufrada pishmagan six kabob ham bor.

Ular qudratingdan shaklga tushar,  
Kabob ham sa'ying-la yetilib pishar.

Har qanday nozanin, har qanday dilbar,  
Kiyimsiz chiroyli bo'lmas u qadar.

Uni bezaganda orif qo'llari  
Albat bo'lib qolar go'zal bir pari.

U – jon, tutmoq kerak uni jonga xos,  
Jonga burchdir kiymoq o'ziga libos.

Jonga jon bezagin kiydirmoq kerak,  
Inson o'z jonidan silkmaydi etak.

Nafasing jon berar xalqqa jahonda,  
Sening mahramingdir bu go'zal jon-da!

Sendan – so'z yaratmoq, baxtdan ham – ko'mak,  
Mendan – duo etmak va tutmoq yemak».

Jigarporam so'zin ayladi tamom,  
Uning xotiriga so'z oldi ilhom.

Gavhar axtarmoqqa kirishdim «jang»ga,  
Kimyolar ocharoq kirdim ma'danga.

Ta'bim ham eng qisqa bir yo'l axtardi,  
Yo'l uzun deb qalbim qo'rqib titrardi.

Dostonda so'z qisqa bo'lmog'i shartdir,  
Satrga fikrlar to'lmog'i shartdir.

Dengiz suvi yengil, oqar beqaror,  
Jonli, nafas olgan baliqlari bor.

Suv haqda shirin so'z deganlar ko'pdir,  
O'ylamaki, bari yangi va xo'pdir.

Qalb bahrida qancha suzsa ham uzoq,  
Topmagan hali bir sof dur yarqiroq.

Har bayti ipdag'i injular kabi  
Porlaydi, aybi yo'q bir hunar kabi.

Xazina izlayman, og'irdir yo'lim,  
Ammo chekinishga qo'ymaydi holim.

Qalbim der: «Istaging menda, menga boq».  
Tuproqni kovlovdim – otildi buloq.

Aqlim g'aznasida topildi davlat,  
U ham asarimga urardi ziynat.

To'rt oy davomida tinmadim, inon,  
So'ngra bitdi to'rt ming baytli bu doston.

Menga boshqa ishlar bo'lsaydi harom,  
O'n to'rt kechadayoq bitardi doston.

Bu hur kelinchakni ko'rgan shod o'lsin,  
Xush ko'rsin, uyi ham hur, obod bo'lsin.

Rajab oy oxiri «se», «fe», «dol» edi,  
O'zi ham ko'ngilda shu xayol edi<sup>1</sup>.

Tarixini ayon qilsam, mayli, bil,  
Besh yuz-u sakson to'rt – doston bitgan yil.

San'at unsurlarin urdim dostonga  
Va jo'natdim uni taxtiravonga.

Tilagim: dostonim tushmasin ko'zga  
Shohimning muborak ko'zidan o'zga<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> «Rajab-oy oxiri «se», «fe», «dol» edi» – arab alifbosida har bir harf bir raqam ma'nosini ham bildiradi, shunga ko'ra bu uch harfning yig'indisi hijriy 584-yilga to'g'ri keladi, o'sha yildagi rajab oyi esa sentabr oyidir. Agar buni milodiylar taqvimga aylantirsak, doston 1188-yilning sentabr oyida bitkazilgan, degan xulosa kelib chiqadi.

<sup>2</sup> «Va jo'natdim uni taxtiravonga...» – ya'ni dostonni bitkazgan zahoti shoir uni Shirvon shahriga, bиринчи buyurtmachining o'zi – shirvonshoh Axsatonga yuborib, uni hech kimga ko'rsatmay o'qib chiqishini iltimos qilayotir.

## O'G'LIM MUHAMMAD NIZOMIYGA NASIHAT

(«*Layli va Majnun» dostonidan)*

Sen, ey o'n to'rt yoshlim, bo'lgil ilmdor!  
Ko'zingda ikkala olam aksi bor!

Sen yettiga kirgan ul ma'sum kunda  
Gulday ochiganding gulzor ochunda.

Mana, o'n to'rtga ham ulashdi yoshing,  
Sarv kabi ko'klarga cho'zildi boshing.

Endi hunar vaqt, g'ayrat vaqtidir,  
G'aflatda qolmaki, shuhrat vaqtidir.

Yuksalmoq istasang, silkitgin qanot,  
Uchganga ehtirom ko'rsatar hayot.

Nihol ulg'ayarkan, boy bermay faslin,  
Daraxt shox berganda so'rmaslar aslin.

O'sding – shuhrat orttir – shunday qoida,  
Otang shuhratidan senga ne foyda?

Sen arslon singari jabhalardan o't,  
Har ne kutsang, faqat hunaringdan kut.

Komillik saodat yog'dirar boshga,  
O'rgan elni hurmat qilib yashashga.

Boshingga bitsa ham afsonaviy taxt,  
Olloq qo'rquvsini unutma hech vaqt.

Noloyiq ishlarni qo'lingga olma,  
Oxirda xijolat-uyatga qolma.

O'g'il! So'zlarimga yaxshi qulqoq os!  
Ota nasihatni foydasiz bo'lmas.

Ko'ryapman: shuhuratga layoqating bor,  
She'rda, san'atda mahorating bor.

She'r yozma, zamonga bir e'tibor ber,  
Kundan-kun yomonroq narxlanmoqda she'r.

She'rdan martaba kutmagil oliy,  
Eng yuksak nuqtasin qo'ygan Nizomiy.

Garchand san'atning ko'p rutbasi bordir,  
Hayotga foydali bir ilm qidir.

Bu egri chizgilar jadvalida san  
O'zingni sharh etib, o'zingni o'rgan!

Bu – sening vijdoning sirlarin ochar,  
Chunki bu ma'rifat qal'a nur sochar.

Ilmlar ilmidir, degan payg'ambar,  
Din ilmi, tabobat ilmi muxtasar.

Bu ikki ilmnинг ustuni asl –  
Faqih ila tabib – buni yaxshi bil.

Faqih bo'lsang, Haqqa itoatda bo'l,  
Hiyladan, riyodan doim chetda bo'l.

Tabib bo'lsang, Iso kabi bo'l, o'g'il,  
Odam o'ldirg'uchi tabib bo'limg'il.

Ham tabib, ham faqih bo'lolsang agar,  
Hammaning yonida noming yuksalar

Hayot ham, o'lim ham qul bo'lar senga,  
Saodat va shuhrat tushar poyingga.

Bir ilm olganda tinchima, to'lg'an,  
Uni atroflicha va chuqur o'rgan.

Komillik qiyindir, osonmas chindan,  
Lekin yaxshi- chala qalpoqchilikdan.

Mendan so'ylamakdir, sendan iqtido,  
Bekorchi odamdan asrasin xudo.

### **OZ SO'ZLASHNING GO'ZALLIGI**

(«*Layli va Majnun*» dostonidan)

So'zning ham suvday xush o'z oqimi bor,  
Har so'zning ozmi-ko'p o'z yoqimi bor.

Bir inju sofligi mavjuddir suvda,  
Ortiqroq ichilsa dard berar suv-da.

So'z injusin tanla, oz gapir, o'g'lon,  
Oz so'zlarining bilan ko'rklansin jahon.

Oz so'zning injudek porlashi so'nmas,  
Ko'p so'zning qumtoshdek qiymati bo'lmas.

Asli toza bo'lgan chinakam inju  
Tuproqqa va suvgaga ulashar yog'du.

Bo'lsa-da zar ila to'la xazina,  
Kichkina bitta dur unga kuch yana.

Qalbni eritishda bir xirmon o'tin  
Qilolmas bir dasta gulning xizmatin.

Osmon to'la yulduz chaqnoq va sirli,  
Ammo bosh egishga quyosh arzirli.

Ko'kda porlasa ham minglarcha yulduz,  
Quyoshdir Yer yuzin yoritgan yolg'iz.

## **INSONLARNING ISHIGA VA RIZQ-RO'ZIGA QO'L UZATMASLIK**

(«*Layli va Majnun*» dostonidan)

Qismating ne bo'lsa, undan rozi bo'l,  
O'zganing haqqiga uzatmagan qo'l.

Ko'rpaningga bir qara, so'ng oyoq uzat,  
Bo'lmasa badbaxtlik aylar xijolat.

Qush ko'zlasa behad baland ko'k yuzin,  
Ofat changalida ko'rajak o'zin.

Bir tekis yurmasa yo'lida ilon,  
O'ziga o'ralib qolar begumon.

Qurol yig'ish bilan cheklangan ahmoq,  
Bir kuni yegaydir albat shapaloq.

Tulki arslon ila jang qilsa agar,  
Bilinar kimdadir qilich va hunar.

## **SHODLIK VA QANOAT**

(«*Layli va Majnun*» dostonidan)

Shodlikni yarat o'z tabiatingla,  
Shod bo'l o'z qismating, o'z ne'matingla.

Insonlar va boshqa jonli neki bor,  
Qanoat uyida topganlar qaror.

Rizq-ro'z deb ular ham yugurar, jo'shar,  
Ne topsa, shu bilan kechinib yashar.

Topgan rizqi bilan kifoyat etar,  
Na quturar, na-da shikoyat etar.

Faqat inson ko'zi qoniqmas bundan,  
Shikoyat sadosi yuksalar undan.

Topgani ozgina ketsa havoga,  
Nolasi, faryodi chiqar samoga.

Tushsa omboriga bir tomchi yomg'ir,  
Bulutni qarg'aydi, qaltirab dir-dir.

Tepakal boshini qizdirsa quyosh,  
Hatto quyoshga ham ota boshlar tosh.

Sen quyoshday nur soch, oppoq bo'lasan,  
Yaxshilik qil, shumdan uzoq bo'lasan!

Suv kabi olamga hayot ber, jon ber,  
Har rangga uyg'unlash, dardga darmon ber!

## **SHODLIK BILAN XALQQA XIZMAT QILISH**

(«*Layli va Majnun*» dostonidan)

Tosh emassan – yotma, tur o'rningdan, tur!  
Cho'loq ham emassan – yur, oldinga yur!

Kechaning ustiga oyog'ingni qoq!  
Ustingda qolmasin na to'z, na tuproq!

Tosh-kesak bo'lsa-da o'tganing u yo'l,  
Raqs tushib o'ynagan falak kabi bo'l!

Ber otingni elga, sen ket piyoda,  
Ba'zan zARB yesang-da, mard bo'l dunyoda!

Yuklining yukini ko'tarish kerak!  
Insonga eng buyuk sharafdir ko'mak!

Horiysan, o'shanda bukilganda bel,  
Sening ham yuкиngni ko'targayadir el.

### **ZULMGA UCHRAGAN IKKINCHI KISHINING SHIKOYATI**

(«Haft paykar»- «Yetti go'zal» dostonidan)

Zulmga uchragan ikkinchi kishi  
Yer o'pdi, ko'zidan to'kilib yoshi.

Dediki: «Shu joyda bor edi bog'im,  
Sersoya, sermeva ko'ngil chirog'im.

Undan taralardi jannatning bo'yи,  
Hosil berar edi butun yil bo'yи.

Qarilik chog'imni etgandi bahor,  
Otamdan bir meros shu edi yodgor.

Sizning vaziringiz Rost-Rovshan bir kun  
Bog'imizda mehmon bo'ldi kechqurun.

Izzat qildim uni men odob bilan,  
Siyladim mevalar va sharob bilan.

Qudratim yetgancha keltirdim taom,  
Unga xizmat qildim bamisli g'ulom.

Hazil-huzul bilan yedi, ichdi u,  
Labin tark etmadi bir lahza kulgu.

Keyin bog‘ kezishni etdi ixtiyor,  
Ko‘rdi har burchagin berib e’tibor.

Dedi: «Ey qo‘slni, sot menga bog‘ingni,  
Men yorug‘ qilaman dil chirog‘ingni».

«Nechuk sotay, – dedim, – bu bog‘ jonimdir,  
Bu bog‘ vatanimdir, gul makonimdir.

Shu bog‘dan kun ko‘rar bizning xonadon,  
Ayrilsak bo‘lamiz biz xonavayron.

Lekin bog‘ manim deb o‘ylayver mudom,  
Kelsang, ham bog‘boning bo‘lay, ham g‘ulom.

Oldingda jon bila xizmat qilurman,  
Boshimga ko‘tarib izzat qilurman».

U dedi: «Quruq gap yoqmas qulqqqa,  
Bog‘ingni sotgin-u jo‘na bir yoqqa!»

Vaziringiz bilan tortishib qoldim,  
Bog‘ sotmay, gapini xudoga soldim.

Rost-Rovshan jo‘nadi indamay, faqat  
So‘ngra uyshtirdi ustimdan tuhmat.

Ayblab men, urug‘im va aymog‘imni,  
Zo‘r-la tortib oldi jannat bog‘imni.

Arz qilmasisin deya shohi jahonga,  
O‘zimni kishanlab, otdi zindonga.

Yomg'irday yog'dirdi boshimga ozor,  
Ikki yildan beri yotibman nochor».

Shoh dedi: «Qaytaring joyini darhol,  
Bag'dodda bog'iga yetkazmang zavol».

### **ZULMGA UCHRAGAN BESHINCHI KISHINING SHIKOYATI**

(«*Haft paykar*» – «*Yetti go'zal*» dostonidan)

Beshinchi der: «O, shoh, meni et ma'zur,  
To'rt gumbazli toming olamda mashhur!

Men kand hokimiman, o'ng qo'lingdirman  
Sen, shohlar shohiga, chin qulingdirman.

Men davlat foydasin o'ylardim, shohim,  
Yurtimiz yuksalsin, derdim, ilohim.

Buyuk Olloh menga qildi marhamat:  
Menga ato etdi davlat, hashamat.

Shohim, uzoq umr tilardim senga,  
Ehsonlar qilardim har bir insong'a:

Yetimlarga berdim kumush ila non,  
Senga, yurtimizga kelsin deya shon.

Hamma sevinardi kirsam shaharga,  
Dono, oqillarni to'plab bir yerga.

Bundan men o'zim ham bo'lib xotirjam,  
Borimni el bilan ko'rardim baham.

Ta'minlanar edi tullar, muhtojlar,  
Bizning kandimizda yo'q edi ochlar.

Kim yordam so'rasa ko'rsatdim yordam,  
Qo'limdan tutardi yiqilgan odam.

Kimningki boshiga tushsa falokat,  
Tez madad berishni qilgandim odat.

Kandimiz boy, kelar edi mo'l o'lpon,  
Sarf ham mo'l, chunki mo'l kelardi mehmon.

Kirim-chiqim yaxshi, rozi edi xalq,  
Hisob-kitob to'g'ri, rozi edi Haq.

Vazir eshitganda bularni ilk bor,  
Zo'rlik qozonini qaynatdi qahhor.

Meni qamab qo'ydi, ishimdan oldi,  
Mulkimga, molimga chovutin soldi.

Dediki: «Boylikka topdingmi iloj,  
Yo davlat mablag'in qildingmi toroj?»

Oltin yaratdingmi ishlatib kimyo,  
Tuganmas xazina topdingmi va yo?

Menga ham ber oltin, yoqut – toshingdan,  
Yo'qsa, ayrilarsan omon boshingdan!»

Shunday deb bor-yo'g'im tortib oldi u,  
Boshimga yog'dirdi ming turli qayg'u.

«Ganjin yashirdi» deb qildi u e'lon,  
Zindonga tashladi, ayb topmay biron.

Oilam, bolalar yasharlar mensiz,  
Besh yilki yotibman, aybim tayinsiz».

Bahrom achchiqlandi gapdan bo'lib lol,  
Mol-mulkin ziyonsiz qaytaring darhol.

Deb, zumda chiqardi odil bir hukm,  
Qaytadan kandiga ayladi hokim.

**ZULMGA UCHRAGAN  
YETTINCHI  
KISHINING SHIKOYATI**

(«*Haft paykar*» – «*Yetti go'zal*» dostonidan)

Bahrom yettingicha nazar tashladi,  
Bu mazlum chiroyli so'zlay boshladi:

«Mening bu dunyoda hech bir ishim yo'q,  
Zohidman, meni ham tanir kishim yo'q.

Tinchlik va yorug'lik istab olamga,  
O'zimcha yonaman – o'xshayman shamga.

Insoniy nafslarga moyil ermasman,  
Omonat dunyoga ko'ngil bermasman.

Kunduz ro'zadorman, tunda – namozxon,  
Menga zarur emas na suv, na-da non.

Haq uchun tilimda duo betinim,  
Shundan boshqa biron ishim yo'q manim.

Kimdir kirar bo'lsa yonimga goho,  
Rozilik tilayman, etaman duo.

Bir kun vazir menga yo'llabdi kishi,  
Bordim, ne ekan deb mendagi ishi.

Sovuq qarshi oldi u meni biroq,  
O'tqazdi poygohda o'zidan yiroq.

«Bizning senda, – dedi, – gumonimiz bor,  
Yomonsan, yomonga yomonimiz bor».

Dedimki: «Ey vazir! Gumoning nadir?  
Men senga ne qildim? Yomonim nadir?»

Dedi: «Duoyi bad qilarsan meni,  
O'lsin deysan meni, bilaman seni.

Juda ko'p o'qiding menga badduo,  
Sen deb, balki, meni la'natlar xudo.

Tunlari ko'ryapman alog'-chalog' tush,  
Ba'zan kunduzi ham yo'qtarman hush.

Lekin duolaring bo'lguncha bajo,  
Bilib qo'y, o'zingga beraman jazo!

Duogo'y tilingni tiyaman, ishon,  
Oyoq-qo'llaringga urdirgum kishan».

Imon keltirmadi hatto Rahmonga,  
Menday zaif cholni tiqdi zindonga.

Tegirmon toshini aylantirgan bir  
Eshakday menga u bog'latdi zanjir.

Yetti yilki menga yotoqdir zindon,  
Tilimda, qalbimda Ollohdir hamon».

Bahrom otasiday quchdi zohidni –  
Ollohnning sherini – chin mujohidni.

Dedi: «Sen vazirning bor mulkini ol!  
Senga biron odam yetkizmas zavol».

Darvish dedi: «Menga kerakmas boylik!  
Bas, yurda adolat bo'lsa chiroylik!»

Shodligin bildirib bir zum raqs etdi,  
So'ngra bir so'z demay jim chiqib ketdi.

## FASLLAR TASVIRI

(«*Iskandarnoma*»dan)

### BAHOR

Ko'ngillar erigan bahor chog'ida  
Aylanmak go'zaldir yellar bog'ida.

Gunafsha keltirar bahordan xabar,  
Nargiz qo'llarida ulg'aytar fonar.

Qushlarning tomirda qonlari qaynab,  
Atrofni chahchahga to'ldirar sayrab.

Shamshod sarv ostida tizilar yon-yon,  
Xo'rozdek surohiy ichi to'la qon.

Cho'llarda o'yinga tushar jayronlar,  
Jayron bolalari boshlar suronlar.

Gullar bazm qurar soylar bo'yincha,  
Shirintil bulbullar sayrar to'yguncha.

Qushlarning tovshi-yu gulning yellari  
Uyushar eng yaqin do'stlar singari...

Tog'lar siynasini bezagan rayhon,  
O'tlar yam-yashildir, gullar ol-alvon.

Chechaklar ochildi, gullar bo'y otdi,  
Vodiyni marolning tovshi uyg'otdi.

Quruq tikanlardan chiqди tar gullar,  
Qorishdi gunafsha mushk ila anbar.

Anbar olmoq uchun uyquli nargiz  
Boshini ko'tardi yerdan chorasisiz...

## YOZ

To quyosh botguncha qizidi yerlar,  
Issiқdan kabobga aylandi sherlar.

Tuproq hovri – hatto yuksak samoda,  
Artdi u rutubat, zaxni havoda.

O'tlar urug'ini sochdi har yerga,  
O'lim to'zi cho'kdi lolaliklarga.

Tog'lar-u cho'llarda qaynashdi bug'lar,  
Mevasin shiraga to'lirdi bog'lar.

Bulbullar tog'larga ayladi safar,  
Taraldi g'urbatda g'arib ohanglar.

Qizdi yoz kunining issiq nafasi,  
Hatto, chittaklarning uzildi sasi.

Chayonday sanchishin sezmagan quyosh,  
Bizga kelar ekan, bosib necha tosh.

Qo'lda mis tog'ora, kunduz-u tunda  
Kezib o't sochardi Zangida, Chinda.

Cho'g'lardan kuygandek ho'kiz sag'rini,  
Itlar halloslardi ochib jag'ini.

Toshlar ham erirdi issiқdan, terdan,  
Olov kabi hovur chiqardi yerdan.

**KUZ**

Ersdi xazon yeli, yetib keldi kuz,  
Bog'lar mojaroga tamom burdi yuz:

Talandi yellarga o'lkaning bog'i,  
So'ndi ol gullarning yonar chirog'i.

Buloqbo'yi o'tlar sarg'ayib bitdi,  
Rayhon barglari ham to'kilib ketdi.

Go'yo daraxtzorda o't qalangandek,  
Alvon barglar uchar, tutar yongandek...

Bozori tarqadi, sustlashdi dehqon,  
Bog'lar eshigini qulfladi bog'bon.

Shohhovuzga oqqan suvlar ham endi,  
Sovuqda, ayozda muzlarga do'ndi.

Yaproqsiz, ship-shiydam – qurib ketgan bog',  
Kimning ham bu bog'da ko'ngli bo'lar chog'?

Qani mezbon, sharob, sharbatlar qani?  
Yirtuvchi hayvonlar talar har yonni.

Sayroqi qushlarda loldir til-zabon,  
Yalang oyog'iga ilashar xazon.

Bog'da kezuvchilar bog'ni tark etgan,  
Sharbatchilar ko'chin ko'chirib ketgan.

Ko'pdan kelmay qo'ygan qizlar, go'zallar,  
Na bulbul sasi bor, na guldan asar.

Gullarning shoxlarin tikonlar olgan,  
Hamma ko'chib ketgan, bog'lar bo'sh qolgan.

Qishloqlarda esa to kech kuzgacha  
Manzara o'zgacha, hayot o'zgacha:

Shomgacha ishkomlar xo'p tovlanadi,  
Uzumlar rangorang olovlanadi.

Mevalar ko'payar, boyiydi bog'lar,  
Viqorlanib ketar hatto tuproqlar.

Boshin egib pista kular serma'no,  
Uni bir o'pgisi keladi xurmo.

La'l kabi yasanib toj kiygan anor,  
Uzoqdan chiroqdek o'tlanar, yonar.

Birov qaragandek – qizargan olma.  
Turunj nozlanadi: «Qoch, meni olma!»

Anjir yegan qushlar o'g'ridek pinhon,  
Shoxiga osilib alanglar har yon.

Bodom sevgan tuproq toj olmoq uchun  
Shilar qobig'ini bodomning butun.

Shirin jilonjiyda turib har sahar  
Findiq-yong'oq bilan sekin sirlashar.

Ularning do'stligin boshqa daraxtlar  
Hamma daraxtlarga bir-bir daraklar.

Qorapopoq uzum mammun va shodon  
O'rар barmog'iga sochini pinhon.

Qovoq ro'dasini tekislab sal-pal  
Behi osha nokka tashlabdi changal.

Meva to'la savat, savat to'la yer,  
Hosil yig'uvchining yuz-ko'zida ter...

## **QISH**

Qish, vaqtি-soati kelishi bilan  
Yerga mayda yog'ish separ bulutdan:

To'zdan xastalangan dunyoga osmon  
Go'yo rahm qilganday, beradi darmon.

Osmonning yog'ishi, qirov, tumani  
Qutqarar isitmadaн butun ommani.

Bog'larda suvsagan o'tlarga quruq  
Rizq berar mayda qor, sovuq, izg'iriq.

Bir paytlar hammaga gul ulashgan bog'  
Hech kimni bu fasl qilolmaydi chog'.

Qishda sharob bilan kim saqlasa jon,  
Xumlarga suv quyar, ezib gul-rayhon.

Ish bitgach, qad rostlab chol, qariyalar  
Endi yaktak emas, chakmon kiyarlar.

Oshiqlar qo'llarga olarlar rubob,  
Yoshlar keltirarlar lazzatli kabob...





# Jaloliddin Rumiy

(1207–1273)

Jaloliddin Rumiyning hayoti va ijodiyoti juda katta olam. U haqda juda ko‘p suhabatlashish mumkin. Men bu hayot olamining ayrim qirralari haqida so‘zlayman.

Ulug‘ Turkiston o‘zgalarga qaram bo‘lib yashagan zamonalarda Jaloliddin Rumiy nomi xalqimiz nazaridan chetda saqlanardi. Biz uni rus va g‘arb shoirlarining asarlari, ayrim sharqshunos olimlar, jumladan, E.E. Bertels, V.A. Gordlevskiy, I.S. Braginskiylarning uzun-qisqa tadqiqiy maqolalari orqali chala-yarim bilar edik.

O‘tgan asrning 50–60-yillarida Moskvada muhohirlikda yashayotgan turk shoiri Nozim Hikmat bilan yaqindan do‘splashib qolgan rus jurnalist-yozuvchisi Radiy Fish o‘z do‘sidian Jaloliddin Rumiy haqida ko‘p maroqli hikoyalar tinglab, u dohiyona shoir bo‘lganligiga qanoat hosil qilgach, uning hayoti va ijodini to‘la o‘rganish uchun Turkiyaga ketadi. U yerda Mavlono Jaloliddinning barcha asarlari bilan tanishadi. Turk olimi Abdulqodir Gulpinarlining barcha tadqiqotlarini o‘rganadi. Keyin Eronga o‘tib, Tehron universitetining professori Badiuzzamon Feruzanfarning «Zindagoni Mavlono Jaloliddin» nomli kitobini «ezib ichib» o‘qiydi va dunyodagi boshqa ko‘pdan-ko‘p ma’lumotlarni o‘rganib chiqqandan keyin, 70-yillarning boshida «Jaloliddin Rumiy» tarixiy-biografik romanini yozadi. Asar Moskvada 1972-yilda bosilib chiqadi. Shoir

Jamol Kamol romanni o'zbek tiliga o'girdi. Bundan tashqari atoqli sharqshunos olim va tarjimon Shoislom Shomuhamedov Rumiyning «Katta devon»idan bir necha g'azalini o'zbekchada chiqargan edi. Bo'lgani shu. Mustaqillikkacha Rumiy va uning ijodi haqida boshqa hech nima yo'q edi.

Rumiy hazratlari Mavlono deb shuhrat topganlar. «Mavlono» so'zining o'zagi «mavlo» ekanligi va bu so'z amaki-vachcha, qo'shni, do'stini qo'riqllovchi do'st, o'rtoq, kuyov, yaqin ma'nolarida ishlatilishi arab izohli lug'atlarida ko'r-satilgan.

Mavlononing to'la ismlari: Muhammad Jaloliddin. 1207-yilning 30-sentabrida Balxda tug'ilganlar. Balx o'sha davrda Xorazmshohlarning taraqqiy etgan bir shahri edi.

Otalarining ismi: Muhammad Bahouddin. Olimlar sulton'i.

Onalarining oti: Mo'mina Xotun. Xorazmshohlarga qarindosh.

O'zları 1226-yili Sharafiddin Samarqandiyning qizi Gavhar Xotunga uylanganlar. Ularning Bahoddin Sulton Valad va Aloaddin Muhammad Chalabiy degan ikki o'g'illari bo'lgan.

1273-yil 12-dekabrda Ko'nya shahrida vafot etganlar. Bu shahar Saljuqiylar davlatining boshkenti bo'lgan.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning asarlari:

**MASNAVIY.** Aruz vaznidagi she'r turlaridan biri masnaviy yo'lida yozilgani uchun masnaviy nomini olgan. Asar forscha bitilgan. Boshdan to oxirigacha she'riy hikoya, naql va masallar misolida ma'naviy yetuklikka erishish yo'llaridan bahs yuritadi.

25.700 baytdan iborat. Olti jildni tashkil qiladi.

**KATTA DEVON.** (Shams Tabriziy devoni deb ham ataladi).

G'azallar, qasidalar va ruboilylardan tashkil topgan. Sakkiz jild.

60.000 misrani o'z ichiga oladi.

**FIHI MO FIH.** (Ichindagi ichindadir). Ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ma'rifiy va'z-u o'gitlardan maydonga kelgan nasriy asar.

**MAVOIZI MAJLISI SAB'O.** (Yetti majlisda aytgan va'z-lari).

Tasavvufiy nasriy asar. Hikoyalar va she'rlar bilan jozibali shaklda ishlangan oyat va hadislar tafsiri.

**MAKTUBOT.** (Xatlar). Saljuqiy sultonlariga, davlat arboblariga yozilgan 147 xatdan iborat.

Mustaqillik yillarda Rumiy asarlari birin-ketin o'zbek tiliga tarjima qilina boshladi. Bu ishda yana Jamol Kamol birinchilardan bo'ldi. 1994-yilda «Boqiy satrlar» rukni ostida Jaloliddin Rumiyning 8 masnaviy va 53 ruboiydan tashkil topgan «Uchmoqqa qanot yo'q, vale uchgayman» nomli kitobini o'zbekchaga o'girib chiqardi. Shoir Tohir Qahhor to'plamga so'ngso'z yozib, Rumiyning turk sultonlari qurgan davlat muhitida yetilgan shaxsiyat ekanligini ko'rsatarkan, ayni chog'da zot jihatdan ham xorazmiy ekanligini, onasi Xorazmshohlar avlodidan ekanligini, bir jihatdan arablar bilan tutashligi, ikkinchi jihatdan fors adabiy muhiti ta'sirida ta'lif olib, fors tilida jahon adabiy mulkining darajasini yuksaklarga ko'targanini dalillagan edi.

Iste'dodli qalamkash va iqtidorli olim Ulug'bek Abduvahob esa 1997-yilda Rumiyning «Fihi mo fih» asarini o'zbekchaga tarjima qilib, «Ichindagi ichindadir» nomi ostida nashr ettirdi. Muhtaram olimimiz Najmiddin Komilov unga yozgan so'z-boshisida asar mohiyati haqida batafsil ma'lumot bergen edi. Bu asarning ayrim bo'limlari Saljuqiy vaziri Sulaymon Parvonaga xitoban yozilgan. O'sha davr siyosiy voqealariga ham bog'liqligi uchun tarixiy manba hamdir. Tasavvufdag'i dunyo va oxirat, suluk va uning darajalari, murshid va murid munosabatlari, imon, amal, axloq singari mavzular qalamga olinganligini qayd etgan.

1997-yilda butun jahonda Rumiy tavalludining 790 yilligi keng nishonlandi. O'zbekistonda ham bu sanaga katta e'tibor

berildi. Radio va televideniyeda ko'rsatuv va eshittirishlar berilganidan tashqari, «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnal-larida, «O'zbekiston ovozi», «Milliy tiklanish», «Ko'zgu», «Markaziy Osiyo madaniyati» gazetalarida yangi tarjimalar e'lon qilindi.

XXI asrdan boshlab Rumiy ijodini mukammal egallahga kirishildi. Jamol Kamol buyuk shoirning olti jildlik «Masnaviy»sinи nashr ettirdi. Shoir Asqar Mahkam «Masnaviy»ni sharhi bilan birga o'zbekchada chiqardi.

Butun insoniyat Rumiy merosini o'z merosiday sevib o'r ganayotgani bejiz emas. Uning ijodi bizning xalqimizga ham aziz va mo'tabardir. Bugungi va kelgusi avlodlarimizni imon-e'tiqodi mustahkam, vatanparvar va xalqparvar komil insonlar qilib yetishtirishda, o'z azaliy yurtini va o'z-o'zini tanish, hayotda yashashdan murod nimaligini anglatishda Rumiy ijodiyoti katta rol o'ynaydi. Ollohg'a va payg'ambarlarga inonch, mehnatsevar va g'ayratli bo'lish va halol daromad topish, insonning insonlik sharafini baland ko'tarishda uning asarlari zamonamiz bilan hamnafasdir.

Jaloliddin Rumiy janozasiga turklar, forslar, arablar, faqat musulmonlar emas, yahudiylar va nasroniylar ham to'planishib, shoir tobuti ustida Tavrot va Injil o'qishardi. Musulmonlar o'zlarini noqulay his qilib: «Bu musulmon olim janozasi bo'lsa, sizlarning bu o'qishingizning nima keragi bor?» – deb so'rashdi. Ular: «Biz bu olim orqali barcha payg'ambarlar haqiqatiga voqif bo'ldik», deyishdi.

Darhaqiqat, Rumiy o'z «Masnaviy»sida 760 marta Qur'on oyatlariga, 745 marta payg'ambarimiz hadislariga murojaat qilib, umumbashariy g'oyalarni ilgari suradi.

Men shoirning masnaviylaridan bolalar va yoshlarga moslarini tanlab tarjima qildim.

**NAY**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
1-jild, 26–27-betlardan)

Tingla, nay qandoq shikoyat aylayur,  
Ayriliqlarni hikoyat aylayur.

«Men qamishzor ichra erdim hur qamish,  
Kesdilar, ohim jahonni o'rtamish.

Bir yurak topsam agarki holi tang,  
Unga dardimni yozardim rang-barang.

Aslidan olisda qolsa kim agar,  
Aslini izlar yana shom-u sahar.

Yig'ladim ko'p davrada g'amga to'lib,  
Baxtliga ham, sho'rliga ham esh bo'lib.

Menga har kas o'z-o'zin do'stday sezar,  
Lek, ichimning sirliga solmas nazar.

Ichim sirri oh-u faryoddan iborat,  
Ko'zim nursiz, ko'zimning nuri – g'urbat».

Badan jon-la, jon badan-la yonma-yon,  
Faqat jonne ko'rolmas hech bir inson.

Asli olov nay ovozi, yel emas,  
Yonib turmaganni kimsa er demas.

Muhabbatning olovi nayga tushdi,  
Yo'q, muhabbat hovri, deng, mayga tushdi.

Do'stidan ayrilganga do'stdir bu nay,  
Pardasi bag'ringni tilgay siylamay.

Qon to'la yo'l kuylarini kuylar ul,  
Oshiq Majnun o'ylarini kuylar ul.

Nay kabi zahr-u taryoq ko'rganmisiz?  
Hamdam-u hamishtiyoy qo'rganmisiz?

Bu aqlsiz aqlga xushtor emas,  
Bor-yo'g'i qulog' xaridor bo'lsa bas.

### **BAQQOL VA GULYOG'INI TO'KIB YUBORGAN TO'TIQUSH HAQIDA**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
1-jild, 104–106-betlardan)

Bir boqqol bor edi qadim zamonda,  
So'zlovchi to'tiqush boqdi do'konda.

Ul to'ti do'konga qo'rirqchi edi,  
Mijozlarga so'zlar, qiziqchi edi.

Insonga insonday gapirar edi,  
To'ticha sayrashni qotirar edi.

Bir kun u do'konda qilarkan parvoz  
Gulyog'li shishani sindirdi bexos.

Do'konning egasi keldi uyidan,  
Tong qoldi do'konning hidi-bo'yidan.

Ko'rsaki, yerlar yog', kiyim-kechak yog',  
Qizishib to'tining boshipatin shundog'

Yuldiski, mana deb senga shu badal!  
To'ti bechoraning, boshi bo'ldi kal.

Qush sayramay qo'ydi o'shandan buyon,  
Baqqol o'z jahlidan bo'ldi pushaymon.

Afsuslanar edi changallab boshin:  
«Eh, bulut ortiga kirdi quyoshim.

So'ylashdan qo'yguncha to'timning tilin  
Koshki edi sinsa jahldor qo'lim».

Baqqol, qushim yana gapirsin, deya  
Aziz darveshlarga berardi hadya.

Oradan uch kun-u uch kecha o'tdi,  
Baqqol, qush sayrashin noumid kutdi.

So'zlay qol, deb unga qilardi hazil,  
Masxarabozliklar ko'rsatib xil-xil.

Nogoh bir Qalandar<sup>1</sup> o'tdi ko'chadan,  
Boshi shunday kalki – farqsiz xumchadan.

Gapirib yubordi to'tiqush shunda,  
Aqli odamday baqirdi unga:

– Hoy kal, sen kallarga qo'shilding qanday?  
Sen ham gul yog'ini to'kdingmi menday?

Xalq kuldi xaxolab uning so'ziga:  
Qalandarni o'xshatdi qush o'ziga.

---

<sup>1</sup> Qalandar – forscha matnda «Javlaqiy» deyilgan. Javlaqiy deb XII–XV asrlarda dastlab Eronda, so'ngroq, Shom va Misrda keng tarqalgan bir tariqat kishilariga aytildi. Ularni ko'p mamlakatlarda, jumladan, Xuroson va Mavarounnahrda «Qalandariy» ham deyilgan. Ular sochi, soqoli va qoshlarini qirdirib, yelkaga ip yo jundan qilingan xurjun osib o'z g'oyalarini tarqatib, tilanchilik qilib yurardilar.

Men ham kulgim kelar ba'zi erlarga,  
O'zlarin teng bilar payg'ambarlarga.

Derlarki: u odam, bizlar ham odam,  
Yeb-ichib uxlaydi, shundaymiz biz ham.

O'zni payg'ambarga sen etma qiyos,  
To'tiday kulgiga qolasan xolos.

«Shir» va «sher» yozuvda bir xil,  
e shayton,  
Ammo shir – oddiy sut, sher esa arslon!

Bir gulni emadi ikki xil ari,  
Biri zahar berar, bol berar biri.

O't o'tlar, suv ichar ikki xil jayron,  
Biri go'ng, boshqasi mushk etar ehson.

Bir suvdan chiqadi ikki xil qamish,  
Biri – g'ovak, biri – shakarli idish.

Chuchuk suv tip-tiniq,  
sho'r suv ham tiniq,  
Farqlari hammaga ayon ap-aniq.

Faqat ta'm tuyg'usi bo'limgan inson  
Ularni ajrata olmas hech qachon.

Bir odam hikmatga to'lib boradir,  
Bir odam hasaddan o'lib boradir.

Misni, bu – oltin, der befahm g'o'rlar,  
Farqlarin farqlolmas qalblari ko'rlar.

## XALIFANING LAYLONI KO'RGANI

(«Masnaviy va sharhi»,  
1-jild, 136–138-betlardan)

Xalifa so'radi: – Senmisan Laylo?!

Dardga yo'liqtirgan Qaysni bedavo?!

Qani telba qilar go'zalliklaring?!

Boshqa go'zallardan afzalliklaring?!

Laylo der: – Sasingiz ko'tarmang, bas, siz!

Chunki xalifasiz, Majnun emassiz!

Qaysning ko'zlarining nuri yo'q sizda,

Samoviy holat yo'q yuragingizda.

Uning uyg'oqligi uxloqdan o'tar,

Uning uxloqligi uyg'oqdan battar,

Hech narsani ko'rmas, fidoyi edi,

Hushini yo'qotgan, savdoyi edi.

Tangri uyg'otmasa, uyg'oq jonimiz –

Qafasda qolganday, qaynar qonimiz.

Xayol tepkisidan ezilgan jonning,

Yo'qotish vahmidan uzilgan jonning –

Go'zalligi qolmas, quvvati qolmas,

Ko'klarga uchsa-da, bir yo'l topolmas.

Jon qushi yuksalib borar tobora,

Soyasi yer uzra sarson – ovvora...

Bir ahmoq ovlashga tushar soyani,

Sarflar bor kuchini– bor sarmoyani.

Soyaga otar o'q, takror otar o'q,  
Qarasa: o'q bitgan – sadoqda o'q yo'q.

Umr sovurilar va o'tib ketar,  
Soya quva-quva vaqt erib bitar...

Siz jonsiz soyadan badan tilarsiz,  
Tan yo'qligin ko'rib, hasad qilarsiz.

Yo'q, Tangri erlarin poyiga har choq,  
Qo'lingizdan kelsa, bo'ling xok-tuproq.

Siz ham biz singari hasaddan qoching,  
Xok bo'lib hasadning boshini yanching.

## **POPISHAK ILA SULAYMON HIKOYASI**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
1-jild, 262–265-betlardan )

Sulaymonning shoh chodirin qurdilar,  
Butun qushlar shoh oldiga kirdilar.

Tilimizni bilar deya Sulaymon,  
Ayladilar sirlarin bir-bir bayon.

Sayradilar chah-chah, qar-qar va chiq-chiq,  
Bor-yo'qlarin so'y lab berdilar ochiq.

El iyadi bir tilda so'y lashganga,  
Til bilmagan o'xshab ketar dushmanga.

Yot tillilar aro qolganda inson  
Qamoq ichra qolgan kabi bo'lar jon.

Lekin bir hodisa borki, chistondir,  
U tufayli jahon ahli hayrondir:

Qancha-qancha hind-la turkning tili bir,  
Ikki turk bir-birin hech anglamaydir...

Do'stlik tili boshqachami, go'zalmi?  
Ko'ngildoshlik tildoshlikdan afzalmi?

Qalb tushunar qalbni gapsiz, so'roqsiz,  
Ko'ngillarning tarjimoni sanoqsiz.

Butun qushlar so'ylar hunarlarini –  
Bilgan siri, ishi, ilmi, – barini,

Sulaymonga tez ma'lum qillardilar,  
O'z-o'zlarin tarannum qillardilar.

Maqsad faqat o'zni tanitish emas,  
Sulaymonga yaqin bo'lishdir havas.

Qul istasa xojasiga qullikni,  
Ko'rsatar o'zidagi ma'qullikni.

Istamasa qullik qilishni, u choq,  
O'zini kar ko'rsatar, xasta, cho'loq.

Popishak oldi so'ylash navbatini,  
Sanadi bir-bir hunar, san'atini.

Dedi: – Shohim, mening qisqa so'zim bor,  
Bir sirimni aytay, bersang ixtiyor.

Sulaymon der: – Qanday siring, qani, ayt!  
Popishak der: – Men samoga uchgan payt –

Yuksaklardan pastga nazar qilaman,  
Yer ostida qayda suv bor, bilaman.

Qay nuqtada, chuqurligi na qadar?  
Rangi qanday, chuchukligi na qadar?

Tuproqdanmi qaynab chiqar yo toshdan?  
Barin aniq aytaman avvalboshdan.

Ey Sulaymon, bu sirga xush nazar et,  
Safarlarga meni doim olib ket.

Men oldindan seni etgayman ogoh,  
Qayga o'rdu qursa bo'lur qarorgoh.

Sulaymon «xo'p» dedi,  
bo'lgancha xursand:  
«Suvsiz cho'lda bizga yo'l dosh bo'lursan».

Qarg'ada bu so'zlardan qo'zdi hasad,  
Sulaymonga kirib bordi, egib qad.

Podshohlarga qarshi so'zlash g'alatdir,  
Yolg'on, bo'l mag'ur gap aytish uyatdir.

Dedi: – Yolg'on! Ishonma popishakka!  
To'qib-bichdi, yetmoq uchun tilakka!

Rost bo'lsa gar, ko'rolsa u uzoqni,  
Nechun ko'rmas yerda oddiy tuzoqni?

Nechun tushar dam tuzoq, dam qafasga?  
Toqatim yo'q behuda gap – abasga!

– Popishak! – der shunda podshoh Sulaymon, –  
Bu Qarg‘aning gaplarida bor-ku jon!

Ayron ichmay, may ichdingmi – mastmiding?  
Yolg‘onning chuvi chiqar, bilmasmidng?

Popishak der: – Shohim, bunday o‘ylama!  
Xudo haqqi, yovim so‘zin so‘ylama!

Qiyiq topsang agar mening ko‘nglimdan,  
Uzib tashla boshginamni bo‘ynimdan.

Qarg‘a o‘lim keltirishga qodirdir,  
Ming aqlli bo‘lsa hamki, kofirdir.

Qarg‘a qazo hukmin aytar. Bu gap og‘ir,  
Qazo hukmin kim rad etsa, u zot kofir.

Sen o‘zingga «kofir» «k»sin loyiq topsang –  
Sonlararo shahvat joyi, sassiq joysan.

Aqlim ko‘zin yopmasaydi agar qazo,  
Tuzoqni ham ko‘rar edim qilmay xato.

Balo-qazo kelsa, uxlар bilimli bosh,  
Oy qorayar, kuyar hatto porloq quyosh.

Balo-qazo qonunlarin nuqsoni yo‘q,  
Bunga qarshi chiqmoqlikning imkonи yo‘q.

Kimki buni inkor etsa, u bir balo,  
Inkorchingining inkori ham balo-qazo.

**BIR DEHQON KECHASI ARSLONNI  
HO'KIZ DEB O'YLAB,  
UNI QASHLAGANI TO'G'RISIDA**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
2-jild, 109–110-betlardan)

Bir dehqon ho'kizin bog'lab oxurga,  
O'zi yotgan edi orom olurga.

Tunda ul ho'kizni yedi-da arslon,  
O'rniغا cho'zildi bamisoli xon.

Bir mahal ho'kizdan olgali xabar,  
Dehqon hodisotdan keldi bexabar.

Arslon yotgan yerga qadam tashladi,  
Arlonning sirtini qashlay boshladi.

Qashladi o'ng yog'-u so'l yoqlarini,  
Biqinga yuborib barmoqlarini.

Arslon o'ylardiki: «kun yorug' bo'lsa,  
O'ti yorilardi u meni ko'rsa.

Hozir qorong'ida bilmas bu ne hol –  
U meni ho'kiz deb qashir bemalol».

Seni qo'rqtay deb aytdim hikoyat,  
O'ylab ish qil, yo'qsa bosgay falokat.

**MAHALLA BOSHLIG‘I YERGA  
TIKON EKKAN ODAMGA,  
BU TIKONLARNI YUL,  
DEB BUYURGANI**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
2-jild, 196–197-betlardan)

So‘zi shirin, fe’li yomon har inson  
Yo‘l uzra ekkanga o‘xshaydi tikon...

Unga yo‘lovchilar berdilar dakki,  
Yul, dedilar, buni... Bu ishing chakki.

Yulmadi, hech kimga solmadi qulqoq,  
Tikonlar avjlanib gulladi bodroq.

Odamlar o‘tishga qiynalar edi,  
Oyoqlari qonga belanar edi.

Tilinib ketardi egni, paypog‘i,  
Yo‘qsul bolalarning chatnab oyog‘i.

Mahalla boshlig‘i: «Yul!» dedi bir kun.  
«Xo‘p, – dedi, – bu joyni aylagum gulgun».

Lek, erta, indin deb ko‘p o‘tkazdi vaqt,  
Tikon ildiz otib, yetildi daraxt.

Boshliq dedi: «Ey, sen, va’dasi yolg‘on,  
Va’dangning ustidan chiqasan qachon?»

U dedi: «Har ishning vaqt-soati bor»  
Boshliq dedi: «Ortga tashlama zinhor!

Sen ertaga deysan, so‘ng deysan keyin,  
Shuni yaxshi bilki, kun o‘tgan sayin,

Metinlashib ketar bu yomon daraxt,  
O'tkirlashib ketar tikoni u vaqt.

Sen esa kundan-kun qarib borarsan,  
Kuchdan va quvvatdan arib borarsan.

Tikon kuchlanmoqda bo'yi cho'zilib,  
Tikon kesuvchining kuchi uzilib.

Tikon hafta sayin topmoqda kamol,  
Tikon kesuvchida bitmoqda majol.

Qarib bormoqdasan, ishni tezroq qil,  
Bebaho vaqtingni boy berma, shoshil!»

Ey, mening do'stlarim, ey, aziz inson,  
Har bir yomon fe'ling, bilki, bu – tikon.

Axir, aytmabmidim, senga necha bor,  
Tikon yurganingda bergay deb ozor?!

Ko'plarni yaralar bu yomon fe'ling,  
Ammo sezmayapsan, ayanchdir holing.

Xunuk fe'ling boshqa odamlarga ham,  
Bilmaysan, o'tkazib kelmoqda alam.

Nahot e'tiboring tushmas alarga –  
Ham o'zingga dardsan, ham o'zgalarga.

Yo qo'lga bolta ol, o'xshab erkakka,  
Kes tikonni jangda yakkama-yakka.

Yoki uni bir gul holiga keltir,  
Nurlanib har yonga purkasin atir.

**MISRLI ZUNNUNNING  
JINNIXONAGA  
TUSHGANI BORASIDA**

(2-jild, 218–224-betlardan)

**1**

Tarixda gaplar ko‘p: kunlardan bir kun  
Jinni bo‘lib qoldi Misrli Zunnun.

Uning jazavasi ortib borardi,  
Osmondan osmonga ketib borardi.

Jigarlar, do‘srlarning holi parishon,  
Ne chora davo, deb bo‘lardi sarson.

Ey Zamin! O‘zingni biroz qo‘lga ol,  
Poklarni jo‘shtirib, aylama zavol!

Xalq chiday olmasdi uning holiga,  
U olov tutardi xalq soqoliga.

Tinmagach o‘t tutib har bir insonga,  
Soldilar oxiri uni zindonga.

Podshohlar cho‘chishar: chiqsa bir g‘avg‘o –  
Olomon ko‘r bo‘lar – boshlar har balo.

Beg‘amlar qo‘lida bo‘lsa gar qonun –  
Zindonga tushadi har qanday Zunnun.

Qalam hasadchida bo‘lsa, na iloj? –  
Dorga ketaverar Mansuri Xalloj.

Yomonlar boshqarsa qishloq-shaharni –  
O‘ldirish shart bo‘lar payg‘ambarlarni.

Xunuklar o'tkazsa hukmin yozuqqa –  
Yusuflar tashlanar tubsiz quduqqa.

Beg'am va hasadchi, xunuk va yomon  
Balki yashar yerda, g'am ko'rmay omon.

Lek, iflos ishlari mahsharda, quyosh  
Chiqqanday, albatta etilgaydir fosh.

Munofiq va sobit, mard ila nomard  
Solihlar nazdida farqlanmog'i shart.

## 2

Zunnun shogirdlari bo'ldilar zalil...  
Bir ustoz holini etdilar tahlil.

Dedilar: «Hammani qilib xavotir,  
O'zin atay jinni ko'rsatayotir.

Aslida jinnimas, o'zi soppa-sog',  
Aql-u zakosidan jinnilik uzoq...

Balki, bu ishida bordir bir hikmat,  
Dinimizda bor-ku qibla va oyat».

Dedilar: «Jinnilik bo'lardi jinni  
Dengizday aqlidan ozdirsa uni.

Telbalik buluti – asrasin Xudo! –  
Zunnunning oyini to'sarmi? Aslo!

Xalq gunohlaridan qochgan zindonga,  
Nomus qilib o'zin solgan nodonga».

Ustozning holidan, xullas, bir safar  
Shogirdlar olmoqchi bo'ldilar xabar.

Bordilar shaharning tund zindoniga,  
Amallab kirdilar Zunnun yoniga.

Lekin u: «Siz kimsiz?» deya so'z qotdi,  
«Menga yaqin kelmang!» deb na'ra tortdi.

Dedilar: «Do'stlarining bo'lamiz, Ota!  
Ahvol so'rab keldik, bo'lma bezovta...

Ey, so'z hunarmandi, dono, bilimdon!  
«Ozgan!» deb aqlingga aylama bo'hton!

Tutun yetolarmi hech vaqt quyoshga?  
Qay tentak tenglagay zumradni toshga?

Sen bizdan yashirma, holingni anglat,  
Biz seni sevamiz, ayt, bu ne holat?

Seni sevganlarni haydash yaxshimas,  
Yuzga parda tutib aldash yaxshimas.

Sirni o'rtaga to'k, ey Oliy Hazrat!  
Nadir bu yuzparda? Bunda ne hikmat?

Biz, seni sevganlar, yaralidirmiz,  
Ikki dunyoda ham sen bilan birmiz».

U birdan jinnicha so'ylay boshladи,  
O'rtaga bama'ni gaplar tashladi.

So'ngra sapchib turdi. Tosh kesak olib,  
Sochdi atrofriga dag'dag'a solib.

Ular jonholatda har yoqqa ochdi,  
Bir zumda zindondan qorasi o'chdi.

Guldurab taraldi shunda qahqaha:  
– «Do'stmiz» deganlarni ko'ring, vah-hah-ha!

Bu do'stlar yashagan havoni ko'ring!  
Jonlariga o'tgan jafoni ko'ring!

Aytinglar, chin do'stlik bo'larmi shunday?  
Do'stdan kelgan yara shirin-ku jonday!

Sevganga sevikli keltirgan yara,  
Hech og'ir kelarmi, bir o'ylab qara!

Yara – moddiy narsa, sevgi – bu, ichdir!  
Ich esa yaradan o'zgarmas hech bir!

Sevgan zot – oltinday, balo – olovday,  
Sof oltin olovda porlar yalovday!

## **SHUNQOR BILAN NARG'ÖZ**

(«*Masnnaviy va sharhi*»,  
*3-jild, 57–58-betlardan*)

Bir shunqor narg'ozga: «Suvdan chiq», dedi,  
«Biz tomon ov bilan to'lgan liq, – dedi. –

Qo'zilar sayr etgan sahrolarni ko'r,  
Eh cho'llar, eh tog'lar – bir-biridan zo'r!»

«Qo'ysang-chi, – dedi g'oz, – suv bizning qo'rg'on,  
Suv bizning qal'amiz – sevinchlarga kon.

Bizga kerak emas serqut bog‘laring,  
Yoki sahrolaring va yo tog‘laring».

Shunqor ham shaytonga o‘xshardi biroq,  
Dediki: «Shunchalik ko‘rmisan, o‘rtoq?

Qal’angdan tashga chiq, shunqorga aylan,  
Ermisan, erkakcha yashashga shaylan».

«Bor jo‘na, – dedi g‘oz, – yo‘lingdan qolma,  
Biz yo‘ldan chiqmaymiz, ovora bo‘lma.

Barcha da‘vatlaring o‘zingga siylov,  
Qilmay qo‘ya qolgin ko‘nglimizni ov.

Keltirgan in’oming o‘zingga qolsin,  
Qo‘zingni o‘zing ye, joningni olsin.

Bizga kifoyadir o‘z qo‘rg‘onimiz,  
Omon bo‘lsa basdir nasl-u jonimiz».

Jon bo‘lgan har joyda rizq-nasiba bor,  
Er bo‘lgan har joyda harb-harbiya bor.

Harbiya bor joyda bayroq ham bo‘lar,  
Bayroq ko‘targani idrok ham bo‘lar.

## **ZOTI YOMON BO‘LGANLARNING ILMLI, BOY, AMALDOR BO‘LISHLARIDAN KELADIGAN YOMONLIK**

(«Masnaviy va sharhi»,  
4-jild, 214–215-betlardan)

Shumga ilm berish, – hammaga aytинг! –  
Yo‘lto‘sarga qilich berish bilan teng.

Mastga qilich berish – g‘o‘rlikki shunday –  
Yovvoyi hayvonga qilich berganday.

Yomonlar erishgan bilim, amal, mol –  
Fitnalarga sabab bo‘ladi darhol!

Imon ahli uchun qonun shunday tarz:  
Yomonning qilichin tortib olish – farz!

Yomon zolimlarning qilichdir tani,  
Shoshil, qilichini tortib olgani!

Mustabid o‘tirgan martaba, maqom  
Yomonlik yomg‘irin yog‘dirar tamom!

Ular ish qilarki shunchalik yomon,  
Bu ishni eplolmas yuzlarcha arslon.

Shumligi yashirin – oshkora emas –  
Bir chora, bir fursat topildimi, bas, –

Illonning ichiga kirib ketadi,  
Jarlikda ko‘lkani makon etadi.

Xalqni alahsitib, ishlatar hiyla,  
So‘ng achchiq, shum, nodon buyruqlar ila –

Ilonga to‘ldirar butun o‘lkani,  
So‘ng tark etib chiqar yotgan ko‘lkani.

Barcha chayonlarni soladi ishga –  
Yuzlab jamoani ko‘mar taftishga.

Mol-mulkka erishgan bunday nokaslar  
Razillarni topar izlab, paypaslab.

Shumlik qilar elga oz ehson berib,  
Bergani nojoiz va yoki firib.

Vazirdan past qilar axir podshoni,  
Shunday – mansabparast ma'mur ehsoni!

Yomonni qilsalar agarda hokim,  
O'saman, deb o'ylar, o'lguncha tokim.

Yo'l bilmas, yo'l boshchi bo'larmi hech vaqt?  
Dunyoga o't qo'yay u boshi karaxt.

Bola fanda pirlik qilsami da'vo,  
Ergashgan, adashgay katta yo'l aro.

Umrida oy ko'rmay o'sgan norasta  
Yur, oy ko'rsatay, deb yuradi pastda.

Oy aksin suvda ham ko'rmagan bir g'o'r,  
Oyning o'zin qanday ko'rsatsin shapko'r?!

Bir ahmoq o'tirsa mansab ustiga,  
Ming oqil bosh tortar gilam ostiga.

## **MAJNUN BILAN TUYANING SAVDOSI**

(4-jild, 225–227-betlardan.)

Layloni sog'inib kunlardan bir kun  
Sahroga yo'l oldi bechora Majnun.

Afsuski, tuyasi yurmas edi tez,  
Bo'ynidan quchoqlab Majnun der shu kez:

– Bilaman, men seni, ey ona tuyam!  
Boshimiz savdoli ikkimizning ham!

Ikkimiz bir xil dard adolarimiz,  
Ammo ayro-ayro savdolarimiz.

Sen ortga qaytmoqni istaysan, tuyam,  
Men oldga bormasam – yemirguvsi g‘am.

Majnun Laylosiga umtilar edi,  
Tuya bo‘tasiga intilar edi.

Majnun bir daqiqa ketsa o‘zidan,  
Tuyasi qaytardi ortga izidan.

Ishq dardi Majnunga go‘yo tutar may,  
Iloji yo‘q edi hushidan ketmay.

Avval Majnun bunday tolmasdi o‘yga,  
Ishq dardi aqlini soldi shu ko‘yga.

Lekin tuya hushyor borardi yo‘lda –  
Epchil edi. Tizgin bo‘sashsa qo‘lda –

Majnun hushsizligin fahmlab darhol,  
Orqaga yo‘l solar edi bemalol.

Majnun hushin jamlab ko‘rardi nogah  
Orqaga qaytganin bir necha farsah.

Ular shu alfovza yurdilar uch kun,  
Yillar yo‘qotganday ezildi Majnun...

– Ey tuya, – dedi u, – oshiqmiz ikkov,  
Lekin qarshidirmiz birovga birov.

Demak, noloyiqmiz yo‘ldosh bo‘lmoqqa,  
Orqadosh bo‘lmoqqa, qo‘ldosh bo‘lmoqqa.

Sening sevging mening sevgimga g‘anim,  
Ajrashmasak bo‘lmas. Haq – ahdim manim.

O‘zin pastga otdi shunday deb Majnun,  
Qum ila tuproqqa belandi butun.

Tuyaning Majnunga, uning tuyaga  
Yovligi, aytaymi, o‘xshar nimaga?

Bu – aql va nafsnинг yovligidaydir,  
Ikkovi bir-birin g‘ajishga shaydir.

Keng sahro Majnunga bo‘lib ketdi tor,  
O‘zini qum-toshga uraverdi zor.

A’zoyi badani ezilib bitdi,  
Oyog‘i qirilib, titilib ketdi.

Yara-chaqalarin bog‘lab dedi u:  
– Chavgon soqqa bo‘lay, bosmasin uyqu.

Urilib-surilib ketay qoshiga,  
Dumalab-dumalab yetay qoshiga. –

Bu go‘zal so‘zlari shod etdi Haqni:  
Qo‘lladi tanin ot etgan oshiqni.

Laylo sevgisidan Olloh sevgisi  
Oz emas. U bizga qanot bergusi.

Soqqaday Haqiqat xizmatida tur,  
Ishq chavgoni misol yumala, yugur.

Yetarsan Ollohnинг jozibasiga,  
Zor bo‘lmay bandaning bir tuyasiga.

Baxt toparsan Haqning jazbi ketidan  
Ustun u ins-u jins ibodatidan.

Bu jazb boshqa jazbdan farqlidir tamom,  
Payg‘ambar ham buni bilgan, vassalom.

## **QOG‘OZ USTIDA CHUMOLILAR**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
4-jild, 519–520-betlardan.)

Bir qog‘oz ustida ketgan mahali  
Gaplashib qolishdi uch-to‘rt chumoli.

Biri qalam ko‘rib qog‘oz ustida,  
Ba’zi bir sirlarni aytdi do‘stiga:

– Bu qalam qog‘ozga yozib-chizadi,  
Ko‘r, qog‘ozni bejab, naqsh-la bezadi!

Do‘sti unga dedi darhol salmoqlab:  
– Qalammas bu ishni qilgan, barmoqlar!

Qalam o‘z-o‘zicha hech vaqt ish qilmas,  
Qalam barmoqlarga yordamchi, xolos!

Uchinchi chumoli derki shu asno:  
– Buni barmoqlarmas, qo‘l etar ijro!

Zaif barmoq kuchi nelarga yetar?  
Qo‘lning kuchi bilan ish ado etar! –

Eng katta chumoli yoniga borib,  
Uchchovi so‘yladi ko‘nglini yorib.

Ammo katta fikri boshqacha edi:  
– Tashqi ko‘rinishga qaramang, – dedi, –

Ko'ring, uxlab yotgan, o'lgan kishini,  
Ko'rdingizmi sira qilgan ishini?

Ko'rinish – kiyimday, tayoqday bo'lar,  
Jonsiz va aqlsiz o'ynamas ular. –

U ham bilmas: Tangri bermasa aql,  
O'rtada bo'lmaydi san'at va naql.

Tangri oqillarga bermasa yordam,  
Oqil ham ahmoqlik qilar dam-badam.

### ZULQARNAYN VA QOFTOG'I-QOFQOZ

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
4-jild, 518–521-betlardan.)

Zulqarnayn Qofqozga bostirib kirdi,  
Zumradday top-toza tog'larni ko'rdi.

Alp tog'lar dunyoni o'ragan edi,  
Shoh bunday tog'larni ko'rmagan edi.

– Sen, – dedi, – alp tog'san, huv tog'lar nadir?  
Aqlim mahobatdan hayron qoladir.

– Men – Qofqoz, – dedi tog', – ular ildizim,  
Go'zalman, o'xshashim yo'q va tengsizman.

Har yurtda bor menga tutash bir tog'liq,  
Dunyoning har yoni men bilan bog'liq.

Bir kentga tilasa Tangrim zilzila,  
Aytar, o'ynataman tomirim ila.

Qahrimdan u shahar qimirlay boshlar,  
Gohida osmonga sapchiydi toshlar.

Tangri: – Bas! – deganda, tinchir tomirim,  
Sokin ko'rinsam-da, ishda har yerim.

Malhamday sokinman, bir tashlasang ko'z,  
Oqil ham tinch, ammo aytar notinch so'z.

Tuman bossa kimning aql ko'zini,  
Qimirlatgan – bug', – der, – Yerning yuzini! –

Qoftog'idan chiqqach bu inju so'zlar,  
Zulqarnayn yana o'zicha so'zlar:

– Ey, so'zlar so'zlovchi Qofqoz, bahaybat,  
Sen menga Tangrining sifatin anglat!

Qoftog'i: – Yur! – dedi. – Ko'rsataman, bas!  
Uning sifatlari ta'rifga sig'mas!

Qalamga ham og'ir bunday vazifa,  
Uning xabarlari – cheksiz sahifa. –

Shunda Zulqarnayn Qoftog'iga der:  
– Tangrining hayratli ishin aytib ber!

– Ey shoh! – dedi Qofqoz. – Bunda uch yuz yil  
Yurgulik dara bor, chek-cheksiz manzil –

Tangri u darani to'latdi qor-la,  
Qortog' uzra qortog' turar viqor-la.

Qortog'larga yana yog'dirmoqda qor,  
Muzlab bitdi Yerning mag'ziga qadar.

Qor tog'lar ustiga qular qor tog'lar!  
Qay cheksiz ombordan kelar qor tog'lar?

Bilsang, shohim, shu joy bo'lmasa erdi,  
Do'zax harorati meni ham yerdi.

Tangri Yerni tutar muvozanatda,  
Yo'qsa dunyo yitar mangu zulmatda.

## **BIR ARABNING ITI OCHLIK DAN O'LGANI TO'G'RISIDA**

(«*Masnnaviy va sharhi*»,  
5-jild, 91–92-betlardan)

Bir it o'layotgan edi holsirab,  
Bir arab yig'lardi bu itga qarab.

Yomg'irday tinimsiz to'kardi ko'zyosh:  
– Voy sho'rim, – der edi,  
                             chayqab-chayqab bosh.

Bir gado der: – Menga qara-chi, adash,  
Kim uchun bu nola, bu nechuk yig'lash?

Arab der: – Bu – yaxshi itim benuqson  
Yo'lning o'rtasida berayotir jon.

Kunduzi ov tutar, zo'r ovchim edi,  
Tunda o'g'ri quvar, poylovchim edi.

Gado surishtirdi: – Kasal bo'ldimi?  
Yo birov urdimi, shundan o'ldimi?

– Yo'q, sho'rlik, ochlikdan o'ldi, – der arab,  
Zor-zor yig'lagancha itiga qarab.  
  
– Sabr qilki, sabr qilganga Xudo  
Zo'r ajr-u mukofot berar, – der gado.

Shundan so'ng so'radi: – Ey yaxshi odam,  
To'rvangda nima bor, liq-liq muncha ham?

– Bumi, – dedi arab, – nonim, ovqatim,  
Oz-ozdan yeb yursam – tanga quvvatim.

– Sen nechun o'shandan bir pay olmading,  
To'yg'azib, itingni saqlab qolmading?

Arab javob berdi ko'zin qilib lo'q:  
– Ja uncha insofim, muruvvatim yo'q.

Pulsizman. Yo'l uzoq. Nonsiz qular bosh.  
Naf bermas ikkala ko'zdan to'ksam yosh.

– Odam bo'lmay o'l-e, – der gado shu on, –  
Seningcha, ko'zyoshdan ustunroqmi non?

Ko'zyosh – qon, g'am ila suvday to'kilar,  
Non esa tuproqdan maydonga kelar.

Nahotki, shuni ham bilmasang, nodon,  
Bekor qon to'kishga arzimaydi non?!

Arabning borlig'in pastlatgan Iblis,  
Har bir ishi pastlik bo'lar shu bois.

## **ESHAK OXURIGA TUSHGAN JAYRON HIKOYASI**

(«Masnaviy va sharhi»,  
5-jild, 143–146 va 158–160-betlardan)

Ovchi, jayron tutdi bu gal ov kuni,  
Keltirib oxurga qamadi uni.

Oxurda eshaklar yotardi bo'kib,  
Jayron qochar edi har yonga hurkib.

Ovchi somon berdi ularga tunda,  
Eshaklar somonga yoprildi shunda...

Jayron esa burnin jiyirdi hayron,  
Yoqmadni somondan chiqqan chang-to'zon.

Mushk bilan to'lgandi xushbo'y kindigi,  
Yosh bilan namlandi qora kiprigi.

Yerdagi baliqday sakrar har taraf,  
Qo'shilganday edi mushk ila alaf.

Bir eshak g'iybatlab dedi: – Ha, sho'rlik,  
Shahzodami deyman, fe'li – bir turlik.

Boshqa biri derki mazaxlab kulib:  
– U sakrar ehtimol umidvor bo'lib –

Yugursa bir inju olar sovringa,  
Entikib yotibdi bechora shunga...

Kesatdi xirillab uchinchi eshak:  
– Unga sal nozikroq muomala kerak!

Bir eshak o'zini bilib oliy zot:  
– Ol, somondan ol, – deb qildi iltifot.

Boshini o'girib jayron dedi: – Yo'q!  
Nari tur, holsizman, mening qornim to'q!

– Ha, bildim, – der eshak, – sen noz qilyapsan,  
Yoki tiyilyapsan, yo oz bilyapsan...

Jayron dedi: – Yo‘q-yo‘q, seniki somon,  
Somon yeb, semirib yuraver omon.

Tiniq suv, o‘tloqlar – mening maskanim,  
Bog‘lar, o‘tzorlarda yayraydi tanim.

Meni bu oxurga keltirgan – taqdir,  
Ammo o‘zgararmi fe’l-atvor hech bir?!

Eshaklar ichra men nochorman, g‘arib,  
Terim eski, ammo qolmas o‘zgarib.

Men rayhon yer edim, lola va sumbul,  
Nozlanib yer edim, bermasdan ko‘ngul.

Eshak dedi: – Lof qil, lof qil bu yerda,  
Har qancha lof o‘tar begona elda.

Jayron der: – Dalil-ku kindigim mushki!  
Qani farq qilsangiz hidini koshki...

Sizlarning hid bilgich burningiz xomdir,  
Mushk hidi eshaklar uchun haromdir.

Hidlarsiz uchrasa yo‘lda tezaklar,  
Mushk hidin na bilsin sizday eshaklar!..

## **TEVA, HO‘KIZ VA QO‘CHQOR**

(«*Masnaviy va sharhi*»,  
6-jild, 377–380-betlardan)

Bir qo‘chqor, bir ho‘kiz hamda bir teva,  
Topdilar yo‘l aro bir bog‘lam beda.

Qo'chqor, ho'kiz bilan tevaga qarab:  
– Do'stlar, – dedi, – bizga ne'mat berdi Rabb.

Lekin bu ne'matni uch bo'lib yesak...  
Birimiz ham bunga to'ymaymiz beshak.

Qaysimizning qadim bo'lsa urug'i,  
Bedani u yesin... To'g'rimi, to'g'ri.

Chunki ulug'larni Hazrat Muhammad,  
Oldinga o'tkazish, deganlar, sunnat.

Har kim qay zamondan borligin aytsin,  
Kim ulug', bilaylik... Boshqalar qaytsin.

Men yashayman tarqab olis diyordan,  
Ismoilga qurbon bo'lgan qo'chqordan.

Ho'kiz esa: – Bir payt aytgandi onam:  
Ho'kiz-la yer surgan Hazrati Odam.

Odam Ato ekin ekkan, haydab yer,  
Men o'shal ho'kizdan tarqalganman, – der.

Bu so'zlar tevaning g'ashiga tegdi,  
Yerdagi bog'lamga boshini egdi.

Bo'ynin rostlab, o'tni yeya boshladi,  
Maza qilib yerkan, luqma tashladi:

– Mening bo'yim baland, jussam ham ulkan,  
Tarixim aytishga hojat bormikan?

Otasining joni, hey, siz erkalar,  
Qani, qay biringiz menga teng kelar?!

Men sizlardan kichik emasman aslo,  
Aqlim ham sizlardan ustun va a'lo.

Kim bilmaydi shuni, qani, menga deng:  
Baland osmon yoyiq yerdan ming bor keng.

Ko'kdagi kengliklar, ufqlar qayda,  
Yerdagi burchaklar, biqiqlar qayda?!





# Abdurahmon Jomiy

Sharqning ulug' mutafakkir shoiri Nuriddin Abdurahmon Jomiy 1414-yilda Jom viloyatida tug'ilib, 1492-yilda Hirotda vafot etgan. Otasi Nizomiddin Ahmad Jom viloyatining shayxul-islomi edi. Yosh Nuriddin maktab tahlilidan keyin, 11 yoshida Hirotdagi Dilkash madrasasida, keyin Nizomiya madrasasida tahsil oldi. Shu yillarda Abdurahmon Jomiy taxallusi bilan she'rlar yoza boshladи. 22 yoshida ikki madrasani (hozirgi til bilan aytsak: ikki universitetni) tugallagan shoir o'z bilimidan qanoatlanmay, uni yanada takomillashtirish uchun 1436-yilda Samarqandga kelib, Ulug'bek madrasasiga o'qishga kirdi va Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari falakiyot, riyoziyot, al-jabr, ya'ni astronomiya, geometriya, algebra, falsafa va tavhid ilmlarini o'rgandi. Qozizoda Rumiy kamgap va qotma bu yigitning benazir qobiliyati va ilmga tashnaligini ko'rib:

«Samarqand qad ko'targandan buyon Amudaryoning narigi yog'idan bizga o'qishga kelgan yoshlар orasida Jomiyday aqli, olijanob va topqir yigit bo'limgan edi», – degan ekan.

Madrasani bitirgandan keyin ham shoir Samarqandda yana bir necha yil yashadi. 1447-yilda Shohruh vafotidan keyin Ulug'bekning o'ldirilishi va o'g'lliarining halokatiga guvoh bo'ldi, Abu Said zamonasida olimlarning har yoqqa

sochilib ketishi, Ulug‘bek rasadxonasing buzilishi, mingminglarcha noyob kitoblar to‘plangan kutubxonaning talon-toroj qilinishi – bularning bari shoirning yuragini jarohatladi.

1451-yilda Jomiy Hirotga qaytdi. Ko‘p vaqtini Hirot markazida, keyinroq Xiyobon degan shaharchada o‘tkazdi. G‘azallari juda tez shuhrat qozonardi. Hirot shoirlari, olim va mashshoqlari, musavvir va tarixchilari Jomiy tevaragida yig‘ilishardi. Ammo o‘zi nihoyatda kamtar-kamsuqum edi.

O‘sha davrning atoqli tarixchisi Zayniddin Vosifiy o‘zining «Badoye’ ul-vaqoye» ya’ni «Nodir voqealar» kitobida keltirishcha, Seiston tarafdan Qozizoda (Qozizoda Rumiy emas)ismli bir olim Jomiyni ko‘rgani kelgan ekan. Jomiy qishin-yozin oddiy paxtalik chopon kiyib, belini dag‘al matodan qilingan belbog‘ bilan bog‘lab, boshiga oqto‘r do‘ppi kiyib yurardi. Jomiyni o‘zicha shohi ko‘ylak, parcha choponlarda tasavvur qilib yurgan Qozizoda, Jomiyni bu sodda kiyimda ko‘rib, unga: «Hoy befahm! Bor xo‘jayiningga ayt, Seistonlik Qozizoda keldi, de!» – deb buyurgan ekan...

1458–59-yillarda 17–18 yoshli Alisher Navoiy birinchi marta Jomiy bilan uchrashgan, deb taxmin qilinadi. Ammo Jomiy bilan Navoiy o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik 1469-yilda Xurosonda Husayn Boyqaro hokimiyatni o‘rnatalgandan keyin rivoj topdi. Bu do‘stlik bir umr davom etdi. Navoiy Jomiyni «nazm elining shohi» der edi. U haqda:

Bugun komil ul nav’ mafhum emas,

Burun bor ekan dog‘i ma’lum emas, – deb yozgan edi.

(Ya’ni:Hozir Jomiyday barkamol odam dunyoda yo‘q,

Avval ham bu kishidek ulug‘ zot bo‘lgani ma’lum emas.)

Jomiyning ijodiy merosi katta va rang-barangdir. O‘zi tomonidan 1490-yilda tuzilgan barcha asarlari to‘plamida 38 asar bor. Bu kulliyot tuzilgandan keyin mutafakkirning yana sakkiz asar yozgani ma’lum. Umuman Jomiy qalamiga mansub 46 asar mavjudligi aniqlangan.

Jomiy butun umri davomida uchta devon tuzdi:

1. «Fotihat ash-shabob» («Yoshlikning birinchi surasi»).

2. «Vositat al-iqd» («Marvarid o'rtasidagi dur»).
3. «Xotimat al-hayot» («Hayot xotimasi»).

Bu uch devon qasidalar (jami 53 ta), g'azallar (jami 1805 ta), ruboilyar (274 ta), qit'alar (136 ta), tarjibandlar (4 ta), tarkibbandlar (6 ta), masnaviyalar (8 ta) va ozgina murabba', muammo, bahri tavil va farddan iborat. Hammasi bo'lib 33278 satrdan iborat.

Jomiyning dostonlari «Haft avrang», ya'ni «Yetti toj» deb ataladi. Ular haqiqatan ham jahonshumul, toj desa arzigulik shoh asarlardir va shunday deb nomlanadi:

1. «Tuhfat ul-ahror», ya'ni «Hur insonlarga tortiq».
2. «Sabhai ul-abror», ya'ni «Yaxshilar tasbih».
3. «Yusuf va Zulayho».
4. «Layli va Majnun».
5. «Xiradnomai Iskandar», ya'ni «Iskandarning aql kitobi».
6. «Silsilat uz-zahab», ya'ni «Oltin zanjir».
7. «Salomon va Absol».

## **«FOTIHAT ASH-SHABOB» DEVONIDAN G'AZALLAR**

### **1**

Sen bilan uchrashib yura olmayman,  
Ammo uchrashmay ham tura olmayman.

Voz kechsam bo'ladi orzularimdan,  
Sendan voz kechishga ko'na olmayman.

Hajringda kul bo'lib yonishim mumkin,  
Seni sevaman, deb ayta olmayman.

Seni sarv deyman-u, duduqlanaman,  
Yo'l qo'ygan sahvimni ayta olmayman.

«Kelmasang mayliga, kutaman», deyman,  
Ammo chidolmayman, kuta olmayman.

Sen o'zing menga bir o'pich hadya qil,  
O'zim surlik bila o'pa olmayman.

Jomiyni sabrga o'rgatish mushkul,  
Men unga bunday dars bera olmayman.

**2**

Bir so'zim bor senga, kelur imondan:  
Sening vujudingni qurishgan jondan.

Sening tirik joning atir taratar,  
Sen kiftga bir bora ilgan chakmondan.

Holim nima bo'lar ko'rsam yelkangni –  
Libosingni ko'rib ayrildim jondan.

Gul nozik. Gul nozik – lek, imkon qadar,  
Sening nozikliging oshgan imkondan.

Men sening dovshingni eshitdim bir bor,  
Lek, bu ortiq bo'lди qo'shiq aytgandan.

Hamon dovshing yangrar qulqlarimda,  
Qora kunim oqdir naq o'shal ondan.

Jomiy ezgu so'zing eshitmadi hech,  
Kul bo'lib ajragan esa-da jondan.

**RUBOIYLAR**

**1**

Chaqnoq ko'zlariningda mo'ldirar jola,  
Qaynoq yuzlaringda o'tlanar lola.

Ey, Ollohnning siri! Yech ro'molingni –  
Zeblaring ko'zimga ayla havola.

2

Jala yomg'iriday yig'layman – ketsang,  
Ko'zyoshim silaman, kulaman – kelsang.  
Sevgim yosh, mangudir – o'lik yo tirik,  
Tizzamda kelaman, sal imo qilsang.

3

Yaxshilik tomiri tinmas hech qachon,  
Saxiy mevalarin etgaydir ehson.  
Kimdir sevar qalbdan – yaqinlarini,  
U esa hammaga do'st-u qadrdon.

4

Dedingki, kimdir u – yaxshidan yaxshi?  
Eshit, do'st, nima der vijdonim naqshi:  
Yaxshilar ichida birinchi yaxshi –  
O'z xalqin dardiga em bo'lgan kishi.

5

Junjiktar ma'naviy ko'rlar dunyosi,  
Anglab yetmas nadir hayot ma'nosi.  
Shoshar to'ldirmoqqa qornini tezroq,  
Tag'in elga sog'lik doim duosi.

6

Dehqon mehnati, bu – asosiy gapdir,  
Ter to'kar qish-u yoz dehqon, bu – haqdir.  
Agar sug'ormasa yerni u ter-la,  
Bizga balo, ochlik keltirar taqdir.

Gado yo'lovchiga dedi, silkib bosh:  
 «G'ayri til odam-la sirdoshsan, yondosh...»  
 «To'g'ri, men tojikman, u – turk, – dedi bu, –  
 Bizni imon tili aylagan qondosh».

Sen ilm yo'liga bosganda qadam,  
 Qo'rqbmas, vijdonan mehnat qil mudom.  
 Yo'qsa chuvalchangday bilanglab o'tib,  
 Ahmoq olim deya taratarsan nom.

Kunim hasrat bilan o'tdi-ya, og'ir,  
 Shom qorong'isida ezildi bag'ir.  
 Men hayotni on-on sovurdim bilmay,  
 Uni yeb bitkazdi, eh, yugur-yugur.

### SO'Z VA QALAM MAQTOVI

(«*Tuhfat ul-ahror*» –  
 «*Hur insonlarga tortiq*»dan)

So'zga bo'ysunadi hamisha qalam,  
 So'zdan tug'ilgan so'z – qalam o'zi ham.

O'lganlar so'ziga jon bag'ishlar so'z,  
 Sirlardan pardani olib tashlar so'z.

Eng yangroq qo'shiqlar so'z bilan tirik,  
 Jo'shqin so'zsiz qolsa, musiqa – o'lik.

So'zga musiqani qo'shsa qay bir zot,  
 Unga baxsh etadi zavq, yangi hayot.

«Tiriklik belgisi – nafas» deyarsan,  
Fikringni so‘z bilan isbot qilarsan.

Nafas – yuz, so‘z – ma’no, sen buni angla,  
Hayotni sevganning nafasin tingla.

So‘zlar – tugunlardir, yechilmas qurg‘ur,  
Ammo sen yech uni, ichi to‘la dur.

Harfni bura, qo‘rqma, bu bo‘lmas xato,  
Biron dur toparsan, durki bebah.

Yashirin go‘zallik birdan yarq etar;  
Sen uchun boshqacha ochilib ketar.

Shoir so‘z-la qalbni asir etadi,  
Ko‘k toqi so‘zlarga to‘lib ketadi.

So‘zga men oltindan olaman o‘rnak,  
Oltinning o‘ziga bermayman yurak.

Samoviy oltinga to‘lsin sof yurak,  
Qog‘ozga so‘z durrin uymoqlik kerak.

Sen shunday durlarga egasan, Jomiy,  
Izlama o‘zingga boylardan homiy.

Xasis oltinidan o‘zni chetga ol,  
Sen sadaf ichida bir dur bo‘lib qol.

**DILGIRLIK KASALIGA YO'LIQQAN  
ODAMNI ABU ALI IBN SINO QANDAY  
DAVOLAGANI HAQIDA**

(«*Tuhfat ul-ahror*» –  
«*Hur insonlarga tortiq*»dan)

Tibbiyot olamaro topganda shon,  
Bu Ali o'tgan davrda bir zamon,

Bir shaharda kun ko'ruvchi durri zot  
Topmadi dilgirlik dardidan najot:

«Voh, semirdim, munchalar to'ldim» deya,  
«Bir qaranglar, men ho'kiz bo'ldim» deya,

Qichqirardi: «Ey, kabobpaz qil kabob!»  
So'y meni, keltir pichoq, aylab shitob!»

«Ey odamlar, tez uzing tandin boshim,  
Yetkazinglar bir kabobpazga loshim!»

U ho'kizday betinim mo'lar edi,  
Elni qiy nab, bag'rini to'g'rар edi.

Qayrilib boqmas edi ovqatga hech,  
Dori ichmay, kirmay nasihatga hech.

Yordamin taklif qilishsa qanchalar,  
Ko'nmayin mo'lardi kunduz, kechalar.

Hamma lol: netmoq kerak, netmoq kerak?  
Non yedirmoq... bir balo etmoq kerak.

Bor tabiblar bir bitimga keldilar,  
Bu Aliga bordilar, arz qildilar.

«Tong-la kutsin! – Bu Ali berdi javob. –  
Mol so'yish qassob uchun ayni savob.

Aytingiz: qassob kelar erta sahar,  
Ko'nglini shod aylasin bu xush xabar».

Bu darakdan xastaning ko'ngli to'lib,  
Oldi tin u, qush kabi yengil bo'lib.

Erta tong-la Bu Ali kelganda tez  
Xastadan so'rди: «Qayoqda ul ho'kiz?»

Xasta bo'lsa muk tushib yotgan edi,  
«Ul ho'kizmi? Men ho'kizman! So'y!» dedi.

Beaqlga bir nazar tashlab hakim,  
Charxladi pichoqlarin, keldi yaqin.

So'ngra qassob singari ushlab uni,  
Ezg'ilab ko'rди soni-yu kiftini.

«Yo'q, buni so'ymam, – dedi Abu Ali, –  
Bu ho'kiz andak oriq, yog'siz hali.

Sal semirsin et bitib ham jir bitib,  
So'ng so'yib bergum uni qoyillatib».

Xastaning dilgirligi bitdi tamom,  
Oldiga keltirdilar har xil taom.

Yeb bitirdi hammasin lazzatlanib,  
Boqmadi xapdoriga nafratlanib.

Chin ho'kizday miqtı ham bo'ldi tezdan,  
Ma'nisiz aljishlari chiqdi esdan.

## **TUYA BILAN TULKI**

(«*Xiradnomai Iskandar*» –  
«*Iskandarning aql kitobi*»dan)

Bir qarigan tuya chanqab, holi tang  
Surgalardi daryo bo'yida arang.

Kelgan chog'i, unga o'ladigan kun,  
Boshi uzra izg'ir ko'pdan-ko'p quzg'un.

Terisining osti qoq suyak shundog' –  
Na jinday et qolgan, na-da jinday yog'.

Tepaliklar aro boqishar uni,  
Tegrada bo'rilar izg'ir har kuni.

Qurib bitgan belda o'rkachlari ham,  
Qismati shu ekan – ko'zlarida nam...

Bir kun ziyoratga keldi bir tulki.  
Dedi: – Ey, sahrolar g'ururi, ko'rki!

Sen axir tuyasan, bunday g'am yema,  
Arablar seni der «sahroda kema».

Nega sirting bunday tullagan, yara,  
Nega ozib ketding, holingga qara?

Sen axir bosmasding chumolini ham,  
Seni chumoliday kim ezdi, bo'tam?

Tuya der: «Men aytay, sen eshit holim,  
Qullikda ushlaydi meni bir zolim.

Xayolimga olsam ul yovuzni gar,  
Vujudim do'zaxda yonganday yonar.

Egam ortib kelar tuz konidan tuz –  
O'rkachlarim og'rir kecha-yu kunduz.

Bunday azoblarga kim chidar, qani?  
Burun teshigimdan sudrar u mani!

Yuk og'ir, irodam bo'lsa-da buyuk,  
Fil umurtqasin ham bukar bunday yuk!

Agar holsizlanib yiqlsam bexos,  
Qamchilab ketadi zaboniyga xos.

Tuz tushib qolganda jarohatimga,  
Chidab bo'lmas bu dard, bu holatimga.

Alamdan o'kirsam, solgancha vahshat,  
Quloq solmas bir zot, eshitmas qismat!»

Tulki der: «Voy, qalbim ezildi senga,  
Yo'qsa bunday ish qil – quloq sol menga:

Shahar ila o'sha tuz koni aro  
Oqib o'tadi-ku kichik bir daryo,

Chanqaganday kel-da, suvgaga tushib yot,  
Tuz erib ketganda, shartta tur azot.

Yengillashar yoking, yo'lga tush darhol –  
Shaharga kirarsan oson, bemalol!»

Tuya der: «Yasha-e, bormisan, oshnam –  
Shunday bir ayyorlik qilayin men ham...»

Ertasi sirtida tuzli yuk bilan  
Tuya suv bo'yida to'xtadi birdan.

Egasi tuyaning maqsadin anglab  
Shunday jazo turin oldi u tanlab:

Tuyadan tushirib oldi-da tuzni,  
Tuz o‘rniga ortdi gilam, kigizni.

Bunday razillikning farqiga yetmay,  
Tuya suvga yotdi, ortiga qaytmay.

Ammo turdi jiqlqa ho‘l bo‘lib tuki,  
Suvda og‘irlashdi o‘n bora yuki.

Jazirada keldi manzilga arang,  
Yaramas tulkini qarg‘ardi yalang.

### **BASHANG KIYINGAN O‘SMIR HAQIDA**

(«Xiradnomai Iskandar»dan)

Bir o‘smir bor edi boy hamda nomdor,  
Bir cholni ko‘rishni etdi ixtiyor.

Kiydi ipak ko‘ylak va zarbof kiyim,  
Kutib oldi uni keksa munajjim.

«Voy, muncha tovusday bashang bu o‘g‘lon?  
Balki, shahzodadir...» – o‘yladi mezbon.

Va to‘rga o‘tqazdi salomlar bilan,  
Siyaldi izzat-u ikromlar bilan.

Shunda o‘smir suhbat qulfini ochdi,  
So‘zamollik qilib, so‘zlarni sochdi.

Obqochdi gapni goh u yon, goh bu yon,  
Fikrin etolmadi so‘z bilan bayon.

Gaplari notekis, qo'pol, beo'xshov,  
Na ma'ni bor edi, na tanlov, qalov.

Faqat javrар edi til bidir-bidir,  
Qariya ko'nglidan o'tdi shu fikr:

«Uch so'zni ham bog'lab ayta olmasang,  
Suhbating ham bo'lgay quruq va berang.

Nodonlikda yo'qdir sening qiyosing –  
Buni yashirolmas bashang libosing.

Yo aqling so'zingdan ko'rinish tursin,  
To'ning zarlariday bilinib tursin.

Yo shohi, zarbofni almash jandaga,  
Zo'r libos yopishmas nodon bandaga».

## BIR QOZI TO'G'RISIDA

(«Xiradnomai Iskandar»dan)

Bir qozi bor edi haqgo'y va odil,  
Puli va mol-mulki yo'q edi har xil.

Yot ellarga ketdi izlab daromad,  
Bir shohga uchradi va keldi omad:

Uni adolatli inson deb bilib,  
Ishga oldi shahar qozisi qilib.

Qozi odil edi, chindan-da dono,  
Uning yo'lin to'sdi bitta dev ammo.

Ishin titkilardi, qilardi g'iybat,  
Qoralab, boshidan sochardi tuhmat.

Yolg'onga ishonib, g'azablandi shoh,  
Mulkin talang, deya yubordi sipoh.

Tortib oling pulin, uyin va bog'in,  
Ham buyurdi: kesing ikki qulog'in!

Boridan ayrildi aybsiz bechora,  
Shohning so'ng buyrug'in tinglab bu ora,

Dediki: «Mulkimni olsa olsin shoh,  
Ammo qulog'imda ne ekan gunoh?

Qulq olmaganman g'aznadan, billoh,  
Bu qulqni menga bergen-ku Olloh!

Ne orttirgan bo'lsam, kelib bu elga,  
Nohaq bo'lsam olsin, kerakmas menga.

Ammo shoh o'zi ham odillik etsin:  
O'zim bilan kelgan o'zim-la ketsin!»

Shohning qahri so'ndi haq gapdan butkul –  
G'arib bechoraga tiladi oq yo'l.

Dushmanlar to'ridan qutulib ketdi,  
Qanday bo'lsa shunday yurtiga yetdi.

## KIRCHI XOTIN VA QARQARA

(«Silsilat uz-zahab» – «Oltin zanjir»dan)

Bag'dod yaqinida shovullar to'lqin,  
Sohilda yashardi bir kirchi xotin.

Kir olib tushardi har kun Dajlaga,  
Kir yuvib, qarardi u oilaga.

Sohilda kelarkan suvlarga qarab,  
Aylola uchradi cho'ng bir qarqara.

Tumshug'i uzundan ham uzun erdi,  
Daryo chuvalchangin titkilab yerdi.

Topgan ulushiga qilib qanoat,  
Boshqa hech narsaga qilmasdi diqqat.

Bir kun parvoz qildi burgut havoda,  
Qanotlari kuchli haddan ziyoda.

Qancha-qancha qushga bordan xavf solib,  
Bitta kabutarni o'ljaga olib,

Totib, boshqalarga qoldirdi tirik,  
Saxovatda unga yo'q edi sherik.

Saxovat ahlida odat bor shunday:  
Ovqatni yeb qo'ymas hech vaqt qoldirmay.

Burgutga ko'z tashlab sodda qarqara,  
Tumshug'in tebratdi zavqdan uch karra.

Der: «Menda burgutdan katta-ku kelbat,  
Men ham qush-push yesam bo'lmas-ku uyat?

Bunday yashamoqni endi bas qilay,  
Men axir chuvalchang tutaman tokay?

Qush, hayvon ovlashga o'tsam men sekin,  
Asta chuvalchangdan kechishim mumkin.

O'zim ham to'yaman, ham berib in'om,  
Saxovatli qush deb chiqaraman nom».

Burgut mardligiga taqlidan biroz,  
O'zin jasur tutib, u qildi parvoz.

Ammo bulutlardan chiqdi shu fursat  
Shafqatsiz, qudratli bir yovuz kalxat.

Boshida aylandi bamisli burgut –  
O'lim va'da qildi dahshatli chovut.

Urди qarqarani taqdir beayov,  
Tushdi loy sohilga sho'rlik bo'sh-bayov.

Loylarga qorishdi qanoti, shaxti,  
Kulfatga aylandi qarqara baxti.

«Tuzoqsiz ov tutdim! Qanday mo'jiza! –  
Dedi kirchi xotin, – sho'rva bu bizga!»

Kirni, qarqarani ko'tarib ketdi,  
G'izillab bir zumda uyiga yetdi.

«Bu qanday qush?» deya so'radi kimdir,  
Kirchi xotin dedi: «Bu achchiq taqdir:

Qarqara burgutday uchmoqchi bo'ldi,  
Qanoatsiz umr kosasi to'ldi.

Qushlarni ovlashga tikildi ko'zi,  
Men kabi ovchiga ov bo'ldi o'zi».

## **HASAD VA HASADGO'YLARGA TANBIH**

(«*Silsilat uz-zahab*»dan)

To'g'ri odamlar ko'p ko'ngilni olar,  
Ba'zilar hasaddan ko'r bo'lib qolar.

Tug‘ma ko‘r odamga hamdardlik joiz,  
Hasadgo‘y baxtsizdir yana yuz foiz.

Hasad azob berar jon achchig‘iday,  
Hasad aql uchun ko‘z og‘rig‘iday.

Hasadgo‘yda aql bo‘lmaydi o‘tkir,  
Ko‘rni esa ko‘zsiz aylaydi butkul.

Hasadgo‘y o‘t ichra tortgaydir ozor,  
Hasad uyg‘otgan zot yashar baxtiyor.

Ammo o‘t o‘tinni yeganday hadeb,  
Hasad ham odamni bitiradi yeb.

Oydindan baxtlidir qishloqlar, kentlar,  
Oyga qarab hurar hasadgo‘y itlar.

Kun nuridan yashnar butun tevarak,  
Kun nuridan ammo ko‘rdir shapalak.

Kimki yorqin oyga tuplasa agar,  
Oyda charaqlagan yulduzga magar,

O‘zining yuzlari tupukli bo‘lar,  
Kuchanib puflasa, yorilib o‘lar.

## SHE’R MAQTOVI

(«*Silsilat uz-zahab*»dan)

She’r – aql qushining parvozi demak,  
She’r – mag‘rur mangulik ovozi demak.

Sen qush holiga boq o‘ylagan chog‘da:  
U yo o‘tda – kabob, yo kezar bog‘da.

She'r agar porlasa jamoli bilan,  
She'rxonni lol qilar kamoli bilan.

Manfaat o'tida to'lg'ansa butun,  
She'rxonga baxsh etar – kuyindi, tutun.

She'rda bo'lsa agar tama, iltimos,  
G'ijinamiz, bizni ezadi xolos.

So'z agar hayotiy, haqqoniy bo'lsa,  
Ne ajab qalb zavq-u quvonchga to'lsa.

Shoir shuhrat topar barcha ellarda,  
Nomi yangrar ko'kda, yuksak yo'llarda.

Yolg'onga o'ralgan bo'lsa gar misra,  
Ma'nosi yoqimsiz, so'zlari xira, –

Lo'ttivoz adashar soqollar aro –  
Parvozi mo'ylovga yetolmas, hatto.

Satr tiniq yuzda xolday bo'ladi,  
Qum emas, baldoqda la'lday bo'ladi.

Buloq yashirmaydi o'z durlarini,  
Darhol ko'rsatadi u nurlarini.

Sof suvning kir suvdan katta farqi bor –  
Loyqa suvning tagi ko'rinmas zinhor,

Undan dur axtarmoq senga befoyda,  
Turma, bunday buloq qaynagan joyda!

So'zing loyqa bo'lar, ma'no noayon,  
Hech kimga yoqmaydi qorong'i bayon...

Bu haqda qiynalib, uzoq o'ylarsan,  
Chin she'rning mazmunin so'ngroq anglarsan.

## **ULUG‘ SHOIRLAR XOTIRASIGA**

(«*Silsilat uz-zahab»*dan)

Eh, sho'rlik shoirlar to'kdilar terni,  
Qasidada kuylab hukmdorlarni.

O'zni kiritdilar vaqtlar qatiga,  
Dunyo hayratdadir ular xatiga.

Tuproqdadadir ko'pdan shoirlar tani,  
Ammo hali tirik ular bitgani.

Rudakiy dur tizib ustalik bilan,  
Somoni uyiga keltirdi ko'p sha'n.

Jonajon xalqiga yo'ldosh edi u,  
Qilolmasdi boshqa maqsadni orzu.

Charchamay shuncha dur tizdiki buyuk,  
To'rt yuzta tuyaga bo'lar ular yuk.

U tuyada ketdi fonyi dunyodan,  
Xazinalariga merosxo'r – odam.

She'rlariki tirik, o'zi ham omon,  
Nomi nazdimizda mash'aldir hamon...

Mohir Unsuriyni berdi so'ng hayot,  
Nodir unsur edi, favqulodda zot.

Dur edi to'rt savqi tabiiysi ham,  
She'rlarin tinglardi jamiki olam.

Maqtovlar mushki-la to'latib satrin,  
Kuyladi davrining yuksalgan qasrin.

Quladi u qasr, yutdi zulumat, –  
Uning kitoblari Yerda salomat...

Xoqoniy yashadi, undagi daho  
Shirvonshohlar sha'nin etoldi baqo.

Qasidalar yozib go'zal, ustuvor,  
Mukofotga oldi ming-minglab dinor.

Xalqlar dinirlarni eslarmi hozir?  
Ko'zimizda qoldi u chizgan tasvir.

Sa'diy ham yaratib ketdi bir hayot,  
U, shohni sharaflab bitdiki bayot,

Shoh-u qasrlardan qudratliroqdir,  
Sa'diy Gulistonda mangu chiroqdir...

Sen ham tur o'rningdan, ko'zlarining och,  
Muncha ko'p o'tirding ko'rday noiloj?!

Qara: vayronadir bugun qasrlar,  
G'azab kishanida ketdi amirlar.

Qasr-u saroylardan qolmadi nishon,  
Hofizlar yozuvi tirikdir hamon.

Qani u saroylar, poydevor, tomlar?  
Qoldi faqat shoir qurgan ehromlar.

Nima bor ustuvor nasr-u nazmdan?  
Yer yo'lida eng zo'r so'zdir qadimdan.

So‘z yuvib ketadi har qanday zangni,  
So‘z uzib tashlaydi temir kishanni.

To‘g‘ri, ishimizda ko‘mdir muammo,  
Adashmog‘ing mumkin buram yo‘l aro.

Ammo aqli so‘z aytsang daf’atan,  
Muammoni oson yecha olarsan.

**BIR BADAVIY O‘Z O‘G‘ILLARIGA  
VAHSHIYLARNING, QULLARIGA  
ITOATGO‘Y HAYVONLARNING  
OTINI QO‘YGANI VA  
UNIKIGA KELGAN MEHMON  
TO‘G‘RISIDA**

(«*Salomon va Absol» dostonidan*)

Haqiqat ko‘yida yurgan bir inson,  
Badaviy uyida bo‘lganda mehmon,

Uning o‘g‘illari, ko‘rsaki, bari  
Sher deb atalardi va yoki Bo‘ri.

Xizmatchi ahliga Qo‘y yoki Qo‘zi,  
Deya nom beribdi badaviy o‘zi.

Musofir dediki: «Ey, ulug‘ rais,  
Bunday nom berishga ne bo‘ldi bois?»

Arab der: «Xo‘p, aytay omillarimni,  
Er qilib o‘stirdim o‘g‘illarimni.

Ular yovlarimni etishar yakson,  
Xizmatchilar esa tuzar dasturxon.

Er degan bo'riday yo sherdai bo'lar,  
Har vaqt yengib yashar yo sherdai o'lar.

Qo'yday bo'lmos'i shart ammo xizmatkor,  
Bermasligi kerak hech kimga ozor».

## **SHAPKO'R QARG'A VA QARQARA**

(«*Salomon va Absol»dan*)

Xiralashib qolib qarg'aning ko'zi,  
Sohilda yashardi ko'pdan bir o'zi.

Dengizning sho'r suvin ichardi faqat,  
Sho'r suvga o'rganib qoldi oqibat.

Ko'kdan bir ko'k tomchi tushganday, qara,  
Bir kuni oldiga tushdi qarqara.

Qarg'aga achinib ketdi qarqara –  
Qanday yutar ekan sho'r suvni qarg'a?

«Agar jirkamasang mendan, – dedi u, –  
Chanqog'ing qondiray, berib chuchuk suv.

Zaxiraga doim bo'qog'imda men  
Suv olib yuraman, kel, ichib ko'r sen».

«Do'stim, – deya javob qaytardi qarg'a, –  
Sho'r suvga men o'zim o'rgandim zo'rg'a.

Chanqog'im qondirsam chuchuk suv bilan,  
So'ng qanday yashayman achchiq suv bilan?

Sen ketsang, men shapko'r holimda g'amnok,  
Changab bo'laman-ku bu yerda halok!

Mayli, kunim o'tsin sho'rtang suv ila  
Achchiq alamlarni ko'rgandan ko'ra».

**TIQILINCH SHAHARDA O'ZINI  
YO'QOTIB QO'YMASLIK UCHUN  
OYOG'IGA NOSQOVOQ  
BOG'LAB OLGAN KURD HIKOYATI**

(«*Salomon va Absol»dan*)

Qay shamol uchirib, olar-sotarga  
Bir kurd tog'dan tushib kelmish shaharga.

Ko'rsa, butun shahar g'ovur-g'uvurdir,  
G'ij-g'ij odam qaynar, hammayoq sur-sur.

Ayqash-uyqash yangrar xilma-xil tillar,  
Hovliqar, turtinar jonsarak ellar.

Har do'kon yonida tiqilinch, shovqin,  
Borib bo'lmas tujor yoniga yaqin.

Olomonni yorib o'tishga yo'l yo'q,  
Har kim turtib ketar, ko'zin qilib lo'q.

Kurd sho'rlik bu holdan boshi bo'ldi gang,  
O'rtaliqdan chiqdi bir chetga arang.

Mudroq bosib keldi uning ko'ziga,  
Dam bermoqchi bo'ldi o'zi·o'ziga.

Lekin o'ylab qoldi: «Men bunda yotsam,  
Hech gapmas o'zimni zumda yo'qotsam.

Yo'q, agar ustimga ilsam bir nishon,  
O'zimni topishim bo'ladi oson», —

Deb nazar tashladi nosqovog'iga,  
Qovoqni bog'ladi tez oyog'iga.

Shundan keyingina yotdi tinchlanib:  
Topadi o'zini qovoqdan tanib!

Bir mazaxchi payqab kurdning bu fikrin,  
Yoniga cho'zildi topganday o'rinn.

Chang solib sho'rlikning nosqovog'iga,  
Uxladi, bog'lagach o'z oyog'iga.

Kurd turib qarasa, bo'shdir oyog'i,  
Boshqa bir oyoqqa bog'liq qovog'i.

Gangib qichqirdiki: «Tur, hey beimon!  
Bu ne hol? Sen meni aylading hayron!

Bu senmi, yo menmi— tushuntir mundoq,  
Men bo'lsam, ne sabab senda nosqovoq?

Bu agar sen bo'lsang, men qani? Men kim?  
Holim nima bo'lar endi, xudoyim!»

Yo rabbim, o'sha kurd menman benavo,  
U kurd mendan baland, menda ko'p xato.

Menga ro'shnolik ber, fazling et in'om,  
Adashsam rahm qil, ber lutf-u kalom.

Qalbim g'uborlardan ayla musaffo,  
Dardli yuraklarga bo'layin shifo.

Jom bo'lib<sup>1</sup> do'stlarim hasratin quvay,  
Butun borlig'idan gardlarin yuvay.

Shunday karomat-la yo'g'rilsa ta'bim,  
Mangu tayanch bo'lay senga, e rabbim.

**XOJASINING BOYLIGI TUFAYLI  
QAHATCHILIKDAN OMON QOLGAN  
LOQAYD VA MAG'RUR QUL  
HIKOYATI**

(«Salomon va Absol»dan)

Misr duchor bo'ldi qahat bir yilga,  
Odamlar o'zini otardi Nilga.

Chunki non topishning yo'li yo'q edi,  
Odamlar jismini to'lqinlar yedi.

Jonning bahosida edi burda non,  
Non uchun odamlar berar edi jon.

Shu yili bir fozil ko'rdi bir qulni,  
Tamanno kibr-la bosardi yo'lni.

Bahor quyoshiday, yuzida quvonch,  
Yangi chiqqan oyday, ko'rkgiga ishonch.

Qorni to'q, egni but, mag'rur va xurram,  
Shohday, viqor bilan tashlardi qadam.

---

<sup>1</sup> *Jom bo'lib...* – Bu yerda Jomiy so'z o'yini qilgan: bir tomonidan, qadimgi Eron hukmdori, donishmandligi, saxovatli bazmlari bilan nom qozongan Jom (Jamshid)ga, ikkinchi tomonidan, chinakam jom(qadah)ga, uchinchidan, o'zi tug'ilgan joyning shifobaxshligiga, to'rtinchidan, o'z taxallusiga ishora qilgan. (Tarjimon.)

Fozil dedi: «Ey, qul, atrofga qara,  
Qahatchilik qalbing etmasmi yara?

Odamlar ochlikdan o'layotir xor,  
Nima bu g'oz yurish, gerdayish, viqor?»

Qul: «Saxiy xojam bor, – dedi, – qoshimda,  
Kamim yo'q oshimda, engil-boshimda.

Ombori to'la non, dasturxoni boy,  
Qahatchilik nima – mo'l bo'lgach bug'doy?!

Shu sabab g'amim yo'q, shu sabab shodman,  
Men qahat zahridan butkul ozodman».

**GANJA SHOHI FAZLUN IBN AL-FAZL  
SALTANATI HAQIDA QASIDALAR  
YOZIB HADYALAR KO'PLIGIDAN  
QOCHGAN SHOIR QATRON  
BORASIDA HIKOYAT**

(«*Salomon va Absol»dan)*

So'zlarining devini bukardi Qatron<sup>1</sup>,  
Bir so'zi ichida yashnardi jahon.

Ganjada shoh edi Fazlun ibn Fazl<sup>2</sup>,  
Qatron qalb zavqlarin unga etdi azl.

Fazlun jo'mard edi, dengizday saxiy,  
In'om-la shoirni aylardi g'aniy.

---

<sup>1</sup> Qatron – Tabriz yaqinidagi Shodibod degan joyda taxminan 1010 va 1013-yillar oralig'ida tug'ilgan, 80-yillarning oxirlarida vafot etgan mohir qasidago'y shoir.

<sup>2</sup> Fazlun ibn al-Fazl – Ganja hukmdori, taxtga 1075-yilda o'tirgan.

Qadrin ko'tarardi kun o'tgan sayin,  
Ko'p oltin va kumush berib atayin.

Qachon bir qasida o'qisa Qatron,  
Ikki bora ko'proq berardi ehson.

Qatron sevinmasdi ehsondan zinhor,  
Mo'l sovg'a olishdan qilar edi or.

Qochdi, shoh ko'nglini g'ashlab ketdi u,  
Uyi va mol-mulkin tashlab ketdi u.

Fazlun anglab yetdi: bu qanday araz –  
Xizmat qilar edi Qatron beg'araz.

Mukofotdan yuksak edi u inson,  
Shoh netsin? Burchi-ku, aylash armug'on!

Munchalar lof urding, ey, hazrat Jomiy,  
Bularni eshitsa aytmasmi omiy:

Na Fazlun singari shoh bordir hozir,  
Na Qatron singari beg'araz shoir.



**JUR'ATLI QADAM**

Sheir Miraziz A'zamning bir so'zi ko'nglimga o'rashib qolgan:

– Aldagani bola yaxshi, deydilar. Lekin adabiyotda bolani aldab bo'lmaydi. She'ring maromiga yetmasa, bola qalbini yoritmasa, bekorga urinma, ovora bo'lasan, shoir!

Darhaqiqat, katta yoshdagilarga she'r yozib shuhrat topgan ne-ne ijodkorlar bolalarning ko'nglini topolmaganlar va barchalari barobar bu ishning qiyinligini e'tirof etadilar.

Miraziz A'zamga ana shu noyob iste'dod nasib etgan. Yaqin ellik yilki, shoirning nim tabassumli, qochirimli, zamirida hikmat va ibrat yotgan satrlarini nafaqat bolalar, balki kattalar ham sevib o'qiydilar.

Yaqinda Miraziz A'zam bir turkum g'azallar yozganini, devon tuzish niyati borligini aytib qoldi. Qiziqib ularni muallifdan so'rab oldim va o'qib chiqdim.

Ijod shuning uchun ham ijodki, Navoiy so'zi bilan aytsa, tarxi toza va beandoza bo'ladi, o'zgalarni takror qilmaydi. Ayniqsa, yangi asrda ming turli yo'nalishlar paydo bo'ldi, eski qoliqlar sindirib tashlandi.

Shu ma'noda Miraziz A'zam g'azallari mumtoz she'riyatimiz an'analarini davom ettiradi, desak to'g'ri bo'imas. Mazmunda ham, shaklda ham, vaznlarda ham g'azal talabidan, aruz qoidalaridan chekinishlar bor. Ko'pgina she'rlarning mazmun mohiyati goh bahsli, goh mubham tuyiladi. Bu yutuqmi yo kamchilikmi? Har qanday yangi uslubning ham ilk qadamlari yengil va ravon bo'lavermaydi, har qanday tarxi tozalik va beandozalik ham osonlik bilan qalbga yo'l topavermaydi.

Yangilikka intilgan shoir hamisha tavakkal qiladi. O'zining ko'p yillik mehnati bilan topgan obro'sini «gartkam» deb qimorga tashlaydi. Nazardan qolsam nima bo'ladi, deb cho'chib o'tirmaydi.

Miraziz A'zam «Devon»ni kitob qilib chiqarsa ana shunday mardlik qilgan bo'ladi. Mardlik, jur'at esa hamisha tahsinga sazovor ishdir.

*Erkin VOHIDOV,*  
O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri  
15.07.2009-y.

**M U N D A R I J A**

<b>Boshlama</b> .....	5
<b>DEVON</b>	
<b>G'AZALLAR</b> .....	12
«Alif» (o, a) tovshin to'g'rilikdan to'xtatma! .....	12
«Be» (b) tovshining belini baqvat qil! .....	19
«Pe» (p) tovshining payini past qilma! .....	27
«Te» (t) tovshining ta'sirin teran qil! .....	34
«Se» (s) tovshin sanoda sobit qil! .....	40
«Jim» (j) tovshining jonini jazbli qil! .....	44
«Chim» (ch) tovshining chaylasin cho'g'lantir! .....	48
«He» (h) tovshi hofizasini haqchi qil! .....	53
«Xe» (x) tovshin xazon qilma, xalil qil! .....	57
«Dol» (d) tovshini daryo qil, doston qil! .....	60
«Zol» (z) tovshining zavqini zuhr qil! .....	64
«Re» (r) tovshining rasmini rangli qil! .....	68
«Ze» (z) tovshini zakoli, zokir qil! .....	78
«Sin» (s) tovshining sayrini sirli qil! .....	87
«Shin» (sh) tovshining shonini sharif qil! .....	92
«Sod» (s) harfining saflarin sodiq qil! .....	96
«Zod» (z) tovshini ziyoli qil! .....	99
«To'» (t) tovshining tavrini ta'bli qil! .....	103
«Zo'» (z) tovshining zalvorin zilday qil! .....	107
«Ayn» (',') tovshining adlini ayon qil! .....	111
«G'ayn» (g') tovushli g'azallarni g'aybli qil! .....	115
«Fe» (f) tovshining fikratin fasih qil! .....	120
«Qof» (q) tovshining qalbiga qanot ber! .....	124
«Kof» (k) tovshining ko'nglini ko'kday qil! .....	130
«G» tovshining gullarin gulzor et! .....	136
«Lom» (l) tovshini laparday latif qil! .....	141
«Mim» (m) tovshi mavjlarini masal qil! .....	145

«Nun» (n) tovshini nurlantir, nodir qil!	153
«Ha» (h) tovshin humoyun qil, hushlug‘ qil!	162
«Vov» (v, u) tovshini vafoli, valiy qil!	171
«Yo» (y, i) tovshi yozlarini yorlaqa!	175
<b>MURABBA'LAR</b>	183
<b>MUXAMMASLAR</b>	191
<b>Lutfiy</b> (1366–1465)	
g'azaliga muxammas	191
<b>Nasimiy</b> (1369–1417)	
g'azaliga muxammaslar	192
<b>Navoiy</b> (1441–1501)	
g'azallariga muxammaslar	194
<b>Bobur</b> (1483–1530)	
g'azaliga muxammaslar	206
<b>Fuzuliy</b> (1498–1556)	
g'azaliga muxammaslar	208
<b>Mashrab</b> (1657–1711)	
g'azaliga muxammaslar	211
<b>Muqimiy</b> (1850–1903)	
g'azaliga muxammas	213
<b>Almaiyl</b> (1852–1891)	
g'azaliga muxammas	214
<b>QIT'ALAR</b>	216
<b>RUBOIYLAR</b>	220
<b>TUYUQLAR</b>	228
<b>TO'RT BUYUK QOYA ETAGIDA (TARJIMALAR)</b>	235
<b>Farididdin Attor</b>	236
<b>Nizomiy Ganjaviy</b>	260
<b>Jaloliddin Rumiy</b>	302
<b>Abdurahmon Jomiy</b>	336
<i>Jur'atli qadam.</i> Erkin Vohidov	363

**MIRAZIZ A'ZAM**

**KUZGI YAPROQLAR**

DEVON



*Muharrirlar: Muhiddin Omon, Shoyim Bo'tayev  
Rassom Rustam Zufarov  
Rasmlar muharriri Shuhrat Mirfayozov  
Texnik muharrir Tatyana Smirnova  
Musahhih Dono To'ychiyeva  
Kompyuterda sahifalovchi Akmal Sulaymonov*

IB № 4926

Nashr. lits. № 154. 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 14.09.2010.

Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset bosma. Journal garniturasи. 21,39 shartli b.t.

18,2 nashr b.t. Adadi 1000 nusxada. Shartnoma 54–2010.

Buyurtma № 304. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzil: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)**

**E-mail: [iptdgulom@sarkor.uz](mailto:iptdgulom@sarkor.uz)**

**A'zam, Miraziz.**

Kuzgi yaproqlar: devon / M. A'zam; so'ng so'z E. Vohidovniki. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 368 b.

Taniqli shoir Miraziz A'zamning ushbu devoniga uning turli yillarda yozgan g'azallari, muxammaslari, ruboiylari, tuyuqlari, shuningdek, Sharqning daho shoirlari ijodidan tarjimalari kiritildi.

**BBK 84 (50')6**